


# KOMIL SİNDAROV

# TERGOVCHI



XXI ASR O'ZBEK  
DETEKTIVI

# O'G'IRLANGAN BOLALIK

KOMIL SINDAROV

XXI ASR O'ZBEK  
DETEKTIVI

O'GIRLANGAN  
BOLALIK

Detektiv qissa

TOSHKENT  
«O'ZBEKİSTON»  
2021

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(50')7

S 58

Sindarov, Komil

S 58 O'g'irlangan bolalik [Matn]: detektiv qissa / Komil Sindarov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 296 b.

ISBN 978-9943-7145-5-7

Prokuratura bo'lim boshlig'i bo'lib ishlayotgan, o'z kasbining fidoyisi, bir oilaning mehribon otasi sirli ravishda yo'qoladi. Asar ushbu voqealar bilan boshlanadi. Uning kelgusi taqdiri qanday kechadi? Sirli ravishda g'oyib bo'lgan mas'ul xodimni yo'qotishda gumon qilingan shaxslarni aniqlash, tergov qilish jarayoni, oilasi, qarindosh-urug'larning chekkan jafolari, tahlikali o'tkazgan kunlari asarda o'ziga xos yo'nalishda hikoya qilinadi.

Aziz kitobxon! Asarda tasvirlangan qahramonlarning ruhiy holatlari, alamli kechinmalari, quvonch-u shodliklariga sherik bo'lasiz, degan umiddamiz.

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(50')7

© K. Sindarov, 2021

© «O'zbekiston» NMIU, 2021

ISBN 978-9943-7145-5-7

## **SO'ZBOSHI O'RNIDA**

**Muhtaram o'quvchi!**

Sizlar bilan yana g'oyibona uchrashib turganimdan mammunman. Navbatdagi – oltinchi detektiv asarimni sizning hukmingizga havola etmoqdaman.

Asar butun dunyo, xususan, mamlakatimiz uchun og'ir sinovli damda – koronavirus pandemiyasi munosabati bilan e'lon qilingan karantin kunlari yozildi. Bu bilan mamlakatimizda ko'rinnmas baloga qarshi kurashda muhim o'rinn tutayotgan «Uyda qoling», «Kitob mutolaa qiling» kabi ta-shabbuslarga o'z hissamizni qo'shishni istadik.

Mazkur asar ham muqaddam chop etilgan «Qimmatga tushgan xato yoki qasoskor qalb isyonii» (2013), «Temuriylar kutubxonasining siri» (2015), «Kechikkan qasos» (2017), «Amirlikning oltin taxi izidan» (2018), «Tungi qotillik» (2019) detektiv asarlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Bosh qahramonlar – prokuratura tergovchilar Sanjarbek va Faxriddin. Bu gal Sanjarbek hamkasblari bilan bir qishloqda sodir etilgan davomli qotillikni tergov qilishga qo'l uradi. Asarda Faxriddin Karimovichning boshiba og'ir kulfat tushganligi bois, ustozining maslahatidan ham bebahra qolgan tergovchining mashaqqatli mehnati, qat'iyati, topqir va o'z kasbiga fidoyiligi,adolat yo'lida tolmasligi hikoya qilinadi.

Shuni e'tirof etish kerakki, kitob real voqelikka asoslangan. Faqat biz o'sha voqealarga badiiy bo'yoq va badiiyestetik ruh berib, sayqallashga harakat qildik. Prokuratura tergovchilar, ichki ishlar xodimlarining zahmatli mehnatlariidan aholini xabardor qilish uarning huquqiy madaniyatini

yuksaltirish bilan birga mamlakatimizda 2010-yillarda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy vaziyatni ham boricha ko'rsatishga, jamiyatda to'planib qolgan muammolarni qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatishga harakat qildik. Zero, xalqjimizda «Yomonni ko'rmay, yaxshining qadriga yetib bo'lmaydi», degan naql bor. O'zining yuksak salohiyati bilan dunyo ahlini lol qoldirishda davom etayotgan, fidoyi, xalqparvar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Yangi O'zbekistonni eng rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo'shish sari ildam odimlab borar ekanmiz, yurtimizning har bir ongli fuqarosi, ayniqsa, yoshlar, bugungi omon-omon zamonlar qadriga ko'proq yetishi uchun o'sha mash'um kunlar haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim deb hisobladik. Zero, Abdulla Qodiriy aytganidek, «Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir». Yaqin o'tmishti o'rganishni ham xosiyatli bildik.

Asarni yozish va nashrga tayyorlashda o'zlarining beminнат maslahatlari, fikr-mulohazalarini ayamagan prokuratora faxriysi, kriminalistika va jinoyatlarni tergov qilish uslubi fani bo'yicha ko'plab qo'llanma va risolalar muallifi Mamasali Isomiddinovga, uzoq yillar ichki ishlar organlari-da tergovchi sifatida faoliyat yuritgan, yuridik fanlari nomzodi Bexzod Mo'minovga, muhlislarimiz Bojxona instituti talabasi Gulida Olimjonovaga, O'zNNTMA kengashi bosh mutaxassisи Zuhra Abdullayevaga, jurnalistlar Xusan Nishonov va Arslon Eshmurodovlarga cheksiz minnatdorlik bildirishni joiz topdik.

Asar yuzasidan qimmatli taklif va mushohadalaringizni elektron manzilim ([sindarov60@gmail.com](mailto:sindarov60@gmail.com)) hamda feysbukdagи sahifamga (komilsindarov) yo'llashingizni so'rayman.

*Ehtirom ila yuridik fanlar doktori, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi Komil Sindarov*

Sanjarbek yashin urganday seskanib, uyg'onib ketdi. U yoq-bu yoqqa alanglab, o'z uyida ekanligiga amin bo'lgach, «Xayriyat-e, tush ekan!» dedi pichirlab. Yonida beozorgina mast uyquda yotgan yosdiqdoshini uyg'otib yubormaslik uchun oyoq uchida yurib, narigi xonaga o'tdi. Paypaslanib chiroqni yoqdi. Soatga qaradi: to'rtdan besh daqiqa o'tibdi. Oromkursiga o'tirib, ko'rgan tushini xayolida jonlantirishga urindi: tovba, shunaqayam bema'ni tush bo'ladimi? Faxriddin Karimovich bilan qandaydir baland qoyada turganmish. Bu qanaqa cho'qqi, u yerda nima qilib yuribdi – noma'lum. Xuddi alpinistlarga o'xshab bir-biriga arqon bilan ulanganmish. Bir payt ustozining oyog'i toyib, pastlikka qulabdi... Yaxshiyamki, arqonga osilib qolibdi. Sanjarbek jonholatda ikki-uch quloch pastlikda osilib turgan ustozini tortib olishga harakat qilayotganmish. «Ustoz, mahkamroq tuting, sizni tortib chiqaraman», – deb baqiribdi u. Faxriddin amallab o'zini o'nglab bolib, arqonga yopishibdi. U nuqlu «Sanjarbek, iltimos, qo'yib yuborma, iltimos, meni chiqarib ol!!! Yashashni xohlayman!!!» dermish. Sanjarbek oyog'ini xarsingga tirab, kuchi boricha tirshanglab, ustozini qutqarishga harakat qilayotganmish... Ammo qancha chiranasin – ustozini tepaga tortib olishning uddasidan chiqolmayotganmish... Har ikkalasining qo'llari tolib, barmoqlari tilinib ketgan bo'lsa-da, arqonni qo'yib yubormayotganmish... Yukning og'irligidan beli uzilib ketayozgan, ustoziga qo'shilib o'zi ham jarlikka qu lab tushishiga bir bahya qolayotgan bo'lsa-da, Sanjarbek jon-jahdi bilan chirinishda davom etayotganmish... Faxridin qutulib qolishdan umidini uzib, «Arqonni qo'yib yubor, bo'lmasa seniyam tortib ketaman! Arqonni yechib tashla!» –

deb baqiribdi. SanjARBek ko‘zlaridan yosh oqizib, «Yo‘q, yo‘q! Qo‘yib yubormayman, sizni chiqarib olaman!» deya chirinishda davom etayotganmish. «Iltimos, arqonni qo‘yib yubor, baribir tortib ololmaysan!» – qichqiribdi ustoz. Sanjar uning gapiga parvo qilmay terlab-pishib, jon talvasasida, arqonni beliga o‘ragancha mahkam tortib tur-ganmish... Shu payt Faxriddin qo‘njidan pichoq chiqarib, arqonni kesib yuboribdi va tubsiz jarlikka qulabdi. «Faxrid-din aka!!! Nima qilib qo‘ydingiz!!! Faxriddin aka!!!»

Bu qandoq tush bo‘ldi? Ustoz jar yoqasida turibdimikan? Shu tobda SanjARBekning xayoliga Bahrom Sadirovichning «senga betgachoparlikni o‘rgatgan Faxriddin Karimovich janoblariga ishonayapsanmi?.. Ishonganing kim bo‘lsayam, yaqinda dumi tugiladi!» degan gaplari keldi.

Ustoz tinchmikan? Omonmikan? Qo‘ng‘iroqlashganla-  
riga ham uch-to‘rt kun bo‘ldi. O‘shanda so‘raganda «ham-masi yaxshi» degandilar. Ustoz, asosan, uning ishlari bilan qiziqqandi, takror-takror ehtiyyot bo‘lishni tayinlagandi. Ammo o‘zida biror muammo borligini bildirmagandi-ku. Ovozi ohangidan kayfiyati oldingiday emasligini darrov payqagandi. Har doimgi hazilomuz gap-so‘zlar bo‘lmagandi. O‘shanda bunga unchalik ahamiyat bermagandi...

Yo‘q, yo‘q! Ko‘ngil dushman deydilar. Faxriddin Karimovich halol, to‘g‘riso‘z, ishdan boshqa narsani bilmaydi-gan, odamlarga ezgulik ulashishdan charchamaydigan, fidoyi inson bo‘lsa, kim uni yomonotliq qilishi, peshonasiga tamg‘a yopishtirishi mumkin... Boshqa tomondan bu qutur-gan itlar, zaharli ilonlarning qo‘lidan har balo, har qanday qabihlik, razillik kelishini ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu zamonda yaxshini yomonga, oqni qoraga, pokni nopokka chiqarishdan osoni bormikan?!

Sanjarning uyqusi qochib, kitob javonidan «Tush ta’-birlari» kitobini topib, varaqlashga tushdi. «Jannat»... «ja-noza»... «jarlik» – tushda jarlik ko‘rish yaxshilikka ta’bir

qilinmaydi, xavf-xatardan ogohlantirish, sevishganlar ay-  
rilishi, yomon do'st, qo'rquv, tuhmat, afsuslanish, o'lim  
bilan tugaydigan janjal, mol-davlatini yo'qotish, xavfli  
yong'inga ishora...

Hafsalasi pir bo'ldi. Kitobni yopib, o'zicha pichirladi:  
«Tushim teskari kelgan bo'lsin-da!» U oyoq uchida yurib,  
joyiga cho'zilar ekan, uyg'onishi bilan ustoziga qo'ng'iroq  
qilishni ko'ngliga tugdi...

Sanjarbek barvaqt turib, odatiga ko'ra yarim soat jis-  
moniy tarbiya bilan mashg'ul bo'ldi. So'ng qo'l telefonini  
olib, Faxriddin Karimovichning raqamini terdi. Go'shakni  
hech kim ko'tarmadi. Yana ikki marta raqamni qaytadan  
terdi. Javob bo'lmadi. «Balki yuvinayotgandir, balki telefo-  
nini ovozsiz rejimdan chiqarish yodidan chiqqandir» degan  
xayolga bordi va keyinroq -- ishga borgach, qo'ng'iroq qi-  
lishni o'ylab qo'ydi.

Shu vaqt ichida farzandlarini maktabga, bog'chaga ku-  
zatgan Maftuna dasturxonni o'ziga xos nozik did bilan be-  
zatib, to'rasini kutib turardi:

– Assalomu alaykum, adasi, xayrli tong, yaxshi dam  
oldingizmi?

– Rahmat, bolalar ketishdimi?

– Ketishdi, – dedi Maftuna kosadagi qaynoq sutni eri-  
ning oldiga qo'yar ekan, – kecha aytish yodimdan chiqqan  
ekan, Muslimangizning bo'yisi cho'zilib, kiyimlari torlik qi-  
lib qolgan. Sandalchasi ham sig'may qolibdi. Shunga bu-  
gun vaqtinuz bo'lsa...

– Bugun oylik berishadi, tushlikda yonimizdag'i do'kon-  
ga kirib chiqaman.

Maftuna «To'ng'ichingizga ham biror narsa qo'shib  
olarsiz, tag'in o'ksinib o'tirmas» demoqchi bo'ldi-yu,  
tur mush o'rtog'ining kayfiyati unchalik yaxshi emasligini  
fahmlab, sukut saqlashni ma'qul bildi. «O'zidan bilib biror  
narsa olar-da», deb o'ylab qo'ydi.

Noxush tush ta'siridan qutulolmagan SanjARBek nari dan beri ishtahasiz tamaddi qilib, turishga shaylandi. Bir xayol tushini xotiniga aytib, ko'nglini bo'shatib ham ol moqchi bo'ldi. Ammo onasining «yomon tushni birovga gapirish bexosiyat bo'ladi, yaxshisi, tushni suvga aytgan ma'qul», degan o'giti yodiga tushib, fikridan qaytdi.

SanjARBek xonasiga kirishi bilan bir necha bor ustozining qo'l telefoniga qo'ng'iroq qildi. Natija bo'limgach, xizmat telefonidan ustozining ishxonasi raqamini terdi. Go'shakni kotib yigit ko'tardi:

— Assalomu alaykum, eshitaman.

— Jasurjon, yaxshimisiz? Men Bosh prokuraturadan tergovchi Sanjar Rahmonovman. Negadir Faxriddin Karimovichning telefoniga tusholmay turibman, ishdamilar?

— U kishi... yo'q edilar...

— Qayerdalar, qachon qo'ng'iroq qilsam bo'ladi?

— Bilmadim... Hech narsa deyolmayman. Kechirasiz, oldimda odamlar bor edi, — deya kotib gapni muxtasar qilib, go'shakni joyiga qo'ydi.

Yigitning tutruqsiz, noaniq javobi, talmovsirashi SanjARBekka yoqmadi. Ichiga g'ulg'ula tushdi, halovati yo'qoldi. Oyoq-qo'lini titroq bosib, joyidan turolmay qoldi. Nima qilish kerak? Bu yerda bir gap borga o'xshaydi! Nahot ko'rGAN tushi rost bo'lsa! Yo'q, yo'q, vahima ko'tarishga asos yo'q! Balki majlisdadir. Balki, betob bo'lib, ishga chiqolmay qolgandir. Unda anovi kotib nega telba-teskari gapirdi? Yoki tanimadimikan? Yo'q, o'zini tanishtirdi-ku! Har safar «Sanjar aka» deya tavoze bilan gaplashardi-ku! Balki shunchaki ishdan ketgandir. Shunga bu bolaning gap so'zi o'zgarib qolgandir...

Bir zumda SanjARBek xayolotning ming bir ko'chasiga kirib chiqdi. Uning miyasida «vahimalar qo'shini» bir taraf, ularni inkor etuvchi tasavvurlar qo'shini ikkinchi taraf ayovsiz «jang-u jadal»ga kirishgandi. Sohib qanchalik ado-

latli bo‘lishga, inkor etuvchi hislarga yon bosishga harakat qilmasin, «jang»da vahimalar «qo‘shini» ustun kelayotganday edi...

Tergovchi soatiga bir qarab, qog‘oz-qalamini olib, Bosh prokuror o‘rribosari huzuriga shoshildi. Tik turgancha telefon murvatini burab turgan yigit Sanjarkbekni ko‘rib, go‘shakni joyiga qo‘ydi:

– Sanjar aka, assalomu alaykum, sizga qo‘ng‘iroq qilib turgandim, shef so‘ragandilar, kiravering.

Tergovchi kotibga minnatdorchilik bildirib, ichkariga kirdi.

– Assalomu alaykum, Tohir aka, – Sanjarkbeck podadan oldin chang chiqarmaslik maqsadida bosiqroq bo‘lishga harakat qildi, – so‘ragan ekansiz?

– Vaalaykum assalom, keling, o‘tiring, – joy ko‘rsatdi rahbar o‘rnidan qo‘zg‘almasdan.

– Sanjar tergovchi emasmi? – rahbarning yuz qiyofasidan qandaydir noxushlik ro‘y bergenini payqadi.

– Balki o‘zingiz ham eshitgandirsiz... – Tohir G‘ofurovich mungli, alamli ovozda gap boshladi, – kecha tunda Faxriddin Karimovichni... qamoqqa olishdi...

– Qamoqqa... Kim qamoqqa oladi? Qanday qilib? Nega? Nimaga? Axir... – Sanjarning tili kalimaga kelmay qoldi, ustidan sovuq suv quyulganday a’zoyi badani qaltrib ketdi.

– Kim bo‘lardi, anovi muttahamlar-da! – deb yelkasiga ishora qildi Tohir G‘ofurovich, – viloyat xavfsizlik xizmati korrupsiya boshqarmasida Qodir To‘rayev degan bemazasi bor. Yodingizda bo‘lsa, uning xurmacha qiliqlari haqida oldin ham sizga aytgandim. Naq Xudodan qaytgan, bezori! Ancha paytdan beri ta‘qib qilib yurishgan ekan... Nima, Faxriddin sizga aytmaganmidi?

– Faxriddin aka bilan gaplashganimga uch-to‘rt kun bo‘ldi. Hech narsa demagandi-ku!

– Sizni tashvishga solishni istamagan. Men bilan maslahatlashib turgandi. Necha marta aytdim-a, – prokuror o‘rribosari past ovozda, deyarli pichirlab gapida davom etdi, – shu itlar bilan teng bo‘lma, deb o‘jarlik qildi. Aytganidan qaytmadi. Oqimga qarshi suzishdan cho‘chimadi. Mana oqibati!

– Nima ayb qo‘yishayapti? – so‘radi SanjARBek titrab-qaltirab.

– 210 ni qo‘yib o‘tirishibdi<sup>1</sup>. MXX qaysidir tuman prokuraturasi tergovchisini qamagan va undan go‘yoki Faxrid-dinga pora bergenligi haqida ko‘rsatma olishgan.

– Tohir aka, siz shu gaplarga ishonasizmi? Axir Faxrid-din Karimovich... Kristalday toza... Pok...

– Bilaman, bilaman! Faxriddinni hammadan ko‘ra men yaxshi bilaman, toza, halol bola, – rahbar yana ovozini pasaytirdi, – ammo anovi ochofatlar uchun bunaqa prokurorning keragi yo‘q. Ularga ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar, ga-rang, qayoqqa yetaklasa ketaveradigan qo‘ylar, manqurtlar kerak...

– «Tepela»... kechirasiz, pora beruvchi kim ckan?

– Kim bo‘lardi, o‘zlarining qasamxo‘r shotirlaridan biri-da! Birovga tuhmat qilishdan cho‘chimay qo‘ydi, bu ablahlar!

– Nahotki, kimsan, viloyat prokurorining o‘rribosari tuhmat qurboni bo‘lib o‘tirsa! Unda oddiy odamlar, tadbirkorlar nima qilsin, tushini kimga aytsin?!

– Bu ablahlar uchun na hokim, na prokuror, na sud, na militsiyaning bir chaqalik o‘rnini yo‘q. Yoqmay qolsa, xohlagan odamini qamoqqa tiqadi! Ammo Faxriddinni qamay olmasa kerak, deb o‘ylagandim. Nari borsa, ishdan bo‘shatar, deb orqayin bo‘lib qoldim-da!

---

<sup>1</sup> Jinoyat kodeksining «Pora olish» deb nomlangan 210-moddasi nazarda tutilmoxda.

– Tushunmay qoldim, Faxriddin akam kimning arpasini xom o'rgan ekan? Ishi boshidan qolsin, qamab nima qilardi?! – Sanjar hamon g'azab otidan tusholmayotgandi.

– Arpasini qanday o'rganini bilmadim-u, lekin ularning kirdikorlariga ko'z yummaganligi, qing'ir ishlariga xalaqit qilgani aniq. Ular bir necha marta bu ishlarga burningni tiqma, deb ogohlantirgan.

– Qanaqa ish ekan, shunchalikka boradigan? – Sanjarkbek hamon o'ziga kelolmay titrardi.

– Hammasi Afg'onistondan narkotik moddalar olib o'tuvchi jinoiy guruohni qo'lga olishdan boshlangan. Bu Qodirga yoqmagan. Ishni yopdi-yopdi qilishni talab qilgan. Faxriddin uning bu talabini rad etgan va jinoyatchilarni qamashga erishgan. Shu-shu Qodir to'nini teskari kiyib olgan. Tap tortmasdan viloyat prokurori o'rribosariga «seni qamatmasam otimni boshqa qo'yaman!» – deb o'shqirgan. Faxriddin ham bo'sh kelmasdan «Osmon qo'lingda bo'lsa, tashlab yubor!» degan. Men Faxriddinga «hoy bola, ko'zingga qara, bu yaramasning qo'lidan har balo keladi, ehtiyyot bo'l, murosa-yu madora yo'lini tanla» deb ko'p ayt-dim. U esa «qing'ir ishga qo'l urmasam, qonunni buzmasam, qo'lidan nima kelardi», deb orqayin bo'ldi bu bolasi tushmagur...

– Tohir G'ofurovich, endi nima qilamiz? – bolalarday jovdiradi Sanjarkbek.

– Qo'limizdan nimayam kelardi! – rahbar chuqr uff tortdi.

– Qo'limizni qovushtirib, qarab o'tiraveramizmi? – Sanjar noma'qul so'zlab qo'yganini anglab, gapini to'g'rilashga harakat qildi, – Bosh prokuror aralashsa... balki...

– Xabari bor, ertalab yana kirdim, – o'rribosar ovozini pasaytirdi, – qo'limizdan nima kelardi, deya yelkasini qisadi. Bilasiz, u kishi juda ehtiyyotkor, qatiqniyam ho'plab ichadi, o'ziga gard yuqtirgisi kelmaydi.

– Faxriddin Karimovichning toza, halol odam ekanligini biladi-ku, nahot Bosh prokuror o‘z xodimini bir muttahamning tuhmatidan asrab qololmasa! – tutoqib ketdi Sanjar, – prokuraturaning o‘rni qayerda qoldi?

– Ey bolam-a, huddi osmondan tushganday gapi rasiz-a! – dedi Tohir G‘ofurovich o‘rnidan turib, – prokuratorada pozitsiya qoliptimi! «Qo‘sni»larning «kurator» degan mishiqli kep qolsa, xuddi Aflatun kelganday Bosh prokurorning o‘zi to mashinasigacha kuzatib tushsa... Poyiga patak bo‘lib tursa... Boshqalar nima qilsin! Hammaning jonini op qo‘ygan. Prokuror ham, sud ham, militsiya ham shu bemazalarning malayiga aylanib bo‘ldi! Chizgan chizig‘idan chiqolmay qoldi! Dardimizni kimga aytamiz! Siz yordam deysiz... Birovga yordam qiladigan holimiz qoldimi? Ishonsangiz, men – Bosh prokuror o‘rinbosari mana shu la’nati kresloda ignaning ustida o‘tirganday o‘tiraman. Qayerdan, qachon, qanaqa falokat kelishini bilmaysan! Kun sanab vaqt o‘tkazasan! Shuncha yil ishlab, qarigan chog‘imda sharmanda bo‘lib qolishdan qo‘rqaman... Ey, padariga ming la’nat shu ishinijam! O‘z ixtiyorining bilan tashlab ham ketolmaysan!..

– Unda nima qilsak bo‘ladi, Tohir aka? Faxriddin aka ning biz bilan sizdan boshqa kimi bor?

– «Qo‘sni»larning orasida ham imon-e’tiqodli, halol insonlar ko‘p, – bosiqlik bilan dedi rahbar, – men bittasi bilan gaplashib ko‘ray, hech bo‘limganda, vaziyatni yengil-lashtirishga harakat qilamiz. Qodir o‘lgur «ShR»ning odami emish. Ikkalasini bir teshikka... haligiday qiladiganlardan deyishadi. Hech kimni mirlamay, karillashi shundan...

– Men nima qilay, Tohir aka? – rahbarning «yengil-lashtirishga harakat qilamiz» degan gapi ko‘nglida salgina umid uyg‘otganday bo‘ldi.

– Siz birinchi navbatda Faxriddinning ayolidan xabar oling. Eshitgan bo‘lsa, kelin bechoraning ahvoli nima kech-

di ekan? Baribir chidab turolmasa kerak. «Termizga boram» deyishi tabiiy. Kerak bo‘lsa, qo‘silib Termizga olib boring. O‘zingiz ko‘rinib yurmang. Kelinni erining oldiga kiritishga harakat qiling. Men viloyat prokuroriga tayinlab qo‘yaman, hech bo‘lmaganda, tergovchining kabinetida uchrashuv tashkil qilishga yordam beradi. Vaziyatni bilinglar. Balki sizga, menga biror gapi bordir... Kelinga tayinlang, Faxriddin unchalik tushkunlikka tushmasin, o‘zini ehtiyyot qilsin, sog‘lig‘ini asrasin! Sabr qilsin! Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘. Bu kunlar ham o‘tib ketar. Umidini uzmasin! Bedavo dard, bevaqt o‘limdan Yaratganning o‘zi saqlasin. Boshqasiga bir iloj topilar... Bu ham Xudoning bir imtihoni. «Alloh suygan bandalariga sinnov beradi», deydilar-ku!

— Tushunarli, — Sanjarbek o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Rahbarning nasihatlari uni ham biroz tinchlantirganday, dardiga malham bo‘lganday bo‘ldi...

— Ammo Sanjarjon bolam, juda ehtiyyot bo‘ling, — dedi rahbar o‘zgacha bir mehribonlik bilan, — anov iskovuchlar hid olmasin! Ayni paytda sizgayam ortiqcha mash-mashaning keragi yo‘q. Iloji bo‘lsa, taksida ketinglar. Yo‘qligingizni bildirmay turaman.

Sanjarbek rahbar bilan unsizgina xayrlashib, qabulxonadan chiqdi. Oyoq ostidan Bahrom Sadirovich chiqib qolmasligi uchun tez-tez odimlab, tashqariga shoshildi. Yon cho‘ntagidan qo‘l telefonini olib, qaradi. «Faxriddin Karimovich uy» deb yozilgan raqamdan besh marta qo‘ng‘iroq bo‘lganligini ko‘rib, yuragi shuv etib ketdi, xayolidan «eshitibdi-da» degan o‘y o‘tdi. Mashinasiga o‘tirib, boyagi raqamni terdi:

— Assalomu alaykum, yanga, yaxshimisiz?  
— Sanjarjon, assalomu alaykum... Akangizni... Akan-gizni... Qamab... — Naziraning piqillab yig‘layotgani esbitildi.

— Xabarim bor... Xabarim bor, yanga... Hozir sizlarni-kiga ketayapman... O'n daqiqada yetib boraman!

Sanjarbek yo'lda ketarkan, o'zi shunday tushkun holatda o'zganing ko'nglini qanday ko'tarish, musibat domiga cho'kkani mushtipar ayolga qanday taskin berishni o'yildari: «Nima deydi? Bu shunchaki anglashilmovchilik, tezda hammasi joyiga tushadi, ustoz oilasi bag'riga qaytadi, desinmi? Yo chorasi ko'rayapmiz, Tohir G'ofurovichning shaxsan o'zi shug'ullanayapti, tezda anglashilmovchilik barham topadi, desinmi? Aldasinmi? Ayol bechorani yolg'onidakam umidvor qilsinmi? Aslida na u, na prokuratura rahbariyati haqiqatni qaror toptirish, aybsiz insonni qamoqdan chiqarish, adolatni tiklash uchun hech narsa qilolmayapti-ku! Prokuratura tizimida shuncha yil halol mehnat qilgan, jonkuyar, fidoyi xodimning haqsizlik, tuhmat botqog'iga botib borayotganini tomoshabin bo'lib kuzatib o'tirishdan boshqa hech ish qo'limizdan kelmaydi, notavonmiz, prokuror emas, qo'g'irchoqmiz, hamma haq-huquq, inon-ixtiyor anov kasofatlarda, deb qanday aytsin! «Shunday halol, pokiza, imonli insonni nimaga qamashdi, aybi nima?» desa, nima deb javob qaytaradi?

Shu o'y-xayollar bilan manzilga yetib kelgan Sanjarbek mashinasini besh qavatlari uyning oldida qoldirib, ikkinchi qavatga ko'tarildi. Ostonada uni Nazira kutib oldi:

— Sanjarbek, keldingizmi? — Ayolning ko'zlarini jiqla yosh edi:

— Bu qanday ko'rgilik, uka? Faxriddin akamni... Nega qamashadi? Tavba qildim! Prokurorniyam qamaydimi? Siz biror narsani bilasizmi?

— Yanga, ko'p vahima qilmay turaylik, balki bu bir anglashilmovchilikdir, — Sanjarbek o'zi ishonib-ishonmay oldindan o'ylab qo'ygan yupanch so'zlarini ishga soldi, — bilasiz, ustoz hech qachon qonunni buzimagan, qing'ir ishga qo'l urmagan!

- Unda nega qamashadi? Shunchalikka borishadimi?
  - Balki birortasi tuhmat qilgandir? Birortasi ko‘rolmaslikdan uyushtirgandir?
    - Ilohim uyushtirmay uyiga o‘t tushsin! Bo‘hton qilganlarning yuzini teskari qilsin! – dedi Nazira yig‘idan qizarib ketgan ko‘zini ro‘molining uchi bilan arta turib.
    - Yanga, sizga bu xabarni kim yetkazdi? Ustoz qo‘ng‘iroq qildilarmi? – qiziqdi tergovchi.
    - Yo‘q, akangiz bilan kecha kechqurun gaplashgandim. Hech narsa demagandi. Ertalab bolalarni maktabga kuzatib, o‘zim ishga ketmoqchi bo‘lib turganimda qo‘ng‘iroq bo‘lib qoldi. Ko‘tarsam, bir yigit «Opa, men Termizdanman, Faxriddin akani kecha qamab qo‘yishdi», dedi. Boshimdan muzday suv quyilganday, o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. «Kimsan, nimaga qamaydi?» deyish ham esimga kelmabdi...
  - Raqami telefoningiz xotirasida saqlanib qolganadir? – so‘radi Sanjarbek tergovchiligiga borib.
  - Yo‘q, raqami berkitilgan chiqdi... Endi nima qilamiz, ukajon? – Nazira najot ko‘zi bilan hamsuhbatiga qaradi.
  - Opajon, bir iloji topilar. Tohir G‘ofurovich, qolaversa Bosh prokurorning shaxsan o‘zi shug‘ullanayapti, Xudo xohlasa, ustoz chiqib ketadi, – dedi Sanjarbek yolg‘on gapirayotganidan xijolat chekib.
  - Ishqilib chiqib ketarmikan, uka? – ayolning ko‘zlarida umid uchqunladi, – Alloh shifosini ham o‘zi bersinda! Borlaringizga shukur, ukajon, borlaringizga shukur! Yaxshiyam, baxtimizga sizlar bor ekansizlar...
- Noo‘rin hamd, asossiz maqtovdan Sanjarbekning yuragi siqildi, nima deyishga so‘z topolmay, ko‘zini olib qochdi. Ammo shu tobda bir xokisor insonni tinchlantirish, eri uchun jonini ham berishga tayyor turgan ayolni yupatish uchun shundan boshqa chorasi yo‘qligini o‘ylab, o‘zini «oqlash»ga harakat qildi.

- Sanjarjon, men bolalarni tog‘amnikida qoldirib, Termizga ketmoqchiydim...
- Men ham siz bilan boraman.
- Ishingiz-chi?
- Ey-y, ish bir gap bo‘lar, qochib ketmas! Tohir G‘ofurovichdan javob so‘radim. Birga ketamiz, ilohi omin, yo‘limiz oq, safarimiz bexatar bo‘lsin!
- Ilahi omin, Faxriddin akamning mushkullari oson bo‘lib, bolalari bag‘riga qaytib kelsin! Ko‘rmaganday bo‘lib ketsin!

Duoga qo‘l ochib, yuz silashdi. «Sizni ko‘chada kutib turaman», deya Sanjarkbek pastga tushib ketdi. Nazira tog‘asining xotiniga qo‘ng‘iroq qilib, eri Termizga chaqirib qolganini aytib, bolalar mакtabdan qaytgach, ko‘z-qulog bo‘lib turishini tayinladi. Apil-tapil kiyinib, tashqariga otildi...

Quyosh usfingga bosh qo‘yganda ular tushgan taksi Termiz shahriga kirib keldi. Manzilga yaqinlashar ekan, Sanjarkbek ishni nimadan boshlashni, kimga uchrashishni, qanday yo‘l tutishni tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazib kelardi: hali erta, prokuraturada ish qaynab yotibdi. Kech tushishini kutish kerak. Biror xoliroq joyda to‘xtab, choy-poy ichib olish mumkin. Tergovchi Ramazon Husanovni o‘sha yerga chaqirib, vaziyatga oydinlik kiritib olsa yomon bo‘lmasdi...

- Aka, qayoqqa qarab hayday? – so‘radi shofyor.
- Bizni biror xoliroq joydagagi oshxonaga tashlab qo‘ysangiz, tamaddi qilib olardik, oshqozonam piyozning po‘stlog‘i bo‘lib ketdi-ku! – dedi tergovchi qornini siypalab.
- Ukajon, akangizning yoniga boraversak bo‘lmaydimi? Choy ichish bo‘lsa, qochmas, – dedi Nazira soddilik bilan.
- Yanga, gap choya emas, prokuraturadagi do‘stlarni chaqirib, oldin vaziyatni bilsak, degandim. Keyin viloyat prokuroriga kiramiz.

Nazira «xo‘p» deganday bosh irg‘ab qo‘ydi. Ammo Bosh prokuratura tergovchisining vaziyatni bilish uchun bunaqa panalab turishi yuragidagi hadikni oshirganday, ahvol u o‘ylagandan ko‘ra murakkabroq ekanligini anglatganday bo‘ldi. SanjARBek sal chetroqqa o‘tib, telefonda kim bilandir ancha gaplashdi. So‘ng qaytib kelib, taomga bu-yurtma berdi. Yoshgina ofitsiant yigit bir pasta dasturxonni to‘ldirib tashladi...

Yarim soat o‘tar-o‘tmas, SanjARBek aytgan odam yetib keldi. Hamkasblar eski qadrdonlarday quchoqlashib ko‘rishdi.

– Bu kishi RamAZonjon, muqaddam bir jinoyat ishini birligida tergov qilganmiz, – mehmonni tanishtirdi SanjARBek. So‘ng do‘stiga qarab: Nazira opa – Faxriddin Karimovichning turmush o‘rtog‘i.

– Assalomu alaykum, yanga, yaxshi yetib keldingizlar-mi? – RamAZon qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, iliq so‘rashdi.

– Rahmat, o‘zlarizingiz omonmisizlar? Ukajon, nima bo‘ldi o‘zi, hech narsani tushunmay qoldik, – ayol chidab turolmadi.

– Bizam hayronmiz, yetti uxbab tushingga kirmaydigan ishlar bo‘layapti. Odamning ishongisi kelmaydi...

– Faxriddin akamga nima ayb qo‘yishayapti?

– Bundan bir oycha oldin, – RamAZon atrofga olazarak alanglab olgach, deyarli shivirlab gapida davom etdi, – viloyat xavfsizlik xizmati Qumqo‘rg‘on tuman prokuraturasi tergovchisini qamagandi. Aytishlaricha, o‘sha yigit «Faxriddin akaga o‘tgan yili 1000 dollar pora bergaman», deb ko‘rsatma bergenmish. Hozir anovi tergovchini qo‘yib yuborishgan. Kecha uni prokuraturada ko‘rib qoldim. «Nega unaqa qilding, tuhmatdan qo‘rqmaysanmi?» desam, bezrayib: «nima qilay, bor gapni aytdim-da», dedi. Lekin ko‘zimga tik qaray olmay qochib qoldi. Uni Faxriddin akaga qarshi ko‘rsatma berishga majburlashganf aniq,

«ko'rsatma bersang, seni chiqarib yuboramiz» deb shart qo'yishgan...

— Hozir Faxriddin akam qayerda, — so'radi Nazira, — ko'rsam bo'ladimi?

— Yanga, bu kishini men ahvolni bilish uchun chiqgandim, — hamkasbining o'rniga javob qildi Sanjarbek, — uchrashish masalasini viloyat prokuroridan iltimos qilamiz.

— Unda tezroq viloyat prokuraturasiga boraylik, ukajon!

— Boramiz, yangajon, boramiz! Hozir siz o'tira turing, biz Ramazon bilan ayrim narsalarni kelishib olaylik, — dedi Sanjarbek kasbdoshini chetga tortib.

Tergovchilar ko'chaga chiqib, biroz gaplashib turdilar. So'ng Ramazon mashinasiga o'tirib, ketdi. Sanjarbek ayolning yoniga kelib, tinchlantrishga urindi:

— Hozir ishxonasiga borib, qo'ng'iroq qiladi. Xudo xohlasa, bugun ustozni ko'rasiz...

— Aytganingiz kelsin, ukajon. Alloh ishimizni o'ng, zo'rovonlarning yuzini teskari qilsin, ilyo!

— Aytganingiz kelsin! Yanga, qani kabobdan oling, hech narsa yemabsiz-ku, — dedi Sanjarbek dasturxonga ishora qilib.

Chamasi, biror soatlardan so'ng Ramazon qo'ng'iroq qilib, viloyat prokurori uni xonasida kutayotganini, ularni olib kelish uchun mashina yuborganini xabar qildi.

Prokuratura binosi kirish joyida mehmonlarni yigirma-yigirma ikki yoshlardagi oriqqina, uzun bo'yli yigit qarshi oldi va to'g'ri prokurorning qabulxonasiga boshlab bordi. Bir muddat kutib turishga to'g'ri keldi. Ichkarida prokurorning kim bilandir baland ovozda gaplashib turgani uzuq-yuluq eshitilib turardi. Ovoz tingach, qo'ng'iroq chalindi va yordamchi mehmonlarni prokuror huzuriga boshladi.

Assalomu alaykum, SanjARBek, yaxshimisiz? – oq-quvadan kelgan, o'rta bo'yli, sochlariga birda-yarim oq oralagan, kiygan kiyimi yarashib turgan prokuror o'midan turib, mehmonlarni iliq qarshiladi. – Yaxshi yetib keldin-gizlarmi? Marhamat, o'tiringlar.

– Dilshod OMONovich, o'zingiz omonmisiz? Yangi joylarga ko'nikib qoldingizmi? Uydagilar...

Allohga shukur...

– Bu kishi Faxriddin Karimovichning ayollari – Nazi-ra opa, – tanishtirdi SanjARBek.

– Kelin, siz yaxshimisiz? Bolalar qalay?

– Alhamdulilloh, o'zlarining yaxshimisizlar?

– Hammasi yaxshi deyishgayam til bormaydi, kelinjon.

Har kuni bir g'alva. Hozir Tohir G'ofurovichga axborot berib turgandim. Bu yog'i yetmay turganday, bugun yana bitta xodimimizni qo'lga olishibdi. Nima emish, tug'ilgan kundi da bir do'kondor sinfdoshi qo'y olib borib berganmish. Na daliliy ashyo bor, na guvoh! Oldin tadbirkorni tekshirishgan. Uncha-muncha xatosini topib, «agar kimga nima bergenningni tan olsang, ishingni yopti-yopti qilamiz, aks holda, qamalasan», deganmish. Ey-y-y, padariga ming la'nat! Hammasi jonga tegib ketdi! Ishlashga qo'yishmaydi-ya!

Najot istab kelgan mehmonlar prokurorning dard-u hasratini eshitib, o'ng'aysizlandi. SanjARBek bu muammolar ning ichida yurgani uchun prokurorning gaplaridan ajablanmayotgan bo'lsa, Naziraning yodiga qaysi bir allomanning «men undan o'zimga najot istasam, netay, tabibimning o'zi ham bemor» degan gaplari esiga tushib, toqatsizlandi.

– Mayli, bir gap bo'lar, – Dilshod OMONovich ayol-dagi bezovtalikni fahmlab, muddaoga ko'chdi, – bu tarafda hech kutilmaganda Faxriddin Karimovichning muammosi... Hammamizni dovdiratib qo'ydi... Tergovni bizning yigitlar qilayotgan bo'lsa-da, anov «qo'shni»lar ishning ustiga o'tirib olishgan. Kimni so'roq qilish kerak, qanaqa

dalilni ishga qo'shish kerak, nima qilish kerak – hammasini o'zlar hal qilishyapti...

– Dilshod aka, nima qilsa bo'ladi?

– Sanjarbek, o'zingiz bilasiz-ku, ayni paytda bu ish olov bo'lib turibdi. Yaqin borgan odamniyam kuydirib yuborishi mumkin. Ish sudga oshgandan so'ng...

– Hali ish sudgayam oshadimi? – Naziraning ko'zlar katta-katta bo'lib ketdi.

– Kelinjon, sizni tushunib turibman, – prokuror bosiqlik bilan gapirardi, – Faxriddin Karimovich men uchun ham qadrli. Biz garchand unchalik uzoq muddat birga ishlamagan bo'lsak-da, ancha qadrdon bo'lib qolgandik. Shu qisqa davrda u o'zining qat'iyatlari va halolligi, to'g'riso'z va jasurligi bilan, ishga munosabati bilan mening, qolaversa, butun jamoaning hurmatini qozonishga erishgandi. Jamoada hammaning ichi kuyib yotibdi... Lekin nima qilamiz? Qo'limizdan hech ish kelmayapti! Men o'z fikrimni rahbariyatga aytdim. Xavfsizlik xizmatining kattasiga borib tushuntirishga harakat qildim... Masala juda katta doiralarda hal bo'lganmish... Mabodo unga yon bosib harakat qiladigan bo'lsak, biz ham o'sha poraga sherik bo'lib qolishimiz ehtimoldan xoli emasmish... Buni qarang, viloyat prokuroriga shunaqa po'pisa qilsalar-a!!!

– Dilshod Omonovich, avvalo, ustozning aybsizligiga ishonganingiz, qo'llab-quvvatlashga harakat qila-yotganingiz uchun katta rahmat, – dedi Sanjar qo'lini ko'ksiga qo'yib, – tushunaman, hozircha bu ishga hech kim aralasholmasligi aniq. Shunday bo'lsa-da, siz viloyat prokurori, qolaversa, Faxriddin akamning yaqin hamkasbi sifatida ishni nazoringizda ushlab tursangiz, shunday ajoyib insonning taqdirini e'tibordan chetda qoldirmasangiz. Haqiqat egilar, lekin sinmaydi-ku!

– Sanjarbek, kelinjon, bundan ko'nglingiz to'q bo'l-sin, – prokuror sal dadillandi, – men Faxriddin uchun

qo'simdan kelgan ishni qilaman... Bundan xavotir olmangilar...

Dilshod Omonovich, rahmat sizga. Yana bir iltimos, agar imkonni bo'lsa, — dedi Faxriddin bo'lib o'tgan gaplardan hafsalasi pir bo'lib, qayg'u domiga cho'kib o'tirgan Naziraga ko'zi bilan ishora qilib, — yangam Faxriddin Karimovich bilan ko'rishsa degandim.

— Albatta, albatta, imkon topamiz, — prokuror ichki telefonni ko'tarib, «Rahmatilla Shavkatovich, bir daqiqaga yonimga kirasisizmi», dedi muloyimlik bilan.

Nazira eri bilan uchrashish imkoniyati paydo bo'lganidan ko'ngli taskin topib, ko'rishganlarida unga aytajak gaplarni, dalda bo'lajak so'zlarni bisotidan axtarishga tushdi. Nima bo'lgandayam o'zini ruhan dadil tutishga, boshiga tushgan bu ko'rgiliklar oldida notavon va ojizligini sezdirmaslikka harakat qilishini ko'ngliga tuydi.

Sal o'tib, xonaga baland bo'yli, qorachadan kelgan yigit kirib keldi.

— Rahmatillajon, tanishing, bu kishi Respublika prokuratorasidan tergovchi Sanjar Rahmonov, Naziraxon — Faxriddin Karimovichning ayollari.

Rahmatulla Sanjarkbek bilan qo'l berib ko'rishdi, Naziraga «Yaxshimisiz, yanga, xush kelibsizlar!» — dedi odob bilan.

— Rahmatjon, anovi «o'rtoqlaringiz» haliyam o'tirishib-dimi? — so'radi prokuror ovozini pastlatib.

— Hozircha shu yerda, lekin qandaydir tadbiri bor ekan shekilli, bugun ertaroq chiqib ketmoqchi edi.

— Yaxshi, unda amallab kelinni Faxriddin Karimovichning oldiga olib kirasisiz, gaplashib olishsin... Buning hech qanday qonunsiz joyi yo'g'-u, ammo anovilar sezib qolib, sasib yurishmasin tag'in. Shuning uchun ehtiyyot bo'lganingiz ma'qul...

— Tushunarli, Dilshod Omonovich, mehmonlar qabulxonada kutib turishsa, birozdan so'ng ularni o'zim cha-

qiraman, – dedi tergov bo‘limi boshlig‘i xonadan chiqar ekan.

– SanjARBek, unda sizlar kutib turasizlar, biror muammo bo‘lsa, bemalol aytaverasiz, hozircha xayrlashmaymiz, – prokuror o‘rnidan turib, mehmonga qo‘l cho‘zdi. Keyin tortinibgina turgan Naziraga yuzlandi, – kelin, siz bardam bo‘ling, Faxriddinjon halol, toza yigit. Xudo xohlasa hammasi yaxshi bo‘ladi!

– Rahmat, aytganingiz kelsin, iloyo! – minnatdorchilik bildirdi ayol.

Biron soat o‘tib, tergov bo‘limi boshlig‘i mehmonlar ni binoning narigi qanotidagi xonalardan biriga taklif qildi. Ish vaqtı allaqachon tugaganligi uchun yo‘lakda xodimlar ko‘rinmasdi. Rahmatilla SanjARBekni qabulxonada qoldirib, ayolni yo‘lakning oxiridagi peshtoqiga «Tergov bo‘limi boshlig‘i R.Sh. Panjiyev» degan yozuv ilingan xonaga boshlab bordi. Eshik yonida qaqqayib turgan ikki militsiya xodimini ko‘rib, Naziraning ko‘ngli buzildi. Yuragi qinidan chiqquday tez ura boshladi, oyoq-qo‘li qaltirab ketdi. Ostona hatlab, xonaga qadam qo‘yar ekan, burchakdagи stulda mung‘ayibgina o‘tirgan aftodahol eriga ko‘zi tushdi:

– Faxriddin aka... xo‘jayin... sizga nima bo‘ldi? – Ayol ko‘z yoshini tiyib turolmadi va yugurib borib o‘zini xo‘jasining bag‘riga otdi.

– Voy, voy... ana xolos, ko‘z yoshi nechuk? – Faxriddin odaticha hazil qildi. – Meni Sibirga surgun qilishmayapti-ku! Otadigan, osadigan zamonlar o‘tib ketgan-ku!

– Xo‘jayin, bu qanday ko‘rgilik, peshonamizda shunaqa kunlar ham bormidi? – ayol erining gaplariga parvo ham qilmay, uni mahkam quchoqlab turardi, – endi nima qilamiz? Bu sharmandalikka qanday chidaymiz?..

– Nazira, bo‘ldi, jonim, bo‘ldi. Hammasi joyida! Vahima qilishingizga arzimaydi... – ayolining sunbul sochlariidan taralayotgan muattar bo‘y yigitning dimog‘iga uril-

di. Oh mening go'zalim, Naziram... Xudo xohlasa haqiqat qaror topadi, mana ko'rasiz! Hozircha meni armiyaga ketgan deb hisoblab turasizlar!

Voy manov odamni qaranglar-a, shu paytdayam ko'ngliga hazil siqqanini... Men tamom bo'ldim-ku... Sizni shu alfozda ko'rish... – Nazira ko'z yoshlarini tiyolmasdi. Ustiga-ustak, yostiqdoshining uni sizlayotgani g'ashini qo'zg'ardi. To'g'ri, ba'zida – hazillashgan kezları eri uni «siz»lab qolardi. Biroq shunaqa ko'ngilxiralikda hazilga balo borni?

– Bo'ldi, bo'ldi, – Faxriddin ayolini mahkamroq quchoqladi, – ko'z yoshingizga arzimaydi! Mana men to'rt mucham sog', boshim omon, yoningizda turibman. Kimdir meni jinoyatchiga aylantirishga harakat qilayapti. Lekin siz meni bilasiz, haromdan hazar qilaman, jinoyatning ko'chasiga yo'lamatayman. Aybim yo'q. Shuning uchun hech narsadan qo'rqlamayman, o'sha muttahamlarga bosh egmayman. Mayli, hozircha ularning zamoni tuqqan, ko'ngliga kelgan ishni qilishayapti. Na Xudodan, na bandasidan qo'rqladi. Ammo bilib qo'ying, bu vaqtincha. Bizning ko'chada ham bayram bo'lar!

Faxriddin xotinining qo'lidan ushlab, yonidagi stulga o'tqazdi.

– Mayli, bu kunlar ham o'tib ketar! O'zing yaxshimi-san, Nazi! – Faxriddin birdan jiddiyashdi. – Mening polvonlarim qalay, ularni rosa sog'inib ketdim...

– Bolalar yaxshi, ularga bildirib o'tirmadim. Tog'amnikida qolishdi.

– To'g'ri qilibsan, hozircha bilmay qo'ya qolishsin. Keyin mavridi kelganda yotig'i bilan tushuntirarsan.

– Faxriddin aka, to'g'risini aytинг, sizni qamab qo'yishadimi yoki... sud aybsiz odamni ko'ra-bilaturib qamab yuborolmasa kerak! Suddan chiqib ketasiz-a? – so'radi ayol ro'molchasi bilan ko'z yoshini arta turib.

– Bilmadim, Nazi, bilmay qoldim, – chuqur xo'rsindi Faxriddin, – sudlar ham biz kabi o'sha yaramaslarning qo'lida qo'g'irchoq. Chizig'idan chiqolmaydilar... Ustimga dunyoning mag'zavasini ag'darib yotishibdi. Yasama dalillar, soxta guvohlar, uydirma ayblovlari... Meni qamashlari aniq. Zamona almashmasa, ochiqqa chiqolmasam kerak...

Nazira bu gaplarni eshitib, qalbidagi miltirab turgan umid cho'g'i o'chib, nursizlanib borayotganini his qildi. Erining qo'lidan mahkam qisgancha, unsiz yig'lay boshladi.

– Nazira, endi sen... unday qilma-da! – o'zini tutishga harchand harakat qilmasin, Faxriddinning ham ko'ngli buzildi. – Endi sen bardam, kuchli bo'lishing lozim. Bunday shalvirab tursang, bolalarning holi ne kechadi? Mayli bir yil, mayli ikki yil... sen oilaning boshlig'i bo'lib, bolalarning ham otasi, ham onasi bo'lib turishingga to'g'ri keladi. Nima qilamiz, boshga tushganini ko'z ko'radi.

– Faxriddin aka, nahot biror yo'li bo'lmasa! Sanjarkbek Tohir G'ofurovichning o'zi shaxsan shug'ullanayapti, dedi-ku! Katta odam... Bir chora topar... Umidsizlikka tushmaylik...

– Eh Nazi, Nazi! Sen bu marazlarni bilmaysan-da! – Faxriddin yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, shusiz ham qayg'u domiga botib borayotgan ayolini battar tushkunlikka tushirmaslik uchun qo'shib qo'ydi. – To'g'ri, umid eng so'ngida o'ladi, noumid shayton deydilar. Balki ustoz bir chorasini topar...

– Inshoollo! Sizning aybingiz yo'q. Allah hammasini ko'rib-bilib turibdi. Rabbim odil, rahmdil, karami keng. Yaxshi odamlarni hamisha o'z panohida asraydi. Qasd qilganlar past bo'ladi!

– Aytganing kelsin, iloyo, – yigitning qalbi ayolining gaplariga ishongisi kelib turgan bo'lsa-da, aqli bu ishlarning imkonsiz ekanligida qat'iy turardi.

Xo'jayin, siz ularga nima qilgansiz, shunchalikka borishayapti, – ayol hamon alamini bosolmayotgandi, ishdan bo'shatib yuborishsa bo'lmasmidi! Hech qayerda ishlamasangiz ham, shofyorlik qilsangiz ham, ko'chada pista sotsangiz ham mayli edi...

– Yo'q, yo'q, mendan pistachi chiqmaydi, bor pistani chaqib tashlashim yoki o'tgan-ketganga ularshib yuborishim mumkin. Taksichi bo'lsam hammani tekinga tashisam kerak, ayniqla, ayollarni...

– Hazilingiz bor bo'lsin, – erkalandi ayol, – maylida, shungayam ko'nardim, yonimda bo'lsangiz bas.

– Rashk-chi? Bu tuyg'u hech qachon yo'qolmasa keragov!

– Bu aniq! Bilasiz-ku! – nozlandi xotin erining pinjiga tiqilib.

– Mening rashkchiginam-ey! Endi bir muddat bunga hojat bo'lmaydi. Ayollar qamoqxonasi alohida bo'larkan...

Kulishdi. Faxriddin suqlanib ayolining ko'zlariga tikelar ekan, dard cho'kkan bu qarog'larida qaynoq mehrdan boshqa narsani ko'rmadi. Beixtiyor ayolining belidan quchib, yengilgina bo'sa bilan siyladi. So'ng uchrashuv onlari tugab qolishidan xavotirlanib, ko'ngliga tugib qo'ygan gaplarini aytishga chog'landi:

– Nazira, bir muddat oilaning yukini o'z zimmangga olishingga to'g'ri keladi. Sizlarga pul-mul ham qoldirolmadim...

– O'zingizni o'ylasangiz-chi! Biz bir amallarmiz...

– Uydagilar, qolaversa, Sanjarbek qo'lidan kelganicha yordam qilib turar... Kecha qo'limga bir kitob tushgandi. Kamerada uyqum qochib, tuni bilan o'qib chiqdim. Hazrati Ali roziyallohu anhuning quyidagi hikmatlarini yod oldim: «Besh narsaning qandayligi besh narsa bilan bilinadi: daraxtning qandayligi – mevasi bilan, ayolning qandayligi – eri faqir bo'lib qolishi bilan, do'stning qandayligi –

qiyinchilik – boshga musibat tushishi bilan, mo‘minning qandayligi – imtihon qilinishi bilan, haqiqiy sahiyning qandayligi – muhtoj bo‘lib qolishi bilan bilinadi».

– Haq gap! Bilasiz, men na puli, na mansabi bo‘lgan talaba yigitga ko‘ngil qo‘yanman. U prokuror bo‘ladimi, vazir bo‘ladimi yoki oddiy ishchi bo‘ladimi, men uchun o‘shanday qadrli bo‘lib qolaveradi. Xavotiringiz o‘rinsiz...

– Ishonaman, jonim, ishonaman, – Faxriddin noo‘rin gap qilganligini anglab, o‘zini oqlashga tushdi,— men o‘qigan narsamni aytmoqchi edim. Bu gap senga taalluqli emas. Sening hammasini uddalashingga ishonaman...

Shu payt eshik taqillab, tergovchi kirib keldi:

– Faxriddin Karimovich, uzr so‘rayman... Vaqt masalasi... Konvoy to‘polon qilayapti... Kelinoyim chiqishi kerak... Sanjar aka ham ikki daqiqaga kirib chiqmoqchi edi, kiraversinmi?

– Mayli, kirsin, kirsin, – dedi Faxriddin o‘rnidan qo‘zg‘alib. So‘ng xotiniga qandaydir boshqacha tikilib, «bo‘pti onasi, o‘zingni, bolalarni ehtiyyot qil, mendan xavotir olmanglar» deyishga o‘zida kuch topdi. Nazira «xo‘p» deganday bosh irg‘ab qo‘yishga majoli yetdi. Eshik tomon yurar ekan, u bir so‘z aytishga shaylanib, ortiga o‘girildi va eriga zimdan tikildi. Ammo nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, gapi og‘zida qoldi va ohista odimlab xonadan chiqdi. Ancha paytgacha ko‘z yoshlari tiyilmadi...

Tergovchi xonaga Sanjarkbekni boshlab kirdi va «Faxriddin aka, iltimos, besh daqqa», deb chiqib ketdi. Ustozshogird huddi bir qorindan talashib tushgan og‘a-iniday quchoqlashib ko‘rishdilar. Ular harqancha o‘zlarini bosishinga harakat qilishmasin, o‘pkalari to‘lib, ko‘zlarida bilinarbilinmas yosh qalqidi. Bir muddat unsiz turib qoldilar.

– Mavlono, yaxshimisiz, kelin, bolajonlar qalay? – so‘radi Faxriddin ko‘zini olib qochgancha.

Ustoz, sizni shu ahvolda ko'raman deb sira ham o'ylamagandim...

Nima qilamiz endi, peshonamizda shu yozig'lar ham bor ekan-da! Taqdirdan qochib qutulib bo'larmidi...

Peshona, taqdir deymiz... Bu ablalalar peshonamizga shum taqdirlni o'yib bitib qo'yishayapti... Ustoz, o'zi nima bo'ldi?

– Hammasi anovi Qodirning ishi! – chuqur xo'rsindi Faxriddin, – viloyatda hech kim uning pishagini «pisht» deyolmas ekan. Bitta jinoiy guruhni qo'lga olgandik, yugrib keldi. Iltimos qilish u yoqda tursin, buyruq berishga o'tdi. Shunchalik quturib ketgan ekanki, viloyat prokurori o'rribosarini oyog'ining uchi bilan ko'rsatayapti-ya! Men qat'iy turib, jinoiy guruhni qonun oldida javob berishga majbur qildim. Hammasi shundan boshlandi. Qodir hech narsadan tap tortmay, «Sen mening sovunimga kir yuv-mabsan, qara, o'jarliging boshingga balo bo'ladi» degandi. O'shandan buyon tirnoq orasidan kir axtarib, payt poylab yurgan ekan. Men xom sut emgan banda o'zim to'g'ri, halol bo'lsam, qonunni buzmasam, qo'lidan nima kelardi deb hisoblagandim. Xom o'ylagan ekanman. Bu mal'unning har qanday qabihlikdan qaytmasligini, tuhmat qilishdan ham toymasligini e'tiborga olmagan ekanman. G'aflatda qoldim. Laziz degan tergovchimizdan ko'rsatma oldi. U bechorada ham ayb yo'q. Nima qilsin, hayot shirin. Uribsos'kib, majburlashgan ko'rinnadi. O'tgan kuni tergovchi chiqib ketganda, xonada yolg'iz qolganimizda mendan kechirim so'radi, shunday qilishga majburlashganini, bundan boshqa iloji yo'qligini aytib, rosa siqildi... Irodasi kuchsiz, bo'shanggina yigit-da...

– Dalil yo'q, isbot yo'q, bir betamizning gapi bilan kimsan viloyat prokurorining o'rribosari, necha yillik prokuratura xodimini ayblash mumkinmi? – dedi Sanjarbek fig'oni chiqib.

– Eh, Sanjarbek, Sanjarbek! Hammani o‘zingizday tasavvur qilasiz-da! – Faxriddin shogirdining yelkasiga qoqib qo‘ydi. – Qo‘ying shu gaplarni, bir boshga bir o‘lim! Peshonamizda bo‘lsa, o‘scha «Jasliq» degan jurtlarniyam ko‘rib kelamiz-da!

– Ey-y, hazilingiz ham bor bo‘lsin, nafasingizni shamol uchirsin! Sizga «Jasliq»da nima bor? Nima, siz davlat xoinimisiz?

– Xoin bo‘lish shart emas, ular o‘zlarining «yaxshi ko‘rgan» odamlariga o‘scha «oromgoh»ga «yo‘llanma» berisharkan.

– Ustoz, qo‘ying, unaqa demang! Farishta yaxshi gapgayam, yomon gapgayam omin qilarkan. Xudo xohlasa adolat qaror topadi! Tohir G‘ofurovich, qolaversa Bosh prokuror bir chorasi ni ko‘rar...

– Darvoqe, Sanjarbek, sizdan bir iltimos bo‘ladi, – ustoz birdan jiddiylashdi, – rahbariyat noto‘g‘ri fikrga borib yurmasin. Ularga bor haqiqatni gapirib bering.

– Aytmasangiz ham ular hammasini bilib o‘tirishibdi. Menimcha, viloyat prokurori haqiqiy holatni yetkazib turibdi. Men bu yerga kelishdan avval Tohir akaning oldida bo‘ldim. Aytganday, u kishi sizga salom aytgandi, «bardam bo‘lsin, hammasi yaxshi bo‘ladi!», deb tayinladilar... Bu masalada xavotirga o‘rin yo‘q.

– Unda yaxshi, shundan xavotirda edim, – Faxriddin o‘rnidan turdi.

– Ustoz, bilaman, siz irodali insonsiz. Bu sinovdan ham eson-omon o‘tib olishingizga ishonaman. Faqat o‘zingizni ehtiyyot qiling, sog‘lig‘ingizni asrang!

– Rahmat, Sanjarbek. Siz ham ehtiyyot bo‘ling. Bu shaytonlar bilan nifoqlashib yurmang. Hozir ularning dashti baland, har yerga yetadi... Murosa qilib turishga to‘g‘ri keladi...

– Men... Men... ariza yozib, ishdan bo‘shab ketsammi deb turibman, ustoz... Bu ahvolda ishlab bo‘ladimi?

– Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani yoqmaydilar! Siz unday qilmang. Sizday adolatli, halol tergovchi ishdan ketsa, kimga yaxshi bo‘ladi? O‘rningizni bir bema’ni egallasa, kimga qiyin – xalqqa, odamlarga qiyin bo‘ladi! Faqat sergak bo‘ling!

Sanjarbek «xo‘p» deganday bosh irg‘adi.

– Imkoningiz bo‘lganda, biznikilardan ham xabar olib turarsiz...

– Albatta, ustoz, siz xavotir olmang! Inshoolloh yuzingiz yorug‘ bo‘lsin!

– Inshoolloh!

Eshikda tergovchining oyoq tovushini eshitib, ustoz-shogird bir-birini bag‘riga bosib, ko‘ngillari vayrona, ko‘zlarji qiqqa yosh to‘lgan holda xayrlashdilar...

Shu kech mehmonlar Ramazonnikida tunab qoldilar. Kelin Surxondaryocha osh damladi. Anchagacha suhbatlashib o‘tirdilar. Ayollar dam olishga kirib ketishgach, hamkasblarning gap mavzusi yana Faxriddin Karimovichga taqaldi:

– Ramazon, bir narsaga hech aqlim yetmay turibdi: qanday qilib... «qo‘shni» larning oddiy bir bo‘linma boshlig‘i viloyat prokuraturasi rahbariyatini o‘tirib-turg‘izsa-ya! Nahotki, viloyatda bir oliftaning tanobini tortib qo‘yadigan kimsa topilmasa!

– Ey aka, nima deyapsiz! – mezbonning dardi qo‘zib ketdi. – Bu imonsiz odam ko‘rinishidagi shayton. Viloyat hokimining ham ko‘zini ochirmay qo‘ygan, boshqalarga yo‘l bo‘lsin! Aytsam ishonmaysiz, yaqinda bir qo‘shnimiz o‘sha ajaldan qo‘rqib, Tojikistonga qochib ketdi. U sho‘rlikning aybi mashinasida chorrahada bilmasdan Qodirning mashinasini sal siqib o‘tib ketibdi. Darrov davlat raqamini «GAI»ga berib, «aybdor»ni topib keltiribdi va ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan jazo tayinlabdi. «Hukm»ga ko‘ra «mahkum» uch kunda Termiz shahridagi barcha da-

raxtlarni birma-bir sanab chiqishi shart bo‘lgan. Aks holda, «aybdor» vahobiy sifatida «Jasliq»qa ravona bo‘lishi uqtirilgan. Qo‘snnim bechoraning boshi qotib qolgan. Uch kunda shahar hududidagi barcha daraxtlarni sanab chiqish, osmondagи yulduzlarni sanashday bir mavhum va uddalash imkonsiz ish ekanligini anglab, Tojikistonga qochib ketishdan boshqa iloji qolmagan. Mana, bechora bir yildan buyon vatangado bo‘lib yuribdi...

– Tavba, ahmoqchilikning ham chek-chegarasi yo‘q ekan-da! – taajjublandi Sanjarbek, – bu la’natining o‘zi xon, ko‘lankasi maydon bo‘lib qolgan ekan-da!

– Ey-y-y bunisi hali holva! – Ramaznonning chakagi ochilib ketdi, – birga ishlaydigan tergovchimizning hofiz jiyani to‘yda Qodir talab qilgan qo‘sniqni bir navbat kech aytgan ekan, sho‘rlikni xonasiga chaqirtirib, kechgacha raqsga tushishga majbur qilibdi. Bu ahmoqchilikka nima deysiz? Xonlik zamonlarda ham bunaqasi bo‘lmagan bo‘lsa kerak! Bu xalqning ustidan kulishdan boshqa narsa emas!

– Menimcha, bu kasofat kasal bo‘lsa kerak. Qip-qizil jinni bo‘lsa, ajabmas!

– Yaqinda bir saksondan nari beri cholni bir ish bo‘yicha so‘roq qilishga to‘g‘ri keldi. Aytishicha, Qodir bechora qariyaning uyini buzdirib, o‘rniga gaz quyish shoxobchasi qurib olibdi. «G‘ing desang, qamatib yuboraman», depti. Cho‘l hozir oilasi bilan qarindoshlarinikida yashab yurgan ekan. Boboy sho‘rlik shunchalik jonini oldirib qo‘yibdiki, hoziram «Qodir aka» deb gapiradi, uning nomini tilga olganda azroildan qo‘rqqanday peshonasidan ter chiqib, qizarib-bo‘zarib ketadi-ya!

– Bu iflos viloyatimiz boshiga bitgan balo bo‘ldi! Na hokimga, na prokurorga, na tadbirkorga, na oddiy aholiga kun bor! Bilgan b...ni yeapti. Quloq qoqqanlar, Faxriddin

Karimovichning holiga tushib qolayapti. Dodingni kimga aytishni bilmaysan!

– U muttaham nimasiga ishonadi? Kimning erkatori? – ataylab so‘radi Sanjarbek eshitganlarini tasdiqlatib olish uchun.

– «ShR»ning arzandası – «cho‘ntagi» deyishadi, yana bilmadim... – uy egasi birov eshitib qoladiganday pichirlab gapirdi, – Sanjar aka, Faxriddin Karimovichning ishi nima bo‘ladi? Biror iloji bo‘larmikan?

– Bilmadim, do‘stim! Hayronman. Bu azroil Toshkentdagilarning ham jonini olgan ko‘rinadi. Hech kim tayinli gap aytolmayapti. Hamma ustozning mutlaqo aybsizligini bilgani holda, qo‘lidan hech vaqo kelmayotgani achinarli... Bunaqa nohaqlikni, bunaqaadolatsizlikni ko‘rib-bilib turib, tomoshabin bo‘lib o‘tirganing odamga alam qilar ekan...

– Shunday ajoyib inson, mohir tergovchi-ya, esiz... O‘ylaganing sayin odamning ichi idrab ketadi... Endi rahbarga yolchigandik-a!

– Nima qilamiz, yer qattiq, osmon uzoq. Tushkunlikka tushmaylik, balki hammasi yaxshi bo‘lar, inshoollo!

– Aytganingiz kelsin, iloyo!

Yigitlar allamahalgacha suhbatlashib o‘tirdilar. Saharda Ramazon mehmonlarni taksi bekatigacha kuzatib qo‘ydi.

\* \* \*

SanjARBek Nazirani uyida qoldirib, to‘g‘ri ishxonasiga bordi. Xonasiga ham kirmasdan Tohir G‘ofurovichning qabulxonasiga ko‘tarildi. Prokuror o‘rinnbosari uning kelgani ni eshitib, kirishga ruxsat berdi.

Salom-alikdan so‘ng, SanjARBek safar taassurotlari haqidada batafsil hikoya qilib berdi.

– Faxriddinning sog‘ligi yaxshimikan? – otalarcha mehribonlik bilan so‘radi rahbar uni oxirigacha tinglab bo‘lgach, – kayfiyati qanday? Tushkunlikka tushib, o‘zini oldirib qo‘ymaganmi?

– Yo‘q, yo‘q, Allohga shukur, hammasi joyida! Ustozni bilasiz-ku, irodasi baquvvat... O‘zi bir ahvolda bo‘lsa-da, hazil qiladi, ko‘ngliga siqqanini qarang!

– Hazil qilishga o‘zida kuch topibdimi, demak hammasi joyida, – xulosa qildi rahbar. – Xudo ko‘rsatmasin, tushkunlikka tushib qolsa, qiyin bo‘lardi. O‘z-o‘zini yeb, adoyi tamom qilardi, sog‘ligini yo‘qotardi. Umid inson qalbiga quvvat beradi, yashashga, kurashishga rag‘bat uyg‘otadi, bu tashvishni Yaratganning bir sinovi, imtihon sifatida qabul qilib, dilida yorug‘ kunlar kelishiga ishonch paydo qiladi.

Sanjarbek rahbarning mulohazalarini quloq qoqmay eshitib o‘tirar ekan, yuragi birmuncha taskin topganday bo‘ldi:

– Endi bu yog‘i nima bo‘ladi, Tohir aka? Yordam qilishning biror imkonni bo‘larmikan?

– Bilmadim, Sanjarbek. Bosh prokuror ham tayinli gap aytmayapti. Oldin aytganimdek, hozir bu ish misli bir olov, yoniga yo‘laganni kuydirib yuborishi tayin. Olov sal pasaysin, bir chorasi topilar. Viloyat prokuroriga tayinladim, imkon darajasida Faxriddingga ko‘z-quloq bo‘lib turadi. Juda bo‘limganda, sudda amallarmiz...

– Aytganingiz kelsin, iloyo!

– Siz Faxriddinning oilasidan xabardor bo‘lib turing. Muammo bo‘lsa, menga aytинг, birgalikda hal qilamiz... Qiynalib, zoriqib o‘tmasin tag‘in!

– Albatta, – tasdiq ohangida bosh irg‘adi Sanjarbek, – Tohir G‘ofurovich, men ariza bermoqchiydim...

– Qanaqa ariza?

– Ishdan bo‘shash haqida.

- Nima? – rahbar yalt etib shogirdiga qaradi.
- Bu taxlit ishlab bo‘ladimi?
- Hamma shunaqa fikrlaydigan bo‘lsa, kim ishlaydi?

Shu kasbni o‘zimiz tanlaganmiz. Shuncha yil ishladik, yarim yo‘lda jang maydonini tashlab ketuvchilarni kim deydi? Nima, men mana shu padarla’nat kresloda mansabni yaxshi ko‘rganim uchun o‘tiribmanmi? Har soniyamiz xavf-xatar, atrofimiz to‘la sotqin, g‘alamis!

Sanjarkbek boshini quyi solgancha jim turaverdi.

– Aslida siz emas, men ariza yozib ketishim kerak. Shuncha yil ishladim, nasaqaga chiqib ketsak ham birov uyat qilmaydi. Sizning yo‘rig‘ingiz boshqa, hali yoshsiz, ko‘p ishlappingiz kerak... Vaziyat hamisha shunday bo‘lib qolmas. Bu kunlar ham o‘tib ketar. Bularga ham boqqan balo bordir! Salgina qiyinchilikdan qo‘rqib, sevgan kasbing, orzu-umidingdan voz kechish mard yigitning ishi emas. Bu gapni boshqa og‘zingizga olmang, uyat bo‘ladi... Qolaversa, Faxriddinga yordam qo‘lini cho‘zish uchun ham mansabda turishga majburmiz... Bilaman, Bahrom Sadirovich sizni tinch qo‘ymaydi. Har qadamda ortingizdan pi-choq sanchishi mumkin... Shularni o‘ylab, sizning xizmat safarida bo‘lib turishingizni ma’qul topdim. Sal ko‘zdan nari bo‘lib turasiz...

- Xizmat safari... – dedi Sanjarkbek ko‘zlarini kattakatta qilib, – qayerga?
- Uzoqqa emas, Toshkent viloyatiga...
- Qanaqa ish ekan? – tergovchi emasmi, Sanjarkbekning qiziqlishi ortdi.
- Chinoz tumanidagi qishloqlardan birida qisqa muddat ichida uch bola bedarak yo‘qolgan. Hozircha ularning na tirigi, na o‘ligi topilgan. Dastlabki taxminlardan birortasi ish bermagan. Ayni paytda tergovchilar ixtiyorida tuzukroq taxmin ham qolmagan. Juda murakkab va mujmal jumboq. Viloyat prokurori aynan sizni berishimni so‘rayapti. Shef-

ning ham oldidan o'tdim... Yo'ldan toliqib kelgansiz. Mayli, bugun yaxshilab dam oling. Ertadan viloyat prokuroriga borib uchrashasiz. Tushunarlimi?

– Tushunarli, – dedi Sanjarbek noiloj, – chiqishga ruxsat bering.

– Ruxsat, omad tilayman... Oldimga kelishingiz shart emas. Masala bo'lsa, qo'ng'iroq qilarsiz.

Sanjarbek xonadan chiqar ekan, xayolini «uch bola qayonna ketgan bo'lishi mumkin, qaysi odamxo't ularning yosh joniga zomin bo'ldi ekan», degan o'y chulg'ab oldi...

\* \* \*

Viloyat prokurorining tergov bo'yicha o'rribosari Murod Orziqulovich Sanjarbekni iliq kutib oldi. Odatiy so'rashishdan so'ng mezbon muddaoga ko'chdi:

– Sanjarbek, siz tajribali tergovchisiz, yordam bermasangiz bo'lmaydi. Boshimiz qotib qoldi. Tergovchilarimiz qanchalik chirсанmasин, ish oldinga siljimayapti. Jinoyatchi rosa pixini yorgan ko'rindi. O'zidan hech qanday iz qoldirmayapti. Kuppa-kunduz o'z uyidan uch bolani o'g'irlab ketayapti-yu, hech kim, hech narsani ko'rmasa, sezmasa! Na iz, na dalil bor! Bola sho'rliklarning na tirigi, na o'ligi topildi! Jinoyatning na motivi, na maqsadi aniq! Dastlabki qilingan taxminlardan birortasi o'zini oqlamadi...

– Eshitdim, eshitdim, Tohir G'ofurovich gapirib bergandilar, ish bilan tanishib chiqaylik-chi, ko'ramiz... Qo'limizdan kelgancha harakat qilamiz, – dedi Sanjarbek kamtarlik bilan.

– Tergov guruhi tuzilgan, eng sara yigitlarimiz ixtiyerringizda bo'ladi. Nima yordam bo'lsa, tortinmay...

– Tushunarli, ishni tashkil qilib olaylik, qolgan masalalarni keyin gaplashamiz, – Sanjarbek gapni qisqa qilib, ish boshlashga shoshildi.

Prokuror o‘rinbosari ichki telefondan kimgadir qo‘ng‘iroq qilib, «Tergovchilar kirsin!» deya ko‘rsatma berdi.

Xonaga biri sarg‘ish, qotmadan kelgan, biri qorachadan kelgan, yoshiga yarashmagan qorin qo‘yib olgan ikki yigit kirib keldi.

Marhamat, tanishing, – dedi rahbar oriqliq yigitga ishora qilib, – bu yigit tuman prokururasi tergovchi-si Rahimjon Mo‘minov, bu kishi tergov bo‘limi boshlig‘i O‘lmas Qobilov... Sanjar Rahmonovni bilasizlar, Bosh prokururaning eng tajribali tergovchilaridan, bizga yordamga keldi.

Sanjarbek yigitlar bilan qo‘l berib ko‘rishiб, joyiga о‘тиди.

– Yigitlar, sizlarga juda katta mas’uliyat yuklanmoqda, – dedi boshliq jiddiy ohangda, – Bilasiz, ahvol og‘ir, aholi norozi, odamlar sarosimaga tushib qolgan, ayrim oilalar qo‘rqanidan boshqa joyga ko‘chib ketishmoqda. Jinoyatni qisqa muddatlarda ochmasak bo‘lmaydi... Men, vi-loyat prokurori xizmatingizda bo‘lamiz. Hamma sharoitni qilib beramiz. Faqat qotilni tezroq qo‘lga olish, faoliyatiga chek qo‘yish darkor!

– Tushunarli, – dedi tergovchilar bir ovozdan va rahbar bilan xayrlashib, birin-ketin xonadan chiqishdi.

– Muammo bo‘lsa qo‘ng‘iroq qilarsizlar, tezda yetib boraman, – deya ishxonasida qoldi O‘lmas. Sanjarbek Rahimjon bilan Chinozga qarab yo‘l oldi. Yo‘l-yo‘lakay ishning tafsilotlari haqida so‘zlashib ketdilar. Rahimjon hamkasbi-da to‘la taassurot uyg‘onishi uchun voqealarni bir boshidan so‘zlab berdi:

– Bundan rosa uch oy avval Yallama qishlog‘ida yashovchi Sodiq Solihovning 16 yoshli Barno ismli o‘g‘li bedarak yo‘qolib qolgan. Bola otasining «Lasetti» mashinasida «xolamnikiga borib kelaman», – deb uydan chiqib ketgan va qaytib kelmagan. Kech soat sakkizlarga yaqin ota-

onasi xavotir olib, bolaning qo‘l telefoniga qo‘ng‘iroq qilgan. Telefon o‘chirilgan bo‘lgan. So‘ng xolaga qo‘ng‘iroq qilishgan. Xola Barno kechki soat beshlarda kelib, olti-olti yarimlarda chiqib ketganini aytgan. Kelib qolar-kelib qolar» bilan yana ikki soat o‘tgan. Uydagilarning xavotiri oshib, Barnoning o‘rtoqlariga, sinfdoshlariga qo‘ng‘iroq qilishgan, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lardan surish-tirishgan. Foydasi bo‘Imagan. Militsiyaga xabar qilishgan. Qidiruv tun bo‘yi, keyingi kunlar ham davom ettirilgan. Ammo bolaning daragi chiqmagach, «bedarak yo‘qolgan» deb e’lon qilingan. Qidiruv ishlari boshlangan, bir qancha taxminlar ilgari surilgan. Biroq surishtiruv jarayonida ularning birortasi o‘zini oqlamagan...

– «Lasetti» topildimi?

– Afsus, mashina ham topilmadi. Respublika bo‘yicha qidiruvga berdik. Qo‘shni davlatlarga so‘rov yubordik, hech qayerdan daragi chiqmadi.

– Xo‘sh, davom eting-chi!

Bir oy o‘tar o‘tmas xuddi shu qishloqda yashovchi Karim Shirinovning 8 yoshli Nuriddin ismli o‘g‘li bedarak yo‘qoldi. Bu voqeа kuppa-kunduz kuni sodir bo‘lgan. Bolaning otasi ishda, onasi uyda bo‘lgan. Nuriddin velosipedida uydan chiqib ketgan. Keyinchalik uning o‘rtoqlari bilan o‘ynab yurganini ko‘rishgan. Onasi tushlikka chaqirish uchun o‘g‘lini izlashga tushgan. Dastlab uyni, yordamchi xonalarni ko‘zdan kechirgan. Keyin qo‘ni-qo‘shnilarnikiga axtarib chiqqan. Kechga borib qidiruv ishlariga militsiya, butun mahalla qo‘shilgan. Qidirmagan joylari qolmagan. Ammo xuddi birinchи holatdagidek, hech qanday iz, hech qanaqa dalil, guvoh topilmagan... Odamlar sarosimaga tushib qolishgan. Aholi orasida «odamxo‘r paydo bo‘libdi» degan gap-so‘zlar tarqab, hech kim bolasini yolg‘iz ko‘chaga chiqarmay, maktab, bog‘chaga yuborishga qo‘rqib qolishgan...

Velosiped nima bo'lgan?

Oradan uch kun o'tib, velosiped qishloqning o'rta-sidan oqib o'tuvchi anhordan topilgan.

Anhordan topilgan deng, – mulohaza qilishga kiusbdi SanjARBek, – demak, jinoyatchi shu qishloqdan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Jinoyat ishi qo'zg' atilgunga qadar izquvarlar, shuningdek, bolaning yaqinlari ham Nuriddin velosipedi bilan anhorga tushib, oqib ketgan degan fikrga kelishgan. Anhor suvi qochirilib, har bir qarichi chig'iriqdan o'tkazilgan, suv quyiladigan joylarning ham tit-piti chiqarilgan. Jinoyat ishi qo'zg' atilgandan so'ng esa bolani o'g'irlagan shaxs yoki shaxslar qishloqdan chiqib ketishda velosipeddan qutulish maqsadida uni anhorga uloqtirib ketgan bo'lishlari mumkin, degan muqobil taxminlar ham ilgari surildi.

– Voqeа kuppa-kunduz sodir bo'lgan. Jinoyatchilar velikni mashinadan tushirib, anhorga tashlash payti kimdir ko'rib qolishidan hayiqishi tabiiy. Ular bunaqa xavfga boradigan ahmoq bo'lmasa kerak.

– To'g'ri, – dedi Rahimjon yo'ldan ko'z uzmay, – bunday paytda ko'chada odamlar ko'p bo'ladi. Lekin ular tergovni chalg'itish uchun tunda qaytib kelib, velosipedni anhorga tashlab ketgan bo'lishi ham mumkin-ku.

– Albatta, bu ham ehtimolga yaqin. Unday holatda jinoyatchilar bu joylarni yaxshi biladigan va shu atrofdagi qo'shni qishloqlardan deyishga asos bo'ladi. Mayli, bu haqda hali gaplashamiz. Keyin nima bo'lgan?

– Nima bo'lardi, – chuqur xo'rsinib, so'zini davom ettirdi Rahimjon, – qidiruv ishlari davom ettirilgan, har xil taxminlar ilgari surilgan, yuzlab odamlar bilan suhbatlashilgan. Viloyatning eng tajribali izquvarlari ishga jalb etilgan. Ammo xuddi birinchi holatdagidek, bu yerda ham na bola, na uni ko'rgan guvoh, na bir iz topilgan... Har ikkala holat bo'yicha qidiruv ishlari boshi berk ko'chaga

kirib qolgan... Bundan bir hafta oldin... xuddi kimdir biz bilan sichqon-mushuk o'ynayotganday... Uchinchi holat ro'y bersa bo'ladimi? Bu gal Ma'mura Egamova degan ayolning 4 yoshli o'g'li Mo'min yo'qolib qolgan. Voqeа peshindan so'ng soat to'rtlarda sodir bo'lган. Ayol uyida non yopayotgan ekan. Bilasiz, qishloqlarda darvoza ochiq turadi. Bola hovlida o'ynab yurgan. Onasi nonni tandirdan uzguncha – atigi 10 daqiqalar chamasi bolasini bee'tibor qoldirgan. Bolaning hovlidan ko'chaga chiqqanini, ko'chada o'ynab yurganini hech kim ko'rмаган... Nonni yopib bo'lgach, ayol bolasini izlashga tushgan. Avval uy ichini ko'рган. Uyda qaynonasidan boshqa hech kim bo'lмаган. Qaynona-kelin hovlini, molxonani, somonxonani, og'ilxonani qarab chiqishgan. Keyin ko'chaga chopishgan. Qo'ni-qo'shnilarникiga kirdimikan, degan o'yda ularникiga ham bir-bir bosh suqib chiqqan... Ke-yinchalik butun mahalla ahli qishloq atrofi, ariq-soylar, butazor-u daraxtzorlar, barcha ovloq joylarni chig'iriqdan o'tkazishgan... Afsuski, Mo'minni topisholmagan. Bola izsiz yo'qolgan... Dastlab Ma'mura bolani sobiq eri Doniyor olib ketgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan. Negaki, er-xotin bir yil avval ajrashib, Doniyor boshqa ayolga uylangan. Ayni paytda u xotini bilan Moskvada yasharkan. Shu sababli biz ham Mo'minni dadasi olib ketgan bo'lsa kerak, deb taxmin qildik. Doniyorni izlashga tushdik. Faqat shu kuni kechasi u bilan bog'lanib, gaplashdik va uning hech narsadan bexabar ekanligi ma'lum bo'ldi. Balki yolg'on gapirayotgandir, bolani biror joyda yashirib o'tirgandir, degan taxmin ham yo'q emasdi... Biroq keyingi tergov harakatlari otaning bu ishga umuman aloqasi yo'qligini ko'rsatdi...

- Yangi xotinidan bolasi bormikan? – so'radi Sanjarbek.
- Yo'q, hali o'rtalarida bola yo'q ekan. Ertasi kuni Doniyorning o'zi ham uchib keldi... Xullas, shunaqa gap-

tar... Nima qilishniyam bilmay qoldik... Birinchi, ikkinchi holatlar bo'yicha asoslar yetarli bo'lmaganligi sababli jinoyat ishi qo'zg'atilmagan. Bolalar bedarak yo'qolgan deb hisoblangan. Faqat uchinchi holat sodir etilgandan keyingina har uchala fakt bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari boshlandi. Jinoyatni sodir etish usullari, jabrlanuvchilar tarkibini hisobga olib, har uchala jinoyat bitta shaxs yoki shaxslar tomonidan sodir etilgan deb hisoblashga to'g'ri keldi... Ana, «koshonamiz»ga ham yetib keldik.

Yigitlar mashinadan tushib, peshtoqiga «Chinoz tuman prokuraturasi» degan yozuv osilgan binoga kirishdi.

– Mana bu kaminai kamtarinning xonasi, – dedi Rahimjon yo'lak oxiridagi eshikka ishora qilib, bugundan bu kabinet sizniki, marhamat, joylashib oling.

– Siz-chi? Siz qayerda o'tirasiz?

– Mehmon otangday ulug', – jilmaydi Rahimjon, – men qo'shni xonaga o'taman. Prokurator yordamchisining xonasi bo'sh... Xo'sh, ishni nimadan boshlaymiz?

– Avval men ish bilan bat afsil tanishib chiqay. Siz o'z ishlaringizni qilib turing. Kechki soat sakkizga guruh a'zolarini, jinoyat-qidiruv bo'limi rahbari va ishga jalb qilingan izquvarlarni, uchastka nozirlarini yig'asiz... Gaplashib olamiz...

Rahimjon temir shkafdan 5 jildlik jinoyat ishini olib, hamkasbining oldiga qo'ydi:

– Marhamat, bemalol tanishib chiqing, savollar bo'lsa chaqirarsiz, – «mezbon» xonadan o'ziga tegishli narsalarни yig'ishtirib, chiqib ketdi.

Sanjarbek xona to'ridagi kresloga mahkamroq o'mashib, «Bismillahir rohmanir rohim» deya qalin muqovali jinoyat ishini varaqlashga tushdi...

Nazira tuni bilan mijja qoqmay chiqdi. Xayolotning boshi berk qorong'i ko'chalarida tentirab yurdi: «Bu qanday ko'rgilik bo'ldi? Qaysi qilgan gunohimiz uchun Alloh bizni jazolayapti? Faxriddin akam prokuror, tergovchi sifatida birortasining qarg'ishiga qoldimikan? Yo'q, yo'q, axir uni yaxshi bilaman-ku, hech qachon noqonuniy ish qilmasa, adolatsizlikka yo'l qo'ymasa! To'g'ri, kimnidir qilgan jinoyati uchun qamagan bo'lishi mumkin. Balki o'shalardan birining qarg'ishiga qoldimikan? Yo bu Allohnинг bir sinovimikan? Rabbim suygan bandalariga dard beradi, sabr-u bardoshini imtihon qiladi, deyishadi. Amino bu sinov bizga qimmatga tushmasaydi! Gardaniga poraxo'rlikni osib o'tirishibdi. Mabodo ish shu modda bilan suddan o'tadigan bo'lsa, kamida o'n yilga kesib yuborishlari mumkin! O'n yil-a! Yangi tug'ilgan chaqaloq yer yutib qoladi-ku! Davronim yigirma to'rtga, Dostonim yigirma ikki yoshga kirib qo'yadi-ku! Otasiz ularni qanday tarbiya qilaman? Holimiz nima kechadi? Biz-ku qiynalsak-da, amallarmiz! Faxriddin akam bu musibatni qanday ko'taradi? Umrining eng qaymoq onlari panjara ortida o'tib ketmaydimi? Sog'lig'ini yo'qotib qo'ymaydimi? Ruhan tushkunlikka tushib, umidsizlik botqog'iga botib qolmaydimi? Bilaman, u irodali, matonatli inson. Qiyinchiliklarga chidashi, azoblarga bardosh berishi, tushkunlikka tushmasligi mumkin! Biroq bizsizlikka ko'nikishi mushkul bo'ladi. Meni, bolajonlarni o'ylab, siqilishi, o'zini kechirolmasligi mumkin!.. Bechora qaynota-qaynonamning holi nima kechadi? Qarigan chog'ida hayotning bunday qaqqhatqich zarbasiqa qanday bardosh beradi? Bu sharmandalikdan qaddi bukilib, cho'kib qolmaydimi?.. Faxriddin akam hozircha uydagilarga bildirmay tur, degandilar. Qanday aytmasadan yashirib turaman? Ertaga ular «bir og'iz aytmapsiz-da», deb yuzimga solmaydilarmi? Erim ota-onasini ayamoqchi... Lekin ular

ertaga bo'limasa indinga hammasidan xabar topishadi-ku. Uchik qulqoq eshitmay qolarmidi! Keyin mendan dargumon bo'lib yurmaydimi? Aytish kerak... Bolalar ham katta bo'lib qolishgan... Ularga ham yotig'i bilan tushuntirishim kerak...

Shunday ayanchli xayollar og'ushida o'midan turgan Nazira poklanib, bomdod namozini o'qidi. So'ng qaynotasiga qo'ng'iroq qildi:

– Assalomu alaykum, dadajon, yaxshimisiz? Uydagli... qarindoshlar...

– Vaalaykum assalom, qizim, o'zingiz yaxshimisiz? Yaxshi o'tiribsizlarmi? Bolajonlarim qalay?

– Allohg'a shukur, hammamiz yaxshi... adajon... – Naziraning o'pkasi to'lib, jimib qoldi.

– Faxriddin yaxshimi, kelin? Kecha bir-ikki qo'ng'iroq qilsam, telefoni o'chirilgan, o'ziyam bir telefon qilay demaydi-ya bu bola!

– Dadajon, – Nazira javob qilishga zo'r-bazo'r o'zida kuch topdi, – Faxriddin akamning ishlarida sal muammo chiqib qolibdi-da... Shunga...

– Muammo... Qanaqa muammo? – chohning ovozi qaltirab ketdi, – Nazira, tinchlikmi, qizim? Faxriddinning o'zi qayerda?

– Faxriddin akam Termizda... – Nazira «kecha borib ko'rib keldim» deyishiga bir bahya qoldi.

– Nima bo'ldi? Ishdan bo'shatishdimi?

– Ha, shunga o'xhash...

– Qizim... ochig'roq gapirsang-chi! O'g'limga nima bo'ldi? O'zi omonmi? Tan-joni sog'mi?

– Xudoga shukur, sog'lig'i yaxshi... Ishi bo'yicha... Hozircha... Ishdan bo'shab...

– Ey-y-y, shu ishiyam bor bo'lsin! Mansab, davlat – qo'lning kiri, keladiyam, ketadiyam! Boshi omon bo'lsin! Alloh rizqini qismasin!

– Shunga ayajonni olib, Toshkentga kelasizlarmi, degandim... Maslahatlashadigan joylariyam bor-da!

– Xo‘p, bolam, xo‘p! Hoziroq kampir bilan yo‘lga chiqamiz, – ota o‘zini tetik tutishga harakat qilmasin, baribir ovozi titrab ketdi.

Nazira og‘ir yukdan xalos bo‘lganday, go‘shakni joyiga qo‘ydi. So‘ng oshxonaga o‘tib, bolalarga nonushta tayyorladi. Maktab kiyimlarini kiyib, dasturxon boshiga kelgan o‘g‘illariga zimdan tikilib, bor haqiqatni aytishga o‘zini chog‘ladi:

– Davronjon, Dostonjon, bolajonlarim! Ko‘z tegmasin, mana, sizlar ham kap-katta yigit bo‘lib, bo‘y yetib qoldinglar. Xabarlarining bor, kecha Sanjar amakilaring bilan birga adalaringga yoniga borib keldim...

– Ayajon, adam qachon kelarkan? – dedi Doston gapning qayoqqa ketayotganini fahmlayolmay.

– Doston, jim tursang-chi... Ayam gapirib turibdi-ku! – tanbeh berdi Davron. U onasining muhim gapni aymoqchi bo‘layotganini allaqachon anglab yetgandi.

– Aka, men nima qildim, adamni so‘rayapman-da! – dedi uka beg‘uborlik bilan.

– Dostonjon, akang to‘g‘ri gapi rayapti, men gapirib turibman. Kattalarning gapini bo‘lish odobdan emas... Termizda adangni ko‘rdim, gaplashdik. Sog‘-salomat ekan... Ammo, adanglarning boshiga bir tashvish tushib turibdi...

– Qanaqa tashvish? – Davronning rangi o‘chib ketdi.

– Bir tuhmat bilan... adangni qamab qo‘yishibdi, – dedi Nazira tishini tishiga qo‘yib.

– Qamab qo‘yishdi! – Davron o‘rnidan turib ketdi: – Ayajon, nima deyapsiz? Adam prokuror-ku! Kim qamaydi?.. Nega qamaydi?

«Qamadi» so‘zini eshitib, boyadan beri ayasining gapi ni navbatdagи «tarbiyaviy soat» deb tushunib o‘tirgan Dostonning ham kapalagi uchib ketdi.

O'g'lim, bilasan, – ona bolalarini qo'rqitib yubormaslik uchun vaziyatni yumshatishga harakat qildi. adang harom-xarishdan hazar qiladigan, haqiqatgo'y odam. Sizlarga faqat halol luqma yedirib, halol kiydirib kelayapti... Shu zamonda to'g'ri so'z, haq gap ayrim betamizlarga yoqmaydigan bo'lib qolgan. Adangga shunaqa odamlar qasdma-qasd bo'lib, tuhmat uyuştiribdi. Hozir tergov ketayapti... Inshoolloh,adolat qaror topadi, haqiqat bukiлади, лекин sinmaydi. Tez kunlarda adalaring bo'htonlardan qutulib, oilamiz bag'riga qaytib keladi...

– Aytganingiz kelsin, aya, – dedi Davron boshini xam qilib.

– Bolajonlarim, adangiz kuchli, irodali inson, – dalda berishga harakat qildi ona bolalarining boshi egilib qolganini ko'rib, – sizlar ham bardam bo'linglar. Asosiysi, adajonimiz haq, jinoyat qilish u yoqda tursin, qing'ir ishlarning ko'chasiga ham yo'lamaydi. Bu savdolar ayrim g'alamislar o'ylab topgan tuhmatdan boshqa narsa emasligini yoddan chiqarmanglar. Adangiz bu mashmashalarni sizlarga aytmay turishni tayinlagandi. Ammo men buni bilishga sizlarning ham haqlaringiz bor deb hisobladim. Ertaga birovlarning og'zidan eshitib, mendan domangir bo'lib yurmanglar dedim... Ha, darvoqe, bugun qishloqdan katta otangiz bilan katta onangiz kelayaptilar.

– Voy, muncha zo'r, aya – sevinchdan baqirib yubordi Doston. So'ng akasining xo'mrayib turganini ko'rib, qo'shib qo'ydi, – Bahrom ham kelayaptimi, aya?

– Yo'q, Bahromning maktabi bor-ku... Qani, bolajonlar, maktabdan kechikib qolmanglar... Dars tugashi bilan uyga qaytinglar, ungacha mehmonlar ham kelib qolishar...

Bolalar chiqib ketgach, Nazira istar-istamas nonushsta qilgan kishi bo'ldi. So'ng dasturxonni yig'ishtirib, uyni saranjomladi. Boshi uyga sig'may, timirsikilandi. Yotoqxonasida osig'liq erining surati yoniga kelib, zimdan tikildi.

Bir zumda eri bilan tanishgan davrlar ko‘z oldida gavdalandi. O‘sanda Pedagogika institutining birinchi bosqichida o‘qirdi. Eri bilan kutubxonada tanishib qolishgandi. Ammo huquqshunoslik fakultetining oxirgi bosqichida o‘qiydigan bu o‘ktam yigit bilan kelajakda turmush qurish xayolining bir chekkasiga ham kelmagandi. Taqdir ekan-da! Peshonaga nima yozilganini oldindan bilib bo‘lmaskan. «O‘qiyman, ilmiy ish qilaman, katta olma bo‘laman» deya orzular qanotida yurgan, kunda kunora eshik qoqib kela-yotgan sovchilarni eshitishni ham, kimligini bilishni ham istamayotgan shaddod qizning besh-olti oy ichida halimday yumshab, onasiga «yaqinda bir yigitdan sovchi keladi» deb qolishi kutilmagan voqeа bo‘lgandi. Otasining «yolg‘iz qizimizni Samarqandga beramizmi?» – deb sovchilarni bir emas, bir necha marta noumid qaytarganini aytmaysizmi! Nega o‘sanda otasi – ko‘pni ko‘rgan, ziyoli inson, katta olimning bunday yo‘l tutgani sababini hali ham tushun-maydi. Kuyov bola qattiq turmaganda, balki to‘ylari ham bo‘lmasmidi? Ota-onasining bir necha marta Samarqand-dan Toshkentga sovchilikka kelib, ishni bitirolmay qayt-ganidan g‘azablangan bo‘lajak kuyovning tap tortmay qaynota bo‘lmishning oldiga kirib kelgani-chi! Hamma yo-qasini ushlab qolgandi... Yigitning mardlarcha «Nima, siz meni mensimayapsizmi? Ko‘rasiz, hali men katta prokuror bo‘laman, qizingizni baxtli qilaman» degani-chi! «E-e-e, shunaqami, chapani yigit ekansiz-ku, keling, bir imtihon qilaylik-chi, o‘ta olarmikansiz» degan qaynota ham mard ketib. Imtihon boshlangan. «Domla» «talaba»ni siqib, su-vini ichgan. Ko‘pni ko‘rgan olimga bu sarkash yigitning samimiyligi va beg‘uborligi, qat’iyatlari va jasurligi, tirishqoq va dadilligi, bilimli va zukkoligi yoqib qolgan. Uzoq suh-bat-sinovlardan so‘ng bo‘lajak qaynota «sen bola menga ma’qul tushding, qizimni bersam, senday yigitga beraman-da» deya dangal bir qarorga kelgan-qo‘ygan... Ko‘p o‘tmay

to'y bo'lgan... Yosh bo'lishiga qaramay o'z maqsadiga erishish yo'lida shunday qat'iyat ko'rsatgan, mard inson bugun tutqunlikda, erksizlikda xor-u zor va muztar bo'lib, kuni sanab yotganiga nima deysiz? O'z kuchi, o'z iqtidori bilan viloyat prokurori o'rinnbosari darajasiga erishgan ziyrak va hushyor bu inson qayerda adashgan bo'lishi mumkin, qanday qilib shu holatga tushib qoldi ekan-a? Tuhmat qurbanbi bo'ldi, deyishayapti. Ha, tuhmatning toshi og'ir bo'ladi, deyishadi. Rost ekan. Bo'htonni kim qiladi? Dushman! Ha, ha dushman! G'anim qayerdan paydo bo'ladi? Ko'rolmaslikdan, murosasizlikdan... Faxriddin akam ham kimlar bilandir murosa-yu madora yo'llini tanlashi kerakmidid?! Shunda dushmanlari bo'lmasmidi, tuhmat ham qilishmasmidi... Yo'q, yo'q, osmon uzilib yerga tushsa ham bu odam unaqa qilmasdi, unaqa qilolmasdi, bunga vijdoni yo'l qo'ymasdi. Bunday pastkashlikni ixtiyor qilgandan ko'ra, qamalib ketishni afzal ko'rgan bo'lardi... Shularni o'ylab, Naziraning ko'ngli qandaydir g'ururga to'lganday bo'ldi. Shunday jasur, mard, ayni paytda halol va pok insonning jufti haloli bo'lganidan qalbida o'zgacha bir iftixor, faxr hislari jo'shdi...

Kechga yaqin halloslab, chol-kampir kirib kelishdi. Nazira ularni ko'rib, o'zini tutib turolmadi, ko'zlari jiqla yoshga to'ldi.

– Kelinjon, yaxshimisan, bolam, nima bo'ldi, tinchlikimi? – cholining «o'g'ling ishdan bo'shabdi» degan gapidan ichi ilvirab kelayotgan Hanifa aya kelinini bu qadar aftodahol ko'rib, qo'rqiб ketdi, – Faxriddinjon qayerda?

– Dadajon, ayajon, yaxshimisizlar? – Nazira qaynota-qaynonasini o'z ota-onasiday mehr bilan bag'riga bosib ko'rishar ekan, hamon ko'z yoshlarini tiyolmasdi.

– Bolam, qo'y, xafa bo'lma, ish bo'lsa, topilar, jonlar ring omon bo'lsin, – dedi yig'lamoqdan nari-beri bo'lib

turgan Karim ota ko'ngliga kelganlari yolg'on chiqishini Xudodan o'tinib.

– Faxriddinjonim qayerda? – kampir ham bir noxushlikni sezganday yig'lamsirab, keliniga termildi.

– Ayajon, dadajon, – Nazira chol-kampirni ortiqcha xavotirga solmaslik uchun bor gapni aytishga chog'landi, – Faxriddin akam Termizda... sog'-omon... kecha ko'rib keldim... Faqat... faqat... qamab qo'yishgan...

– Nimaga qamaydi, kim? – kampirning tili aylanmay qoldi, oyoqlari titrab, shilq etib o'zini tashlab yubordi.

Kelin-qaynota Hanifa ayani suyab, amallab divanga yetqizdilar. Karim ota qaltiroq qo'llari bilan sumkasini titkilab, dori chiqarib, kampirining og'ziga tiqdi. Mushtipar ona sal o'ziga kelib, yana keliniga yolvordi:

– Qizim, ayt, bolamga nima bo'ldi?.. Bolamga nima qildi? Qani u?

– Ayajon, tinchlaning! Faxriddin akam soppa-sog', bir tushunmovchilik sabab vaqtincha ushlab turishibdi... Uchto'rt kun ichida... qo'yib yuborishadi...

– Nega qamashadi, nimaga qamaydi? Nimalar qilib qo'yding, bolama... bolajonima... Endi nima qilamiz, endi nima qilaman! Iloyo qasd qilganlar past bo'lsin-a! Subhanolloh, subhanolloh... – Ona yaralangan qushday pitirlar, nima deyotganini dabdurustdan tushunib bo'lmasdi.

– Bo'ldi, kampir, anglashilmovchilik bo'lgan deb turibdi-ku. Buncha vahima qilmasang! Bolang qing'ir ishga qo'l urmasligini bilasan-ku! – dedi divanning chetida muvaqqatgina o'tirgan Karim ota kampirini ovutishga urinib.

– Unda nimaga qamaydi? Dunyo beso'rovmi? Begunoh odamni so'rab-surishtirmay...

– So'raydiganlar ham bordir? Tergov bor, sud bor! Nomid bo'lmaylik... Sen unday qilma-da, onasi! Hozir qon

bosimning oshib, kasal bo'lib qolasan! – dedi ota qandaydir o'zgacha mehr bilan kampiriga termilib.

Bolamni ko'rishim kerak, bolajonimning oldiga boraman!

– Bo'ldi, kampir, boramiz desang, boramiz. Faqat sen sal o'zingga kelib ol...

– Men yaxshiman... Faxriddinimni ko'zim bilan ko'rmasam, yuragim joyiga tushmaydi, otasi... Hoziroq yo'lga chiqaylik...

– Ayajon, o'g'lingiz bu xabarni sizlarga aytmasligimi-ni tayinlagandi. Bir-ikki kun o'tsin, sizlarni o'zim boshlab boraman. Oldiga kirib chiqish ham qiyinroq... sizlar begona joylarda bekorga sarson bo'lishlaringiz mumkin...

– Sarson bo'lsak ham mayli, bolamni ko'rsam, diydoriga to'ysam bo'lGANI!

Kelin-qaynota bir amallab Hanifa ayani ikki-uch kundan so'ng Termizga borishga ko'ndirishdi...

\* \* \*

Faxriddin kun bo'yи viloyat xavfsizlik xizmatining yerto'lasida ko'ksini zaxga bosib yotdi. Uning burni kamерaning qandaydir yoqimsiz, qo'lansa hidiga allaqachon o'rgangandi. Tepada miltirab turgan chiroq xonani yoritollmagani yetmaganidek, odamning ko'nglini ham xira qildi. Kechga yaqin eshikdag'i tuynuk sharaqlab ochilib, erkak kishining «ujin» degan hayqirig'i ostida bir bo'lak buxanka non bilan yovg'on sho'rva tashlab ketishdi. Yigit kuni bilan tuz totmagan bo'lsa-da, yovg'on ta'biga o'tirmadi, non bilan qornini «aldab» qo'ydi...

Kech soat yettilarga yaqin kameraning temir eshigi ochilib, xonaga yoshi elliklardan oshgan, qorachadan kelgan, daroz kishini boshlab kelishdi. U kiyinishi va rang-ro'yidan ziyoli inson ekanligi ko'rini turardi. Eshik yopilgach, mahkum nima qilishini bilmay, ostonada serrayib turib qoldi.

Faxriddin bu joyga dastlab kelgan har qanday kishi o‘zini yo‘qotib qo‘yishini bilgani uchun o‘rnidan turib, sherikka dalda berishga urindi:

– Keling, aka, assalomu alaykum, marhamat, mana bu o‘ringa joylashib oling.

– Rahmat, ukajon, – «mehmon» istar-istamas qadam tashlab, bo‘s sh turgan temir karavotning chetiga g‘ijirlatib o‘tirdi.

– Taqdir bizlarni shu joylarda uchrashishga buyurgan ekan, tanishib qo‘yaylik, mening ismim Faxriddin Karimovich, – dedi ikki-uch kundan buyon hech kim bilan gaplashmasdan zerikib o‘tirgan «mezbon».

– E-e-e, viloyat prokurorining o‘rinbosari... Faxriddin Karimovich... men sizni taniyman. Siz haqingizda ko‘p iliq gaplarni cshitganman, – «mehmon» o‘rnidan turib, «mezbon»ga qo‘l cho‘zdi, – Abdug‘ani Qahhorov – fuqarolik ishlari bo‘yicha Qumqo‘rg‘on tuman sudining sud-yasi... edim. Siz meni tanimasangiz kerak... Majlislarda bir-ikki uchrashgandik.

– Shunaqami? Hamkasb ekanmiz... Tanishganimdan xursandman...

– Faxriddin Karimovich, sizni toza, halol prokuror, hech qachon pulga sotilmaydi, deyishgandi... Keyin, pora bilan qo‘lga tushibdi, degan gaplar tarqab qoldi, tinchlikmi? Yoki... uyushtirishdimi? Odamlar sizni tuhmatga qoldi deyishmoqda...

– Peshonamizda bor ekan-da, nima qilamiz! – Faxriddin tanimagan odamiga dardini doston qilishni istamadi. Negaki, uning dilidan «balki ayg‘oqchidir» degan fikr o‘tgandi.

– Peshona, peshona deymiz, aslida hammasiga o‘zimiz sababchi! To‘g‘ri, siz hech kimdan pora olmagan bo‘lishingiz mumkin. Ammo qayerdadir xatoga yo‘l qo‘ygansiz. Arining iniga cho‘p tiqqansiz yoki qaysidir bir

shaytonning oldini kesib o'tgansiz... Bu zamonda shunaqa qilib bo'ladimi? To'g'ri so'z tuqqaningga yoqmaydi! Olmasang, bermasang – ishlab bo'lmaydi. Quruq qoshiq og'iz yirtar deganlariday, «qurug'i»dan, «ko'ki»dan uzatib turmasang, rahbarlarning ko'ziga baloday ko'rinasan. Halol bo'lsang, qurumsoq deyishadi! To'g'ri so'zni aytsang, betga chopar, mahmadona deyishadi...

– Juda unchalik emasdир, – e'tiroz bildirdи Faxridin, – oramизда qanchadan-qancha halol, to'g'riso'z, vijdonli kishilar ishlab yuribdi-ku!

– Bilmadim, Faxriddin Karimovich, bilmadim. To'g'-riga kun, yomonga o'lim yo'q deydigan zamon bo'lib qoldi, – sobiq sudyaning dardi bolalab ketdi. – Mana, men, ko'p yillar ijrochi bo'lib ishladim. Oylik kam, besh bolani boqish kerak... Hammasiga chidadik. Kelajakka umid qilib, sirdan huquqshunoslik fakultetini bitirib oldim. Shu davrda oila tashvishlari xotinning gardaniga tushdi. U bechora ham hali yaxshi kunlar kelishiga inonib, tishini tishiga qo'yib maktabda o'qituvchilik qildi, uyda mol boqdi. To'rt bolani boqishning o'zi bo'ladimi? Nihoyat universitetni tamomladim. Oradan uch yil o'tib, qirqdan oshganda Surxondaryo viloyatiga sudya etib tayinlandim. Endi hammasi yaxshi bo'lib ketar, qiyinchiliklar, ko'rgan azoblarimiz unut bo'lar deb o'ylagandik... Afsus... Oilamiz bilan Surxondaryoga ko'chib keldik. Uy muammosi ko'ndalang bo'ldi... Bu yoqda xotinga ish topish, bolalarni maktabga joylash... Birikki oy topganimiz uy ijarasiga ketib, yeyish-ichishimiz ham muammo bo'lib qoldi. Xullas, xotin, bolalarni olib, Samarqandga ketishga majbur bo'ldi... Hovlida uch-to'rtta mol-holing bo'lsa, hechqursa, osh-qatiq beminnat bo'ladi! Ijaraga olingan uyda men bir o'zim yashab yuraverdim. Oladigan moyanam ijara haqiga, yo'l puliga, yeyish-ichi-shimga bazo'r yetardi. Oilaning tashvishi yana xotinga qol-

di... To‘g‘ri, bizning ishda «ishimni to‘g‘irlab bersang, uncha beraman, muncha beraman» deydiganlar ko‘p bo‘ladi. Tezda boyib, muammolaring ham hal bo‘lib ketishi, uy, mashina olishing, hashamga berilishing mumkin. Shunday yo‘l tutganlar, boyib, semirib, oshig‘i olchi bo‘lib ketgani yetmaganday, mansab pillapoyalaridan ham tezgina ko‘tarilib, «katta» odam bo‘lib ketishdi. Pora olishni bilgan odam, berishni ham bilarkan-da! Bizga o‘xshaganlar esa topgan-tutgani o‘ziga yetmay, xotini, bolalari oldida mulzam bo‘lib, ikkita odamning orasiga qo‘shilolmay, birovga dasturxon yozolmay chorig‘ini sudrab yuraverarkan... Uzr, Faxriddin Karimovich, o‘z dardimni aytib, sizni zekritirib qo‘ymadimmi? Sizning ham o‘z dard-u g‘amingiz o‘zingizga yetib turganda, birovning diydiyosi...

— Yo‘q, yo‘q, gapiravering, — Faxriddin hamxonasiga yaqinroq o‘tirdi, — odam taftini odam oladi!

— Bilasizmi, bizning jamiyatda jinoyatchi bo‘limgan odamniyam majburlab jinoyatchi qilib tarbiyalashadi... 2004-yilda sudyalikning ikkinchi muddatiga tayinlanganidan keyin, Qirg‘izistonning Issiqko‘l shahrida sudyalarning xalqaro tadbirida qatnashishga to‘g‘ri keldi. Markaziy Osiyo va Rossiya sudyalari ishtirok etgan seminarda sudyalardan o‘zlarining ish haqlari miqdorini aytib berish so‘raldi. Shunda tojikistonlik sudyalarning ish haqi 15 AQSH dollari, Qozog‘istonlik sudyalarmiki 300–400 AQSH dollari, Rossiyalik sudyalarmiki 700–800 AQSh dollariga teng ekanligi ma’lum bo‘ldi. Biz — o‘zbekistonlik sudyalarning ish haqi o‘sha davrda 50 AQSH dollariga teng edi. Biz chet ellik hamkasblarimizga buni aytishga orlanib, ish haqimiz miqdorini so‘mda aytib turaverdik. Hozir sudyalarning ish haqi nari borsa, 100 AQSH dollariga teng. Xo‘s, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring-chi, bu moyana ijaraga, kommunal to‘lovlarga, yo‘lkira haqi, yeyish-ichishga, kiyinishga yetadimi? Sudya to‘y qilmaydimi, mehmonga bormaydimi, or-

zu-havas qilishga haqqi yo‘qmi? Uy qurgisi, mashina mingisi kelmaydimi? U sho‘rlik kasal bo‘lmaydimi, sanatoriya, kurortlarda dam olgisi kelmaydimi? Ish ko‘rib turganiningda xotining qo‘ng‘iroq qilsa, «o‘g‘lingizning tuflisi yirtilibdi, qizingizning paltosi yo‘q, maktabga borolmay o‘tiribdi» desa, otangiz-onangiz qo‘ng‘iroq qilib, «bolam dorim tugabdi, olib bera olasanmi?» – desa, gazdan, elektr energiyasidan, issiq suv, sovuq suvdan kelib, «qarzdorligingiz oshib ketibdi, to‘lamasangiz uzib ketamiz!» deya oyoq tirab turib olsa, sudya bechora nima qilsin? Boshini qayga ursin? Ota-onasi, yaqinlari tadbirkor, puldor bo‘lsa, muammo bo‘lmasligi mumkin. Ammo, sudyaning o‘zi katta bir oilanning boquvchisi bo‘lsa. Rahbariga sudyalarining ish haqini oshirish to‘g‘risida taklif bilan kirishganda, nima deganini bilasizmi? «Bu muttahamlarning bari poraxo‘r, ish haqining ularga nima keragi bor!» deganmish-a! Bu nima degani? «Porangni olib yuraver, ish haqi senga nimaga kerak!» degani emasmi? Davlat masalaning yechimini shu tahlid hal qilmoqchi bo‘layotganini qanday tushunsa bo‘ladi? Bu davlatning barcha poraxo‘rlikka keng yo‘l ochib berayapti, deyishga asos bo‘lmaydimi? Bu jamiyatning barcha qatlamlarida tobora ko‘proq ildiz otib ketgan poraxo‘rlik illatini rag‘batlantirish emasmi? Men masalani birgina sudyalar misolida aytayapman. Aslida hamma davlat xizmatchilarining ahvoli xuddi shunday. Masalan, Faxriddin Karimovich, siz prokurorsiz, viloyat miqyosidagi katta rahbarsiz, insofli, diyonatli, poraga berilmagan, halol xodimsiz. Oyligingiz biznikidan ko‘proq bo‘lishi mumkin... Bolalardan nechta? Kelin ishlaydimi?

– Ikki o‘g‘limiz bor, keliningiz ishlaydi, – dedi Faxriddin gapning qayoqqa qarab borayotganini anglaganday bo‘lib.

– Ana, yaxshiyam oilangiz ixchamgina ekan, – og‘zidan so‘lagi sachrab gapida davom etdi Abdug‘ani, – ke-

lin ishlarkan. Topgan tutganlariningiz to'rt joning yeyish-ichishi, kiyinishi va boshqa xarjlariga yetadimi?

— Nolimayman... Xudoga shukur... yetib turibdi-ku, — kalovlandi Faxriddin, — boshpanamiz bor, yeyish-ichish-dan kamimiz yo'q...

— Ana, ko'rdingizmi? Katta rahbar bo'lsangiz-da, qo'l uchida kun ko'rasiz. Dala hovlingiz, uchastkangiz, mashi-nangiz yo'q...

— To'g'ri, — dedi Faxriddin kulimsirab, — ishxona-dan dala hovli uchun yer berishgan, hali qurolganimiz yo'q, lekin eskiroq bo'lsa-da, «Neksiya»miz bor, kreditga olgan-miz...

— Unda chidasa bo'ladi! Menam shuncha yil chidab yurgandim... Yaqinda tobim qochib, bir oy shifoxonada davolanishimga to'g'ri keldi. Dori-darmonlarni bilasiz, falon pul turadi. Xarajatlar ko'payib, oshna-og'aynilardan qarz ko'tarishga ham to'g'ri keldi. Ishonsangiz, tushlik qiliшgayam qiynalib qoldim. Oilang uzoqda bo'lsa, yomon bo'larkan... Shunday kunlarning birida ishxonadan chi-qib ketayotsam, bir yigit kelib, quyuq so'rashdi va tush-likka taklif qildi. Uning men ko'rayotgan qaysidir bir ish bo'yicha taraf sifatida o'tayotganini bilardim. Shunday bo'lsa-da, shayton yo'ldan urib, yigitning taklifiga «xo'p» deb yuborganimni bilmay qoldim. Birga ovqatlandik. Yigit juda sertakalluf va do'lop ekan, dasturxonni to'ldirib tash-ladi. Bir-ikki kun o'tib yana keldi. Bir do'stining qarzdor-liкni undirish to'g'risidagi ishini tezlashtirib ko'rib berishni iltimos qildi va stolim ustiga 100 ming (bir pachka 1000 so'mlik) so'm qo'ydi. Menga pul zarur edi. Vijdonimga xilof bo'lsa-da, pulni olib tortmaga solib qo'ydim. Yigit xayrlashib chiqib ketdi. Oradan bir zum o'tmay xavfsizlik xizmati xodimlari kelib meni qo'lga olishdi... Shu arzima-gan pulni deb, o'zimni xarob qildim. Muhtojlik odamni har ko'yga solar ekan-da! Pul zarur bo'limganda, shayton

yo'liga kirmagan bo'larmidim... Shuncha yillar tomchilab yiqqan obro'-e'tiborim birpasda yer bilan bitta bo'ldi! Qarigan chog'imda peshonamga «poraxo'r», «jinoyatchi» degan tamg'a yopishtirildi!

— Yaxshi ish bo'lmapti, — dedi Faxriddin suhbatdoshiga dalda berish niyatida, — arzimagan pul uchun... Birortasidan qarz so'rab tursangiz bo'larmidi...

— Qarzni qaytarish kerak. Vaqtida qaytarolmasang, bu ham bir g'urbat, yuzi shuvit bo'lib qolasan... Qaytaradigan joying bo'lmasa, tumshug'inggacha qarzga botib ketasan kishi... Azaga kelgan har kim o'z dardini aytib yig'laydi, deganlariday hasratlarim bilan sizniyam bezor qilib yubordim...

— Yo'q, yo'q, hammasi joyida!

— Meni qo'ya turaylik, sizga yo'l bo'lsin?

— Shunaqa bo'lib qoldi-da... Nima deysiz endi, peshonada bor ekan-da! — dedi Faxriddin istar-istamas, — yemagan somsa uchun pul to'lashga to'g'ri kelayapti...

— Mayli, mayli... Aytgingiz kelmasa, aytmay qo'ya vering. Dardingizni yangilamoqchi emasman... Xudo xohlasa ko'rmaganday bo'lib ketasiz...

Hamxonalar allamahalgacha suhbatlashib, dardlashib o'tirdilar...

\* \* \*

Sanjarbek kechgacha kiprik qoqmay qog'ozlarga ko'milib o'tirdi. Jinoyat ishining ayrim varaqlarini takror o'qidi, qog'ozlarga nimalarnidir chizdi, o'chirdi. So'ng fikrini bir joyga jamlab, katta-katta harflar bilan miyasida pishib yetilgan taxminlarni qog'ozga tushirdi:

Birinchi taxmin — ular turli xil shart-sharoitlar ta'sirida uylaridan chiqib ketgan va o'zlariga bog'liq bo'laman holatlar tufayli uylariga kelish va yaqinlari bilan aloqaga chiqish imkoniyatidan mahrum. Bu holda voqeani baxtsiz hodisa sifatida talqin qilish lozim bo'ladi.

Ikkinci taxmin – qotillik odamxo'r – «manyak» tomonidan sodir etilgan. Qotil, asosan, yosh bolalarni qiy-nab o'ldirishni o'ziga «hobbi» qilib olgan. U shu qishloq-da yashaydi yoki uni shu qishloq bilan bog'lovchi boshqa shaxs bor. Yoxud manyak boshqa joyda yashasa-da, tergovni chalg'itish maqsadida qurban ni aynan shu qishloq-dan tanlagan.

Uchinchi taxmin – jinoyatchi odam a'zolari transplantatsiyasi bilan shug'ullanuvchi shaxs. U, asosan, yosh bolalarni o'ldirib, yuragi, buyragi, jigarini mahalliy yoki xorijiy sheriklariga sotish bilan shug'ullanadi. Bu holatda ham jinoyatchi shu qishloqda yoki boshqa qo'shni qishloqlarda yashashi ehtimoldan xoli emas.

To'rtinchi taxmin – bolalar qasos olish, pul undirish, ko'rolmaslik va boshqa g'araz maqsadlarda o'g'irlab ketilgan va maxsus joyda saqlanmoqda.

Beshinchi taxmin – qotillik bolalarning yaqinlari tomonidan oiladagi kelishmovchilik va boshqa moddiy manfaatlar zamirida sodir etilgan.

Kechki payt tergov guruhi a'zolari to'plandi. Rahimjon to'planganlarga guruhning yangi rahbarini tanishtirdi:

– Sanjar aka Rahmonov Bosh prokuraturadan, juda tajribali tergovchi, juda murakkab jinoyatlarni fosh qilgan. Guruhga endi u kishi rahbarlik qiladi.

Yangi rahbar yigitlar bilan betakalluf ko'rishib chiqdi. Tezkor vakillardan biri «biz shunchamiz ocholmagan ishni sen bir o'zing nima qillarding» deganday sherigiga ma'noli qarab qo'ydi. Bu, albatta, «mehmon»ning e'tiboridan chetda qolmadи.

Rahimjon guruh a'zolarini birma-bir tanishtirib chiqdi.

– Bu yigitning ismi Jo'raboy, – dedi u bir chekkada o'tirgan yoshgina yigitni tanishtira turib, – yuridik universitetning uchinchi bosqichida o'qiydi. Bizga amaliyot o'tashga kelgan. Tergovga juda qiziqarkan. «Shu ishni ter-

gov qilishda qatnashay, sizlarga yordamim tegadi», – deb hol-jonimga qo‘ymay turib oldi. Ruxsatingiz bilan...

– Mayli, mening qarshiligidim yo‘q, – dedi Sanjarbek bolaga e’tibor ham qilmasdan, – Rahimjon, men bir narsani tushunmay turibman. Nima sababdan birinchi holat bo‘yicha, hech bo‘lmaganda ikkinchi holat yuz bergandan so‘ng jinoyat ishi qo‘zg‘atilmagan? Bir mahalladan ikki bola yo‘qolib qolgan... Ikkinchi holat bo‘yicha, mayli, qaysidir ma’noda bolani bedarak yo‘qolgan deb hisoblashga asos bordir. Bolani suvga tushib ketib, baxtsiz hodisa ro‘y bergen deb hisoblash mumkin. Ammo birinchi holatda yosh bola otasining mashinasida uydan chiqib ketib, qaytib kelmagan, mashina ham topilmagan. Bu bolaning jinoyat qurboni bo‘lishini anglatmaydimi? Bunda bolani bedarak yo‘qolgan deyish uchun qanday asos bor? Endi masalaga har ikkila hodisa nuqtayi nazaridan baho beradigan bo‘lsak, voqeanning aynan bir qishloqda sodir etilganligi, jabrlanuvchilarining har ikkalasi ham voyaga yetmagan shaxs ekanligi, murdalarning topilmaganligi jinoyat alomatlari mavjudligini anglatmaydimi? Mana, jinoyat ishi qo‘zg‘atmasdan qo‘l qovushtirib o‘tirishlarining oqibatida uchinchi jinoyatga yo‘l ochib berildi, yana bir bolaning gulday umri xazon bo‘ldi...

– Sanjar aka, men tergovchi sifatida yuz foiz siz taraфman. Ammo joylarda negadir shunaqa noto‘g‘ri amaliyot ketgan, hayronman, – kalovlandi Rahimjon, – bolalar o‘limi bilan bog‘liq qotillik ochilmay qolsa, bilasiz, katta «shov-shuv» ko‘tariladi... Jinoyat ochilmaguncha hech kimda tinim bo‘lmaydi... Shuning uchun rahbarlar bolani bedarak yo‘qolgan deb topib turishni ma’qul ko‘rishdi... Bundan tashqari, bilasiz, qotillik jinoyat ishi majburiy o‘lim belgilari bo‘lgan murda topilgan yoki bedarak yo‘qolgan shaxsni majburiy o‘ldirilgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida taxmin qilishga yetarli asoslar

bo‘lganda qo‘zg‘atiladi. Bizda esa Nuriddinning majburiy o‘ldirilganligidan dalolat qiluvchi hech qanday asos...

— Asos bo‘lmagan deng, — Sanjarbek tergovchining so‘zini bo‘ldi, — kriminalistika fanini yaxshi o‘zlash-tirganingizga shubha yo‘q. Ammo e’tiboringiz uchun biz bu qoidani inson manfaatlardan kelib chiqib, boshqa-charoq tushunamiz. Ya’ni, bedarak yo‘qolgan shaxsning o‘ldirilganligini inkor etuvchi to‘liq, ishonchli asoslar bo‘lganda, jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilishi lozim. Bunda tergovchi o‘scha shaxsning o‘ldirilmaganligi to‘g‘risidagi yetarlicha, asoslantirilgan dalillarni ko‘rsatishi shart. Agar tergovda qidirilayotgan shaxsning o‘z uyini tashlab ketishiga hech bir asos bo‘lmasa, uning o‘ldirilgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi taxmin bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atish lozim bo‘ladi. Men jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib, voyaga yetmagan Barnoning ham, Nuriddinning ham o‘z uyini tashlab, bosh olib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan asosni ko‘rmadim. Aminmanki, bunday asos sizlarda ham yo‘q... O‘z vaqtida jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasligi, maqsadli dastlabki tergov va tezkor qidiruv ishlarini olib borilmasligi, ushbu hodisalarning dolzarbligiga yetarlicha baho berilmasligi yanada noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ozodlikda qolgan qotil boshqa jinoyatni sodir qilishi hamda o‘zi sodir etgan qotillikning izlarini yo‘qotishi turgan gap. Shuningdek, tabiatning noxush ta’siri jinoyat izlarini qayta tiklab bo‘lmaydigan darajada o‘zgartiradi yoki yo‘qotib yuboradi... Aslida buni o‘ta og‘ir jinoyatni yashirish deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Natijada jinoyat uchun jazoning muqarrarligi tamoyili qo‘pol ravishda buzildi, jinoyatchida qilgan noma‘qulchiligi uchun jazodan qutulib qolish kayfiyatini uyg‘otish bilan birga yangi jinoyat sodir etishga rag‘bat hissini paydo qildik... Qolaversa, yana bir begunoh norasida bolaning hayotiga zomin bo‘ldik. Yana bir oilani qayg‘u-alam domiga cho‘ktirdik...

Mayli, bu boshqa masala, lekin aytib qo'yay – tergov nati-jalari bo'yicha og'ir jinoyatni yashirgan, insonlar taqdiriga panja orasidan qaragan xodimlarning javobgarligi masalasi alohida ko'rib chiqiladi..

Markazdan kelgan yangi rahbarning gaplari yig'ilganlardan ayrimlariga malol kelib turgan bo'lsa-da, sinalmagan otning sirtidan o'tma, deganlaridek, hech kim unga e'tiroz bildirishga jazm qilmadi.

– Endi menga har uchala holat bo'yicha tezkor-qidiruv ishlarining borishi haqida axborot bersangiz, – dedi tergovchi stol ustidagi qog'ozga ko'z qirini tashlab, – marhamat Aloviddin Istamovich!

– O'rtoq boshliq, bizam qarab o'tirganimiz yo'q, – deya qandaydir bir bepisandlik, kalondimog'liq bilan gap boshladи jinoyat-qidiruv bo'limi boshlig'i. – Birovning qo'li bilan tikan yulish oson... Qo'limizdan kelgan hamma ishni qildik... Jinoyat ishi qo'zg'atish-qo'zg'atmaslik bizning ish emas! Bizlar oddiy tezkor xodim bo'lsak, rahbarlar nimani buyursa, shuni bajaramiz...

Sanjarbek har soniya g'animat bo'lgan ayni damda o'pka-ginaxonlik qilib, adi-badi aytishib o'tirishdan naf yo'qligini his qilib, gapni boshqa yoqqa burdi:

– Mayli, bu gap-so'zlarni qo'ya turaylik, Aloviddin Istamovich, siz ayni paytda qilinayotgan tezkor-qidiruv ishlarining borishi haqida batafsilroq gapirib bersangiz.

– Albatta, albatta, – deya tomoq qirib, avvalgi shashtidan biroz pastlab gap boshladи izquvar, – birinchi holat bo'yicha kuni kecha bolani oxirgi marta ko'rgan odamni topishga erishdik. Hali tergovchilar ham bundan bexabar.

– Xo'sh, xo'sh, shundan gapiring-da! – Sanjarbekning yuzida ilk bor mammunlik ifodasi zohir bo'ldi.

– Mardon akaning aytishicha, o'sha kuni u Toshkentdan – o'rtog'ining to'yidan qaytib kelayotgan ekan. Kechki soat sakkizlar atrofida Chinozdan chiqaverishdagи

bekatda qo‘lida yelim idish tutgan Barno uni to‘xtatgan va mashinasining yonilg‘isi tugab qolganini aytib, oz-roq benzin berib turishini so‘ragan. Lekin «Neksiya»dan benzin olishning imkonи bo‘lmagan uchun Mardon aka hamqishlog‘iga yordam berolmagan. «Birorta «Jiguli»mi, «Moskvich»mi kelib qolsa, ulardan olarsan», – deb yo‘lida davom etgan. O‘shanda Mardon Barnoning «Lasetti»sida yana kimdir o‘tirganini payqagan. Ammo qorong‘i bo‘lgани uchun yo‘lovchining kimligini taniyolmagan. O‘zicha, o‘rtoqlaridan birortasi bo‘lsa kerak, degan xayolga borgan.

– Barno xolasinikiga yolg‘iz o‘zi borgan-ku!

– To‘g‘ri, xolasi va uning uyidagilar jiyanolari bilan birga kelgan sherigini ko‘rishmagan. Shu sababli biz «she-rik» birga kelib, xolanikiga kirmagan, qayerdadir Barnoni kutib turgan bo‘lishi mumkin, deb hisobladik. Yoki Barno uyiga qaytishda uni mashinasiga yo‘lovchi sifatida chiqaz-gan.

– Guvoh shu qishloqda yashasa, nega u o‘sha paytda so‘roq qilinmagan? – guruh rahbari nimanidir yondaftari-ga qayd eta turib so‘radi.

– Mardon akani o‘sha paytda so‘roq qilganmiz, – gapida davom etdi Aloviddin, – hech kimni ko‘rmaganman, hech narsa eshitmaganman, deb tushuntirish xati bergen. «Nega unaqa qildingiz?» – desam, – «aytganimda o‘zimni sudra-sudra qilardinglar, yuz marta chaqirib, hol-jonimga qo‘ymasdinglar, balki bolaning yo‘qolishida sening qo‘ling bordir, deya qamab qo‘yishlarining ham mumkin edi», – deydi-ya, nomard...

– Baribir aytibdi-ku, nima o‘zgardi?

– Ikkinci holat ro‘y berganda rosa vijdoni qiyngangan-mish. Uchinchi holat yuz bergach esa chidab turolmabdi. Shuncha begunoh bolalarning bedarak yo‘qolishida o‘zini ham aybdordek his qila boshlabdi. Shuning uchun «biror foydasi tegar» degan fikrga o‘zi keldi.

– Vijdoni kech bo‘lsayam uyg‘onibdi-da! Nega odamlarimiz shunaqa, bilasizlarmi? – SanjARBek savol nazari bilan yig‘ilganlarga qaradi va hech kimdan sado chiqmagach, qo‘srimcha qildi, – bunga aslida o‘zimiz sababchimiz. Guvoh «ko‘rdim, eshitdim, bildim» desa tamom, baloga qoladi. Avval uni o‘zini gumondorlar safining bo-shiga qo‘yamiz, unga xuddi jinoyatchiday qo‘pol munosabatda bo‘lamiz, aybi isbotlanmay qolganda ham avval surishtiruvga, keyin tergovga, sudga chaqiraverib, sillasini quritamiz! Guvohni himoya qilish kerakligini o‘ylab ham ko‘rmaymiz!

Yig‘ilganlar «to‘g‘ri» deganday bosh irg‘ab qo‘yishdi.

– Mayli, davom eting. Mardon o‘sha shaxsning gavdasi, kiyimi yoki birorta xos belgisini eslab qolmaganmikan?

– Yo‘q, yo‘q, ko‘cha qorong‘i bo‘lgan. Faqat ko‘chadan mashina o‘tgan paytda chiroqning shu’lasi tushganda mashinaning old o‘rindig‘ida kimdir o‘tirganiga ko‘zi tushgan. Shunda u «ikki kishi ekan-ku, o‘zлari bir amallar» degan fikrga borgan ekan. Hozir yigitlarimiz Barnoning mashinasida o‘tirgan shaxsning kimligini aniqlash uchun uning sinfdoshlari, qo‘ni-qo‘shnilari, qarindosh-urug‘lari bilan ishlashayapti. Mabodo bular orasidan o‘sha shaxsni topish imkonи bo‘lmasa...

– Balki o‘sha shaxs oddiy yo‘lovchi bo‘lib chiqsachi, – dedi SanjARBek hamkasblarini munozaraga chorlab, – Yallamada ko‘pchilik poytaxtda ishlarkan. Kechki smenadan chiqib... Shu sababli, avvalo, qishloqdan Toshkentga qatnab ishlovchilarining ro‘yxatini tuzish lozim. Shundan keyin ularning orasidan o‘sha kuni ishga chiqqanlarni saralab, gumondorlar doirasini qisqartirish mumkin.

– Balki o‘sha shaxs qishloqqa mehmonga kelayotgандир, – Rahimjon fikr bildirdi, – balki biror yumush bilan shaharga tushgan odamdir, balki qo‘shni qishloqdандир...

— To‘g‘ri, — hamkasbini quvvatladi guruh rahbari, — bu taxminlar ham ehtimoldan xoli emas. Ammo ularning ehtimollik darajasi juda past. Negaki, kech soat sakkiz-to‘qqizdan oshganda mehmonga faqat favqulodda hollardagina kelish mumkin. Shaharga yumush bilan chiq-qanlarning ham bunaqa kech mahalda yurishi kam uchraydigan holat. Qolaversa, shuncha voqealardan so‘ng ular Mardonga o‘xshab, kech bo‘lsa-da, vijdoni qiynalib, guvohlik berishga kelgan bo‘lardi. Xuddi shunaqa noma‘lum shaxsning qo‘shti qishloqligini haqidagi taxmin ham unchalik ishonchli ko‘rinmaydi. Negaki, 16 yashar bolaning kechki payt tanimagan odam qo‘l ko‘tarsa to‘xtab, olib ketishini tasavvurga sig‘dirish qiyin...

— Balki kira qilish niyatida... — Rahimjonning gapi chala goldi.

— Bo‘lishi mumkin, — Sanjarbek mantiqni ishga soldi, — shu sababli voyaga yetmagan bolaning kirakashlik qilgan-qilmaganligini ham surishtirib ko‘rish lozim. Agar bu holat tasdiqlansa, u holda gumondorlar doirasi kengayishi aniq... Qidiruv maydoni ochiladi... Mabodo Barnoning sherigi kimligi aniqlanmasa, u holda o‘sha shaxs birinchi darajali gumondorga aylanishi mumkin.

— Sal oshirib yubormadilarmi? — Rahimjon chidab turolmadi, — balki u sho‘rlik ishga umuman aloqasi yo‘q, tasodifiy yo‘lovchidir!

— Kechirib qo‘yasiz, — guruh rahbari to‘planganlarning barchasi ikki tergovchining «jangi» nima bilan tugashini diqqat bilan kuzatib turganidan ruhlanib, jo‘shib ketdi, — huquqshunoslik institutlarida bekorga mantiq fanini o‘qitishmaydi. Tergovchi, tezkor xodim qo‘l-oyoqdan ko‘ra, ko‘proq miyasiga, aqliga tayanishi, mantiqni ishga solishi talab etiladi. Men jinoyat ishi materiallari bilan tanihib chiqib, qilinadigan ishlar hali juda ko‘p ekanligini his qilgandim, o‘zimcha taxminlar tuzgandim. Shu bilan

birga ishda ilmoq soladigan, qarmoqqa ilinadigan birorta ham bo'sh joy yo'qligini angladim. Hatto har uchala holatning bir jinoyat ishiga birlashtirilishi to'g'rimikan, degan shubhaga ham borgandim. Nega desangiz, birinchi holatda voyaga yetmagan bola mashinasida uydan chiqib ketgan. Bu yerda jinoyatning motivi mashinani egallashga qaratilgan bo'lishi ehtimolga yaqinroq. Bola shunchaki shu jinoyatning qurboni bo'lgan, degan xulosa chiqarish mumkin. Ikkinchchi holatda bola velosipedda uydan chiqib ketgan. Bunda bolaning baxtsiz hodisa qurboni bo'lganligi to'g'risidagi taxmin oldingi o'ringa chiqadi. Uchinchi holatda bola qandaydir besh-o'n daqiqa ichida o'z uyi ostonasidan yo'qolib qolgan. Bunda jinoyatning uchi shu qishloqqa borib taqalayotganini anglash qiyin emas. Bilsizlarmi, men nima sababdan Mardonning ko'rsatmasiga ko'p diqqat qaratayapman? Negaki, uning ko'rsatmalar, mabodo Barnoning sherigi topilmasa, jinoyatning ildizi shu qishloqda deya taxmin qilishga asos bo'ladi. Bunda gumonlanuvchilar doirasi anchagina qisqaradi. Har uchala holat bir shaxs yoki shaxslar tomonidan sodir etilgan degan ustuvor taxmin yuzaga qalqib chiqadi.

– Gapingizda jon bor, – dedi Rahimjon hamkasbining mantiqiy xulosalar chiqarishiga tan berib, – har uchala jinoyat bir shaxs tomonidan sodir etilgan deb hisoblaydigan bo'lsak, unda jinoyatning motivi nima bo'lishi mumkin?

– To'g'ri savol. Hozircha bu haqda biror fikr bildirishga erta. Qancha boshqotirmay, birorta jo'yali motivni ko'rolmayapman. Menimcha, gap bolalarda ham bo'imasligi mumkin. Bu jinoyat bolalarning ota-onalariga qaratilgan bo'lishi ehtimolga yaqin... Rahimjon, bolalarning ota-onalari bitta mahallada yashashadi, to'g'rimi?

– Shunday, shunday...

– Ularning yana qanday yaqinligi bor? Qarindoshmi, sinfdoshmi, do'stmi?

– Nuriddinning dadasi Karim bilan Mo'minning dadasi Doniyor tengdosh, Barnoning dadasi Sodiq akaning yoshi ularnikidan sal kattaroq. Bir paytlar Karim bilan Doniyor Toshkentdag'i to'qimachilik fabrikasida birga ishlagan... Bir mahallada, devorma-devor bo'lmasayam qo'shni turishadi.

– Karim bilan Doniyor birga ishlagan...

– Ha, ammo buning hayron qoladigan joyi yo'q. Ne-gaki, bir paytlar qishloq ahlining deyarli yarmidan ko'pi shu fabrikada ishlagan. Keyinchalik fabrika nochor ah-volga kelib qolgach, ko'pchilik ishdan bo'shab ketgan. Doniyor xotini bilan ajrashib, Rossiyaga ketib qolgan. Sodiq aka xo'jalikda brigadir, keyinchalik fermer xo'jaligi rahbari bo'lib ishlagan. Hozir fabrikada faqat Karim aka ishlaydi.

– Balki bu oilalarning boshqa tarafdan, aytaylik ayollar tarafdan bir-biriga aloqadorlik joyi bordir?

– Yo'q, ayollar, ota-onalar va boshqa taraflardan ham o'r ganib chiqdik, bu xonadonlarni bog'lovchi rishtani to-polmadik. Ular mahalladosh sifatida to'y-ma'rakalarda bordi-keldi qilishgan xolos.

– Yaxshi, endi men bir narsada sizlarning fikrlarini bilmoqchiman, – dedi guruh rahbari yig'ilganlarga qarata, – Mo'min bilan Nuriddin yosh bola, «konfet bera-man, kel» desa ketaverishi, «mashinaga chiq» desa, chiqishi mumkin. Lekin Barno o'n olti yoshda, uni konfet bilan aldab bo'lmaydi. Mardonning ko'rsatmasi bo'yicha Bar-no qishloqqa qaytgan deb hisoblaydigan va shunga ko'ra har uchala jinoyatni shu qishloqda yashovchi shaxs amalga oshirgan deb faraz qiladigan bo'lsak, o'n olti yoshli o'spirin yigitni qotil qanday qilib shu yo'sinda o'g'irlash, to'g'rirog'i, yo'q qilishning uddasidan chiqqan bo'lishi mumkin?

– Menimcha, bo‘g‘ib, hushidan ketkazib, keyin rulga o‘zi o‘tirib olib ketgan bo‘lishi mumkin, – dedi izquvarlardan biri.

– Mumkin, ammo qishloqda hamma bir-birining mashinasini taniydi, Barnolarga tegishli mashina rulida boshqa kimsani ko‘rganlar darrov e’tibor qaratishi tabiiy... Jinoyatchi o‘zini bunday xatarga qo‘yadiganlar toifasiga kiradiganga o‘xshamaydi!

-- Menimcha, kira haqini uydan olib beraman, deb uyigacha olib borgan va o‘sha yerda bolani gumdon qilgan bo‘lsa kerak, – dedi izquvarlar boshlig‘i.

– Bu taxmin ham chakki emas. Biroq kira haqini uyda beraman, desa, Barno «bo‘pti, keyin berarsiz» deyishi yoki haq olmasligi ham mumkin. Kira haqi olishga borganda-yam mashinada kutib turadi, ichkariga kirib nima qiladi?..

– Mumkinmi? – deya qo‘l ko‘tardi Jo‘raboy talaba xuddi darsda o‘tirganday.

– Marhamat!

– Boya guvoh aytganday Barno yo‘lda hamqishloqlaridan birini mashinasiga chiqargan. Yarim yo‘lda mashinaning benzini tugab qolgan. Keyin mashinalardan birini to‘xtatib, ozroq benzin olishgan. Shu bilan qishloqqa yetib olishgan. Yo‘lovchi bolani o‘ldirish va mashinani qo‘lga kiritish uchun yaxshi imkon ekanligini his qilib, Barnoga «biznikiga hayda, mashinangga benzin to‘ldirib beraman» degan. Bola hamqishlog‘ining gapiga laqqa tushib, mashinani to‘g‘ri ularnikiga haydagan. Katta idishdan benzin quyish uchun mashinani ham hovliga kiritishgan... Keyin...

– E qoyil, – chapak chaldi SanjARBek, ko‘nglimdagini topdingiz-a! Ana bu taxmin haqiqatga yaqinroq desa bo‘ladi... Endi janob izquvarlar sizlar zudlik bilan Barno benzinni kimdan, qayerdan olganligini aniqlashingiz lozim. Axir mashina yonilg‘isiz yurmaydi-ku! Birinchi navbatda shu mashina to‘xtab qolgan joyga yaqin aholi so‘ralishi lo-

zim. Odatda, zamonaviy mashinalardan benzin olishning imkoni yo‘q. Demak, yonilg‘i yuk mashinasidan yoki Rossiyada ishlab chiqarilgan mashinalardan olingan. Shu sababli o‘sha atrofdagi shunaqa avtotransporti bor xonadon-larga birma-bir kirib chiqish shart. Ikkinci taxmin Barno yonilg‘ini yo‘l mashinalardan olgan ham bo‘lishi mumkin. Bunday holda yonilg‘i bergen shaxsni Yallama va uning atrofidagi qo‘shni qishloqlardan axtarishga to‘g‘ri keladi. Va nihoyat, uchinchi taxminni ham istisno qilish mumkin emas. Barno benzinni yaqin atrofdagi yonilg‘i quyish shoxobchalaridan olgan bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan yonilg‘i quyish shoxobchalarida o‘sha kuni kim navbatchilik qilganini aniqlab, ular bilan ham gaplashish lozim. Bilasizlar, shoxobchalarda idishga yonilg‘i quyish taqiqlangan. Shu sababli shoxobcha xodimlarini gapirtirish oson bo‘lmaydi...

— Tashvish chekmang, kerak bo‘lsa, gapirtiramiz, — dedi Aloviddin joyida o‘tirgancha.

Izquvarning luqmasi SanjARBekka yoqmadi, shekilli, o‘zini eshitmaslikka olib, gapida davom etdi:

— Endi ikkinchi holat — Nuriddinning yo‘qolishi bo‘yicha amalga oshirilgan tezkor-qidiruv va tergov ishlari ning borishi haqida gaplashib olsak. Marhamat, Aloviddin Istamovich!

— Nuriddin masalasida... — izquvar tomoq qirib, sal past ovozda davom etdi, — shu paytgacha uni bedarak yo‘qolgan deb hisoblaganimiz uchun qidiruv ishlari, asosan, uning o‘zini yoki murdasini topishga qaratilgandi. Bolaning baxtsiz hodisa qurboni bo‘lganligi gumon qilinib, qishloqdan oqib o‘tuvchi anhor boshdan oyoq tekshirib chiqildi.

— Velosiped o‘shanda topildimi?

— Yo‘q, o‘sha payti velosiped topilmagandi. Oradan uch kun o‘tib, Ergash degan traktorchi anhorda velikni ko‘rib qolgan.



- Demak, velosiped keyinchalik suvga tashlangan, shundaymi? Yoki anhorni tekshirish chog‘ida velosiped e’tibordan chetda qolgan bo‘lishi mumkinmi?
- Yo‘g‘-e, anhorning suvi qochirilgandi, shuncha odam ko‘rmasdan qolishi mumkin emasdi, – dedi izquvar bo‘shashib, – velik keyinchalik suvga tashlangan...
- Velosipedda biror-bir iz, majaqlanish, urilish, halokat alomatlari aniqlanmadimi? Demoqchimanki, kimdir mashinasida bolani turtib ketib...
- Biz ham boshida shunaqa taxmin qilgandik, – dedi Rahimjon dadillanib, – ammo velikda to‘qnashuv alomatlari aniqlanmadidi. Qolaversa, Nuriddin katta ko‘chaga chiqmagan, mahalla yo‘llarida tez yurishning imkoniyati yo‘q, avtohalokat sodir bo‘lgandayam kupper-kunduz kuni kimdir ko‘rmasdan qolishi mumkin emas.
- Velosiped qayerdan kelib qolgan bo‘lishi mumkin? – guruh rahbari hammaga savol nazari bilan qaradi.
- Yon-atrofdagi xonadonlarda yashovchilar so‘raldi, – dedi Rahimjon qo‘lidagi qalamni o‘ynatib, – hech kim, hech narsa ko‘rmagan. Anhor qishloqning deyarli yarmini kesib o‘tadi. Teparoqdan oqib kelgan bo‘lishi ham mumkin...
- Marhamat, Aloviddin Istamovich, davom eting, – guruh rahbari izquvarga yuzlandi.
- Ergash akadan tepada yashovchi aholi bilan gaplashib chiqildi. Kriminalistlarning anhor bo‘yidan velosiped g‘ildiraklari izini topishga qaratilgan sa'y-harakatlari ham zoye ketdi... Bulardan tashqari... oilaning uzoq-yaqin qarindosh-urug‘lari, xesh-aqrabolari, tanish-bilishlari so‘raldi. Yaqin atrofdagi shifoxonalar, mehribonlik uylari, o‘likxonalar, bolalarni vaqtincha saqlab turish joylari tekshirildi. Lekin bolaning na tirigi, na o‘ligi topildi...

- Murdaning topilmagani, odatda, murdaning yo‘q qilinganligi yoki tayinli joyga yashirilganligi bilan izohlana-



di, – dona-dona qilib gapirdi guruh rahbari, – shu sababli, jinoyatchining murdani yo‘q qilish usullariga ahamiyat berish lozim bo‘ladi. Masalan, murda yoqib yuborilgan, bo‘laklarga bo‘lib, ovloqroq joyga ko‘mib qo‘yilishi yoki hech kimning xayoliga kelmaydigan va tekshirish imkoniyati yo‘q joylarga tashlab yuborilishi, faol ta’sir etuvchi kimyoviy suyuqlik, masalan, konsentratlangan kausistik sodasi aralashmasi bilan eritib, yo‘q qilinishi mumkin. Shu holatlar bo‘yicha qanday tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazildi?

– Qishloq atrofidagi tashlandiq joylar, butazor, chan-galzor, chakalakzor, qamishzor, ariq-zovurlar, jarlik, soylik, chuqurlik va boshqa ovloq joylar kinologiya xodimlari ishtirokida xizmat itlari yordamida tekshirildi. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilmagani va aniq gumondor shaxslar bo‘lmagan uchun yashash joylari – hovlilarga kirishning imkonи bo‘lmagan. Shuning uchun...

– Omon bo‘ling-e, – Sanjarbek o‘midan turib ketdi, – shunaqa yondashuv bilan gumondorga qanday chiqib bo‘ladi? Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchi shu qishloqdan bo‘lsa, murdani hovlisidan chiqarishga botinolmaydi. Birorta odamning ko‘rib qolishidan qo‘rqadi. Shu sababli murdani, odatda, hojatxonaga og‘ilxona, molxona, bog‘ yoki tomorqasining bir chetiga, qurilayotgan bino devorlari ostiga ko‘mib yuboradi. Buning uchun kimnidir gumondor qilish, «hovli-joyingni qarab chiqaman», deb vahima qilish ham shart emas. Mohir izquvar «bir piyla suv ichish» bahonasida xohlagan hovliga kirib borishi mumkin. Qishloq odami sizning ko‘kragingizdan itararmidi! Qaytanga ichkariga kiritib, mehmon qiladi. O‘scha paytda hovlidagi o‘zgarishlarni payqash mumkin. Misol uchun, yangi hojatxona, molxona qurilgan bo‘lsa, eskisining joyini payqash qiyin bo‘lmaydi. Xuddi shunday hovli sahnidagi yangi ko‘milgan chuqur, o‘ra yoki xandaqni od-

diy ko'z bilan ham payqasa bo'ladi. Ana sizga gumondorlar qayerdan paydo bo'ladi!

— To'g'ri, — tan berdi izquvar, — biz endi Barnoni-yam, Nuriddinniyam jinoyat qurban bo'limgan deb hisoblaganimiz uchun ishga bunday chuqur kirmaganmiz...

— Ustozim Faxriddin Karimovich jinoyatni fosh qilishda tahlillar, hatto statistik ma'lumotlardan o'rini foy-dalanish lozim deb bilardi. Ish bilan tanishib chiqqach, statistik ma'lumotlarni ham tahlil qildim. Qarang, qurban bo'lganlarning asosiy qismi biror-bir jinoyatning yoki jamiyatga zid xatti-harakatning oldini olmoqchi bo'lgani uchun hayotdan mahrum qilingan. Jinoyatni sodir etgan shaxslar tahlil qilinganda deyarli 70 foiz holatlarda jabrlanuvchilarining qarindoshlari, turmush o'rtog'i yoki birga xizmat qiladiganlari bo'lib chiqqan. Jinoyatning kelib chiqish sabablari orasida bиринчи о'rinni tanqid qilgan, kaltaklangan, haqorat qilgan, o'zining yomon fe'l-atvorining oldini olmoqchi bo'lgan odamlardan o'ch olish motivi egallagan. Keyingi o'rirlarda qandaydir boshqa jinoyatni yashirishga xalaqit qilgan yoki o'zining nojo'ya xatti-harakatlarini fosh qilishidan qo'rqqanidan, shuningdek, rashk, urush-janjal, nizo va mushtlashishlar ta'sirida odam o'ldirish motivlari o'rinni olgan. Odam o'ldirishni sodir etish joyi, vaqt va murdani yo'q qilish usullari haqidagi tahlillar ham juda qiziqarli. Bunday odam o'ldirish, odatda, jabrlanuvchining yoki qarindoshining yoxud tanishining yashash joyida yoki unga yaqin joyda, ba'zan qurbanning ish joyida, ko'proq kechqurun (soat 19–23 oralig'ida) sodir etilgan. Murda shu joyda, odatda, tunda yoki erta tongda yashirilgan. Murda yo'qotilgunga (yashirilgunga) qadar birmuncha vaqt (1–2 sutka) xilvat joyda saqlanganligi holatlari ham uchragan... Bu tahlillar jinoyatni fosh qilishda qaysi yo'ldan borishimizni belgilashda ahamiyatga ega bo'ladi...

– Qoyil-e, Sanjar aka, bu yog‘i ilm-fanga aylanib ketmadimi? – o‘zicha piching qildi Rahimjon.

– To‘g‘ri, – guruh rahbari shuni kutib turganday hozirjavoblik qildi, – har bir ishni ilmiy asosda tashkil etmas ekanmiz, hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmaymiz. Ayniqsa, tergov kriminalistika, kriminologiya, mantiq ilmiga tayanishi shart. Busiz jinoyatni fosh qilishga urinish, olg‘ir va battol jinoyatchini ko‘zni boylab izlash bilan barobar.... Qo‘polroq qilib aytganda, tank oldiga bolta ko‘tarib chiqishga o‘xshab ketadi... Ilm esa bizni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi... Mayli, boshqa yoqqa chalg‘ib ketmaylik... Davom etamiz! Siz-u bizning birinchi vazifamiz jabrlanuvchilarining o‘limidan kim manfaatdor bo‘lganligini aniqlashdan iborat. Aleksandr Dyumaning «Graf Monte Kristo» romanida: «Jinoyatchini topmoqchi bo‘lsang, qilingan jinoyatdan naf ko‘radigan kishini axtar», degan ibratli so‘z bor. Xo‘s, Barno bilan Nuriddinni o‘ldirish kimga kerak bo‘lgan? Bundan kim manfaat ko‘radi?

– Bular yosh bola bo‘lsa, ularni yo‘q qilishdan kim ham naf ko‘rishi mumkin, – o‘ylamasdan gapirdi izquvarlar kattasi.

– Ammo ular yo‘q qilindi-ku, demak, manfaatdor shaxs bor, – SanjARBek «farosatingiz bormi?» deganday unga ola qarash qildi.

– Gap ularning o‘zlarida emas, balki ota-onalari, yaqinlari xususida bo‘lishi mumkin. – Rahimjon oradagi taranglikni yumshatishga harakat qildi: – To‘g‘risi, hozircha biz jabrlanuvchilarining qo‘ni-qo‘shnilar, qishloq ahli va o‘zaro munosabatlariiga oydinlik kirita olganimiz yo‘q. Faqat... o‘tgan yili... bir voqe... Bilmadim buning ishga qanchalik aloqasi...

– Xo‘s, xo‘s, – sergaklandi guruh rahbari, – arzimasdek tuyulgan narsa ham tergov uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

— Qisqasi, bundan ikki-ikki yarim oy muqaddam Nuriddinning bosh-ko‘zi qonga belanib uyiga qaytgan. Onasi Salimaxon o‘g‘lini bu ahvolda ko‘rib o‘takasi yorilayozgan. Surishtirsa, Nuriddinni qo‘sni Abdurazzoq aka-ning 7-sinfda o‘qiydigan Sharif degan bezori o‘g‘li ur-gan ekan. Salima Sharifni uyiga izlab borib topolmagan. Alamidan uni rosa qarg‘agan: «O‘zingdan kichik musht-day bolani urgan qo‘llaring sinsin, oyoq-qo‘ling akashak bo‘lib, o‘lib ket!» degan. Baxtga qarshi oradan uch kun o‘tmay Sharifni maktabdan qaytishda mashina urib ketgan va u shifoxonada vafot etgan. Sharifning onasi Shahodat opa o‘g‘lining janozasiga kelgan qo‘sni Salimaga «sen o‘g‘limni o‘ldirding, qarg‘ishing urdi, sening bolangning ham o‘ligini ko‘rmasam, rozi emasman!» — deya yig‘lab yopishgan. Oradan bir oy o‘tar-o‘tmas Nuriddin bedarak yo‘qolgan... Bilmadim, bu tasodifni yoki...

— Nima bo‘lgandayam tekshirib ko‘rishga arzigu-lik voqeа, — dedi SanjARBek qo‘lidagi ruchkani o‘y-natib. — Farzand dog‘i yomon. Har qanday insonni che-garadan chiqarib yuborishi mumkin... Ikkinci tomon-dan Shahodat opa ona bo‘laturib, shunday qabih ishni qilishga qodirmi? Balki u alam ustida bu ishni bajarishni birortasiga topshirgandir... Shuning uchun jabrlanuvchi-lar kim bilan nifoqlashib yurganligi yoki ochiqdan ochiq dushmanlik kayfiyatida bo‘lganligiga jiddiy e’tibor qaratilishi kerak. Keyin esa, bu ziddiyat qanday xarakterga ega bo‘lgani, qarama-qarshilik qachon, qanday, nima sababdan kelib chiqqani, o‘zaro kelishmovchilikning ildizi qayerga borib taqalishi, taraflar nimalar deganligi, bir-biriga do‘q-po‘pisalar qilganligi, ular oxirgi marta qayerda, qanday vaziyatda uchrashishgan, bunda kimlar ishtirok etgani, shunda o‘zlarini qanday tutishgan, nimalar haqida gapla-shishgani aniqlanishi lozim...

SanjARBek biroz jimib, fikrini bir joyga jamlab oldi va izquvarlar boshlig‘iga yuzlandi:

– Aloviddin Istamovich, marhamat, uchinchi holat – Mo‘minjonning o‘limi bo‘yicha nima ishlar qilinganligi haqida axborot bersangiz.

– Mo‘minning yo‘qolib qolishi ancha sirli tarzda ro‘y bergen, – gap boshladi izquvar. – Birinchidan, bola juda yosh, o‘zi uzoqqa yurib ketishi ehtimoldan xoli. Ikkinchidan, voqeа juda qisqa muddat ichida sodir bo‘lgan. Bola qandaydir o‘n daqiqa yaqinlari e’tiboridan chetda qolgan. Shuni inobatga olib, Mo‘minning otasi Doniyor gumondorlar safidan chiqib ketgach, biz jinoyatchi shu yaqin atrofda, shu ko‘chada yashaydi yoki aynan shu ko‘chada, mahallada yashamasa-da, mashinasida ko‘chadan o‘ta turib, bolani olib ketgan, degan taxmin ustida ishladik. Bunda tashqari, bizda har uchala bolaning yo‘qolishi bir yoki bir to‘da shaxslarning ishi degan xulosaga kelish uchun asoslar yetarli...

– Siz qilingan aniq ishlar haqida gapiring! – e’tiroz bildirdi SanjARBek.

– Birinchi navbatda, Ma’mura Egamovaning yon qo‘snilari so‘roq qilindi. O‘sha vaqt oralig‘ida kimlar uyida bo‘lgan, nima ishlar bilan shug‘ullangan, Mo‘minni oxirgi marta qachon, qayerda ko‘rgan, bolaning yo‘qolib qolganini kimdan, qachon eshitgan...

– Shoshmang, shoshmang, keling, bir boshidan boshlaylik, – dedi guruh rahbari jinoyat ishi hujjatlaridan bosh ko‘tarmay. – Egamovalar xonadonining o‘ng biqinida Rabbimovlar oilasi yashaydi, shundaymi?

– Ha, o‘ng tomonda Rabbimovlar oilasi turadi. Hovlida Rabbim bobo, u kishining kampiri, o‘g‘li Eshpo‘lat, kelini Robiya va besh nabirasi bilan birga yashaydi. O‘sha kuni Eshpo‘lat xotini bilan Toshkentga ketgan. Qolganlar uyda bo‘lgan va ulardan birortasi Mo‘minni ko‘rmagan,

ko‘chada begona shaxsni uchratmagan. Chap tomon-dagi uyda Kattayevlar oilasi turadi. Oila boshlig‘i Azamat o‘sha kuni ishda bo‘lgan. Uy bekasi Habiba opa va uning to‘rt bolasi uyda o‘z ishlari bilan band bo‘lgan. Azamatning besh yoshli Miraziz ismli o‘g‘li bo‘lgani uchun Mo‘minjon ko‘pincha ularnikiga chiqib o‘ynab yurgan. Shu sababli Ma‘mura opa o‘sha kuni Mo‘minni uyidan topa olmagach, Mirazizning oldiga o‘ynagani borgan bo‘lsa kerak, degan o‘yda dastlab ularnikiga chiqqan. Habiba opa Mo‘min bugun ularnikiga kirmaganini aytgan. Bolalar ham uning gapini tasdiqlashgan.

– Xo‘sh, qarama-qarshi uyda kimlar yashaydi?

– Ro‘paradagi hovlida Mayramgul ona o‘g‘li Zamir, o‘n kunlik kelini Melixol va qizi Luiza bilan tura-di. O‘sha kuni faqat Zamir uyda bo‘lgan. Kampir qizi va kelinini olib mehmondorchilikka ketgan. Ma‘mura o‘g‘lini boshqa hamsoyalarinikidan topa olmagach, Zamirnikiga ham bosh suqqan. Hovliga kirib, «Mo‘minjon, Mo‘minjon», deb chaqirgan. Hech kimdan sado chiqmagach, boshqa qo‘snilarnikiga qarab axtarib ketgan. Qaytishda yana ochiq eshikdan ichkariga qaragan va Zamirni ko‘rgan. «Qo‘sni, chaqirsam hech kim javob bermadi, Mo‘minjonni ko‘rmadingizmi?» – deb so‘ragan. «Kenoysi, uzr, uqlab qolgan ekanman, eshitmay qolibman», – degan ko‘zini uqalab Zamir. Shundan keyin u ham bolani qidirish ishlariiga qo‘silgan. Ma‘mura opa bilan birga qo‘sni ko‘chalarni, maktab hovlisini, atrofini, ko‘cha boshidagi do‘kon va bola borishi mumkin bo‘lgan boshqa joylarni axtarishda ishtirok etgan.

– Zamir qanday yigit? Uning Doniyor va Ma‘mura bilan xusumati bo‘limganmi? – navbatdagi savolni berdi Sanjarbek.

– Baxtsizlik yuz bergen keraksiz paytda, keraksiz joyda paydo bo‘lgani uchun biz ham odatdagidek Zamirni

gumondorlar ro'yxatining boshiga qo'ygandik, – gapga qo'shildi Rahimjon, – lekin keyinchalik uning bu ishga aloqadorligini tasdiqlaydigan zarracha shubhali narsa to-polmadik.

– Xo'sh, nimalarni aniqladingiz? – savolini boshqa charoq ko'rinishda takrorladi guruh rahbari.

– Birinchidan, Zamir qo'yning og'zidan cho'p olmaydigan yuvosh yigit. Hech qachon, hech kim bilan janjalashmagan, o'zgalar bilan nifoqlashishni xush ko'rmaydi. Kimdir yuziga bir shapaloq ursa, ikkinchi yuzini o'zi tutib beradiganlar xilidan. Ikkinchidan, u Doniyor bilan sinfdosh-do'st bo'lgan. Ikki oila o'rtasida hech qanday ni-faq bo'lman. Uchinchidan, u Mo'minni qidiruv ishlarida juda faol ishtirok etgan...

– Mayli, buni hali obdan tekshirib ko'rishimizga to'g'ri keladi, – guruh rahbari o'rnidan turdi. – Qo'limizda pichoqqa ilinadigan narsa yo'q desak ham bo'ladi. Bedarak yo'qolgan shaxslar ayni paytda hayotmi, o'lganmi, o'ldirilganmi, bu ham aniq emas. Agarda ular o'ldirilgan deb hisoblaydigan bo'lsak, kim tomonidan – yaqinlari, tanish-bilishlari tomonidan o'ldirilganmi yoki umuman begona shaxslar tomonidan yo'q qilinganmi, bu ham aniq emas. Biz ummonda igna izlayotgan odamday suzib yurib-miz. Shu sababli dastlab bor kuchimizni Mo'minjonning bedarak yo'qolishi bilan bog'liq faktga qaratsak. Negaki, bu voqeя yaqinda sodir bo'lgan, jinoyatni qaynoq izlardan topish imkoniyati yo'qolmagan, qolaversa, ehtimollik chegarasi ham uncha keng emas. Shu masalaga qanday qaraysizlar?

– To'g'ri bo'lardi, – Rahimjon hamkasbini quvvatladi.

– Nima, boshqa yo'nalishdagи ishlarni to'xtatib qo'yamizmi? – izquvarlar boshlig'i e'tiroz bildirdi.

– Yo'q, albatta, – Sanjarbek bosiqlik bilan tushuntirishga harakat qildi. – Boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham

ishlar davom etadi. Faqat biz diqqatni avval «uchinchi fakt»ga qaratamiz. Kerak bo'lsa, qo'shimcha kuchlarni jalb etamiz... Menimcha, to'rt yoshli bolakay qandaydir o'n daqiqa ichida uzoqqa ketib qolishi mumkin emas. Uni kimdir chekkadan kelib, o'g'irlab ketishi ham ehtimoldan uzoqroq tuyuladi. Demak shu atrofdagilardan kimdir bu ishni qilgan bo'lishi haqiqatga yaqin... Buguncha yetarli... Ertaga ishni voqeа joyini ko'zdan kechirishdan boshlasak...

\* \* \*

Faxriddin nimqorong'i «xata»da shiftga ko'z tikib yotar ekan, bugungi voqealarni eslаб, yuragi achishdi: «Tavba, boshga tushganini ko'z ko'rар deb bejiz aytishmagan ekan-da! Shunaqa miskin ahvolga tushishi yetti uxlab tushiga ham kirmagandi-ya! Odamlar bunchalik imonsiz bo'lib ketdi-ya! Kechagina poyingga patak bo'lib yurganlar bugun ko'zingga qarab, tuhmat qilib o'tirsa-ya! Bu qanday yuzsizlik, nomussizlik! Bunaqa yo'l bilan joningni omon saqlab, odam bo'lib yurgandan ko'ra cho'chqaga aylanib, axlat titganing yaxshimasmi? Uyalmasdan «pora bergenman» deydi-ya! Qamalmaslik uchun birovga tuhmat qilish shartmi? Ertaga bir begunoh insonni qamatib yuborib, qaysi yuz bilan odamlar orasida yuradi! Bir umr vijdon azobida qiynalmaydimi? Ammo yuzlashtirish payti ko'zimga tik qaray olmadi. Balki u bechorani ham majburlashgandir. Jismoniy qiyonoqqa solgandir. Yo'g'-e, ming qilsayam, prokuratura xodimi-ku. Haddi sig'masa kerak».

Shu payt kameraning temir eshigi sharaqlab ochilib, soqchi yoshi qiridan nari-beri, oqquvadan kelgan o'rta bo'yli kishini ichkariga kiritib, eshikni tambaladi. Oldingi sheringini olib ketishganidan beri yolg'izlikdan yuragi tars yorilib ketay deb siqilib turgan «mezbon»

odob yuzasidan o‘rnidan turib, «mehmon»ga yonidan joy ko‘rsatdi:

- Keling, aka, marhamat, joylashib oling.
- Rahmat aka, – «mehmon» bunaqa joylarda ko‘p bo‘lgan shekilli, tortinib o‘tirmasdan temir karavotga joylashdi, – mening ismim To‘lagan, aybimiz – tadbirkorligimiz.
- Tadbirkorlik ayb emas, Alloh har kimga ham beravermaydigan noyob qobiliyat, – dedi Faxriddin kulimsirab.
- Balki haqdirsiz, ammo shu zamonda tadbirkorlar uchun kulfat va baxtsizlikdan boshqa narsa bo‘lmay qoldi, aka! Qaniydi menam ko‘chada pista sotib o‘tirsam... och qornim – tinch qulog‘im!
- Har kimning taqdiri peshonasiga bitilgan bo‘ladi, taqdirdan nolish yaxshi emas, To‘lagan aka.
- Mana siz...
- Faxriddin Karimovich.
- Faxriddin aka, ziyoligina odamga o‘xshab turibsiz, taqdiringizdan rozimisiz?
- Albatta, roziman.
- Qamoqda o‘tiribam-a!
- Bu qiyinchiliklar vaqtincha, Yaratganning sinovidir balki... Asosiysi, inson eng og‘ir damda ham o‘zligini, odamiyligini, imonini yo‘qotmasligi, inson bo‘lib qolishi muhim. Bizning ajdodlarimiz vijdonni sotib jon saqlagan dan o‘limni afzal ko‘rganlar.
- Barakalla, barakalla! – dedi.

Bu ikki inson sirtdan qaraganda – tashida bir-birlari bilan eski qadrdonlarday muloqotga kirishib ketgan bo‘lsalar-da, ichlarida «ayg‘oqchi emasmikan?» degan hadikda edilar. Yigitlar bir muddat u yoq – bu yoqdan hangomalashib, bir-birlarini obdan o‘rganishga, qalblari-

ga qulq tutib ko'rishga harakat qildilar. Har ikkisi ham suhbatdan qoniqish hosil qilgach, oralaridagi pardal ko'tarilganday bo'ldi:

— Ey-y-y, Faxriddin aka-ey, — bosh irg'adi To'lagan, — o'zingiz, kimsan prokuror bo'la turib, shu holga tushib o'tirganingizga qarang. Bizlar nolimasak ham bo'larkan. Gap-so'zingizdan kelib chiqib, xulosalaydigan bo'lsam, sizam bu «koshona»larga tuhmat ortidan kelib qolganingiz tayin...

— Ha endi, qo'yaverasiz, — Faxriddin bu haqda so'z ochishning mavridi emasligini his qilib, gapni boshqa yoqqa burishga urindi, — peshona-da, peshona! O'zingizdan so'zlang... Badaniningizdagи «bezak»lardan boshingizdan ko'p narsalarni o'tkazgan ko'rinasiz.

— To'g'ri, bu bosh nimalarni ko'rmadi deysiz. Ko'zimiz kulib turgani bilan, ichimiz idrab ketgan, aka. — To'lagan temir karavotni g'ijirlatib, yonboshladi. — Kamina kattagina qurilish firmasining rahbari edim. Qo'l ostimda oz emas, ko'p emas, mingdan ortiq xodim ishlardi. Respublikamizning barcha viloyatlarida katta-katta obyektlarni ishga tushirdik. Hamma ishlarimiz joyida edi. Hisobimizda pulimiz, mol-mulkimiz, texnikamiz yetarli, rejalarimiz bisyor edi. Har yili davlat g'aznasiga milliard-milliard soliq to'lardik. Hayriya ishlarimizni aytmaysizmi... Barchasi juda katta sanoat obyekti qurilishi tanlovida g'olib chiqishimizdan boshlandi. Shu kuni ikkita oynasi qoraytirilgan «Jip» mashinasida uchta noma'lum kishi ko'chada meni to'xtatib, tanlovda g'oliblikdan voz kechishimni talab qildi, aks holda, menga va oilamga yomon bo'lishini uqtirishdi. Qo'rqib ketdim. Organga murojaat qilmoqchi bo'ldim. Ammo ularning o'zları organ xodimi ekanligi gap-so'zidan ko'riniq turardi. Uch kun telefonlarimni o'chirib, shahardan chiqib ketdim. To'rtinchı kuni uydan xabar olishga

keldim. Uyga kirishim bilan bir guruh qurollangan, yuziga niqob taqib olgan harbiy kiyimdag'i kishilar qo'limga kishan solib, olib ketishdi. Firmamizni olti oy tekshirib, ilma-teshik qilib tashlashdi. Hatto bizni mutlaqo aloqamiz bo'lmagan firmalardan ham qarzdor qilib, bo'yninga bir milliard so'mlik zararni osishdi. Jinoyat kodeksining o'nlab moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atishdi. Bu ham yetmaganday, qaysi firma, davlat tashkiloti bilan ishlagan bo'lsak, barchasining rahbarlariga, tender komissiya-si a'zolariga «pora bergenman» deya ko'rsatma berishga majburlashdi. Qamoqda boshimga it kunini solishdi. Besh-olti rahbarga qarshi ko'rsatma bersang, senga yengillik qilamiz, qamoqdan chiqarib yuboramiz deyishdi. Men bunaqa razilikka hech qachon bormasligimni aytib, takliflarini rad qildim. Qiynoqlar boshlandi. Yonimga Husan degan «laxmachi»ni kiritishdi. Fashistdan ham battar bu qonxo'r har kuni sovuq suvda turishga majbur qildi, tirnoqlarim ostiga igna tiqdi, tovonimga dubinka bilan urdi, butilkaga o'tqazdi... Bermagan azobi qolmadidi... O'lishga ham rozi edim, jonimdan to'yib ketgandim. Bir kuni Husan uxbab yotganda basharasiga qaynoq suv quyib yubordim... Dod-voylab qoldi... Keyin undan ham battarini yonimga kiritishdi. Gena laqabli bu laxmachi boshida meni aldab ko'rsatma olishga harakat qildi. Men ham «bo'pti, yozib beraman» deb vaqtidan yutishga harakat qildim. Keyinchalik u meni elektr tokiga urdirdi. Tanamni momataloq qilib tashladi. Ayrim qo'llagan qiyonoqlarini aytishga ham uyalasan kishi... Chala o'lik qilib, xataga olib kelib tashlashadi. Shkonkaga, kechirasiz, qamoqxonada temir karavotni shunday atashadi, chiqolmay, tusholmay qolardim. Ammo bir boshga bir o'lim, deya shaqshayib turaverdim. Begunoh odamga tuhmat qilishni o'zimga or bildim...

To'lagan biroz o'ylanib qoldi. Faxriddin hamxonasining gaplarini diqqat bilan eshitib o'tirarkan, uning gaplari samimiy ekanligiga shubha qilmadi, qalbida bu jasur odamga nisbatan o'zgacha bir ehtirom paydo bo'ldi. Ichida «qani edi hamma ham siz kabi mard, sotilmas, sadogatlilik bo'lsa, men ham bu zulmatda kun sanab o'tirmagan bo'lardim» degan o'y o'tdi.

— Qamoqxonaning tergovchisi ham, prokurori ham, sudyasi ham shu laxmachilar ekan. «Dubak»lar, ya'ni qamoqxona nozirlari ham yaldoqlanib, shu o'lgurlarning ko'ziga qarab turadi. Ular kimning erkatoyi bilmaysan kishi? Men-ku tayoqdan chalajon bo'lsam ham, Husan, Genalar talab qilgan «chin ko'ngildan pushaymonlik» arizasini yozmadim. Ammo qanchadan qancha mahkumunga jon shirinlik qilib, qilmagan jinoyatlarini bo'yniga olib qo'yishdi, o'z hamkorlariga, do'stlariga, rahbarlariga tuhamat yog'dirishdi. Shu bo'hton orqasida qancha begunoh insonlar qamoqqa tiqildi. Ba'zan laxmachilar irodasi bo'shroq mahkumlardan «chin ko'ngildan pushaymonlik» arizasini yozdirib olib, keyin shu arizani yo'q qilish evaziga katta pul ham talab qilardi. Mahkum qarindoshlariga qo'ng'iroq qilib, laxmachining ochiqdagagi sheringiga muayan pulni berib yuborishni tayinlaydi. Pul olingach, laxmachi mahkumning arizasini yirtib tashlaydi... E, nimasini aytay, aka, bu muttahamlar qilgan noma'qulchiliklarning chek-chegarasi yo'q... Qatag'on yillaridayam bunchalikka borishmaganov! Ey-y-y, Faxriddin aka, o'zimning tashvishlarim bilan sizning ham boshingizni achitib tashladimmi? Keling, yaxshi gaplardan gaplashaylik.

— Bu yerlarga qanday kelib qoldingiz, — qiziqlidi Faxriddin.

— O'zim ham bilmayman, kim biladir yuzlashtirishmoqchi emish. Keyin yana Toshkentga qaytarib olib ketishsa kerak. Hayronman, bu lo'ttibozlarning yana qanday

o‘yinlari bor? Tinchgina qamab yuboraversin! Bo‘ynimga yo‘q joydan milliard-milliard so‘mlik kamomad osib qo‘yilgan bo‘lsa! Yana nima kerak, bu noinsoflarga!

– Siz tadbirkor bo‘lsangiz, kamomad qanday bo‘lishi mumkin?

– Men ham shunga tushunmayman. Soliqlarni vaqtida oshirib-toshirib to‘lab qo‘ygan bo‘lsam, kamomad qayerdan chiqishi mumkin? O‘z mulkimni o‘zim talon-toroj qilmayman-ku! Odamning kulgisi keladi... Taftishchilar ham rosa tekshirib, hech narsa topolmadı. Lekin «kamchilik topmasang, o‘zingni ham bir joyga tiqib yuboramani» deb qo‘rqitgach, u bechoralar debtorlik-kreditorlik qarzdorlikni kamomad sifatida ko‘rsatishga majbur bo‘lishgan... Tavba deyish kerak, tavba!

– Debitorlik qarzdorligini kamomad sifatida ko‘rsatishgan, deng-a! – dedi Faxriddin kulimsirab, – suddan ham majburan o‘tkazishlari aniq, ammo bir kun kelib, sizni oqlashadi... Hamisha shunday bo‘lib qolmas!

– Inshoollo! O‘sha kunlargacha o‘lmay qolsak agar, ko‘rarmiz!

– Niyatni yaxshi qiling, Xudo xohlasa, ko‘rasiz, oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘.

Hamxonalar allamahalgacha suhbatlashib o‘tirdilar. Faxriddin bu jafokash insonga zimdan tikilar ekan, uning matonatiga, sabr-u qanoatiga, irodasiga qoyil qoldi, tasannolar aytdi. Xayolidan «yaxshiyamki, oramizda shunaqa lochin yigitlar bor ekan, bo‘lmasa odamzodni allaqachon yer yutgan bo‘lardi», degan o‘y o‘tdi. O‘zini uning o‘tmiga qo‘yib ko‘rishga urindi. Qaysi yo‘lni tanlagan bo‘lardi? Azoblarga bardoshi yetarmidi? Jon shirinlik qilib, vijdonga qarshi ish qilib qo‘ymasmi? Yo‘q, yo‘q, u hain mana shu yigitning yo‘lini tanlagan bo‘lardi. Tanadagi qiynoq izlari bir kun kelib bitishi, yaralar tuzalishi mumkin, ammo vijdonga tushgan darz azobi tuzalmas, u xo‘jasini bir umr

qiynoqqa soladi, hech qachon bitmaydi... Balki, To'lagan aka ko'rgan azob-uqubatlar uni hali oldinda kutib tur-gandir... O'z bardoshi sobitligini, imoni butligini, vijdoni sofligini imtihon qilishning imkoni bo'lar! Ey Parvardi-gor, xom sut emgan bandangga o'zing sabr-u jamil ato et! Boshimga ne kulfatlar solsang ham imonimga darz tushirma!

\* \* \*

Keyingi kun Sanjarbek Rahimjon va guruhning boshqa a'zolari bilan birgalikda voqeja joylarini ko'zdan kechir-di. Jabrlanuvchilar yashagan xonadonlar, shart-sharoitlar o'rganildi, bolalarining yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar bilan muloqot qilishdi va shular asosida voqealarning taxminiy rivojini aks ettiruvchi chizmalar, sxemalarga aniqlik kiri-tildi.

Sanjarbek «Nuriddinning ishi» bo'yicha marhum Sha-rifning onasi Shahodat opa bilan suhbatlashdi:

- Opa, yaqinda o'g'lingiz avtohalokatda vafot etgan ekan, shofyor ushlandimi? – ataylab gapni uzoqdan bosh-ladi tergovchi.
- Ha, topishdi, yergina yutgur g'irt mast holda rulga o'tirgan ekan.
- Qo'shningiz Salimaxon aya bilan san-manga borgan ekansizlar, shu to'g'rimi?
- Shunaqa, – ayol gap qayoqqa borib qadalayotgani-ni sezdi, shekilli, yuzini tirishtirdi, – tergovchiga hamma-sini yozib bergandim-ku! Yana takrorlashdan nima...
- Opa, bu kishi Toshkentdan – Bosh prokuraturadan bizga yordamga kelgan, – Rahimjon oradagi taranglikka barham bermoqchi bo'ldi, – hammasini o'z og'zingizdan eshitmoqchilar.
- Mayli, ayt desanglar aytaveraman... Sizlarga nafi tegsa bo'lgani!

– Janjalga nima sabab bo‘lgandi? – guruh rahbari savol berishda davom etdi.

– Sharifjon bolam, go‘ring nurga to‘lgur, jindek sho‘xroq, erkaroq edi, jahli burnining uchida turardi, kimdir aytganini qilmay g‘ashiga tegsa, yuzing-ko‘zing demay do‘pposlab qolardi. Rahmatli Nuriddinni yaxshi ko‘rardi. Ko‘cha-ko‘yda tarafini olib, himoya qilib yurardi. O‘scha kuni Nuriddin ko‘chaga koptogini olib chiqqan ekan. Sharif undan bolalar bilan o‘ynashga koptogini so‘ragan, o‘rniga esa unga uchishga o‘zining velosipedini berib turgan. Nuriddin velikni uchib bo‘lgach, futbol tugamasdan koptogini olib qo‘ygan. Sharif «bir golgacha o‘ynab turaylik», deb unga rosa yalingan. Nuriddin ham qizg‘anchiqlik qilib, koptokni bermagan. Janjal chiqqan. Nuriddin «onangni» deb so‘kingan. Sharifning jahli chiqib, bola-ni urib tashlagan. Bola-da, o‘zlar urishib, o‘zlar yaras-hib ketaverishadi... Salimaxon o‘shanda o‘g‘limni yomon qarg‘agandi... Oradan hech qancha vaqt o‘tar-o‘tmas, bola-jonimni mashina urib ketdi... Shunday bola o‘n gulidan bir guli ochilmay nobud bo‘ldi... Arslonday bolamdan ayrilib qoldik...

Ayol yengining uchi bilan ko‘z yoshlarini artib, «nima qilamiz, Allohning ishi-da!» – deya o‘zini tinchlantirdi. Tergovchi ayolga qanday hamdardlik bildirishni bilmay kalovlandi. Bir muddat jimlikdan so‘ng so‘radi:

– Opa, janzoza kuni siz ham Shahodat opani, Nurid-dinni juda yomon so‘zlar bilan qarg‘agan ekansiz, shu to‘g‘rimi?

– Ha, qarg‘aganman... yuragim qonga to‘lib, «Illo yo-uyingdan o‘liging chiqsin» deya ayyuhannos solganman... xayolimda Sharifjonimni shular o‘ldirganday... Lekin bu-naqa bo‘lishini sirayam xohlamaganman... To‘g‘risi...

– Turmush o‘rtog‘ingiz, farzandlaringiz, qarindoshlarining bunga qanday qarashgan? Demoqchimanki, ular ham Sharifjonning o‘limida...

– Bu nima deganingiz? Men ayolligimga borib, alam ustida degan bo‘lsam degandirman... Dadasi meni urishgan... «Hammasi Yaratganning ishi, bandasining qo‘lidan nima kelardi, kuni kalta ekan, nima qilamiz, birovlarini ayplashni bas qil, tovuqmiya!» – degan. Aslida Nuriddin ham o‘z bolamday edi. Ko‘z oldimizda o‘sdi, ko‘tarib katta qilgandik. Qanday qilib unga o‘lim sog‘inishim mumkin?! Men ham, Shahodatxon ham jahl ustida aytgan gapimizdan pushaymon bo‘lganmiz... Axir... unday bo‘lishini qaydan bilibmiz! He-e-e, shu qarg‘ishlariyam qurib ketsin! Ikki birday bolaning uvoliga qolib o‘tiribmiz...

Ayol o‘zini oqlashga so‘z topolmay qiyinalardi. Tergovchi bu sodda va jafokash ayolning gaplarida samimiylig va nadomatdan boshqa narsani topolmadi. Shu sababli gapni qisqa qilib, ayolga javob berdi. Izquvarlar xonaga navbatdagi guvoh – Zamirni boshlab kirishdi.

Sanjarbek qotmadan kelgan, o‘rta bo‘yli, miqtı, qirraburun, shalpangquloq, oftobdan yuzlari qorayib ketgan, o‘ttizlarni qoralagan lapashanggina yigitga zimdan razm solarkan, xayolidan yarq etib «shu bolaning qo‘lidan shunaqa xunrezlik keladimi?» degan o‘y o‘tdi. So‘ng ustozining birinchi taassurot aldamchi bo‘ladi, odamning olasi ichida, degan gaplari yodiga tushib, oldindan biror xulosa chiqarmaslikka harakat qildi. Yigit qimitnibgina tergovchi ko‘rsatgan joyga o‘tirdi.

– Mo‘minjon yo‘qolgan kuni siz uyda bo‘lgan ekan-siz-a? – tergovchi qarmoqni uzoqroqqa tashladi.

– Ha, o‘sha kuni smenda emasdum. Uydagilar qarindoshlarnikiga mehmonga ketishgandi. Tushlikkacha hovlida yer ag‘dardim. Yolg‘iz o‘zim tushlik qilib, yotgan joymida mulgib, uxbab qolibman. Kimningdir baqirgan ovo-

zidan uyg‘onib ketdim. Hovliga chiqsam, Ma’mura kennoyi o‘g‘lini izlab kelgan ekan. «Chaqirsam, hech kim javob bermadi, Mo‘minjon sizlarnikiga kirmadimi?» – dedi u. Ko‘zim ilinib ketganini, Mo‘minjonni ko‘rmaganimni aytdim. U bolasini axtarib, boshqa qo‘snilarnikiga qarab ketdi. Men boshida «yosh bola qayoqqa borardi, ko‘chada tengdoshlari bilan o‘ynab yurgandir-da», degan fikrga borib, bunga unchalik ahamiyat bermagandim. Shu sababli hovlida o‘z ishim bilan band bo‘ldim. Biror soat o‘tib, qo‘snilnikiga odam to‘plana boshladi, baqir-chaqir ovozi eshitila boshladi. «Hali topilmapti-da» degan o‘yda ularnikiga chiqdim. Qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘snilar bir necha guruhga bo‘linib, bolani qidirishga tushdik...

- Mo‘minjon sizlarnikiga kirib turarmidi?
- Yo‘q, oldin kirmagan... Biznikida yosh bola bo‘lmasa. Kimning oldiga keladi!
- «Oldin kirmagan» deyapsiz, nima, Mo‘minjon o‘sha kuni sizlarnikiga kirganmidi? – tergovchi guvohni tilidan ilintirishga harakat qildi.
- Shunaqa dedimmi? Kechirasiz, oldinlariyam kirmagan demoqchiydim... Men yo‘q paytimda kirgan bo‘lsa kirgandir. Men ko‘pincha ishda – smenda bo‘laman...
- Siz Mo‘minjonning dadasi Doniyor bilan sinfdosh ekansiz, shu to‘g‘rimi? – tergovchi savollarni qalashtirib tashladi.
- Ha, to‘g‘ri! Doniyor bilan birga o‘qiganmiz, og‘aynim. Faqat oilasini tashlab, Rossiyaga ketib qolganidan keyin, ancha uzilishib qolgandik.
- Munosabatlaringiz qanaqa edi?
- Yaxshi edi, og‘ayni bo‘lganmiz... Birga ishlaganmiz...
- Oralaringizda janjal, tushunmovchiliklar bo‘lma ganmi?

– Nima desa bo'ladi. Ba'zida gap talashib qolganmiz... Arazlashib yurgan vaqtlarimiz bo'lgan... Bir-ikki kun qoqoq-tumshuq qilib yurib, keyin yana gaplashib ketganmiz. Ba'zida u meni «shal pangqulooq» deb ustidan kulgan kunlar bo'lgan... Jo'rachilikda bo'ladi-ku! Lekin unaqa urishib-netib yurmaganmiz...

– Barno bilan Nuriddin yo'qolgan kunlar yakshanba kuni bo'lsa-da, siz ishda bo'lgan ckansiz-a? – tergovchi keyingi savolga o'tdi.

– Ishimiz shunaqa, bir sutka ishlab, bir sutka dam olamiz. Ikki bola yo'qolgan kunlar mening tungi smenamga to'g'ri kelgandi. Ishdan qaytib kelgandan keyin bolalar ning bedarak yo'qolganini eshitganman.

– Nima deb o'ylaysiz, bir mahalladan uch bola qayerga ketgan bo'lishi mumkin? – so'radi Sanjarbek suhbatdoshiga zimdan tikilib. – Kim ularni o'g'irlagan? Ular shu paytgacha tirik qolgan bo'lishi mumkinmi? Yoki...

– Bolalarni kim o'g'irlagani, nimaga o'g'irlagani men ga qorong'i. Ammo xayolimda ular tirikday. Hali-zamon topilib qolsa ajabmas.

– Bunga biror asosingiz bormi? Yoki bu shunchaki xomxayolmi? – tergovchi ko'ngliga tugib qo'ygan savolini berishga fursat yetganini anglab, davom etdi, – Mo'minjonning uyidagilarga ham bir necha bor shu gapni aytgan ekansiz-a?

– To'g'ri, Doniyor do'stingayam, uning xotinigayam: «Mo'minjon o'limgan, hali o'z oyog'i bilan kirib keladi» deb ayiganman, sho'rlik ota-onaning ko'nglini ko'targanman... Nima, noto'g'ri qilibmanmi? Odamgar-chilik deganday...

– Bunaqa deyishga biror-bir asosingiz bo'lganmi yoki shunchaki...

– Endi, aka, nima deyin, «bolangning topilishi dargumon, o'lib ketgan bo'lsa kerak, umidingni uz» demayman-

ku! Hol so'rashga borganda o'ladigan kasalga ham «ancha yaxshi bo'lib qolibsiz, albatta tuzalib ketasiz» deb ko'ngil ovlaydilar-ku!

— Yaxshi, — tergovchi suhbatni yakunlashga chog'-landi. — Siz Ma'mura bilan yon qo'shnisiz. Qarindoshurug'lardan tashqari ularnikiga kimlar kelib-ketganini ko'rgammisiz?

— Asosan qarindoshlari... yaqin o'ttada begona kishining kelib-ketganiga ko'zim tushmagan...

Tergovchilar yana bir necha masalalarga oydinlik kiritgach, Zamirga javob berishdi. O'zlari yolg'iz qolgach, Rahimjon taassurotlarini o'rtoqlashishga shoshildi:

— Sanjar aka, bu yigit to'g'risida fikringiz qanday? Gaplari samimiyligiga shubhangiz bormi?

— Voqeа atrofidagi har bir shaxsdan shubhalanishga majburniz, — dedi guruh rahbari bir nuqtadan ko'z uzmay. — Hozircha Zamir o'z do'stining o'g'lini o'ldirishiga motiv — sabab ko'rmayapman. Yigitning ruhiy holatida ham kemtiklik sezmadim. Aqlan sog'lom odamning birovni sababsiz o'ldirishi aqlga sig'maydigan ish.

— Nima, unda Zamirni gumondorlar safidan chiqaramizmi?

— Aksincha, u bilan jiddiyroq shug'ullanishga to'g'ri keladi. Uning shaxsi, yashash joyi, ish joyidagi aloqalari, muqaddam nima mashg'ulot bilan shug'ullanganligi, ruhiy holatida o'zgarishlari kuzatilgan-kuzatilmaganligi, Barno va Nuriddinning ota-onasi va yaqinlari bilan munosabatlari, shuningdek, birinchi va ikkinchi voqeа sodir bo'lганда qayerda bo'lганligi, agar ish joyida — smenada bo'lган bo'lsa, aynan nima ishlar bilan mashg'ul bo'lганligini, ishxonadan muayyan muddatga chiqib ketgan yoki ketmaganligi aniqlanishi lozim. Huddi shunday Shahodatning ham shaxsi o'rganilishi, aloqalari puxta tekshirilishi lozim. Har ikkalasining telefon raqamlari tarixi olinib, tahlil qili-

nishi, telefon aloqalari pelengatsiyalarini o'rganish asosida ularning mudhish voqeasi sodir bo'lgan paytda qayerda bo'lganliklari, kimlar bilan aloqaga kirishganligi aniqlanishi zarur. Faqat shundan keyingina ularni gumondorlar safidan chiqarish masalasini muhokama qilsak bo'ladi.

Tergovchilar to kech tushgunga qadar Ma'mura Egamovaning hamsoyalari, yaqinlari bilan gaplashib, ish holatlariiga aniqlik kiritishga harakat qildilar. Izquvarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

Sanjarbek ishga odatdagidan erta keldi. U tuni bilan miyasida chuvalashib yotgan fikrlarni qog'ozga tushirib, tartibga solishni o'ylagandi. Temir shkafdan jinoyat ishi hujjatlarini chiqarib, oq qog'ozga katta-katta harflar bilan yozishga tushdi: 1. Barno, Nuriddin, Mo'minjon baxtsizlik qurbanini bo'lganmi? Javob: yo'q. 2. Ular hayotmi? Javob: yo'q. 3. Bolalar o'lganmi yoki o'ldirilganmi? Javob: o'ldirilgan. 4. Bolalar kim tomonidan o'ldirilgan? Javob: a) tanish shaxs yoki yaqinlari tomonidan o'ldirilgan; b) begona shaxs tomonidan o'ldirilgan. Keyingi javob unchalik haqiqatga yaqin emas. Negaki, kimningdir aynan shu mahallaga kelib, uchta bolani o'g'irlashi yoki o'ldirishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Mabodo buyurtmachilar chetdan bo'lganda ham mahalla ahlidan kimdir ularga yordam ber-gani tayin. 5. Bolalar nima sababdan o'ldirilgan? Javob: jinoyat motivi noma'lum! Demak, jinoyatni fosh etish uchun, birinchi navbatda jinoyatning motivini aniqlash tabab etiladi. 6. Jinoyatning sababi bo'lmasisligi yoki arzimas bo'lishi mumkinmi? Javob: ehtimolligi kam, ammo amaliyotda odamlxo'r manyaklar odamlarni hech bir sababsiz o'ldirganligi holatlari ko'p kuzatilgan. Misol uchun, bir manyak ayollarni o'ldirib, huzurlangan. Keyinchalik buning sababini qachonlardir sevgan ayoli bevafolik qilib, uni tashlab ketganligi bilan izohlagan. 7. Agar jinoyatchi man-

yak bo'lsa, qurban sifatida voyaga yetmagan shaxslarni tanlashiga nima sabab bo'lishi mumkin? Javob: o'zining bepushtligi alamini boshqalardan olish yoki bolalarning ota-onasi tomonidan unga nisbatan qilingan «zug'um», «haqorat» yoxud «tuhmat»...

Soat millari sakkizga yaqinlashganda, cshikda Jo'raboy ko'rindi:

– Assalomu alaykum, Sanjar aka, men birinchi desam, mendan avval ishga kelganlar ham bor ekan-ku.

– Ha, kallai saharlab siz nima qilib yuribsiz, – dedi tergovchi qog'ozdan bosh ko'tarmay, – zarurga zarur, no-zarurga nima zarur?

– Eh aka, ko'zga uyqu kelmay qoldi, – dedi talaba soddalik bilan, – kecha-kunduz «bolalarni kim, nima sababdan o'ldirgan?» degan savol miyamdan ketmay qoldi.

– Xo'sh, javob topa oldingizmi? – dedi tergovchi kulisirab. – Siz yordam qilmasangiz, ishimiz yurishmaydiganga o'xshaydi.

– Albatta, yordam qilaman. Bilasizmi, men juda ko'p detektiv kitoblar o'qiganman, deyarli hamma detektiv kinoslarni ko'rghanman. Ulardan ko'p narsalarni o'rgansa bo'ladi.

– Xo'sh, qaysi kitoblarni o'qigansiz? – Sanjarkbek o'zining hazilomuz, to'g'rirog'i, kinoyaomuz gapiga tushunmasdan yoki tushunsa-da, parvo qilmay, beg'uborlik bilan javob qaytarayotgan yigitga qiziqishi ortdi.

– Lev Sheyninning «Tergovchi xotiralari», Fyodor Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo», Agati Kristining «O'nta negr bolasi», Artur Konan Doyning «Sherlok Xolms...»

– Yetarli, yetarli. Rostdan ham ko'p detektiv asarlarini o'qigan ekansiz. Tajribangiz bizga asqatishi mumkin. Qani, tuni bilan mijja qoqmay, tafakkur doshqozonida nimalarni «pishirish»ga ulgurdingiz?

– Kitoblarda, kinolarda bunaqa murakkab, sirli qotililikni uchratmaganman, biror-bir xulosa chiqarishga aqliy salohiyatim kamlik qilib turibdi. Lekin o‘ylashda davom etayapman...

– Nega «qotillik» deyapsiz, balki bolalar bedarak yo‘qolgandir yoki baxtsiz hodisa qurban bo‘lgandir? – tergovchi yigitni ataylab munozaraga chorladi.

– Bolalar polaponday gap, hech qachon uyasini tashlab uzoqqa ketolmaydi. Inidan uzoqlashsa, ularni muqarrar o‘lim kutishini yaxshi bilishadi. Barno sal kattaroq, uning qayergadir bedarak yo‘qolgan bo‘lish ehtimoli yo‘q emas. Ammo Nuriddin bilan Mo‘minning o‘z inon-ixtiyori bilan qayergadir ketib qolishi ehtimoldan ancha yiroq. Demak, ularni kimdir o‘g‘irlagan yoki o‘ldirgan. «O‘g‘irlagan» degan taxminning ham ehtimolligi juda past. Negaki, bolalarning ota-onasi puldor odamlar emas. Ulardan bola evaziga kimdir pul talab qilishi ahmoqchilikdan boshqa narsa bo‘lmazı. Bolalar tana a’zolarini transplantatsiya qilish maqsadida o‘g‘irlangan bo‘lsa, ularning hayotligiga umid qilib bo‘lmaydi. «Sho‘rlik go‘daklar allaqachon nobud bo‘lgan», deb xulosa qilish mumkin.

– Xo‘p, siz aytgancha bo‘la qolsin, – yosh hamkasbini «imtihon» qilishda davom etdi tergovchi, – lekin jinoyatchilarning qayerlardandir kelib, bir qishloqning uch bolasini o‘g‘irlab ketishida mantiq bormi? Nima, boshqa qishloq qurib ketganmi?

– To‘g‘ri savol, – talaba jo‘sib ketdi, – jinoyatchilarning sherigi shu qishloqda yashaydi. U nisbatan kambag‘al, bechorahol oilalarning bolalarini tanlab, sheri klariga ma’lumot beradi.

– Nega endi kambag‘al oilalar tanlanadi? – Sanjarbek o‘zini hech narsani tushunmayotganday tutishga harakat qildi.

– Nega bo'lardi, kambag'alning dodini birov eshitarmidi? Yig'lab-yig'lab, taqdir hukmiga ko'nishdan boshqa nima chora qila olardi. Noto'g'rimi? Mana, Barno va Nuriddinning yo'qolishi «bedarak yo'qolganlik» bilan xaspo'shlangan. Agarda Mo'min yo'qolib, jamoatchilik e'tibori qaratilmaganda, har ikkalasi bir umr bedarak yo'qolganlar ro'yxatida qolib ketgan bo'lardi.

– Mushohadalaringiz chakki emas, – maqtab qo'ydi Sanjarbek, – lekin so'rالgan guvohlardan birortasi begona shaxsni ko'rishmagan-ku. Bolalarmi burgut qanotida olib ketmagandir!

– Balki shu qishloqda yashovchi sherikning o'zi bolalarni bildirmay o'g'irlab ketishda ishtirok etgandir, ya'ni ularni muayyan joygacha olib borib bergandir. Chunki qishloq sharoitida begona nusxalar ko'zga tez chalinadi. O'sha kunlari guvohlarning begona kimsani ko'rmaganligini shu bilan izohlash mumkin.

– Demak, sizningcha, birinchi taxmin bolalar ularning tana a'zolarini sotish maqsadida o'g'irlangan demoqchisiz, shundaymi?

– Shunday, shunday.

– Unda navbatdagi savol tug'iladi: qurbonlik uchun nima sababdan aynan shu qishloq, aynan shu bolalar tanlangan? Axir bir qishloqdan uchta bolaning yo'qolib qolishi aholi o'rtaSIDA katta shov-shuvlarga, «izla-izla», «top-top»larga sabab bo'ladi-ku! Agarda shu uch holat bir-biridan uzoq uch joyda sodir bo'lganda, bedarak yo'qolganlar soni uchtaga ko'paygan bo'lardi, tamom. Shuncha ishni xamirdan qil sug'urganday ado etgan jinoyatchilarining bu oddiy haqiqatni bilmasligi mumkinmi? Shu sababli agarda jinoyatchilarining es-hushi joyida bo'lsa, bu yo'lni tanlamagan bo'lishardi. Mabodo jinoyatchilar tasodifiy va aqlsiz bo'lsalar, ulardan har narsani kutsa bo'ladi... Ammo bizning misolimizda qotillar qisqa

paytda uchta bolani izsiz, guvohsiz, dalilsiz, bexato va ustomonlik bilan yo‘q qilishning uddasidan chiqqanligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularni aqlsiz, tadbirsiz deyish insofdan bo‘lmaydi.

Jo‘raboy hamsuhbatining mushohadalari oldida o‘ziniki ancha xom va yuzaki ekanligini his qilib, unga havas qilgancha og‘zi ochilib turardi.

– Shu sababli boshqa taxminlar ustida ham bosh qotirishga majburmiz, – davom etdi tergovchi, – xo‘sh, sizingcha, yana qanaqa taxminlar ustida bosh qotirish mumkin?

– Yana... Yana... bolalarni shu qishloqda yashaydigan shaxs ularning ota-onalari, yaqinlaridan o‘ch, qasos olish, rashk va boshqa sabablar tufayli qasddan o‘ldirgan bo‘lishi mumkin.

– Mayli, bu taxminni ham qabul qildik. Yana qanaqa taxmin bo‘lishi mumkin?

– Keyingi taxmin... menimcha, qishloqda biror manyak paydo bo‘lgandir, – chaynaldi Jo‘raboy.

– Shunday deb o‘ylaysizmi? – tergovchi talabaning fikrlari o‘ziniki bilan mos tushayotganidan mammun edi. – Manyak ham odamlarni besabab o‘ldirmaydi-ku! Uchta yosh bolani o‘ldirish uchun o‘scha siz aytayotgan odamxo‘rda qanday vaj-karson bo‘lishi mumkin?

– Eh Sanjar aka, «Shum bola» aytmoqchi «innankeyinch» deb xit qilib yubordingiz-ku, – beg‘ubor kului Jo‘raboy. – Manyaklar uchun asos shart emas. Ular odamlarni o‘ldirish uchun arzimas narsalarni bahona qilib olishadi. Aslida, hech qanday arzigulik sabab bo‘lmaydi... «Manyak» degani – jinnining o‘zginasi. Tentak qilayotgan ishining oqibatini tushunarmidi?! Bu bir kasallik-da!

– Mushohadalaringiz chakki emas, Jo‘ravoyjon, – dedi SanjARBek hamsuhbatining yelkasiga qoqib. – Kelajakda sizdan yaxshigina tergovchi chiqadi deb o‘layman.

Faqat o'qish, izlanishdan to'xtamang. Tergovchi fikr dorasi keng, bilimli, fahm-farosatli, sabr-bardoshli bo'lishi lozim...

Shu payt eshik taqillab, xonaga Rahimjon kirib keldi:

– Assalomu alaykum! Hormanglar, hormanglar! Uy egalari bemalol yurishibdi, sizlar kallai saharlab ishdasizlar, qoyil, qoyil.

– Shunaqa-da! Biz Jo'ravoy bilan erta tongdan ko'p narsalar haqida fikrlashib olishga ulgurdik.

– Nimalarni gaplashdingiz, qani, biz ham eshitaylikchi!

– Asosiysi, Jo'ravoy bilan fikrimiz bir joydan chiqib qoldi, – dedi guruh rahbari talabaga ishora qilib. – Shu ketishda bo'lsa, bu yigitdan ajoyib tergovchi chiqishi aniq.

– Ha, Jo'raboy kallali, g'ayratli jigit, boqsa – odam bo'ladi, deganlariday, tarbiyalasa ajoyib tergovchi chiqadi.

– Rahmat, ustozlar, – talaba o'midan turib, minnatdorchilik bildirdi, – etimiz sizlarniki, suyagimiz ota-onamizniki!

Kulishib, g'uborlari to'kildi.

– Qani, biz ham eshitaylik, ustoz-shogirdning yangi «ixtiro»larini!

Sanjarbek Jo'raboy bilan bo'lgan suhbatni oqizmay-tomizmay so'zlab berdi.

– Demak, to'g'ri tushungan bo'lsam, ayni paytda, uchta asosiy taxmin to'g'risida bosh qotirishimizga to'g'ri keladi, shundaymi?

– Shunday, – hamkasbining gapini ma'qulladi guruh rahbari, – ammo ulardan qay biriga ustuvorlik berish, bu ham juda muhim. Shu masalada fikrlaringizni bilmogchi edim.

– Menimcha, bolalarning tana a'zolarini sotish uchun o'g'irlanganligi haqidagi taxmin haqiqatga yaqinroq. Albatta, boyta aytganingizday jinoyatchilarga qishloqdan

kimdir yordam bergen. Ehtimollik darajasi bo'yicha shu qishloqda yoki yaqin atrofdagi qishloqlarda manyak chiq-qanligi haqidagi taxminni ikkinchi o'ringa qo'ysa bo'ladi. Qotilliklarning jabrlanuvchilar oilasi bilan bizga noma'lum sabablar tufayli kelib chiqqan kelishmovchilik, nifoq orqa-sida qasos olish maqsadida amalga oshirilganligi haqidagi farazni uchinchi o'ringa qo'ysa bo'ladi.

– Sizam shu fikr damisiz, Jo'ra aka? – hazil aralash so'radi guruh rahbari.

– Rahimjon aka ichimdagini topdi-yey, qoyilman! – yigit hamon maqtovlar ta'sirida go'yo osmonda uchib yurardi.

– Fikrimiz bir joydan chiqqani yaxshi bo'ldi. – San-jarbek jiddiy lashdi. – Xo'sh, endi jinoyatni fosh qilish uchun ishni nimadan boshlasak to'g'ri bo'ladi?

– Men bir kitobda o'qigandim, izquvarlar voqeа joyidan anchagina narida taxmin qilinayotgan noma'lum qotilga tegishli qizil rangli sumkani topib olishadi. Tergovchi hiyla ishlatmoqchi bo'ladi. Sumkani topilgan joyiga olib borib qo'yib, gumondorni chalg'itish maqsadida guvohlar qotilning qizil sumkasi bo'lganligi haqida ko'rsatma bergenligini, shu sumkani topishda yordam so'rab televide-niye orqali aholiga murojaat qilishadi. Buni eshitgan qotil sumkani tashlab yuborgan joyiga borib, uni yo'qotish payiga tushishini izquvarlar yaxshi tushunishadi va tezda o'sha joyga borib, jinoyatchini kutib turishadi. Keyingi kun tong payti qotil sumkani izlab keladi va izquvarlar uni qo'lga olish choralarini ko'rishadi.

– Xo'sh, janob talaba, bu bilan nima demoqchisiz? – Rahimjon hayron bo'ldi, – bizda qizil sumka bor-mi?

– Yo'q, bizda sumka yo'q, ammo velosiped bor.

– Nima, velosipedni topilgan joyiga olib borib, qotilni kutamizmi?

— Yo‘g‘-e, nima deyapsiz, «Velosipedda barmoq izlari topilgan, qishloq aholisining barchasidan barmoq izlari olinadi», — deb shov-shuv ko‘taramiz...

— Qotil sarosimaga tushib qolishi turgan gap! Chakki emas, — dedi Sanjarbek yosh hamkasbini quvvatlab, — bu haqda bosh qotirsak bo‘ladi. Tergovda ba’zida shunaqa hiylalar ham ishlatishga to‘g‘ri keladi.

— Xo‘sh, keyin nima bo‘ladi? Hammaning barmoq izlarini olib, nima bilan solishtiramiz. Qaytanga sharmandamiz chiqib qolmaydimi? — dedi Rahimjon aftini burishtirib.

— Yo‘q, bu yerda gap qotilni sarosimaga solib, o‘zini oshkor qilib qo‘yishga majburlash haqida ketayapti, — izoh berdi guruh rahbari. — U qo‘rqib ketib, qo‘chib qolishi, barmoq izlarini topshirishni paysalga solishi va boshqa shunga o‘xhash harakatlarni qilishga majbur bo‘lishi mumkin. Asosiysi, uni velosipedda barmoq izlari topilganiga ishontirish.

— Shuncha paytdan beri topilmagan iz qanday qilib endi topila qolgani ajablanarli bo‘lmaydimi? — Rahimjon o‘z pozitsiyasini saqlashga harakat qildi, — hiylamiz oshkor bo‘lib qolmaydimi?

— Velosiped Toshkentga olib borib, ekspertiza qilinganda barmoq izlari aniqlanganligini targ‘ib qilsak bo‘ladi, — gapga qo‘sildi Jo‘raboy.

— Ikkinchidan, Toshkentdan — Bosh prokuraturadan tergov guruhi rahbari kelganligini hamma biladi, yangi rahbar, yangicha tartib... hecham ajablanadigan joyi yo‘q, — dedi Sanjarbek derazadan ko‘z uzmay.

— Mayli, hiyla ish berdi ham deylik, lekin buni qanday isbotlaymiz? Jinoyat ishida qanday aks ettiramiz? — Rahimjon hamon «shahar berish»ni istamasdi.

— Obbo Rahimjon-ey, — kuldi guruh rahbari, — biz bu hiyla orqali qotilni cho‘chitib, suv ostida yashirinib

yotgan baliqchani suv yuzasiga chiqarmoqchimiz. To‘g‘ri, bu usul qotil shu qishloqdan bo‘lgan holat uchun qo‘l kelihi mumkin. Qotil chetdan bo‘lsa, tabiiyki, hech narsaga erisha olmaymiz... Yaxshi, sizlarda yana qanday mulohazalar bor?

— O‘scha kuni Barnoning mashinasida bo‘lgan shaxsni aniqlash uchun tezkor xodimlarimiz bor imkoniyatlarni ishga solishmoqda, — Rahimjon «aybi»ni yuvishga harakat qilardi. — Barnoning mashinasini topish uchun barcha viloyatlarda qidiruv ishlari olib borilmoqda...

— Mashinani izlaganimiz yaxshi, — qo‘srimcha qildi Sanjarbek, — lekin makkor jinoyatchi uni ko‘chaga minib chiqishi yoki minish uchun birovga berishi yoxud kim-gadir sotib yuborishi aqlga to‘g‘ri kelmaydi. Mashinani hech kim ko‘rmaydigan joyga berkitib qo‘yish ham xatarli. Buni jinoyatchi yaxshi tushunadi. Shu sababli u qanday yo‘lni tanlashi mumkin?

— Mashinani qismlarga bo‘lib, maydalab sotib yuborishi mumkin, — hozirjavoblik bilan javob berdi Jo‘rabet.

— Ha, otangizga balli! Jinoyatchida aql bo‘lsa, aynan shunday yo‘lni tanlaydi. Shu sababli viloyatdagi, ayniqsa, Toshkentdagi mashina ehtiyyot qismlari sotiladigan nuqtalarni nazoratga olishimiz lozim. Barnoning otasi o‘z mashinasining chtiyot qismlarini tanishi mumkin. Uning yordamiga tayansak bo‘ladi... Marhamat, davom eting, Rahimjon.

— Shu bilan birga velosipedning qanday qilib anhorga kelib qolganini aniqlash bo‘yicha ham so‘rab-surishtirish ishlarini davom ettiramiz. Kimdir ko‘rgan bo‘lishi kerakku! Shuningdek, qishloqqa yaqin oradagi tashkilotlarga o‘rnatilgan video kameralar, yo‘l harakati xavfsizligi maskanlaridagi videokuzatuvlar tarixini to‘liq tekshirib ko‘ramiz. Bolalar mashinada biror joyga olib ketilgan bo‘lsa, kameraga tushib qolgan bo‘lishi mumkin-ku! Xud-

di shunday Barmoning mashinasi ham kamera ko‘zgusida aks etgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Va nihoyat, Mo‘minjonning ishi bo‘yicha qishloqda tezkor-qidiruv ishlarini jonlantiramiz. Hovlisida xandaq, quduq, hojatxona qazigan, buzgan yoki yangi qurilish ishlari olib borgan shaxslar aniqlanib, o‘rganib chiqiladi.

— Juda yaxshi, — ma’qulladi guruh rahbari, — shu bilan birga jabrlangan oilalarning qo‘ni-qo‘shnilar, yaqinlari bilan munosabatlarga jiddiy qarashimiz kerak. Xalqimizning qoni qiziqligini unutmasligimiz lozim. Qasos, rashk,adolatsizlik, xo‘rlik oldida chidab turolmaydi, ko‘zi qonga to‘ladi. Hayoti ham, joni ham ko‘ziga ko‘rinmay qoladi. Shu sababli aholi orasidagi «axborot tashuvchi» xotinlar, pistachilar, bozorchilar bilan gaplashib ko‘rishimiz, izquvarlar o‘z agentlarini ishga solishi zarur.

Shu kunning o‘zidayoq tergovchilar, izquvarlar, miliysi xodimlari bir necha guruhga bo‘linib, qayd etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ish boshladilar. Tezkor shtabda amalga oshirilayotgan ishlar haqida har soatda xabar qilib turish tartibi belgilandi...

\* \* \*

Sanjarbek, bir tarafdan, ustozidan xabar ololmayotganidan, ikkinchi tarafdan, qo‘lidagi ish bo‘yicha tayinli natijaga erisholmayotganidan xunobi chiqib, na o‘tirishi, na turishida halovat yo‘q edi. Tergov juda murakkab, ko‘p qirrali aqliy, ijodiy jarayon. Kallang joyida, ko‘ngling osuda, kayfiyatning yaxshi bo‘lmasa, «tergov» deb atalmish ilonizli so‘qmoqda adashib ketishing, boshi berk ko‘chalarga kirib ketishing, eng muhimi, jiddiy xatoga yo‘l qo‘yishing hech gap emas... Eng yomoni, u Faxriddin Karimovichday professionaldan hech bo‘lma ganda telefon orqali maslahat olish imkonidan mahrum! Bunday paytlarda ustoz kutilmagan yechimlar topishga, hech kimning xayoliga kelmagan

taxminlarni o'ylab topishga, makkor jinoyatchining izidan tushib, dumidan tutishga ustasi farang edi-ya! Shunday iqtidorli, halol va pokiza, fidoyi insonni zindonband qilishganiga alaming keladi! Shuyam ish bo'ldimi! Qanchadan qancha odamlarni tuhmat sirtmog'idan, adolatsizlik chandalidam sug'urib olgan, manaman degan jinoiy to'dalarni fosh etib, qonun qo'liga topshirgan, ne-ne ashaddiy jinoyatchilarni sudning qora kursisiga o'tqazgan bu qonun posboni bugun o'ziadolat istab, haqiqat istab, qamoqda muztar yotibdi! Men ham, Tohir G'ofurovich ham, butun boshli prokuratura ham qo'limizdan hech ish kelmay, eng jonboz, otashin safdoshimizni taqdir to'foniga tashlab, yordam qo'lini cho'zolmay, tomoshabin bo'lib o'tirishdan boshqasiga yaramay o'tirsak!

Shu payt eshik taqillab, xonaga Rahimjon kirib keldi.

— Sanjar aka, kalavaning uchi topiladiganday bo'lib turibdi, — dedi u tomdan tarasha tushganday halloslab.

— Xo'sh, xo'sh,— Sanjarbekning vujudi qulqoqqa aylandi.

— Buxoro shahrida jinoiy to'da qo'lga tushibdi. Ko'p paytlardan buyon, asosan, yosh bolalarning tana a'zolari transplantatsiyasi bilan shug'ullanib kelgan ekan. Bolalar ni o'g'irlab, ma'lum muddat juda puxta niqoblangan yerto'lada joylashgan maxsus laboratoriyyada saqlasharkan. Zaruriyat bo'lganda bolalarning jigar, yurak, buyrak va boshqa a'zolarini olib, maxsus konteynerlarda chet elga chiqarishar ekan.

— To'da ancha paytdan beri faoliyat yuritib kelganmikan?

— Ikki yildan buyon shu qabih ish bilan shug'ullanib kelishgan. Dastlabki taxminlarga ko'ra o'ndan ortiq bolaling hayotiga zomin bo'lishgan deyishmoqda.

— Shuncha bola yo'qolib qolsa-yu, odamlar qayoqqa qaragan, Ichki ishlar, Prokuratura, Xavfsizlik xizmati, ja-moatchilikning ko'zi qayerda bo'lgan ekan?

– Bilmadim, ammo jinoyatchilar juda puxta reja asosida ehtiyotkorlik bilan harakatlanishgan. Jabrlanuvchilarni Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatining chekka qishloqlaridan tanlashgan. Joylarda bolalarning izsiz yo‘qolishi, bizdagi kabi «bedarak yo‘qolgan» deb, nazardan chetda qolavergan. Mana, bizam ikki bola yo‘qolgandayam bedarak yo‘qolganlar safiga qo‘sib qo‘yib, bexavotir qo‘l qovushtirib o‘tiraverdi. Uchinchi bola yo‘qolgach, qimirlab qoldik, jinoyat ishi qo‘zg‘atishga majbur bo‘ldik. Shunda ham har uchala voqeа bir qishloqda bo‘lgani uchun. Yo‘qsa, hodisa boshqa-boshqa qishloqlarda ro‘y berganda, xudo biladi, hamon bolalarni «bedarak yo‘qolgan», deb bemalol g‘o‘ddayib yuraverarmidik!

– Nimani taklif qilasiz? – SanjARBek tezroq chora ko‘rishga shoshilardi.

– Ruxsat bersangiz, men bugunoq izquvar yigitlardan birini olib, Buxoroga qarab yo‘lga tushsam. Borib, joyida surishtirsam. Menimcha, bizning bolalarning izi ham o‘sha yerga borib taqaladiganday. Vaqt ni boy bermaylik deyman-da!

– Yaxshi, unda siz tezroq yo‘lga chiqing, sheriklikka chaqqonroq yigitlardan birini tanlang, – guruh rahbari tergovchining taklifini quvvatladi. – Kerakli hamma narsani – bolalarning rasmlari, ekspertiza xulosalari, bolalarning o‘sha kuni kiygan ust-boshlari, tana a’zolaridagi xos belgilari ifodalangan hujjatlarni olishni unutmang. Zaruriyat bo‘lsa, men ham uchib boraman, bolalarning ota-onalarini tanib olish uchun yetkazish choralarini ko‘ramiz.

Hamkasblar xayr-ma’zur qilib, tarqalishdi. Rahimjon o‘sha kuni epchil izquvarlardan hisoblanmish Botirali bilan Buxoro shahriga uchib ketdi.

SanjARBek tergovchi sifatida uch begunoh bolaning allaqachon yo‘q qilinganiga shubhasi bo‘lsa-da, inson sifa-

tida qalbining chuqur-chuqurlarida «bolalar tirik, qayerda-  
dir tutqunlikda saqlab turilibdi», degan umid nishonalari  
ham bor edi. Buxorodan kelgan xabar uning shu xayol-  
larini sarobga aylantirib, yuragiga nish urilganday bo‘ldi.  
Jinoyatning tezroq ochilib, qotillarning qo‘lga olinishidan  
qanchalik manfaatdor bo‘Imasin, shu tobda bu uch bola-  
ning Buxorodagi xunrezliklar ro‘yxatidan chiqmasligini  
ich-ichidan istadi.

Xona eshigi taqilladi.

- Kiring, marhamat!
- Assalomu alaykum, Sanjar aka, yaxshimisiz, – qo‘-  
lida sariq diplomat ko‘targan Jo‘raboy kuydirilgan kalla-  
day tirjayib, xonaga kirib keldi.
- Vaalaykum assalom! Jo‘raboy uka, shu zil-  
zambil sumkangizni qo‘ldan qo‘ymaysiz, ichida nimalar  
bor? – hazillashdi SanjARBek.
- Ey-y aka, kerakli toshning og‘iri bormi? Bor biso-  
timizni shu sumkada saqlaymiz-da! Buning ichida kitob-  
daftardan tortib, kiyim-kechakkacha, ichimlikdan tortib,  
yeguliklargacha bor. Xohlagan joyda ochib, yeb-ichib  
ketaverasiz! Talabalik – «oltin davrim» shunga majbur  
qildi-da!
- Xo‘s, nima ishlar qilib yuribsiz?
- Aloviddin Istamovich bilan... odam zerikmas ekan.  
Rosa ajoyib, komik odam ekan. «Bizda quloq, ko‘z, ke-  
rak bo‘lsa, qo‘l bor, senda esa bosh, birga bo‘lsak butun  
bo‘lamiz», deb meni o‘zi bilan olib yuribdi.
- Shuni o‘zları tan oldimi?
- Ha, shunaqa dedi.
- Ha, qusurini tan olish ham matonat! Ammo,  
Jo‘ravoyjon, siz tergovchi bo‘lishni orzu qilasiz, shunday-  
mi?
- Shunday, shunday...

– Unda tergovchilarga ergashing! – dedi SanjARBek kulimsirab.– Mayli, ayni paytda, ular bilan bir ishni qilayapmiz, ular ham tergov guruhi a’zosi. Birga ishslash samarali bo’ladi. Biroq kelajakda Aloviddinga o’xshash izquvarlarning qo’liga tushsangiz, sizdan mohir tergovchi chiqmay qolishi mumkin, degan xavotirim bor.

– O’zim ham sezdim, ularning usuli sal boshqacharoq bo’larkan. Tergovning yo’rig‘i bo’lak.

– Xo’p, nimalar qildinglar? – SanjARBek jiddiylashdi.

– Ko’p ish qildik, hozir Aloviddin akaning o’zi kelib hisobot beradi. Ammo meni ko’chaning boshida pista sotib o’tiradigan kampirning gapi biroz o’ylantirib qo’ydi. Uning aytishicha, chamasi, Mo’mjon yo’qolib qolgan kundan o’n-o’n besh kun avval bir olifta xotin qizil rangli mas-hinasida Ma’mura Egamovaning uyini surishtirib kelgan ekan. Kampir uyni ko’rsatgan, ammo boyagi xotin manzilga bormay, ortiga qaytib ketgan. Bu xotin kim bo’ldi ekan, deb o’ylanib qoldim. Aloviddin aka esa «Ey, qo’yaver, bu kampirning sal kallasi ketgan, og’ziga kelganini valdiray-veradi, ahamiyat berma», – deydi. Ko’rinishidan tappa-tuzuk momo, ammo rosa jag‘i ochiq ekan, tinmay sayrarkan o’ziyam... miyamning qatig‘ini chiqarib yubordi...

– Shunaqa deng, – guruh rahbari biroz o’ylanib qoldi, – kampirning sal tomi ketgan bo’lishi mumkin, ammo undaylor ko’p narsani aniq-tiniq eslashadi, bekorga yolg‘on so’zlamaydi.

SanjARBek Aloviddinga qo’ng’iroq qilib, pistachi kampirni olib kelishga ko’rsatma berdi. Izquvar «Aka, bir jinni kampirning gapiga ishonib, boshimizni qotirib o’tiramizmi?» – desa-da, tergovchi fikridan qaytmadi.

Sal vaqt o’tar-o’tmas, Aloviddin xonaga yoshi yet-mishlarni qoralagan, ko’chadagi lo’li xotinlarga o’xshash allambalolarni ustiga kiyib olgan momoni boshlab keldi.

– Zaynab xola shu kishi bo‘ladilar, – dedi izquvar kampirga ishora qilib, – qishin-yozin ko‘cha boshida pista sotib tirikchilik qiladi.

SanjARBek kampirga o‘tirishga joy ko‘rsatib, hol-ahvol so‘radi. Piyolaga suv quyib uzatdi.

– Suvday serob bo‘ling, bolam, – dedi momo suvni oxirigacha simirib, – AllohgA shukur, ko‘rsatgan kuning-ga shukur!

– Nechiga chiqdingiz, ona!

– Yetmishning ustidaman, bolam! Cholimning yo‘q bo‘lganiga naqd yigirma yil bo‘ldi. Beva boshimman to‘rt bolani yedirib-ichirdim, oyoqqa qo‘ydim. O‘qitishga qur-bim yetmadni. Maktabni bitirib, qishloqda tayinli ish to-polmay kattasi Rossiyaga ishga ketgandi. Qolganlariyam izidan ketishdi. Mayli, qayda bo‘lsayam, boshlari omon bo‘lsin...

– Siz kim bilan turasiz, ona? – tergovchi kampirni chalg‘itishga urindi.

– Kattamning xotini – kelinim bilan turaman. Uchta nevara...

– Onaxon, sizdan kimdir Ma’mura Egamovaning uyini so‘ragan ekan, shu to‘g‘risida so‘ramoqchi edim, – tergovchi maqsadga ko‘chdi.

– Hov, boyagina manov bolalarga aytib berdim-ku, yana aytaymi?

– Buvi, bu kishi bizning boshlig‘imiz, aytganlaringizni u kishiga ham batafsilroq gapirib bering, – izoh berdi Aloviddin.

– Menden osh-non so‘rarmidi, aystsam aytippanda, – kampir yengining uchi bilan og‘zini artib olib, davom etdi. – Ertadan kechgacha ko‘chada pista sotaman. Yo‘ldan adashganning bari menga keladi... O‘n-o‘n besh kun muqaddam bir bashang kiyingan oliftagina ayol Ma’muraning uyini so‘rab keldi, shaharlikka o‘xshatdim.

So'ragan manzilini ko'rsatib yubordim. Lekin boyaqish qishloqqa kirmay, Chinoz tomonga qaytib ketdi. Nega keldi, nega so'radi, nega qaytib ketdi, tushunmay qoldim. Balki keyin qaytib kelgandir...

- Mashinasi qanaqa edi?
- Qizil rangli... oti nimaydi-ya...
- «Lasetti», – yordamlashdi izquvar.
- Ha, «Lasetti» minib olgandi, boyvuchcha xotinga o'xshadi.
- Mashinalarni farqlay olasizmi o'zi? – so'radi Alo-viddin kampirni sinash uchun.
- Bilmay o'libmanmi? Bilaman... «Neksiya»dan sal kattaroq mashina-da!
- Ma'murada nima ishi bor ekan, aytmaganmidi?
- Men qaydan bilay, bolam. Mendan so'rovchilar ko'p bo'lsa, baridan «nima ishing bor?» deb tergamaganim qoldi endi! Menga nima!
- Bu haqda Ma'muraga aytganmidingiz? – aniqlik kiritdi tergovchi.
- Yo'q, so'ramabman. Esimdan ham chiqib ketgandi. Keyin Ma'muraning bolasi yo'qolib qoldi... Sho'rlikka qiyin bo'lди-da! Hech kimning boshiga solmasin bunaqa ko'rgilikni! Bir tomondan, eri tashlab ketgani yetmagan-day...
- Nima, Ma'murani eri tashlab ketganmi? – tergovchi kampirdan ko'proq ma'lumot olishga harakat qildi.
- Tashlab ketmay nima qildi! Ayolidan ko'ngli sovib, Moskovga ketdi-bordi! Odam sal kechitimli bo'lmaydimi? Bor gapmi, yo'q gapmi, tashlab ketganiga o'laymi? O'rta yo'lida bola bechoraga jabr bo'lди. Endi ikkoviym o'tiribdi, bir joyini sovuq joyga bosib!
- Nima, Ma'muradan biror gunoh o'tganmidi? – tergovchi gapning avzoyiga qarab savol berishga o'tdi.

— Endi, bor gapmi, yo‘q gapmi, buyog‘i yolg‘iz Yaratganga ayon, — dona-dona qilib gapirdi kampir. — Ishlagan ayołning ortidan bo‘lar-bo‘lmas gaplar chiqib kela-veradi. Lekin men Ma’murani yaxshi bilaman, unaqa nomussiz ayollardan emas... Doniyorgayam qoyil emasman! Mard bo‘lsang, xotiningni ishlatma, uyda olib o‘tir! Ishlatdingmi, mayda-chuyda mish-mishlarga qulqoq tutib nima qilasan! Ishonmasang, ayolingni nega uydan ko‘chaga chiqarasan, tovbang ketay!

— Er-xotin o‘rtasida qanaqa mashmasha bo‘lgandi o‘shanda?

— Tayinli gapning o‘zi yo‘q, — kampir hamon aravani quruq olib qochishga harakat qilardi, — arzimagan mishmishlar...

— Qanaqa mish-mish ekan?

— O‘tgan yili Ma’mura Chinozga balnitsaga hamshira bo‘lib ishga kirgandi, — kampir bir yutinib olib, muhim sirni oshkor qiladiganday pichirlab gap boshladi. — Bir kun ishlab, bir kun dam olardi. Kim chiqargan bilmayman, qishloqda: «Ma’mura bosh shifokor bilan osh-qatiq bo‘lib yurganmish», — degan mish-mishlar bolalab qoldi...

— Siz bu gaplarni kimdan eshitgandingiz?

— Teshik qulqoq eshitadi-da, bolam! Kimdan eshitganimni nima qizig‘i bor. El og‘ziga elak tutib bo‘larmidi? Gap o‘rmalab, Doniyorning ham qulog‘iga yetib borgani yomon bo‘ldi-da! Sho‘rlik, tezda xotinini ishdan bo‘shatib, yig‘ishtirib oldi. Lekin shundan keyin ham hammasi izga tushib ketmadi. Ishonchga bir darz ketmasin ekan... Ajrashib ketishdi, tovbang ketay!

Yigitlar kampirdan zarur ma’lumotlarni olgach, tezda ular ustida ishlashga kirishdilar. Dastlab Ma’mura Egamova so‘roq qilindi. Odatiy rasmiyatçilikdan so‘ng Sanjarbek maqsadga ko‘chdi:

— Ma’muraxon, Doniyor bilan ajrashib ketishlaringizga nima sabab bo‘lgan?

Ayol «shu gaplar hozir ko'nglimga sig'armidi!» deganday, norozi qiyofada tergovchiga qarab qo'ydi.

— Gap Mo'minjon, Nuriddin, Barno haqida ketayapti, biz hamma narsadan voqif bo'lishimiz lozim. Tergovda arzimas narsaning o'zi bo'lmaydi. Shu sababli bizga bar-chasini ro'yrost aytishingiz, hech narsani sir tutmasligin-giz kerak. Aks holda, bizning ishimizda siljish bo'lmaydi.

Ma'mura biroz o'ylanib turib, istar-istamas gap bosh-ladi:

— Taqdirimizda bor ekan, ajrashib ketdik. Xo'jayinim Moskvaga ketdi... uylandi...

— Ajrashishlaringizga anavi ishingiz bilan bog'liq mish-mishlarning qanchalik aloqasi bor? — Sanjarbek «biz hamma narsadan xabardormiz» degan ma'noda Ma'murani ochiqroq gapirishga undadi.

— Ufff! — og'ir xo'rsindi ayol va siniq ovozda hikoyasini boshladi, — hammasiga o'zim sababchiman. Ishlasam, er-xotin — qo'sh ho'kiz deganlaridek, turmush yuki-ni tortishda erimga yordam qilsam, bolalarimni o'qitsam, odam qilsam... yaxshi yashasam, deb havas qilgandim. Ishga kirib, qaytanga boshim baloga qoldi... Mo'minjon uch yoshga yetgach, uni bog'chaga topshirib, Chinozda-gi shifoxonaga hamshira bo'lib ishga joylashdim. Yax-shigina ishlab yurgandim... Hammasi bosh shifokorimiz Azamat Nosirovichning bir-ikki majlisda meni maqtab qo'yanidan, qandaydir o'ziga yaqin olishidan boshlandi. Shifoxonada uning xotini Suqsur opa ham terapevt shifokor bo'lib ishlardi. Kimdir unga biron narsa deganmi, opa meni ta'qib qila boshladi. O'ziyam toza rashkchi, janjal-kash xotin ekan! Yonimga kelib, ishdan bo'shashimni tabab qildi. Men unamadim... O'shanda yaxshilikcha ishdan bo'shab ketaversam bo'larkan. O'jarligim boshimga balo bo'ldi... Suqsur opadan ishxonada hamma qo'rqardi. U kishi tayinlagan, shekilli, bo'lim boshlig'imiz ham men-

ga telba-teskari gapiradigan, sal narsadan bahona topib, meni behuda ayblaydigan odat chiqardi... Vaziyatni bosh shifokorga aytishga majbur bo'ldim. U kishi meni to'g'ri tushunib, himoya qilishga harakat qildi. Ammo ayol ki-shining makri qirq tuyaga yuk bo'ladi, deganlari rost ekan. Suqsir opa maqsadiga erishdi. Meni bir bemorga noto'g'ri muolaja qilganlikda ayplashdi... Ishdan ketishga majbur bo'ldim... Bir-ikki kundan keyin bosh shifokor meni xo-nasiga chaqirib, xotini uchun uzr so'radi. Aybini yuvish uchun meni boshqa shifoxonaga ishga joylashtirib qo'yishga va'da berdi. Keyingi kuni Azamat aka meni bir o'rtog'i bosh shifokor bo'lib ishlaydigan shifoxonaga o'z mashinasida olib bordi. O'shanda mashinasiga bekorga chiqqan ekanman. Qishloq joy... odamlar tirnoq ostidan kir qidirishini bilmaganman... Shifoxona yoniga borib, mashi-nadan tushayotganimizda mahallamizda yashaydigan Us-mon aka ko'rib qolgandi. U o'sha kasalxonada «zavxoz» bo'lib ishlarkan... Bo'lmasam, erkak kishi... Xotin kishi bo'lgandayam alam qilmasdi! Usmon xuddi bir narsa top-ganday to'g'ri kelib, xotiniga «Doniyorning ayoli Azamat Nosirovichning mashinasida yurgan ekan» deb aytgan... Ayol kishining og'zida gap turarmidi? Tezda men haqim-da mish-mishlar bolalab, butun qishloqqa yoyilib ketdi... Boshqa tomondan Suqsurning meni topib, «kim seni bu yerga ishga joylashtirdi» degen zug'umlari jonimga tegib, bir oyga bormasdan u yerdan ham bo'shab ketishdan boshqa ilojim qolmadi... Xo'jayinim choyxonada Mardon degan o'rtog'i bilan gap talashib qolgan ekan, kayfchilik-da u o'lgur «Oldin xotiningni yig'ishtirib ol, keyin katta ketasan!» degen. Shu-shu Doniyor akam ham xitlanib qol-di. Men «Azamat aka bilan o'rtamizda hech narsa yo'q, bo'lishi ham mumkin emas, nahot menga ishonmaysiz, bo'lar-bo'lmas gaplarga ishonib, halol ayolingizni harom-ga chiqarayapsiz», deya tushuntirishga harakat qildim. U

esa «shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi, nega odamlar boshqani emas, seni gapirayapti», deb jahl otiga minib oldi. Yo‘q joydan ishdan bo‘shab ketganim, odamlar og‘ziga tushganim yetmaganday, gulday oilamizning barbod bo‘layotgani menga alam qilardi... Shunda yaxshi yashashga intilishim, ishlab, oilamiz daromadini, farzandalrim kelajagini o‘ylab, tutgan yo‘lim noto‘g‘ri va besamar ekanligini anglab yetdim. Xotin kishi «men o‘zimga to‘g‘riman, gap-so‘zlar bilan nima ishim bor» deb bemalol yurishi to‘g‘ri emas ekan. Ayol kishi o‘zini avaylashi, sha’niga, qadr-qimmatiga, or-nomusiga gard yuqtirmasligi, har qanday be‘mani gaplarga o‘rin qoldirmasligi kerak ekan... Er kishining yuragiga shubha-gumon oralasa yomon bo‘larkan. Xo‘jayinim oddiy ishchi bo‘lsa-da, oriyatli odam emasmi, men tufayli tinchini yo‘qotdi. O‘zicha haqiqatni aniqlashga harakat qildi. Ishxonamga borib, Azamat aka bilan uchrashgan. Ko‘ngli sal taskin topganday bo‘lgan... Bundan xabar topgan Suqsur erimni izlab topib, rosa mening ustimdan axlat ag‘dargan. Meni g‘irt... buzuq ayolga chiqarib qo‘ygan... Shu-shu erim mendan sovib ketdi. Oilamiz ildiziga bolta urildi. Tez orada Doniyor akam Moskvaga ishlashga ketib qoldi... Keyin boshqa bittasiga uylandi... Men... Men hammasiga rozi edim... Faqat Mo‘minjonim... Mening birgina xatoim, ehtiyotkorsizligim uchun oilamning buzilganligi, erimni yo‘qotganim yetmasmidi? Bolajonimdan ayirishadolatsizlik emasmi? Tavba qildim, tavba qildim! Dardimni kimga aytay! Bolamdan ayrilib turibman... Sizlar yana o‘sha mashmashani so‘rayapsizlar! Ey Xudo, bu qanaqa nohaqlik!

Ayol unsiz yig‘lardi. Sanjarbek suv quyib uzatdi. Ma‘mura suvdan ichib, ro‘molchasi bilan ko‘z yoshlarini artdi, to‘zigan sochlarini to‘g‘riladi. Va «bo‘ldi, men tay-yorman» deganday tergovchiga ma'yus yuzlandi. Shundagina Sanjarbek qarshisida o‘tirgan ayolda qandaydir

o'zgacha bir latofat, malohat, nazokat, tabiiy go'zallik ko'rganday bo'ldi. Xayolidan «bosh shifokor bekorga suqlanmagan ekan-da!» degan o'y o'tdi.

– Dardingizni yangilaganimiz uchun uzr, – muloyimlik bilan so'radi tergovchi botinidagi daydi hislarni tezroq haydash niyatida, – Suqsur qanaqa mashinada yuradi?

– Qizil rangli «Lasetti»si bor shekilli...

– U bilan oxirgi marta qachon ko'rishgansiz, nimalar haqida gaplashgansizlar?

– Bu opa meni ishdan bo'shab ketganimdan keyin ham tinch qo'ymadi. Hujjatlarimni qaytarib olish uchun shifoxonaga borganimda oyog'imning tagidan chiqib, boshimni qotirdi. Topgan gapi... «Nega erimga suykalayapsan!». «Hoy odam, sening ering bilan necha pullik ishim bor, tinch qo'y meni», desam, «Unda erim bilan gaplashni bas qil» – deydi. «Ishdan bo'shab ketgan bo'lsam, qanday qilib gaplashishim mumkin», desam, «Telefonda gaplashayapsan-ku», deya meni «pushka»ga olmoqchi bo'ldi. Bolalarimni o'rta ga qo'yib qasam ichdim. Shundan so'ng biroz hovridan tushib, «Ko'zingga qara, senga yordam kerak bo'lsa, mana, mendan so'ra, Azamat akamni bezovta qilsang, mendan yaxshilik kutma, eringdan ayrilganing kamlik qilmayotgan bo'lsa kerak», dedi. Keyingi kun bu gap-so'zlardan bexabar Azamat aka telefonimga «Ma'muraxon, yaxshimisiz? Bolalaringiz tuzukmi? Sizga yaxshilik qilaman deb, qaytanga yomonlik qilib qo'yganimdan xijolatdaman. Aybimni yuvish uchun nima qilay? Yo'qsa, bir umr vijdon azobida qolaman» degan mazmunda «SMS» yuborgan ekan. Uy ishlari bilan bo'lib, telefonimga qaramagan ekanman. Kechqurun ko'zim tushib, «SMS»ga qisqagina qilib quyidagi javobni yozdim: «Azamat aka, siz yaxshi odamsiz. Vijdoningiz qiynalmasin. Mendan xavotir olmang, hammasi joyida». Baxtga qarshi o'sha payti Azamat aka ishdan uyiga qaytgan ekan.

Telefonini stol ustida qoldirib, vannaga yuvinishga kirib ketgan. Suqsur erining telefoniga «SMS» kelganini ko'rib, men yuborgan xabarni o'qigan. Eri bilan janjallahsgan-janjallahmaganini bilmayman, ammo ertasi kuni manzilimni qayerdan topgan bo'lsa, hayronman, uyg'a izlab keldi. «Sen bolalaringni o'rtaqa qo'yib qasam ichganding, nega erimga «SMS» yozding, deya siquvg'a oldi. «Yaxshi odamsiz... Menden xavotir olmang... hammasi joyida» debsan, demak munosabatlaring juda chuqur ildiz otgan... Bir-biringsiz yashay olmaysan...», deb meni erining o'ynashiga chiqarib qo'ydi. Bo'lган voqeani tushuntirishga harakat qildim. U quturgandan quturib, rosa to'polon ko'tardi. Yaxshiyam o'sha payti uyda qaynonam yo'q edi... «Sen yaxshi gapga ko'nmaydigan isqirt xotin ekansan, endi o'zingdan ko'r, Suqsurningsovuniga kir yuvmabsan hali», dedi u ketar chog'ida... Shundan keyin Azamat aka menga bir necha bor qo'ng'iroq qildi, «SMS»lar yozdi, lekin tinchimni o'ylab, ularga javob bermadim...

– Nima sababdan bu haqda tergovchilarga aytmagansiz? – so'radi Sanjarbek.

– Shusiz ham qishloqda odamlar menga barmoqlarini bigiz qilib ko'rsatayotganday bo'lishadi... O'zimni sharmanda qilish...

– Suqsurning «eringdan ayrilganing kamlik qilmayotgan bo'lsa», «menden yaxshilik kutma», «endi o'zingdan ko'r», «sovunimga kir yuvmabsan» degan gaplari o'sha payti sizga shunchaki po'pisaday tuyulgan bo'lishi mumkin. Biroq Mo'minjon yo'qolib qolgandan so'ng yuragin-gizga g'ulg'ula tushmadimi?

– To'g'ri... boshida uning qarg'ishlariga unchalik e'tibor bermagandim... «Er bermoq, jon bermoq», deydilar, qiziq ustida gapirdi qo'ydi-da, deb o'ylagandim. Mo'minjon yo'qolib qolgach, ertasi kuni Suqsurning ishxonasiga bostirib borib, «Bu sen iflosning ishimi», deya yoqa-

sidan oldim. U shu kuni Moskvadan – xizmat safaridan qaytgan, hech narsadan xabari yo‘q ekan. Eshitib, hang-u mang bo‘lib qoldi...

– Balki u sizni aldagandir, o‘zini ataylab safarda bo‘lgandek ko‘rsatgandir?

– Chiptasini ko‘rsatgandi...

– Chiptaning sanasi, kimning nomiga olinganligini aniq ko‘rganmidingiz?

– Yo‘q, o‘sha paytda bunga e’tibor beradigan ahvolda emas edim...

Sanjarbek yana ko‘plab masalalarga aniqlik kiritib, rasmiyatchilikni o‘rinlatgach, Ma’muraga javob berdi.

\* \* \*

Rahimjon va Botiralini viloyat prokuraturasidagi hamkasblar kutib olishib, to‘g‘ri «shtab»ga boshlab borishdi. Tergov guruhi rahbari Sherzod Badalovich yigitlarni iliq kutib olib, ish holatlari bilan tanishtirishga tushdi:

– Shuncha yil tergovchi bo‘lib ishlab, bunaqa razilikni ko‘rmaganman. Odamlar hayvondan ham battar vahshiy bo‘lib ketmoqdam? Tushunmayman! Mol-dunyo topish uchun begunoh bolalarni juvonmarg qilishdan cho‘chimasalar-a! Oxirzamon alomatlarimikan? Biz topgan yashirin laboratoriyada hozircha o‘nta bolaning tana a’zolari transplantatsiya qilingan. Ular Qozog‘iston orqali Yevropaga chiqarilib, katta pulga sotib yuborilgan. Hozircha biz beshta bolaning shaxsini aniqlashga erishdik. Qolgan besh bolaning kimligi, qayerdan keltirilganligi noma’lum. Uyushgan jinoiy guruh juda ehtiyojkorlik bilan ishlagan. Birinchi bosqichda hech kimi yo‘q, yo‘qolib qolishi katta shov-shuvga sabab bo‘lmaydigan bolalar o‘g‘irlanib, yashirin laboratoriyaga olib kelingan. Ikkinci bosqichda ular har taraflama parvarishlanib, transplatatsiya yaga tayyorlangan. Uchinchi bosqichda chet davlatdan bo-

laning kerakli tana a'zolariga buyurtma tushishi bilan bola jismonan yo'q qilinib, yuragi, buyragi, jigari ajratib olinib, maxsus konteynerlarda buyurtmachilarga yetkazib berilgan. Tananing qolgan qismi avval maxsus pechlarda yoqilib, kulga aylantirilgan, so'ng apparatda maydalaniib, kukun holiga keltirilgan. Kukun esa kanalizatsiya orqali oqizib yuborilgan. Hozircha laboratoriyada ishlovchi ikki shifokorni qo'lga oldik. To'daning boshqa a'zolari juftakni rostlab qolishgan. Ularni Xalqaro qidiruvga berganmiz. Hozir viloyatdagi va qo'shni viloyatlardagi bedarak yo'qolgan bolalarning hujjatlarini o'rjanib chiqayapmiz. Laboratoriyada marhumlarning shaxsini aniqlash uchun biror-bir iz qolmagan. Shu sababli masalaga faqat qo'lga olingan ikki shifokor oydinlik kiritishi mumkin. Ularga bolalarning rasmlarini tanib olish uchun ko'rsatish mumkin.

– Bizning ishimiz bo'yicha bir qishloqdan uch bola bedarak yo'qolgan, – Rahimjon tashrifi tafsilotlarini ochiqlashga kirishdi. – Kattasi o'n olti, yana biri sakkiz, eng kichigi to'rt yoshda bo'lgan... Bolalarning kattasi Bar-no otasining mashinasida qo'shni qishloqda yashovchi qarindoshinikiga borib kelaman, degancha qaytib kelmagan. Hozircha avtomashinani ham topishning imkonи bo'lmadi. Nuriddin esa velosiped minib yurgan joyidan g'oyib bo'lib qolgan. Keyinchalik velik qishloqdan oqib o'tuvchi anhor-dan topilgan. Kichkintoy Mo'minjon qandaydir o'n daqiqqa ichida uyi oldida o'ynab yurib, kutilmaganda yo'qolib qolgan. Har uchala bolaning ham na tirigi, na murdasisi, na biror kiyim-kechagi topilgan. Dastlabki ikki holat bo'yicha bolalar «bedarak yo'qolgan» deb hisoblangan. Faqat keyingi holat yuz bergandan so'nggina jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari boshlangan. Juda ko'plab taxminlar ilgari surildi. Ammo hozircha ulardan birortasi o'zini oqlamadi...

– Yo‘qolgan bolalar qanaqa oiladan, ota-onalari, yaqinlari bormi? – so‘radi Sherzod Badalovich hamkasbi taqdim ctgan hujjatlarga tikilgancha.

– Ha, uchala bolaning ham ota-onasi bor, oddiy oilaning bolalari. Faqat Mo`minjonning ota-onasi ajrashib ketgan...

– Tushunarli, – o‘zicha xulosa qildi mezbon, – gap shundaki, bizdagi jinoyatchilar qurbon sifatida, asosan, hech kimi yo‘q, qarovsiz, tashlab qo‘yilgan, jismoniy nuqsoni mavjud, jumladan, aqli zaif bolalarni tanlashgan. Negaki, bularning yo‘qolib qolishi atrofdagilarda unchalik tashvish tug‘dirmaydi, hech kim ularni izlash bilan jiddiy shug‘ullanmaydi, jamiyatda katta shov-shuvga sabab bo‘lmaydi. Shu jihatni bo‘yicha siz izlayotgan bolalar bizdagilarga unchalik to‘g‘ri kelmaydigan ko‘rinadi... Shaxsi aniqlanmagan besh nafar bola ichida o‘n uch-o‘n to‘rt yoshli, sakkiz-to‘qqiz yoshli va uch-to‘rt yoshlari bor. Ammo hozircha bizning qo‘limizda bu bolalarning nomi, na rasmi, na biror-bir kiyim-kechagi, na barmoq izlari bor, DNK tahlilini ham o‘tkazib bo‘lmaydi...

– Bolalarni o‘g‘irlab, laboratoriya yetkazib kelgan shaxs bilan gaplashsak, masala...

– Afsuski, ikki shifokordan boshqa jinoyatchilar respublikadan chiqib ketishgan. Ularga bolalarning rasmini tanib olishga ko‘rsatishingiz mumkin. Lekin boyaga aytganimday bu yerga olib kelingan bolalar tug‘ma nuqsonli – nogiron bo‘lishgan.

– Ularni so‘roq qilsam bo‘ladimi? Chiqmagan jondan umid, deganday!

– Biroz dam olib turing, hozir ularni keltirishadi, bemalol gaplashib olasiz.

Rahimjon shusiz ham ishlari boshidan oshib yotgan tergovchilarga xalal bermaslik uchun yo‘lakka chiqib, divanga o‘tirdi va stol ustidagi журнallardan birini ochib,

o'qishga tushdi: «Yaponlarda bir maqol bor: soyasini toptamaslik uchun muallimdan yetti qadam ortda yur!». Qoyil-e, shu yaponlarga! Ana taraqqiyotning siri qayerda! Bir paytlar bizda ham muallimning obro'-e'tibori juda baland edi. Faqat keyingi paytlarda o'qituvchi bechoralar jamiyatdagi eng zaif halqaga aylanib qolishdi. Hojivoy qiziq aytganday, muallimdan traktorchi avliyo!

— Mehmon, keling, «odam»laringizni keltirishdi, — dedi tergovchilardan biri Rahimjonning yoniga kelib.

Tergovchi hamkasbini o'z xonasiga boshlab bordi. Birozdan so'ng xonaga ellik besh-oitmish yoshlardagi ozg'indan kelgan oppoq sochli shifokorni olib kirdi:

— Marhamat, bu janob shifokor Qilichbek To'xtasinov bo'ladilar, — ijirg'anib, yovqarash qildi tergovchi. — Shifokor deyishga ham odamning tili bormaydi! Gippokrat qasamini ichgan qasamxo'rlardan biri!

Rahimjon sumkasidan qog'oz-qalamini chiqarib, oldin guvohning shaxsiga oydinlik kiritdi, so'ng hamsuhbatini cho'chitib yubormaslik maqsadida muloyimlik bilan muddaoga ko'chdi:

— Qilichbek aka, siz, tappa-tuzuk shifokor odam, bu ishga qanday aralashib qoldingiz?

— Ey-y, nimasini aytay uka, — guvoh chuqur xo'r-sindi, — muhtojlik desam, hozir juda unday odam ochdan o'ladigan zamon emas, balki ochko'zlik desam, to'g'riroq bo'lar! Nafsning quliga aylanib qolganimizni bilmay qoldik, ukajon! Esiz shuncha umr, esiz shuncha qilingan mehnat! Shu laboratoriya o'lqurda o'ttiz yildan ortiq ishladim... Soham virusologiya... Xavfli viruslarga qarshi vaksina yaratishni orzu qilganman... Bilasizmi, hozirgi zamonda viruslar atom bombadan ham xatarliroq hisoblanadi. Agar insoniyat undan qurol sifatida foydalanib, tarqatsa, dunyo ostin-ustun bo'lib ketadi. Bundan tashqari, viruslar ham jonli mavjudot, doimo muhitga moslashib,

takomillashib, yashovchanligi oshib boradi. Dunyoga bir tarqab ketsa, uning oldini olish mumkin bo‘lmay qoladi. Hozirgi globallashuv davrida kasallik bir hafta ichida butun dunyoni qamrab olishi hech gap emas. Agar kasallikka qarshi vaksina bo‘lmasa, xavfli virus shunday tezlik bilan tarqaladiki, insoniyat uning oldida ojiz bo‘lib qoladi...

Guvoj jimib qoldi. Rahimjon ichida «nima balo, bu odam vos-vos kasaliga yo‘liqib, vahimachi bo‘lib qolganmi yoki kallasi aynib qolganmi?» degan o‘y o‘tayotgan bo‘lsa-da, uning ishonchiga kirish, savollariga javob olish uchun tuturiqsiz diydiyolarini eshitishga majburligini his qilib turardi. Shu vajdan qiziqarli hikoya tinglayotganday, «Marhamat, davom eting», deb qo‘ydi.

— Meni aytdi deysiz, bir kun kelib, viruslar insoniyatga qarshi urush boshlaydi. Hozircha ular payt poylab turidi. Masalan, 2002–2003-yillarda Xitoyda «koronavirus» degan virus tarqaganini eshitganmisiz? O‘sanda u bir necha yuz minglab odamlarning ajaliga sabab bo‘lgandi. Insoniyat baxtiga tarqalgan virus uncha murakkab forma-dagisi bo‘limgan. Yo‘qsa, butun dunyo bo‘ylab urchib ketishi hech gap emasdi... Qo‘limizda vaksina – ularga qarshi qurol bo‘lmasa, qanday jangga kiramiz? Quruq qo‘l bilanmi? Bu pulemyotga qarshi ko‘krak kerib chiqish bilan barobar bo‘lmaydimi? Millionlab odamlarni boy berib qo‘ymaymizmi? Nima qilish lozim? Mana, men yigirma yildan buyon virusga qarshi vaksina yaratish dardi bilan yuraman... Ammo keyingi yillarda davlat tomonidan ilmga e’tibor berilmay, mablag‘ ajratilmay qo‘ydi. Laboratoriya-dagi jihozlar alimsoqdan qolgan, umrini yashab bo‘lgan. Bu texnika bilan biror yangilik, ixtiro qilish aravada oyga borishni havas qilishday gap... Oylik maoshimiz ham haminqdalar... Ro‘zg‘orimiz esa kattagina. Bu yog‘ini tortsak, bu yog‘iga yetmaydi. Qishda – sovuqda kichkinagini ko‘rpa yopinib olgan odamdaymiz. Boshimizni yopsak

oyog‘imiz, oyog‘imizni yopsak boshimiz ochiq qoladi. Siz erkak, oila boshlig‘i sifatida farzandingiz mo‘ltirab biror ehtiyoji uchun, aytaylik, qishda teshilgan tuflisi ni yangisi bilan almashtirib berishni so‘raganda pulingiz yo‘qligidan nima qilishni bilmay mulzam abvolga tushib ko‘rganmisiz? Bolangizning oldida izza bo‘lib, yer yorilsa kirib ketguday holga tushganmisiz? Yo‘q, tushmagansiz! Shuning uchun bu ko‘rgilik azobni his qila olmaysiz! Ana shunday holatda yurgan kishiga biror kimsa, «bir ish bor, yaxshigina pul ishlab olasan» desa, rad javobini berishga irodasi yetadimi? Yetmasligi aniq. Meniki ham yetmad! Bir tarafdan virusga qarshi vaksina ixtiro qilish umidi, bir tarafdan ro‘zg‘or o‘lgurning kamini butlash, hech narsaga zoriqmasdan odamday yashash ishtiyoqi shu yo‘lni tanla shimga turtki bo‘ldi. Qolaversa, bu yerga tug‘ma nogiron, aqli zaif yoki hayotda hech kimga kerak bo‘limgan kim salar keltirilgan. Bunday olib qaraganda biz ularga yax shilik qilganmiz, azobdan qutqarganmiz. Bir narsa hech yodimdan chiqmaydi. Yoshligimda eshagimiz kasallanib, joyidan ham turolmay yotib qoldi. Shunda bobom katta pi choqni olib, eshakning boshini tanasidan judo qildi. «Nima qilib qo‘ydingiz, eshagimni o‘ldirib qo‘ydingiz-ku», deya yig‘lab bobomga tarmashdim. Bobom esa «eshaging baribir o‘lardi, men uni azobdan qutqardim» deb meni yu patgandi. Biz ham qilayotgan ishimiz jinoyat ekanligini bilsak-da, masalaga bobomning falsafasi bilan yondosh gandik. Boshqa tomondan bolalarning o‘z jonlari evaziga boshqa jamiyat uchun kerakli insonlarni hayotga qaytaray otgani yuragimizga taskin edi.

– Bunaqa betayin falsafani fashistlar o‘ylab topgan bo‘lsa kerak, – tergovchining peshonasi tirishdi. – Allah har bir insonga o‘zi jon ato etgan ekan, uni olish ham yolg‘iz Yaratganning o‘ziga tegishli. Nogiron, aqli zaif, hech kimga kerak emas deysiz... Har qanday shaxs davlat

himoyasida! Imkoniyati cheklangan shaxslar davlatning alohida e'tiborida bo'ladilar...

– Mening o'z falsafam...

– Mayli, bu gaplarni qo'yaturaylik, – tergovchi sumkasidan bir nechta rasm chiqarib, stol ustiga terib qo'ydi, – mana bu suratlardagi shaxslardan qaysi biri sizga tanish?

Qilichbek ko'zoynagini taqib, rasmlarga zimdan tikildi.

– Mana bu bolaning ismi Barno – o'n olti yoshda, bunisi Nuriddin – sakkiz yoshda va eng kichkintoyi Mo'minjon to'rt yoshda, – izoh berdi tergovchi.

– Biz bolalarning ismini bilmaymiz, ular raqamlangan-di, chaqirsak raqami bo'yicha murojaat qillardik, – guvoh rasmlarni qo'liga olib, diqqat bilan tikilib turardi.

– Birortasini tanidingizmi?

– Bu bolalar soppa-sog'ga o'xshaydi-ku. Bizga keltirilganlar qandaydir boshqacha... nogironligi sezilib turardi... hilvirab, shalvirab, deganday...

– Qarang, diqqat bilan qarang!

– Mana shu bolaning sal kelbatí kelib turibdi, – dedi Qilichbek Nuriddinning rasmiga tikilib, – bizdagi yetinchi raqamli bolaga ko'z-qoshlari sal o'xshab ketadi... Ammo aniq shu deb aytolmayman... Suratdan tanib olish juda qiyin, ayniqsa, yosh bolani ajratib olish...

– Bola shevasidan qayerlikka o'xshardi?

– Buxoro yoki Navoiylik bo'lsa kerak.

– Toshkent shevasida gapiradigan bormidi?

– «Votti-votti»lar yo'q edi... Bu aniq.

– Toshkent viloyati shevasi adabiy tilga yaqinroq bo'ladi. Unaqasi yo'qmidi?

– E uka, aytdim-ku, ular nogiron bo'lsa, adabiy tilda gapirish u yoqda tursin, o'z shevasida gapirishni bazo't eplashardi, ayrimlari esa umuman gapirolmasdi.

- Siz o'sha bolalar bilan gaplashganmisiz? Shunchaki odamiylik yuzasidan ulardan hol-ahvol so'raganmisiz?
  - Ular bilan nimaniyam gaplashardim, sen bog'dan kelsang, ular tog'dan kelsa...
  - Bolalarni sizlarga kim yetkazib kelardi, – Rahimjon masalaga boshqa tomondan yondashmoqchi bo'ldi.
  - Necha marta aytishim kerak, ukajon! Bir narsani qayta-qayta so'rayverasizlarmi?
  - Ishimiz shunaqa, – beparvolik bilan javob berdi Rahimjon, – haqiqatni aniqlamagunimizcha so'rayveramiz. Marhamat, javob bering.
  - Avval ham aytganman, biz bitta Lochinni bilmiz, – istar-istamas gap boshladи Qilichbek. – Hamma ishni u qilardi. Bolalarni qayerdan topardi, kimdan olardi, bu yog'i bizga qorong'i. Bizning ishimiz ularni qabul qilib, tinchlaniruvchi ukol yordamida saqlab turish, operasiyaga tayyorlash va olingan tana a'zolarini konteynerlariga joylashtirib, Lochinga berishdan iborat edi. U kim bilan ishlagan, tana a'zolarini kimga sotganligi bizga ma'lum emas.
  - Lochin bilan qanday tanishgansizlar?
  - Bir paytlar qo'shni turganmiz. O'zi toparmon-tutarmon yigit edi. Pulim qolmay qiynalib qolgan paytlarda undan qarz so'rab turardim. O'tgan yili qizimni chiqargandim. Mebel, gilam, sarpo-suruq deganday, undan kattagina qarz bo'lib qoldim. Hisoblab ko'rsam, shuncha pulni ishlab topishga oz emas, ko'p emas 10 yil kerak bo'larkan. Shuncha yil yemay-ichmay yig'insam, qarzdan qutularkanman. Shunda Lochin shu taklifni aytib qoldi... Rozi bo'lishdan boshqa choram bormidi?
- Rahimjon yana ko'plab savollar bilan guvohdan kerakli ma'lumotlarni sug'urib olishga harakat qildi. Keyin ikkinchi guvoh – jarroh Akmal Do'stqobilov so'roq qilindi. U sherigining ko'rsatmalarini to'la tasdiqladi. So'ng

Rahimjon har ehtimolga qarshi jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqdi, ishga jalg qilingan tezkor xodimlar bilan suhbatlashdi. Ammo Chinozda sodir bo‘lgan voqealarning Buxorodagi voqealarga aloqadorligini isbotlovchi biron-bir asos topolmay, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, ortiga qaytdi.

\* \* \*

SanjARBek Suqsurni so‘roq qilishga tayyorlanar ekan, qilayotgan ishi o‘ziga erishday tuyuldi, vaqt ni behuda sarflayotganday, jinoyatni fosh qilish o‘rniga qayerdagi mayda-chuyda ishlarga o‘ralashib qolganday his qildi. Shu ayolning, oliy toifali shifokorning qo‘lidan shunday ish keladimi? Erini rashk qilgan bo‘lsa qilgandir. Erini qizg‘anganidan Ma’muraning oldiga kelib, janjal ko‘tarsa ko‘targandir, po‘pisa qilsa qilgandir. Bu barcha ayollarga xos xislat emasmi? Shu arzimas sabab bilan bir begunoh norasida go‘dakni o‘ldirish aqlga sig‘adigan ishmi? To‘g‘ri, rashki o‘tkir ayollar hech narsadan toymaydilar. O‘zini o‘tgayam, cho‘qqayam urishga tayyor bo‘lishadi. Er bermoq, jon bermoq bilan barobar. Erini chin dildan sevadigan har qanday xotin rashk tufayli yirtqich sherga aylanadi. Mayli, Suqsur ham ana shunday rashki chegara bilmaydigan ayollardan deb faraz qilaylik, u holda ko‘zi qonga to‘lib, birinchi galda Ma’murani o‘ldirib qo‘ya qolmasmidi? Bolada nima gunoh! Aqli raso odam bunday yo‘l tutmagan bo‘lardi. Suqsur qanaqa ayol? U shunday xunrezlikka, o‘taketgan shafqatsizlikka qodirmi?

Shu payt eshik taqillab, tezkor xodimlardan biri xonaga o‘rta bo‘yli, ozg‘indan kelgan, kiygan libosi yarashiqli, ko‘hlikkina, ammo yuz-ko‘ziga keragidan ortiq atir-upa chaplab olgan, tannoz va oliftasifat qirq-qirq besh yoshlарdagi ayolni boshlab kirdi.

– Bu opa shifokor Suqsur Aliyevna bo‘ladilar, bu kishi – tergov guruhi rahbari Sanjar Rahmonov, – izquvar ayolni qoldirib, o‘zi chiqib ketdi.

SanjARBek o‘midan turib, guvohga joy ko‘rsatdi va holahvol so‘ragan kishi bo‘ldi.

– Tinchlikmi, o‘rtoq Rahmonov? Chaqirtiribsiz, nima gap? – dedi Suqsur qandaydir kibr bilan o‘zini sipo va hech narsani bilmaydiganday xotirjam tutishga harakat qilib.

– Yordamingiz kerak! Xabaringiz bo‘lsa, biz Yallamadagi uch bolaning yo‘qolib qolishi bilan bog‘liq jinoyat ishini tergov qilayapmiz. Bolalardan biri Mo‘minjonning onasi Ma‘muraxon bilan birga ishlagan ekansizlar. Oralaringda qandaydir ixtilof ham bo‘lgan ekan. Shu haqda batafsilroq bilmoqchi edik.

– E, shunaqa demaysizmi? Nima ekan debman, – ayol bepisandlik bilan labini burdi. – Shu kasofat xotin rosa boshimizga balo bo‘ldi-da!

– Marhamat, nima sababdan Ma‘murani ta’qib qilgansiz, ishdan bo‘shatishga erishgansiz? – tergovchi bu shayton ayolning esini kiritib qo‘yish uchun tiliga Qo‘qon qalampiridan jindek qo‘shdi.

– E-e-e, bu nima deganingiz? Men u qishloqini ta’qib qilib, o‘libmanmi? U bilan necha pullik ishim bor! Ishga kelar-kelmas, erimga qosh-ko‘zini suzib, o‘ynash orttirmoqchi bo‘ldi. Nima, men qarab o‘tirishim kerakmidi? Oldimga chaqirib, gaplashdim, tushuntirdim. O‘zi jahl qilib, ishdan bo‘shab ketdi. Erimga arz qilgan shekilli, sodda odam emasmi, gaplashib, boshqa shifoxonaga ishga kiritib qo‘yibdi. Bungayam chidadim. Lekin u xotin shundan keyin ham Azamat akamni tinch qo‘ymadi. Qo‘ng‘iroq qilishdan, «SMS» yozishdan charchamadi. G‘azabim qo‘zib, uyiga izlab keldim. Yashash-turishini ko‘rib, rosti, ichim

achidi. Bu tomondan eri tashlab ketibdi. «Baraka topgur, senga harom yoqmas cket, mana, ering ham seni tashlab ketib qolibdi, mening erimni tinch qo'y, shirin oilamni zaharga aylantirma», deb yalindim.

Suqsur «bor gap shu» deganday tergovchiga tikildi.

– Siz Ma'muraga «erimni tinch qo'y maydigan bo'l-sang, menden yaxshilik kutma, buyog'iga o'zingdan ko'r, sen hali Suqsuming sovuniga kir yuvmabsan!» deya tahlid qilgan ekansiz. Buni qanday izohlaysiz?

– Hecham unday deganim yo'q! – dedi Suqsur ko'zlarini katta-katta qilib. – Erimni tinch qo'y deb iltimos qilganman, yaxshi gap bilan uni qing'ir yo'lidan qaytarishga harakat qilganman u esi pastni.

– Demak, tan olmaysiz!

– Nimani... tan olishim... kerak, – talmovsiradi ayol.

– Gapirgan gapingizni! Unda Ma'mura bilan yuzlashtirishga to'g'ri keladi.

– Balki jahl ustida gapirsam gapirgandirman! – «yuzlashtirish» so'zini eshitib, Suqsur biroz ortga chekinishga majbur bo'ldi. – Jahl chiqqanda aql ketadi, deyishadi-ku! Sal-pal po'pisa qilib, qo'rqtmoqchi bo'lgandirman, shunga shunchami?

– Ma'muraning bolasi yo'qolib qolgan kuni siz qayerda edingiz? – tergovchi navbatdag'i savolni berdi.

– Tushunmadim... Nima, siz o'sha bolaning o'g'irlanganligini menga to'nkamoqchimisiz? – dedi ayol oqaribko'karib.

– Hech kim sizga hech narsani to'nkamoqchi emas. Siz marhamat qilib, berilgan savolga javob bering! – tergovchi jiddiy lashdi.

– Mayli, mayli... javob beraman... O'sha kuni men xizmat safarida Moskvada edim. Xalqaro konferensiyaga ketgandim. Ertasi kuni kelsam... shu voqe'a...

– Siz bu haqda kimdan eshitdingiz?

– Tong payti Moskvadan kelib, aeroportdan uyga keldim. Biroz dam olib, peshindan so'ng ishga chiqdim. Bir payt halloslab Ma'mura kelib qoldi. «Sen bolamni o'g'irlagansan!» – deb menga yopisha ketdi. Men unga chiptamni ko'rsatib, hozirgina Moskvadan xizmat safaridan qaytib kelganimni, bola haqida undan eshitib turganimni tushuntirdim, bechorani hovuridan tushirishga harakat qildim. Yaxshi gaplar bilan nasihat qildim...

– Aviachiptangizni ko'rsak bo'ladimi?

– Albatta, – ayol kiyimiga monand rangdagi sumkasini titkilashga tushdi, – mana, marhamat, yaxshiyam tashlab yubormagan ekanman.

Sanjarbek chiptani qo'liga olib, yozuviga razm soldi:

– Moskvaga qachon ketgan edingiz?

– Xayriyat, bola yo'qolishidan uch kun oldin jo'nab ketgan ekanman. Yo'qsa, anov xotin hammasini menden ko'rishi mumkin edi. Sizlardanam boshim baloga qolardi...

– Balki bu ishni birortasiga buyurtma qilgandirsiz? – tergovchi ayolning sabrini sinash uchun ataylab «hujum»ga o'tdi.

– E-e-e, aka, bu nima deganingiz? Hazillashayapsizmi? – Suqsur tutaqib ketdi. – Nima, men telbag'a o'xshaymanmi? Shifokor bo'laturib, mushtday bolani-ya! Tuhmat qilmang, akajon! Men... men...

– Qilmagan bo'lsangiz, qilmadim deng, tamom! Qolganini o'zimiz aniqlaymiz. So'rash, gumonsirash bizning vazifamiz, xafa bo'lish yo'q!

– Javob berishdan qochmayman, – dedi ayol biroz hovuridan tushib, – sizlarning ishlaringizni ham tushuman... Lekin men ayol boshim bilan rashk tufayli birovning bolasini o'g'irlashga odam yollashim aqlga sig'adigan ish emas. Unaqa tomoshalar kinolarda, kitoblarda bo'ladi.

– Kitobdag'i, kinodagi voqealar esa hayotdan olinadi, – dedi Sanjarbek suhbatga xotima yasab, – Suqsur

Aliyevna, hozircha sizga javob. Biror narsa yodingizga tushsa, bizga xabar qilarsiz.

– Albatta, akajon, albatta. Rahmat! – Tergovchilar yoniga sherdai vajohat bilan kirib kelgan ayol mushukday popugi pasayib, shumshayib chiqib ketdi.

\* \* \*

Shanba kuni kechki mahal SanjARBek bajarilgan ishlarni sarhisob qilish, qilinajak tezkor-tergov tadbirlar rejasini muhokama qilish uchun tergov guruhi a'zolarini yig'di.

Dastlab guruh rahbarining o'zi axborot berdi:

– Hurmatli hamkasblar, o'tgan ikki-uch kun ichida katta hajmdagi tezkor-qidiruv va tergov harakatlari amalga oshirilgan bo'lqa-da, kalavaning uchini topolganimiz yo'q. Ehtimolligi juda past bo'lqa taxminlar ham ishlanmoqda. Mo'minjonning «ishi» bo'yicha o'sha kuni mahallada, uyi-da bo'lqa barcha shaxslar ro'yxati shakllantirildi. Yaqin qo'shnilarining hovli-joylari ko'zdan kechirildi. Jabrlanuv-chilarning aloqalari o'r ganib chiqildi. Ma'mura muqaddam ishlagan shifoxona rahbarining xotini Suqsur Aliyevna bilan rashk tufayli kelishmovchiliklari borligi aniqlanib, do'xtir opa so'roq qilindi. Bola yo'qolgan kuni u Moskvada Xalqaro konferensiya bo'lqa ekan. Keyingi kuni safardan qaytgan. Ma'mura bolasi yo'qolganidan bir kun o'tib, Suqsuming oldiga borgan, «Bu ishni sen qilgansan», deb unga yopishgan. Ayol samolyot chiptalarini ko'rsatib, voqeasodir bo'lqa payti chet elda bo'lqanligini aytgan. Garchand Suqsur voqeadan bir oycha oldin Ma'muranikiga kelib, «Erimni tinch qo'ymasang, o'zingdan ko'r, oqibati yomon bo'ladi», deb po'pisa qilgan bo'lqa-da, men uning bu ishni qilishiga unchalik ishonmadim. Shunga qaramay Suqsuming aloqalari, o'sha davrda kimlar bilan ko'proq muloqotda bo'lqanligi o'r ganilmoqda, telefon so'zlashuvlari pelengatsiyasi tahlil qilinmoqda.

Sanjarbek piyoladagi suvdan ichib, og‘zini ho‘llab olgach, gapida davom etdi:

— Nuriddinning «ishi» bo‘yicha velosipedning izini topish uchun yon atrofdagi barcha hovlilar, ko‘chalar, anhor bo‘ylari mutaxassislar ishtirokida qarab chiqildi. Velikning qachon, qaysi joydan suvgaga tashlab yuborilganligini aniqlash uchun anhor bo‘yidagi yaroqli oyoq izlaridan, transport shinalari izlaridan namunalar olindi, qishloq aholisi qaytadan so‘roq qilib chiqildi. Anhor bo‘yidagi barcha xonardonlar suv oqimi yo‘nalishi bo‘yicha ko‘zdan kechirildi. Velosipedni topib olgan Ergash traktorchi, Nuriddining sinfdoshlari, o‘rtoqlari, o‘qituvchilari bilan ishlandi. Xabarlarining bor, voqeadan bir oycha oldinroq Nuriddinni Sharif degan kattaroq bola qattiq urgan. Salima opa bolasiga joni achib, zo‘ravonni qarg‘agan. Baxtga qarshi bir hafta o‘tmay Sharif avtohalokatga uchrab, vafot etgan. Janozada Sharifning onasi Shahodat opa qo‘snnisi Salimaga «bolamni sen o‘ldirding, sening bolangning ham o‘ligini ko‘rmasam, rozi emasman!» deb yig‘lab yopishgan... Shu masalada Shahodat bilan obdan ishlab ko‘rdik. Ayolning telefon qo‘ng‘iroqlari tahlil qilindi, aloqalari doirasasi o‘rganildi. Ehtimollik darajasi juda past bo‘lsa-da, bu taxmin bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Endi Barnoning «ishi» bo‘yicha... Bolaning uyidan bosh olib ketishiga sabab bo‘ladigan omil aniqlanmadи. Uning ota-onasi, yaqinlari, maktabdagi o‘quvchilar, ustozlar bilan hech qanday muammosi, ixtilofi bo‘lmagan. Hech qanaqangi pulli janjallarga aralashmagan. Bolaning borishi mumkin bo‘lgan joylar tekshirildi. O‘sha kuni u bilan mashinada bo‘lgan shaxsni aniqlash maqsadida Yallama va uning atrofidagi barcha qishloqlardan Chinozda yoki Toshkentda ishlaydigان shaxslar ro‘yxati tuzilib, har biri bilan gaplashib chiqilmoqda. Ammo hozircha natija yo‘q. Ayni paytda tezkor xodimlarimiz shu yaqin atrofdagi yuk mashinalari va

Rossiyada ishlab chiqarilgan mashina egalarini topib, gaplashib ko'rishmoqda. Bulardan tashqari, bu tomoni Toshkentga, bu tomoni Sirdaryoga chiqib ketishdagi yo'l patrul postlaridagi videokameralar yozuvlari tahlil qilindi. Yallama va Chinozdagi korxona, tashkilotlar, savdo nuqtalariga o'rnatilgan videokuzatuv uskunalari tasvirlari arxivi tahlil qilindi... Rahimjon xizmat safari bilan Buxoroga ketgandi, bugun qaytdi. Jinoyatning izi o'sha yoqlarga borib qadaldimi, degan umidda edik. Ammo... Marhamat, Rahimjon, o'zingiz gapirib bering.

– Men ham ishimizda siljish yuz beradi deb o'ylagandim, – Rahimjon o'rnidan turib, axborot berishga kiringdi, – ammo, Buxorodagi jinoyat ishi materiallari bilan tanishib, qo'lga olingan shifokorlarni so'roq qilib, bu ishning biznikiga aloqasi yo'qmikan degan fikrga keldim. To'g'ri, tana a'zolari olinib, yo'q qilingan besh boladan uchtasi taxminan 16, 8 va 4 yoshda. Biroq har ikkala jinoyatchi Barno, Nuriddin va Mo'minjonni suratlaridan tanib ololmadi. Ularning aytishicha, bu laboratoriyaga, asosan, nogiron, aqli zaif va daydi bolalar keltirilgan. Ayni paytga qadar buxorolik hamkasblarimiz besh bolaning shaxsini aniqlashga erishganlar. Qolgan besh bolaning ham shaxsi aniqlansa, biz masalani yopsak bo'ladi. Unga qadar Yallamada kimning Buxoro bilan aloqasi borligi, yaqin kunlarda kimnikiga u taraflardan mehmon kelganligini aniqlash choralarini ko'ramiz. Jinoyatning izi Buxoroga borib taqaladigan bo'lsa, mahalliy aholidan kimdir ularga yordam bergen bo'lishi kerak-ku.

Shundan so'ng Aloviddin olib borilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari haqida axborot berdi:

– Tezkor-qidiruv ishlarini yanada jonlantirish uchun viloyatdan, Respublika Ichki ishlar vazirligidan eng malakali izquvarlar jalb etildi. Ayni damda jabrlanuvchilaridan tortib, ularning qarindosh-urug'lari, quda-andalari,

qo‘ni-qo‘shnilarining shaxsi, o‘tmishi, aloqalari, telefon so‘zlashuvlari tahlili, guvohlarning ko‘rsatmalaridagi ziddiyatlar, ularning «alibi»lari to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi o‘rganilmoqda...

— Aloviddin Istamovich, ko‘p ishlar qilayapsizlar, — guruh rahbari «aravani quriq olib qochmang-da» degan ma’noda izquvarning gapini bo‘ldi, — lekin... natija nima bo‘layapti? Shundan gapiring.

— Natijalar ham bor, — izquvar «aytaveraymi?» deganday yig‘ilganlarga bir qarab qo‘ydi.

— Eshitaylik-chi!

— Ergash traktorchi Nuriddinning veligini oradan uch kun o‘tib ko‘rib qolgan. Nuriddin anhorga cho‘kib ketgan-ketmaganligini tekshirish uchun ikki kun oldin anhoring suvi to‘xtatilgandi. Demak, velik suvga keyingi kun yoki o‘sha topib olingan kuni tashlangan bo‘lishi mumkin. Ergash bir kun oldin Toshkentga harbiy xizmatda birga bo‘lgan o‘rtog‘ining to‘yiga ketib, kelasi kuni uyga qaytgach, velikni ko‘rib qolganligini aytgan. Biz o‘sha o‘rtog‘ining shaxsini aniqlab, tekshirib ko‘rdik. Haqiqatda to‘y bo‘lgan, ammo Ergash unda ishtirok etmagan. O‘sha kuni u Chinozda Anya degan tatar ayolnikida tunab qolganligi aniqlandi.

— Ha, endi bechora nima desin, «o‘ynashimnikiga ketgandim» deb ayta olmaydi-ku, — piching qildi Rahimjon.

— Gap uning qayerga borganida cmas, yolg‘on gapirganida! — guruh rahbari hamkasbiga yovqarash qildi. — Traktorchi bilan chuqurroq shug‘ullanib ko‘rishga to‘g‘ri keladi... Marhamat, Aloviddin Istamovich, davom eting!

— Yana bir shunga o‘xhash holat, — izquvar dadillandi, — Mo‘minjon yo‘qolib qolgan dastlabki paytida boshqa qo‘ni-qo‘shnilar qatori Zamir ham Mo‘minjonlarnikiga

chiqqan. Ma'mura onasiga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lgan. Telefoni hisobida pul bo'lmagani uchun ishlamaganligi sababli Zamirdan telefonini berib turishni so'ragan. Zamir «meniki ham o'chib qolibdi» degan bahonada telefonini foydalanishga bermagan. Biz aloqa tarmog'idan o'sha paytda Zamirning telefoni o'chmaganligini, ishlab turganligini, ungacha va undan keyin xotini, onasi bilan qo'ng'iroqlashganini aniqladik. Qo'shnisi shunday og'ir ahvolda turgan payti bu yigit nima sababdan unga yordam qo'lini cho'zmagani, nima sababdan yolg'on gapirgani odamni o'yantiradi...

— Juda yaxshi, — hamkasbini rag'batlantirdi Sanjarkbek, — bular bizga asqatishi mumkin. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu holatlar ishimizda katta ahamiyat kasb etishi ehtimoldan xoli emas. Hozircha traktorchiga ham, Zamirga ham bu haqda indamay turamiz. Ularning har bir qadamini, har bir so'zini tekshirib boraveramiz. Bir joyda bo'lmasa, boshqa joyda o'zlarini fosh qilib qo'yishsa ajabmas.

— To'g'ri bo'lardi, — hamkasbining fikrini ma'qulladi Rahimjon.

— Shu o'rinda talabamizning velosiped xususidagi «taktikasi»ni ham sinab ko'rsak, yomon bo'lmasdi, shundaymi Jo'raboy, — Sanjarkbek amaliyotchi akalarining qizg'in munozarasini qulqoq qoqmay eshitib o'tirgan talabaga yuzlandi.

— Sanjar aka, tezroq shu taktik usulni sinab ko'raylik, — talaba tergovchining e'tirofidan ruhlanib ketdi. — Tasavvurimda ish beradiganday. Oldin «Nuriddinning velosipedida qotilning barmoq izlari topildi» deb gap chiqarib, keyin qishloqdagi barcha odamlarning barmoq izlarini olishni boshlasak, jinoyatchi qo'rqib ketib, o'zini fosh qilib qo'yishi turgan gap... Balki qochishga urinar... Balki...

- Rahimjon, ishni ertaga shundan boshlaylik, – topshiriq berdi SanjARBek.
- Ertaga dam olish kuni... ekspertlarni chaqirish qiyin bo‘lmasmikan, -- ikkilandi Rahimjon.
- Jinoyatchida dam olish kuni bo‘lmaydi, – kuldil SanjARBek, – modomiki, uning ortidan ta’qib qilib ketayotgan ekanmiz, qo‘lga tushirish uchun biz ham dam olishga haqqimiz yo‘q. Yo‘qsa, unga boy berib qo‘yishimiz, izini yo‘qotishimiz hech gap emas.
- Tushunarli!
- Sanjar aka, menda bir taklif bor edi, ijozat bersangiz, -- dedi Jo‘raboy iymanib.  
Hamma yalt etib unga qaradi.
- Xo‘sish, Jo‘raboyjon, gapiring-chi, nima taklif ekan? – guruh rahbari bu chapani yigitdan noan’anaviy fikrlar chiqishiga umid qilib, uning yoniga bordi.
- Yodingizda bo‘lsa, «jinoyatchilar Barnoning mashinasini chtiyot qismlarga bo‘lib, sotib yuborishlari mumkin, shu sababli yaqin atrofdagi barcha avtomashina ehtiyyot qismlari bozorlarini qarab chiqishimiz lozim», degandingiz. Lekin bozorga borganimizdayam hamma ehtiyyot qismlar bir-biriga o‘xshasa, Barnoning mashinasiga tegishli ekanligini qanday ajratib olamiz? Bu muammoni o‘ylamagan ekanmiz. Shu sababli ikki kundan buyon avval Barnoning otasi bilan, so‘ng ularning mashinasiga qarab turadigan Chinozdagi usta bilan gaplashdim. Ularning gapiga qara ganda, Barno minib chiqqan o‘sha mashina uch oy oldin Chinozda boshqa bir «Jiguli» bilan to‘qnashib ketib, old o‘ng tomon farasini sindirib olgan ekan. Usta «Lasetti»ga yangi fara o‘rnatib bergan. Eng qizig‘i, usta mijozlar keyinchalik e’tiroz bildirib kelmasin uchun qo‘yadigan ehtiyyot qismlarning odam ko‘zi tushmaydigan bir chekkasiga o‘z belgisini qo‘yar ekan. Shu belgi bizga mashinani topishda qo‘l kelar deb o‘ylayman...

— Qoyil-ey, ofarin Jo‘raboyjon! Sizni do‘srlaringiz be-korga professor demas ekan!

Jo‘raboy «aytib qo‘yibsiz-da!» deganday Rahimjonga qaradi.

— Professor deb hammani ham aytaverishmaydi, — o‘zini oqlagan bo‘ldi Rahimjon.

— Biz dushanbadan mashinani yoki uning ehtiyoq qismlarini izlashga tushishdan oldin, albatta, ishni shundan boshlagan bo‘lardik, — gapida davom etdi guruh rahbari, — siz ishimizni yengillashtiribsiz. Ammo ruxsatsiz ish tutganingiz bizga ma‘qul emas. Bir og‘iz ogohlantirib qo‘ysangiz bo‘lardi... Shunga qaramay sizning g‘ayratshijoatingiz, tashabbuskorligingizdan hammamiz o‘rnak olsak arziyi! Rahmat sizga, o‘tiring!

Sanjarbek joyiga o‘tirib, hamon tik turgancha so‘z navbatini kutib turgan Aloviddinga: «Marhamat, davom eting», — dedi.

— Barnoning o‘sha kuni benzinni qayerdan olganligini aniqlash maqsadida anchagina ishlar qilindi. Hozirgina yigitlarimiz Chinozdagi 21-sonli yonilg‘i quyish shoxobchasi atrofida yashovchi xonadonlar sohiblari bilan gaplashib chiqib, bir narsaga aniqlik kiritganday bo‘lishdi. AYOQShning shundoq yonginasida yashovchi Fotima ismli ayol bundan taxminan ikki-uch oy muqaddam o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlar-dagi bola ularnikiga benzin solish uchun yelim idish so‘rab chiqqanini aytgan. Taxminimiz to‘g‘ri chiqsa, Baro o‘sha kuni mashinasini yo‘lda qoldirib, o‘zi piyoda benzin olish maqsadida AYOQShga kirgan. Ularda idish bo‘limganligi sababli qo‘schnilardan so‘rashga majbur bo‘lgan. Fotima opadan bir yarim litrli yelim idishni olib, benzin quyib olgan va mashinasiga quygan. Lekin hozircha AYOQSh rahbari va operatorlari «o‘laman Sattor, hech kimga idishga benzin sotmaganmiz», deb oyoq tirab turishibdi.

– Ajoyib yangilik! – Sanjarbekning yuzi yorishdi. – Demak, Barnoni eng so‘nggi ko‘rgan guvohlar topilibdi. Bu juda muhim. Shoxobcha egalarining yolg‘on ko‘rsatma berayotganligini yonilg‘i quyish shoxobchalarida idishga yonilg‘i berish qat’iy taqiqlanganligi bilan izohlash mumkin, ular shundan qo‘rqishadi. Ha, darvoqe, guvoh nima deyapti, Barro benzinga bir o‘zi borganmikan yoki yonida sherigi bo‘lganmikan?

– Ayolning aytishicha, Barro bir o‘zi bo‘lgan. Yonida hech kimni ko‘rmagan ekan...

– O‘sha bolaning Barro ekani...

– Bu aniq, ayol uning ko‘rinishini to‘g‘ri ta’riflab berdi, rasmini ko‘rsatgandik, darrov tanidi.

– AYOQSh bilan mashina to‘xtab qolgan joy oralig‘i qancha ekan?

– Bir kilometrcha bor.

– Demak, Barro sherigini mashinaga qarab turish uchun qoldirib, o‘zi piyoda yoki yo‘lovchi mashinada benzин olib kelishga ketgan...

– Bu aniq. Kecha yigitlarimiz yana bir guvohni topishgandi, -- izquvarlar boshlig‘i yig‘ilganlarni hayratga solishda davom etdi.

– Xo‘sh, xo‘sh, kim ekan o‘sha guvoh?

– Bozorboy degan pattachi. U o‘sha kuni ishdan qaytishda Barnoning «Lasetti»si yo‘l bo‘yida turganini ko‘rgan ekan. Yonida hech kim ko‘rimmagan. «Biror yordam kerakmasmikan» degan o‘yda mashinasini to‘xatib, «Lasetti»ning yoniga kelgan va oynadan «nima gap, yordam kerakmasmi?» deb so‘ragan. Mashina ichida o‘tirgan odam savolga javob bermay, negadir yuzini teskari burib olgan. «Birortasini kutayotgandir-da», degan xayolga borgan Bozorboy yo‘lida davom etgan.

– Balki boshqa mashinani ko‘rgandir?

– Yo‘q, Bozorboy mashinaning davlat raqamini eslab qolgan ekan.

- Oradan shuncha vaqt o‘tgan... Qanday esida qolgan ekan? Yoki bunga biror sabab bormi?
- Shunaqa odamlar bo‘ladi-ku. «Oldin ham o‘sha mashinani ko‘p ko‘rganman, egasini tanimasam-da. Yallamaning mashinasini ekanligini bilardim», – deydi.
- Demak, Bozorboy aynan Barnoning mashinasini ko‘rgani aniq.
- Vaqt ham taxminan to‘g‘ri kelayapti, – izoh berdi izquvar.
- Bozorboy o‘sha odamning biror xos belgisini eslab qolmaganmikan?
- Yo‘q, «Mashina ichi qorong‘i edi, uning kimligini, necha yoshdaligi, qanaqa kiyinganini aniq ko‘rolmadim», deydi.
- Balki u Bozorboyni tanib, yuzini teskari burgandir?
- Bo‘lishi mumkin, ammo Bozorboy uni tanimagan, to‘g‘rirog‘i, yaxshiroq ko‘rmagan...
- Shu sirli yo‘lovchida bir gap borga o‘xshaydi. Negadir u o‘zini namoyon qilishni xohlamagan. Bir necha guvoh faqat Barnoning o‘zini ko‘rgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu kimsa manfur niyatini amalga oshirish uchun oldindan tayyorlangan, puxta reja tuzgan. Odamlar ularni birga ko‘rib qolmasliklari uchun mashinadan tushmay o‘tigan. Yoki u nogironmikan?
- Nogiron odam kechki payt Chinozda nima qiladi... yana yolg‘iz o‘zi, – deb shubhasini bildirdi Rahimjon.
- Har ehtimolga qarshi Yallama va yon atrofdagi qishloqlarda yashovchi nogiron odamlarni ham so‘rab ko‘rishimiz kerak...
- Tushunarli, – dedi izquvar qo‘lidagi daftarga nimalnidir qayd qila turib.
- Boshida men Barnoning sherigi biror o‘rtog‘imi yoki sinfdoshimi, deb o‘ylagandim. Lekin uning barcha sinfdoshlari, o‘rtoqlari, qo‘shnilari bilan gaplashib chiqilgan-

dan keyin bu taxmin to‘g‘ri emasga o‘xshay boshlagandi. Bozorboyning ko‘rsatmalaridan keyin esa, xulosa qilish mumkinki, bu kimsa Barnoga do‘sit bo‘lmagan. O‘zini tutishidan qotil aynan shu odam ham bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Xullas, uni yerning ostidan bo‘lsayam, osmonning ustidan bo‘lsayam qidirib topishimiz lozim... Meni bir nar-sa o‘ylantiradi. Agar u kimsani «qotil» deb faraz qiladigan bo‘lsak, katta ko‘chada, shuncha odamning ko‘z o‘ngida o‘z qurboni bilan mashinada sayr qilib yurganiga hayron qolasan kishi! Biroq uni hech kim ko‘rmagan. Ko‘rganlar ham e’tibor bermagan. Odamlar ham rosa beparvo, befarq bo‘lib ketayapti-da! Burnidan narini ko‘rishmaydi... Har kim o‘zi bilan ovora! Qandoq kunlarga qoldik... Aloviddin Istamovich, sizda yana nima bor?

— Boshqa masalalarda o‘tgan kuni sizga axborot ber-gandim, hozircha shular, — gapni qisqaroq qildi izquvar.

— Hurmatli hamkasblar! — Guruh rahbari qandaydir tashvish, kuyunchaklik bilan gapida davom etdi, — o‘tgan uch-to‘rt kun ichida juda katta hajmdagi ish qilindi. Ammo makkor qotil bizga tutqich berishni xayoliga ham keltir-mayotir. Bir qarashda u shu atrofda hammasini ko‘rib-bilib o‘tirgandek. Boshqa tarafdan razm solinsa, u bizdan juda olislab ketganday. Uni izlab topish amri maholday tuyuladi. Har ikki holatda ham bizni unga olib boradigan so‘qmoq aynan shu joydan — Yallamadan boshlanadi. Yana salgina g‘ayrat qilsak, kalavaning uchi topiladi. Eng asosiysi, biz to‘g‘ri yo‘ldan ketayapmiz...

Tergov guruhi a’zolari ertangi qilinadigan ishlarni ke-lishib olgach, allamahalda tarqalishdi.

\* \* \*

Sanjarbek kech yotgan bo‘lishiga qaramay, ancha payt-gacha uyqusi kelmay, shiftga qarab yotdi. Garchand u gu-ruh a’zolarining ko‘nglini cho‘ktirmaslik uchun jinoyat tez

kunlarda ochilishiga umid bildirgan bo‘lsa-da, yuragi notinch edi, xayolida qandaydir noto‘g‘ri yo‘lga tushib qolganday, qotil ularni chalg‘itib, ancha uzoqlab ketganday, tergov boshi berk ko‘chaga kirib, undan chiqish yo‘llarini unutib qo‘yganday edi... Ustiga ustak, maslahat beradigan odam yo‘q. Tohir G‘ofurovichning tashvishi o‘ziga yetarli... Qariyani anov bemazalar rosa qiy nab qo‘yishdi... Nafaqaga chiqish uchun kun sanab o‘tirgandir... Faxridin Karimovich nima qildi ekan?.. Shunday odam-a! Qamoqxonaning zimiston burchagida dard-u alamga botib o‘tirgandir... Nima bo‘lsayam, tushkunlikka tushib qolmasa bo‘lgani! Yo‘qsa, u yerlardan omon chiqishning o‘zi bo‘lmaydi. Yo‘q, yo‘q, ustoz irodali inson, hammasiga chidaydi. Har qanday qiyinchilik, har qanday azobga bardoshi yetadi. Allohdan berilgan bu sinovni mardonavor yengib o‘tadi. Hali yaxshi kunlar oldinda. «Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘», degan maqolni ko‘p ishlatardi. U buni yaxshi tushunadi. Umid bilan yashaydi... Faqat shu umid, o‘zining haqligiga bo‘lgan ishonchgina uni omon saqlab qoladi, inshoollo! Negadir keyingi paytlarda Amazon ham telefonni ko‘tarmay qo‘ydi. U bechora ham qo‘rqib qolgan ko‘rinadi... Ayoli, bolalari, ota-onasi qay ahvolda ekan? Qanday o‘tirishgan ekan? Shu qurib ketgur ish deb, ularning holidan xabar olishning ham iloji bo‘lmadi. Ish deganlari hecham tuga maydi. Bu yog‘ini bajarsang, boshqa yoqdan qay nab chiqaveradi... Tavba, qanday kunlarga qoldig-a!

Shularni o‘ylab, SanjARBek ertaga ish boshlangunga qadar ustozining oilasidan xabar olib kelishni ko‘ngliga tugdi.

Tong payti Toshkent tarafga yo‘l olgan SanjARBek oldin «Chorsu»ga tushib, bozorlik qildi, soat sakkizlarga yaqin to‘lib-toshib ustozining xonadoniga kirib bordi. Bolalariga

nonushta tayyorlab turgan Nazira Sanjarbekni ko'rib su-yunib ketdi:

– Voy, Sanjarbek, yaxshimisiz, eson-omonmisiz? Nima qilib ovora bo'lib yuribsiz... Shuncha narsa...

– Rahmat, yanga, o'zlarining yaxshimisiz? Zerikmas-dan o'tiribsizlarmi? – Sanjarbek qo'lidagi yuklarini bir chekkaga qo'yib, iliq salomlashdi. So'ng qandaydir bir umid ko'zi bilan unga qarab, javdurab turgan yigitlarga yuzlandi, – Dostonjon, Davronjon, sizlar qalaysizlar? O'qishlar yaxshimi?

– Yaxshi, rahmat, – qandaydir siniq ovozda javob berdi Davron.

– Sanjar aka, adam qachon keladilar? – Dostonning sabri chidamadi, – o'zi adamni nimaga qamashgan?

– Oz qoldi, bolajon, oz qoldi, – Sanjarbek bolaning savoliga qanday javob berishni bilmay, biroz esankirab qoldi. – Endi, bilasanmi, umuman olganda... Adangning aybi yo'q, faqat jindakkina anglashilmovchilik bo'lgan. Hammasini tekshirib, keyin qo'yib yuborishadi.

– Aytganingiz kelsin! – deyishdi yigitlar bir ovozdan. Nazira bolalarini xonasiga chiqarib yuborib, mehmon-ga yuzlandi.

– Ukajon, nima yangilik, biron xushxabar bormi?

– Hozircha... yangilik yo'q..., – chaynaldi tergovchi.

– Tohir G'ofurovich nima deyaptilar?

– Xudo xohlasa, hammasi yaxshilik bilan tugaydi, Tohir aka qo'lidan kelgan hamma ishni qilayapti, – San-jarbek ayolning ko'nglini cho'ktirmaslik maqsadida av-valgi «ertagi»ni takrorlashdan boshqa iloji bo'lmadi, – o'zlariningizda nima gaplar, yanga?

– O'tgan kuni qaynota-qaynonam bilan Termizga bo-rib keldik... hatto ko'rsatishmadiyam... Bilmadim, qilgan ishi shunchalar og'irmikan? Odam o'ldirganlar bilan ham

bunaqa muomala qilishmaydi, – Nazira ko‘zyoshlarini tiyolmadi. – Prokuror ham, tergovchi ham, anov siz tanishtirgan...

– Ramazon.

– Ramazon ham o‘zlarini olib qochishdi. Tergovchingning aytishicha, siz bilan borib, xo‘jayin bilan uchrashganimizni anovilar... Xavfsizlik xizmatidagilar bilib qolib, rosa to‘polon ko‘targanmish. Bechora prokurorlarning toza jonlarini olishgan ekan... «Men kirmasam ham onasi besh daqiqaga kirib chiqsin» desam ham rozi bo‘lishmadi. Fashistdan ham battar ekan! Sho‘rlik qaynota-qaynonam shuncha yo‘ldan borib, bolasining yuzini ko‘rolmay, yig‘lab-yig‘lab qaytishdi... Qariyalarga qiyin bo‘ldi... Uchto‘rt kun ichida o‘n yoshga qariganday, cho‘kib qolishdi... Kecha aldab-suldab qishloqqa jo‘natdim... Endi nima qila-miz, ukajon?

– Yanga, to‘g‘risini aytsam, mening ham boshim qotib qoldi, – dedi Sanjarbek yig‘lamoqdan beri bo‘lib. – Bir tarafdan yangi boshlig‘imiz tagimga suv quymoqchi bo‘lib yuribdi. Shu sababli Tohir aka meni ko‘zdan yiroqroq bo‘lib turing deb, Chinozga xizmat safariga yuborgandi. Borsam, u yerda ham ish qaynab yotibdi. Uchta qotillik... jinoyat ochilmagan, qotil qo‘lga olinmagan... Bosh qashishga qo‘l tegmay qoldi... Ramazonga qo‘ng‘iroq qilsam, telefonini ko‘tarmadi. Tohir aka bilan gaplashib turibman. Biroq, u kishidan ham tayinli gap ololmayapman... Birikkita Faxriddin akamni hurmat qiladigan hamkasblarimiz bilan gaplashsam, yelka qisishadi, «hozir bu ish olov, ya-qinlashgan odamni ham kuydirib yuborishi mumkin, sudda amallarmiz», deyishdi... Nima qilishgayam hayronman...

– Akangizning bunchagina peshonasi sho‘r bo‘lmasa! Kechani kecha, kunduzni kunduz demay, dam olish kuni-ni, ta’tilni bilmay, oilani, bola-chaqani unutib, ter to‘kdi,

tinim bilmadi... Mana mukofoti! Vatan xoinidan ham bat-tar ko‘yga tushib o‘tiribdi! Har so‘zidaadolat, haqiqat der-di, qani o‘shaadolat, qani o‘sha haqiqat!

— Yanga, sabrli bo‘laylik, noumid shayton. Bu mutta-hamlarga ham boqqan balo bordir. Asosiysi, ustoz aybsiz, hech qanday jinoyat qilmagan! Haqiqat bukilishi mumkin, ammo sinmaydi! Birovga aytsang ishonmaydi, nima qilaylik, qo‘limizdan hech narsa kelmayapti! Bosh prokutor ham, uning o‘rinbosarlari ham xodimlarini aybsiz, nesiz olib ketib, qamoqqa tiqishsa ham, tomoshabin bo‘lib ku-zatib o‘tirishdan boshqaga yaramayapti! «Aybsiz odamni nega qamayapsan?» deb so‘raydigan mard yo‘q! Hamma o‘zidan qo‘rqadi, mansabini yo‘qotishdan cho‘chiydi!

Sanjarbek qizishib ketib, gaplari bilan shundog‘am yuragi dard-u alamga limmo-lim ayolning yarasiga tuz se-payotganini his qilib:

— Yangajon, sizdan iltimos bugundan boshlab siz ham yig‘i-sig‘ini bas qilib, atrofga teran ko‘z bilan qarashni boshlang, hayot davom etmoqda. G‘am-anduh bilan emas, umid bilan yashashni o‘rganaylik... To‘g‘ri, shunday in-sonning tutqunlikda chorasiz o‘tirishi, qilmagan gunohi uchun tovon to‘lashi hammamiz uchun qayg‘uli. Ammo ustoz hayot, metin irodasi bilan hammasini yengib o‘tishga qodir... O‘sha kuni uni ko‘rishga borganimizda... yodin-gizdam, bizning ko‘nglimizga chiroq yoqsa, yorishmaydi, u kishi hazilni qo‘ymaydi. To‘g‘ri qiladi, boshga tushganini ko‘z ko‘radi. Siqilib, yig‘i-sig‘i qilib o‘tirishdan nima foyda! Qaytanga, o‘zingga dard yuqtirib olishing hech gap emas. Shundan xudo saqlasin! Ko‘rdingizmi, ustoz shu holida ham bizga o‘rnak bo‘layapti! Bas shunaqa ekan, nega aza tutishimiz kerak? Allohdan berilgan bu sinovni ham-mamiz qaddimizni tik tutib, mardona yengib o‘tishimiz, umid bilan yashashimiz lozim... Mayli, hozircha ularning qo‘li baland. Lekin zamon shundayligicha qolib ketmas.

Yaxshi kunlar, yorug‘ damlar kelar. Qasd qilganlar past bo‘lar!

Sanjarbekning chin yurakdan, kuyunchaklik bilan aytganlari ayolga ta’sir qilmay qolmadi.

— Gaplaringiz to‘g‘ri, ukajon, ilojimiz qancha! O‘sha kuni ustozingizning o‘zini tutishiga hayron bo‘lgandim. «Balki menga dalda bo‘lish uchun ataylab shunday qilayaptimi», degan o‘yga borgandim... Bilaman, u kishining irodasi mustahkam, hammasiga chidaydi... Men ham tishimni tishimga qo‘yishga majburman. Bolalar ham ko‘nikishar. Ammo qaynona-qaynotam qarigan chog‘larida hayotning bu zarbasiga chiday olarmikan? Ular uchun Faxriddin akam... ustun edi...

-- Yanga, yaxshi niyat qilaylik, Alloh ularning umrlarini ziyoda qilib, ustoz yorug‘ yuz bilan chiqib kelganda, bag‘irlariga bosib kutib olish nasib etsin. Iloha omin! — duoga qo‘l ochib, fotiha qilishdi.

— Sanjarbek, siz bizga o‘z jigarimizday bo‘lib qolgansiz, — dedi xayrashish oldidan Nazira, — ustozingizni yolg‘izlatib qo‘ymang, sizdan boshqa kimga ham suyanamiz... Men ertaga yana Termizga jo‘nayman. Xudo nasib etsa, besh kunmi, o‘n kunmi o‘sha yoqda qolib bo‘lsayam, uchrashaman...

— Nimada ketasiz, mashina qilib beraymi?

— Yo‘q, taksi gaplashib qo‘ydim, tinchroq.

— Unda ustozga bizning salomimizni aytинг. Men erta-indin Tohir akaning oldiga kirib, yuzma-yuz gaplashaman...

Sanjarbek Nazira bilan iliq xushlashib, ortiga qaytar ekan, yuragida qandaydir taskin, qilgan ishidan qoniqish hissini tuyganday bo‘ldi.

\* \* \*

«Nuriddinning velosipedida begona shaxsning barmoq izlari aniqlanibdi, shuning uchun hammaning barmoq iz-

lari olinib, ekspertizadan o‘tkazilarmish» degan xabar bir zumda qishloqqa yoyildi. Uchastka inspektori, tezkor xodimlar qishloqning barcha katta yoshli fuqarolarini mahalla guzarida tashkil etilgan ko‘chma laboratoriyaiga taklif etishdi. Erkag-u ayol, yosh-u qari birin-ketin ekspertlar oldiga kelib, barmoq izlarini topshirishga kirishdilar. Jaryonni kuzatib turgan tergovchilar har bir shaxsning o‘zini tutishi, ruhiy holatiga diqqatini qaratishib, ularda haya-jonlanish, qo‘rqish, titroq alomatlarini ilg‘ashga harakat qilishardi. Ayniqsa, jabrlanuvchilarning yaqinlari, qo‘ni-shnilari kelganda yanada sergaklanib qolishardi.

— Ana, Zamir kelayapti, — dedi Rahimjon ko‘chaning narigi yuziga ishora qilib, — birinchilar qatorida kelishiga qaraganda... u emasga o‘xshaydi.

— Bo‘lishi mumkin, — dedi Sanjarbek sovuqqonlik bilan, — qani, oxirigacha kuzataylik-chi, o‘zini qanday tutar ekan.

Zamir to‘planganlar oldiga kelib, navbatga turdi. Oldindagi ikki-uch kishini o‘tkazib, ekspertlar oldiga keldi. U o‘zini beparvodek tutayotgan bo‘lsa-da, yuz-ko‘zida qandaydir xavotir, hadik borday edi. Navbat kelib, ekspertlarga qo‘llarini tutganda barmoqlari qaltirab ketganday bo‘ldi. Buni payqagan ekspert «shu yigitda bir gap bor» deganday, sal narida turgan tergovchilarga ma’noli qarab qo‘ydi.

— Qo‘llari qaltirab ketganini sezdingizmi? — dedi Rahimjon Zamirdan ko‘z uzmay.

— Ko‘rdim, ko‘rdim! Balki hayajondadir... Qani oxirigacha kuzataylik-chi, nima bo‘larkan.

Zamir ekspertlar oldidan chiqib, hech narsa ko‘rmaganday uyi tomonga odimlab ketdi.

— Sanjar aka, «shu bolada bir gap bor», deb to‘g‘ri aytgan ekansiz, — Rahimjon xulosa qilishga shoshildi, — qo‘rqan odamning oyog‘i qaltiraydi, deyishardi, qo‘li

qaltirab, jinoyatchi ekanligini sezdirib qo'ydi... Qamoqqa olsak, uch kunga bormay sayrashni boshlardi.

– Nimaga asosan qamoqqa olamiz? Qo'limizda unga qarshi qanday dalilimiz bor? – zarda qildi guruh rahbari. – Barmoq izlarini topshirayotganingizda qo'llaringiz qaltirab ketdi, deymizmi?

– Qamoqqa olsak, dalil ham, asos ham topiladi. Bir kun gapirmas, ikki kun chidar, uchinchi kuni bulbuligo'yo bo'lib sayrashni boshlaydi. Aloviddin Istamovich bunaqlarning nechtasini...

– Tavba qildim, hammalaring bir xil o'ylaydigan bo'lib qolgansizlar-a! Nima, bu kasallikmi? Keyingi paytda joylarda qaysi tergovchi bilan birga ishlamaylik, barchasi sizga o'xshab fikr yuritishadi: topgan gaplaring – «qamaylik, o'zi bo'yniga oladi», «dalillarni o'zi topadi»! Bizni ustozlarimiz oldin dalil topib, keyin qamoqqa olishga o'rgatishgan. Sizlarda aksi – avval qamab, keyin dalil topasizlar!

– Ikki o'n besh – bir o'ttiz, nima farqi bor? – bo'sh kelmadi Rahimjon, – qiynalib yurishga nima hojat!

– Qonun-chi! Qonun nima bo'ladi! Biz, prokuratura xodimlari, shunaqa fikrlasak, boshqalardan nimani kutish mumkin?

– Qonun buzilmaydi, aksincha, jinoyat tezroq fosh bo'ladi, qotil qo'lga olinadi, jazoning muqarrarligi...

– Taxminga asoslangan qamoqqa olish o'zini oqlamasra nima bo'ladi? Jinoyatchi boshqa shaxs bo'lib chiqsa, qamoqqa asossiz olingan odamning tovonini kim to'laydi? Odamlarning prokuraturaga, davlatga ishonchi yo'qolmaydimi? Ustozim Faxriddin Karimovich «tergovning bir shoh qoidasi bor: bir odam aybsiz qamalganidan, o'n odamning aybi isbotlanmasdan qamalmay qolgani ma'qul», deb ko'p takrorlardi. Bizgayam shunday prinsipda ishlashni o'rgatganlar.

– U kishi Surxondaryoda viloyat prokurori muovini edilar shekilli, qamab qo'yishibdimi? – piching qildi Rahimjon.

– Ha, aytdim-ku, sizga o'xshab fikr yuritadiganlar ko'payib ketishgan, deb. Aybsiz odamni qamab o'tirishibdi, dalilni keyin topamiz... keyin «sayratamiz», deb, – Sanjarbek ham ayab o'tirmadi.

– Yo'g'-e, u kishi viloyat prokurorining o'rinnbosari bo'lsalar, aybi bo'lmasa, kimam qamashga jazm qila olardi. Yoki anovi «qo'shni»lar...

– O'shalarning ishi... – Sanjarbek bu be'mani munozaraga chek qo'yish maqsadida gapni boshqa yoqqa burdi. – Yaxshisi, siz yigitlarga topshiriq bering, tezda Zamirning yaqinlari bilan gaplashib, uning qo'li qaltirashi xususida ma'lumot yig'sin. Qo'l qaltirashi tug'ma bo'lishi ham mumkin. Shunaqa kasallik bor, yoshlarda ham uchrab turadi. Do'xtirlar bilan maslahatlashishsin!

– Tushunarli, – Rahimjon yoniga tezkor xodimlardan birini chorlab, topshiriqni yetkazdi va guruh rahbarining yoniga qaytdi.

– Ergash traktorchi ko'rinnmadi, – dedi Sanjarbek atrofga alanglab.

– Ha, yigitlar izlab borishsa, uyida yo'q ekan.

– Qayerga ketdi ekan, kecha hammaga tayinlagan edik-ku!

– Xotiniga ham aytmabdi, u xumpar! «Shaharga chiqib kelaman», deganmish...

Peshinga qadar Ergash traktorchidan boshqa ro'yxatdagi barcha kishilarning barmoq izlaridan namunalar olindi. Tergov guruhi a'zolari Zamirni hisobga olmaganda boshqa biror kishida ruhiy o'zgarish yoki asabiylashish, hadiksirash alomatlarini payqamadilar. Kechgacha bir necha bor Ergash traktorchinikiga qatnagan tezkor xodimlar natijasiz qaytishdi.

– Sanjar aka, traktorchi qochib qoldimi, deyman-da, – dedi Jo‘raboy o‘zining «usuli» ish bergenidan og‘zi qulog‘ida. – Men «qotil aqli bo‘lsa, kelmaydi», deb o‘ylagandim, to‘g‘ri chiqdi!

– Birovning peshonasiga qotillik tamg‘asini bosishga shoshilmang, – dedi guruh rahbari pinagini ham buzman-dan. – Balki biror zaruriyat bilan shaharga chiqqandir, hali zamon kelib qolar.

– Yo‘q, kelmaydi, – faraz qilishda davom etdi talaba, – menimcha, vaqt borida juftakni rostlab qolgan. Qo‘lga tushib, qamalib ketishidan qo‘rqqan.

– Velosiped uning hovlisining yaqinidan chiqqan, – dedi Sanjarkbek talabani sinash uchun, – o‘zi topib, militsiyaga xabar qilgan. Agar Ergash chindan qotil bo‘lganda velikni uzoqroqqa tashlab yuborgan bo‘lmasmidi? O‘zini gumonga qo‘yib nima qilardi... Ana ko‘rdingizmi, taxmi-ningiz yopishmayapti.

– Sanjar aka, qiziqsiz-a! U oddiy traktorchi bo‘lsa...

– Nima, traktorchi odam emasmi?

– Yo‘g‘-e, unaqa ma’noda aytganim yo‘q... Omi odam bo‘lsa, velosipedni suvgaga oqizib yubormoqchi bo‘lgan. Velik hech qancha yurmay biror narsaga ilinib, to‘xtab qolgan. Yana oqizib yuborish uchun biror narsa bilan turtay desa, odamlar ko‘rib qolishidan qo‘rqqan. Shubha o‘ziga tushmasligi uchun militsiyaga xabar qilishni ma’qul ko‘rgan...

– Xo‘p, siz aytgancha bo‘la qolsin. Unda marhamat qilib ayting-chi, janob Jo‘raboy, qotillikning motivi nima? Traktorchiga qo‘schnisining gulday bolasini o‘ldirish nima-ga kerak? Bu savollarga sizda javob bormi?

– Qo‘schnichilikda oralaridan biron gap o‘tgandir, – tavakkal qilishda davom etdi talaba, – balki xotinlar ora-siga ola mushuk oralagandir.

- Shugina arzimas sabablar odam o‘ldirishga kamlik qilarov, deb o‘yayman, nima dedingiz?
- Balki biz bilmagan... qandaydir jiddiy xusumati bo‘lgandir, qasos olmoqchi bo‘lgandir... Qamoqqa olinsa... dalil topish qiyin kechmasdi...
- Bularga nima bo‘lgan-a! – Sanjarbek chidab turolmadi. – Kattasidan tortib kichigigacha dardi qamoqqa olish! Dalil keyin topilarmish!
- Qamoqda tezroq bo‘yniga olarmidi, deyman-da! – tergovchilar orasida boyagina shu masalada bo‘lgan mu nozarada ishtirok etmagan talaba hamon yon berishni istamasdi. – Ochiqda yursa, birinchidan, o‘rgatuvchilari ko‘p bo‘ladi, ikkinchidan, mas’uliyatni unchalik his qilmaydi.
- Institutda sizlarni shunaqa qonunsiz ishlashga o‘rgatishayaptimi? – Sanjarbek jiddiy tortdi.
- Yo‘g‘-e, nega unday deysiz. Men jinoyat tezroq ochilarmidi, degandim-da! Noto‘g‘ri gapirgan bo‘lsam uzr, Sanjar aka. Men... men...
- Jo‘raboyjon, siz aqli, jasur va g‘ayratli yigit siz, – tergovchi talabaning ko‘nglini cho‘ktirmaslik uchun biroz «past tushdi». – Hozirdan yengilning ostidan, og‘irning ustidan o‘tadigan olchoqlar yo‘lini tanlashga o‘rganmang. Qamoqqa olish uchun dalil, asoslar yetarli bo‘lishi kerak. Avval qamoqqa olib, keyin isbotlashga urinish, bu bilsangiz, jinoyatning o‘zginasi! To‘g‘ri, hozir amaliyotda ko‘pchilik hamkasblarimiz shu yo‘lga o‘tib olishgan... Agar kelajakda tergovchi bo‘laman desangiz, bu yo‘lni zinhor tanlamang! Tergovchilik sharafli va o‘ta mas’uliyatli kasb! Tergovchi qilni qirq yorib, haqiqatga erishadi. Makkor jinoyatchi shoxida yursa, u bargida bo‘lishi lozim. Jinoyatchi bir yo‘ldan qochadi, tergovchining oldida esa yuz bitta yo‘l bor, ular orasidan keraklisini topa olmasa, jinoyatchining changida qolib ketadi...

– Rahmat, Sanjar aka, bu tomonini o‘ylamagan ekanman, – dedi Jo‘raboy xijolatdan yuzlari qizarib. – Aytganlaringiz menga bir umrga yetgulik saboq bo‘ldi. Xudo xohlasa, tergovchi bo‘lsam, albatta, sizning yo‘lingizni tanlayman!

– Bu boshqa gap! Shunday-shunday pishasiz-da! Bir kun kelib, siz mohir tergovchi bo‘lib yetishasiz, degan umiddaman. Asosiysi, ustoz tanlashda adashmang. Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar, degan naql bekorga aytilmagan.

– Kelajakda taqdир meni qayerga tashlaydi, kimlar bilan ishlayman, bilmadim, ammo ruxsat etsangiz sizni, Rahimjon akani «birinchi ustozlarim» deb hisoblayman. Shu uch-to‘rt kun ichida sizlardan ko‘p narsalarni o‘rgandim. Dunyoqarashim o‘zgardi, tergovchilik kasbiga muhabbatim yanada ortdi.

– Men qarshi emasman, – mamnun jilmaydi tergovchi, – ustoz hech kimga ustozlik da’vosini qilolmaydi, e’tirof shogirddan! Endi yuring, yigitlarni to‘plab, bir maslahatlashib olaylik, maslahatli to‘y tarqamas!

– Sanjar aka, qoyilman sizga, har gapingizga maqol qo‘sasiz-a. Nechta maqol bilasiz? – bolalarcha beg‘uborlik bilan so‘radi Jo‘raboy.

– Maqol – so‘z ko‘rki. Qisqa satrlarda ajodolarimizning ming-ming yillik tajribalari, kuzatishlari, qarashlari, g‘oyalari, hayotiy tajribalari mujassam. Ota-bobolarimiz bu so‘z san’atidan juda unumli foydalanishgan. Yoshlik chog‘larimizda bobom, momom har gapiga xalq maqollarini qo‘shib gapirgani yodimda! Bizga ham bu sifat ularдан o‘tgan bo‘lsa ajabmas.

Mahalla idorasida to‘plangan guruh a’zolari bugungi kun tadbirlari natijalari muhokamasiga kirishdi:

– Aloviddin Istamovich, traktorchi hali ham topilmadimi? – so‘radi guruh rahbari.

– Yo‘q-da! Chinozga – anovi o‘ynashinikiga ketdimikan, degan fikrda yigidlarni yuborsak, u yoqqa ham bormagan ekan. Xotini «Toshkentga ketgan», deydi. Poytaxt katta bo‘lsa... Qo‘l telefonni ham o‘chirilgan...

– Nima deb o‘ylaysiz, Ergash nimadan cho‘chiyotganikin?

– Hayronman-da. U bizdan nimanidir yashirayotganga o‘xshaydi. Ish holatlari bo‘yicha, u velosipedni anhorda ko‘rib, uchastka noziriga xabar qilgan. Velosiped anhor qirg‘og‘idan bir yarim metrcha narida qandaydir simga ilashib, to‘xtab qolgan ekan. Suvga tushmasdan unga qo‘l tekizib bo‘lmasdi. Demak, Ergash velikka qo‘lini ham tekizmagan. Ko‘rsatmalarida ham shunday degan... Nima sababdan qo‘rqib, qochib ketganiga hecham aqlim yetmay turibdi.

– Darvoqe, Rahimjon, – guruh rahbari hamkasbiga o‘girildi, – siz u bilan anovi yolg‘on ko‘rsatmasi xususida gaplashgandingiz. Nima degandi?

– Qayta so‘roq qildik. Lekin yana o‘sha gap. «Toshkentga o‘rtog‘imning to‘yiga borishim kerak edi. Chinozda tanish ayolnikiga kirib o‘tmoqchi bo‘ldim. Erkakchilik, o‘sha yerda qolib ketibman» degandi. Anya ham uning gaplarini tasdiqladi. Menda hech qanaqa shubha qolmagan. Bugun o‘ylanib qoldim. Bu muloyimxunuk hamma-mizning qulog‘imizga lag‘mon osib yuribdimi, deymandi!

– U juftakni rostlab qolishi mumkinmi? Umuman shu odam haqida bizlarga nima ma’lum? – guruh rahbari yana Aloviddinga yuzlandi.

– Hozircha biror narsa deyish qiyin. O‘zi qo‘yday yuvosh ko‘ringani bilan... indamas odamdan har narsani kutsa bo‘ladi... O‘tgan safar boshqalar qatori uning ham shaxsini o‘rganganmiz, – dedi izquvar qo‘lidagi qog‘ozga qarab. – Qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla, ishxonasidan yaxshi

tavsiflangan. Birov bilan ishi yo‘q, sodda, samimiy, mehnatkash. Jahli tezligini hisobga olmaganda, odamlar bilan muomalasi yaxshi, traktorida ko‘pning hojatini chiqarib kelgan. Ma’lumoti o‘rta, harbiy xizmatni Chita shahrida ichki qo‘sishlar tarkibida, aniqrog‘i 24/85-sonli jazoni ijro etish muassasasida o‘tagan ekan.

– Qamoqxonada xizmat qilgan, deng! – Sanjarbek sergaklandi. – Biroq u xizmatga sodda odamlarni olishi qiyin. Bu odam bilan yanada chuqurroq shug‘ullanishimizga to‘g‘ri keladiganga o‘xshaydi... U qayerga ketgan bo‘lishi mumkin?

– Balki o‘sha xizmatdosh o‘rtog‘inikiga ketgandir, – Jo‘raboy fikr bildirdi, – To‘yiga bora olmagan, kelinning qo‘lidan choy ichish bahonasida...

– Bo‘lishi mumkin. Aloviddinjon, siz tezda Ergashni topish choralarini ko‘ring, uyida to‘y taklifnomasi saqlanib qolgan bo‘lishi kerak, balki xotini o‘sha og‘aynisining manzilini bilar. Traktorchining boshqa borishi ehtimali bo‘lgan joylarga ham yigitlarni yuboring. Telefon so‘zlashuvlari tarixi, pelengatsiyasi tahlil qilinsa, uni topish qiyin bo‘lmas. Traktorchi odam bu narsalarga aqli yetmasa kerak deb o‘yayman... Ergashning Karim aka va Salimaxon opalar bilan munosabatlari qanday bo‘lgan, oralarida janjal, nifoq bo‘lmasaganmi, buni aniqlashimiz zarur. Shuningdek, Ergashning birinchi va uchinchi voqealarga aloqadorligi masalasini o‘rganib ko‘rishimiz, bolalar yo‘qolgan kunlarda u qayerda bo‘lgan, nima ish bilan mashg‘ul bo‘lgan – hammasiga birma-bir oydinlik kiritishimiz kerak. Shu bilan birga, bu odamning qolgan har ikkala oila bilan munosabatlari qanday bo‘lgan, ular bilan qasdlashishga asoslar bo‘lganmi, buni ham aniqlashimiz kerak. Bugun kech bo‘lib qoldi, ertaga ishni mutaxassislar yordamida Ergashning xonadonini ko‘zdan kechirishdan boshlasak.

- Tushunarli, – dedi izquvar qayd daftariga yozishdan to‘xtamay.
- Rahimjon, siz rossiyalik hamkasblarimiz orqali Chitaga so‘rovnama tayyorlang. Ergashning harbiy xizmat davridagi faoliyati haqida batafsil ma’lumot oling. Bu shovvoz u yoqlarda nima o‘yin ko‘rsatgan, bilaylik.

Shu payt Rahimjonning qo‘l telefonini jiringlab qoldi. U xijolat bo‘lib, telefoniga qaradi va tanish raqamni ko‘rib, guruh rahbaridan «Buxorodan, gaplashib olsam maylimi?» deya izn so‘rab, tashqariga chiqib ketdi. SanjARBek «nahot Buxoroda biror yangilik bo‘lgan?» degan o‘yga borib, hamkasbining qaytishini kutib, sukul saqlab turdi. Sal o‘tmay Rahimjon qaytib kirdi:

- Buxorodan tergovchi qo‘ng‘iroq qildi. Qolgan besh-ta bolaning ham shaxsi aniqlanibdi. Ular tergov qilayotgan ishning biznikiga aloqasi yo‘q bo‘lib chiqdi.
- Yaxshi, bu ham bir natija, – dedi SanjARBek qo‘lidagi qalamni o‘ynatib, – davom etamiz! «Ergash» yo‘nalishi bo‘yicha vazifalar tushunarlimi? Kimda qo‘srimcha taklif, mulohaza bor, marhamat.

Hech kimdan sado chiqmagach, guruh rahbari keyingi masalaga o‘tdi:

- Endi Zamir to‘g‘risidagi fikrlaringizni bilmuoqchiman. Kecha men ko‘proq shu yigitdan shubhalangandim. U birinchilar qatorida barmoq izlarini topshirishga keldi. Ekspertlar oldida qo‘llari qaltiraganini hisobga olmaganda, unda qo‘rqish, hadiksirash, hayajonlanish belgilari kuzatilmadi. Rahimjon, shu masalada yigitlarga topshiriq bergandingiz, nima bo‘ldi?

– Ha, ular ayrim narsalarga aniqlik kiritishdi, – Rahimjon qo‘lidagi qog‘ozga qarab gap boshladi, – yigitlar uchastka shifokori bilan gaplashibdi, Zamirda tremor – qo‘l qaltirashi kasalligi bor ekan. Boshqa payti sezilmasa-da, asabiylashgan yoki qattiq hayajonlangan

payti kasallik kuchayarkan. Buni Zamirni yaqindan biladi-gan boshqa shaxslar ham tasdiqlashibdi.

— Tremor kasalligi deng, tushunarli! Shunday bo‘lsada, shu yigitni ertaga o‘zim bir so‘roq qilmoqchiman. U o‘zini Mo‘minjonlar oilasiga yaqin tutsa-da, o‘sha kuni nima sababdan ishlab turgan telefonini qo‘ng‘iroq qiliш uchun bermagani menga qiziq tuyulmoqda. Balki bu shunchaki qizg‘anchiqlik, xasislik, xudbinlik alomati bo‘lishi ham mumkin. Ammo bunaqa paytda hatto begonalar ham yordam qo‘lini cho‘zishga tayyor turishadi-ku! Shugina bir kichkina yolg‘onning tagida ko‘p narsa berkinib yotishi ham ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, ertaga yoqilg‘i quyish shoxobchasi rahbari va operatori, Barnoni so‘nggi ko‘rgan shaxs, oti nimaydi...

— Bozorboy, — yodga soldi Aloviddin.

— Ha, o‘sha Bozorboyni ham yaxshilab so‘roq qilishga to‘g‘ri keladi. Aloviddin Istamovich, sizdan iltimos, Er-gashni zudlik bilan topish choralarini ko‘ring, biror masala bo‘lsa, tortinmay qo‘l telefonimga chiqavering.

— Tushunarli!

— Jo‘ravoy, siz Chinoz va Yallamadagi kirakashlar, taksi haydovchilari bilan gaplashib ko‘rsangiz. Barnoning mashinasini yo‘q qilishning eng maqbul yo‘li uni ehtiyot qismlarga bo‘lib, asta-sekin bozorga olib chiqib sotish bo‘ladi. Agar qotilning shaxsiy avtomashinasi bo‘lmasa, kirakashlar xizmatidan foydalanishga majbur bo‘ladi. Axir shuncha narsani avtobusda tashishning o‘zi bo‘ladimi? Maqsadni tushundingizmi?

— Tushundim, Sanjar aka, tushundim, bajaramiz! — dedi talaba o‘ziga mas’uliyatli vazifa topshirilayotganidan mamnun bo‘lib.

— Agarda bu ishdan biror naf chiqmaydigan bo‘lsa, avtobus haydovchilari, marshrutkalar egalari bilan ham shu masalada ishlab ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

– Xo‘p bo‘ladi! – Jo‘raboy tik turgan holda topshiriq-larni yozib oldi....

\* \* \*

Faxriddin tergovchidan xotini va ota-onasi kelganini, ammo uchrashishiga «yuqori»dan ruxsat bo‘limganligini eshitib, yuragi siqildi. Naziraga qariyalar bilmay qo‘ya qolsin, degandi. Aytib qo‘yibdi-da! Qanday aytmasin! Mish-mishning qanoti bor deyishadi. Ertaga, baribir, bosh-qalardan eshitadi-ku! Bechoralar qay holga tushdi ekan?! Ularga qiyin bo‘ldi. Qarigan chog‘lari bu ko‘rgilik ham bormidi? Odamlar orasida qanday bosh ko‘tarib yurishadi? «Prokuror o‘g‘li pora bilan qamalibdi», degan isnodni qanday ko‘tarib yurishadi? Nega uchrashishga ruxsat berish-madi ekan? Viloyat prokurorini nima jin urdi? U bu ishlar uyushtirilganini, tuhmat ekanini biladi-ku! Kechagina yel-kama-yelka ishlagan hamkasblar, safdoshlar ham shunday bo‘ladimi? «Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi», deganlari yolg‘on ekan-da! Balki ayb ularda ham emasdир! Hozir hamma qo‘rqib qolgan. Qatiqni ham puflab ichadigan bo‘lishgan. Anovi shaytonning malayi hammaning jognini olib qo‘ygan...

– Faxriddin Karimovich, zerikmasdan o‘tiribsizmi? – dedi qo‘lida bir uyum hujjatlar bilan xonaga kirib kelgan Rahmatilla o‘z kreslosiga o‘tira turib.

– Rahmatilla Shavkatovich, – dedi Faxriddin o‘pkalagan ovozda, – ayolim mayli, qari ota-onam shuncha yo‘l bosib kelgan ekan, ikki daqiqaga ruxsat bersangizlar...

Tergovchi ko‘rsatkich barmog‘ini labiga tekkizib, «jim, devorda ham quloq bor» deganday ishora qildi va qattiq ovozda dona-dona qilib «Mumkin emas! Qonun bunga yo‘l qo‘ymaydi! Men qonunni buzolmayman», dedi.

Faxriddin taxmini to‘g‘ri chiqqaniga amin bo‘ldi, bu masala xususida gapirish befoyda ekanligini his qilib, boshini xam qildi.



– Ayblanuvchi Faxriddin Karimovich, o‘z qilmishingizga iqror bo‘lasizmi? Aybingizni tan olasizmi? – har kungi savolini takrorladi tergovchi.

– Yo‘q, men hech kimdan pora olmaganman! Bekorga ovora bo‘lmang! – dedi Faxriddin qat’iyat bilan. – Bir savolni har kuni berishdan charchamaysizmi, janob tergovchi!

– Unda buguncha yetarli, yaxshilab o‘ylab ko‘rishingiz uchun vaqt beramiz.

– Tushunmadim, har kuni shu birgina savolni so‘rash uchun tergovga olib kelasizlar... Shuyam tergov bo‘ldimi? – «ayblanuvchi»ning ensasi qotdi, – tergovchi bo‘lsangiz, aybimni bo‘ynimga qo‘ying, dalil keltiring! Yo‘qsa, menga aybim yo‘qligini isbotlashimga imkon bering! Bu nima maynavozchilik! Qiladigan ishlaring yo‘qmi? Bir so‘zni so‘rash uchun kun bo‘yi qoqqan qoziqday qotirib qo‘yasiz! Har kuni shu ahvol! Maqsadlaring nima? Meni ruhan sindirishmi? Qo‘llaringdan kelmaydi!

– Achchig‘ingiz chiqayaptimi, Faxriddin Karimovich? – beo‘xshov tirjaydi tergovchi, – demak, ruhiyattingizga darz tushayapti! Tabriklayman!

Faxriddinning xayolidan «kechagina kabinetimga kiring uchun navbat kutib turadigan, soyamga salom berib yuradigan yigit shu emasmi? Odam ham shunchalik tez o‘zgaradimi? Yoki yo‘l qo‘ygan kamchiliklari sababli bir necha bor muhokama qilib, intizomiy jazoga tortganim uchun mendan o‘ch olmoqchimi?» degan o‘y o‘tdi.

– Mayli, nima deb o‘ylasangiz, ixtiyor sizda! – sal bosiqroq ovozda davom etdi Faxriddin. – Ammo men osmon uzilib yerga qulasa ham qilmagan ishimni qildim demayman! Imonimni sotmayman!

– Juda yaxshi! Biz ham sizdan noqonuniy narsani tablab qilayotganimiz yo‘q. Jinoyat protsessual qonunchiligi doirasida aybingizni bo‘yningizga olish-olmasligingizni so‘rayapmiz, xolos.

— Bir marta so‘radingiz, yo‘q deb javob berdim, basda! — «ayblanuvchi» qanday ovozini balandlatib yuborgani ham sezmay qoldi. — Bir gapni to‘tiday takrorlashdan charchamaysizmi?

— Faxriddin Karimovich, sabrli bo‘ling! Bilasiz, tergovning har xil usullari, taktikasi bor...

— Xo-o, bilmas ekanmiz? — kinoya qildi Faxriddin.

Tergovchi bir varaq qog‘oz olib, katta-katta harflar bilan nimalarnidir yozib, hamsuhbatining oldiga qo‘ydi va ovozini balandlatib: «Mana sizga qog‘oz, aybingizni bo‘yningizga olsangiz, o‘zingizga yengillik bo‘ladi, odil sud jazo tayinlashda e‘tiborga oladi!» — dedi.

Faxriddin qog‘ozga ko‘z yogurtirdi: «Aka, men unaqa uch harf yigitlardan emasman. Sizga yordam berishni xohlayman... Ammo o‘zingiz bilganday... biz ham nochor-miz. Siz uchun eng yuqoridan «fatvo» kelmagan ko‘rinadi. Shu sababli shunaqa o‘yin qilib turishga majburmiz. Balki bu sizning foydangiz uchundir. «Fatvo» olinmasa, sizni qo‘yib yuborishga majbur bo‘lishadi. Ulardan bir og‘iz ishora bo‘lsa, men bu ishni yoqib yuborgan, bu bema’ni «teatr»ga barham bergen bo‘lardim».

Faxriddin xatni o‘qib, tepasida qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, «uzr, aka, shunaqa gaplar» deganday serrayib turgan tergovchiga tikildi. U sobiq rahbarining bosh irg‘ab, «tushunarli, shuyog‘igayam shukur» demoqchiligin anglaganday bo‘ldi.

Shu payt eshikni taqillatmasdan ham xonaga Xavfsizlik xizmatidan yuborilgan «qorovul» kirib keldi.

— Hammaga salom! — dedi u qandaydir bepisandlik bilan. — Meni sog‘inib qolmadinglarmi?

— Aka, bugun sal kechikib qoldingiz, xavotir olib turgandim, — dedi tergovchi o‘zini qo‘yarga joy topolmay.

Faxriddin joyidan qimirlamay, yuzini teskari burdi. Ichida «ko‘zim uchib turgandi!» deb qo‘ydi.

— Ha, bugun sal ishlar chiqib, ushlanib qoldik... Bitta muttaham «krepkiy oreshek»ni qo‘lga oldik. Shunaqangi ziqna, xasis, ichi qora odam bo‘ladimi? O‘ndan ortiq zapravkasi, qanchadan qancha mol-mulki bo‘la turib, bitta gaz zapravkangni davlat manfaatiga topshir desa, yo‘q deganmish-a! Ana endi tushini suvga aytsin! Bor davlatidan ajralib, qulog‘ini ushlab, «borsa kelmas»ga<sup>1</sup> ravona bo‘ladi. Odamlarga hayronman. Yaxshilikni tu-shunmaydigan bo‘lib qolishgan. Ha, shu bitta zapravkangi bersang, davlating kamayib qolarmidi? Qolgani senga kamlik qilmasdi! O‘zing tugul bola-chaqang, nevara-che-varingga ham yetib-ortardi! Shunaqa qo‘li uzun, g‘amxo‘r «okaxon»larning panohida maza qilib, davr-u davron surmaysanmi? Yoningga onasi o‘pmagan huriliqolarni to‘plab, bazm-u jamshid qurmaysanmi?

— Ana, ziqnaligi o‘z boshiga yetibdi-ku, — tilyog‘lamalik qildi Rahmatilla.

— Shuni aytaman-da! Qancha manaman degan kimsalar «okaxon»ning e’tiboriga tushish, tanishishga zor bo‘lib yurishibdi! Baxting chopib, senga shunday ulug‘ zotning nazari tushgan ekan, suyunmaysanmi? Davlatingning yarmini oyog‘i tagiga tashlamaysanmi? Shu insomning soyai panohida bo‘lsang, bir yilga qolmasdan boy bergen davlatingni ikki hissa qilib qaytarib olgan bo‘lmasmidng? O‘la, ziqna! Battar bo‘l!

Faxriddin «qorovul»ning gap-so‘zidan yaxshigina kayfi borligini sezdi. Qaysidir kinoda qahramonlardan biring «Ey Xudo, davlatning taqdirini kimlarning qo‘liga topshirib qo‘yding!» degan xitobi yodiga tushdi. Yo Rabbim, qanaqa zamonlarga qoldik! Davlat ishini maynavozchilikka, qonunlarni qandaydir «okaxon»larning erkiga aylantirib olgan bu zo‘ravonlarni qanday to‘xtatish mumkin?

<sup>1</sup> «Jasliq» qamoqxonasi.

Bu ketishda davlat taqdiri nima bo'ladi? Xalqning ahvoli nima kechadi? Yurtning kelajagi nima bo'ladi?

— Xo'sh, bu polvon nima deyapti? — dedi «qorovul» qovog'i osig'liq Faxriddingga nazar tashlab, — haliyam o'sha gapmi?

— Ha, haliyam o'sha-o'sha! Aybini tan olmayapti! — dedi Rahmatilla o'zini aybdorday his qilib.

— Lekin... q-q-o-o-y-i-l-man! — mastlik-rostlik, deganlariday «qorovul»ning jag'i ochilib ketdi, — bu bola ancha toza ekan! Prokuraturada shuncha yil ishlab, hech vaqo orttirmapti-ya! Qoyil qoldim! Yigitlarimiz hamma tomonni ilma-teshik qilib yuborishdi, yo'q, hech narsa chiqmadid! Ishonasizmi, Toshkentdagи uch xonali xususiy lashtirilgan kvartirasidan boshqa hech narsasi yo'q ekan? Shuncha yil Bosh prokuraturada «vajnyak», viloyat prokurori o'rribosari bo'lib ishlagan odamning na bir to'yxonasi, na bir oshxonasi, na bir zavodi bo'lmasa-ya! Hech bo'lmasa, qishlog'ida bitta tovuqkatak ham qurmagan ekan, qoyilmisiz? Faqat jinoyatchilarning orqasidan quvib yuraverган ekan-da! Xa-xa-xa! Endi nima bo'ladi? Qamalib kessa, bolalari qanday kun ko'radi? Besh-olti tanga g'amlab qo'yganda yoki birorta sex-pex qurib qo'yganda, oilasi mayda chaynab, yeb yotmasmidi? Balki prokuror janoblari biz o'ylayotgandan puxtarroqdir? Hamma pullarini Shveysariya bankiga o'tkazib qo'yib, bizni laqillatib yurgandir?

Faxriddin oldinlari churq etmay jim kuzatib o'tiradigan bu odamning kayf ustida aytgan gaplaridan bildiki, ular hammasini tekshirishgan, ammo birorta pichoqqa ilinadigan narsa topolmay, nima qilarini bilmay, boshi qotib qolgan. Hech narsasi yo'q odamning pora olganligiga kim ishonadi? «Aybingni bo'yningga ol!» deb qistashlarining ham sababi shu bo'lsa kerak.

Rahmatilla tashqaridan issiq xonaga kirib, kayfi toborra oshib borayotgan «qorovul»ni yaxshi so'zlar bilan bir

amallab o'rindiqqa o'tqazdi, sal o'tmay xonani uning xur-rak tovushi tutdi...

\* \* \*

Tuni bilan u yonidan bu yoniga ag'darilib, turfa xil xayollar og'ushida o'rtanib, tongga yaqin qotib uqlab qolgan Sanjarbekni qo'ng'iroq ovozi uyg'otib yubordi:

- Assalomu alaykum, eshitaman!
- Assalomu alaykum, Sanjar aka, - narigi tarafdan Aloviddinning ovozi eshitildi, - yigitlarimiz Ergashni izlab, uning Toshkentdag'i o'rtog'i Jalil Jo'rayevning uyiga borishgandi.
- Xo'sh, xo'sh, - sergaklandi guruh rahbari, - Ergashni topishibdimi?
- Yo'q, Ergash u yerda yo'q ekan. Lekin kecha peshinda kelib, mehmon bo'lgan. Jaliuning aytishicha, o'rtog'i qandaydir tushkun kayfiyatda ekan, «ishlarim yurishmayapti, Rossiyaga ketsammikan» deganmish.
- Qachon chiqib ketgan ekan?
- Soat uchlarda chiqib ketgan.
- Qayerga borishini aytmadimikan?
- Aytmagan, Jalil aka «Uyiga ketgandir-da, qayoqqa ham borardi», depti.
- Qo'lida biror narsasi bormikan? Balki o'sha yerdan Rossiyaga surib yubormoqchi bo'lgandir.
- Yo'q, qo'lida safar xaltasi bo'lman.
- Unda, balki kechasi uyiga qaytib kelgandir?
- Yo'q, yigitlarimiz uyi atrofida kuzatib turishibdi, - dedi Aloviddin bo'g'iq tovushda. Uning kechasi uklamaganligi ovozidan sezilib turardi.
- Shunaqa deng, - Sanjarbek biroz o'ylanib turib, gapida davom etdi, - unda tezda transport militsiyasidagi hamkasblaringiz orqali uning samolyot yoki poyezdga chipta olganligini aniqlash, to'xtatib qolish choralarini

ni ko'rish lozim. Barcha chegara postlarini ogohlantirish kerak. Shundoqqina oyog'imiz ostidan qochib ketsa, juda xunuk ish bo'ladi-da!

- Tushunarli!
- Telefoni hamon o'chiqmi?
- O'chiq, o'chiq bo'lgandayam, bir yo'la elektr manbai olib qo'yilgan. Pelengatsiyasini ham olishning imkoni yo'q.
- Oxirgi marta kim bilan qo'ng'iroqlashgan?
- O'rtog'i Jalilnikiga kelishdan oldin unga qo'ng'iroq qilib, uydami-yo'qligini bilgan, yana ishxonasidan kim bilandir gaplashgan... Shundan keyin telefon ishlatmagan.
- Aloviddin Istamovich, Ergash Toshkentda yana qayerlarga borishi mumkin?
- Sanjar aka, to'g'risi, hali uning yaqinlari doirasini aniqlaganimiz yo'q. Xotini, qarindosh-urug'larini so'roq...
- Yaxshi, biz hozir ishni shundan boshlaymiz! Siz yigitlarga aytинг, har ehtimolga qarshi Jalilni prokuraturaga olib kelishsin, o'zim so'roq qilmoqchiman... Bo'pti, ishxonada uchrashamiz, – Sanjarkbek telefonini o'chirib, stol ustiga qo'yar ekan: «Obbo shayton-ey, obbo muloyim-xunug-ey, shundoqqina kiprigimiz soyasida turgan ekan, nahot hammamizni devor suyatib ketgan bo'lsa!» deb qo'ydi. So'ng tezda kiyinib, mehmonxona oshxonasida nonushta qilgan kishi bo'ldi. Orada u Rahimjonga qo'ng'iroq qilib, Ergashning xotinini ham so'roqqa keltirishni tayinlashni unutmadi...

Ergashning xotini – Risolat qotmadan kelgan, ellik-ellik besh yoshlardagi tilli-jag'li ayol ekan. Tergovchilarining bir savoliga o'n javob qaytaradigan bu so'zamol xotin qisqa muddatda erining bor «siri»ni «oshkor qilib», ustidan bir dunyo mag'zava ag'darishga ulgurdi. Boshida «mayli, gapirsa gapirsin, ichidan biror nafi tegadigani chiqib qolar» degan umidda ayolga bermalol so'zlashga izn bergan

tergovchi bu turishda kuni besamar o'tib ketishini payqab, ayolni chegaralamasa bo'lmasligini fahmladi:

- Risolat opa, sizdan iltimos, faqat berilgan savollarga qisqa va lo‘nda qilib javob bersangiz.
  - Jonim bilan, so‘rayvering, qoqindiq. Sizlar ham davlatning odami.. bekorga chaqirmaysizlar-ku! O‘zi ham mani so‘rayotgan ekansizlar, meni nega chaqirmadi, deb o‘ylanib...
    - Ayting-chi, eringiz qayerga ketishi mumkin? – mud-daoga ko‘chdi tergovchi.
    - «Toshkentga aylanib kelay», degandi. Yurgandir-da, sang‘ib...
    - Kecha uyga kelmabdi, xavotir olmadingizmi?
    - Nimasidan xavotir olaman, qiz bolamidi? Ishi bitsa, qaytib keladi, go‘rga borarmidi!
    - Oldin ham shunaqa bir-ikki kunlab yo‘q bo‘lib ketish odati bormidi? – gal dagi savolni berdi tergovchi guvohning gaplaridan hayron bo‘lib.
    - Har zamonda shunaqa bo‘lib turadi. Men Chinozning qiziman. Xo‘jayinning tagi Farg‘onaga qadaladi. Ularda «bir o‘ynab kelay» deb chiqib ketish odati borkan-ku! Qondan o‘tgan bo‘lsa kerak-da!
      - Farg‘onadan bu yerga qanday kelib qolgan?
      - O‘zi Yallamada tug‘ilgan. Qaynotam rahmatli elli-ginchchi yillarda oilasi bilan ko‘chib kelishgan ekan. Ular xo‘jayin yosh payti o‘tib ketishgan. Keyin u kishini amakilari Farg‘onaga olib ketishgan. Sal esini tanigandan keyin yana kindik qoni to‘kilgan qishloqqa qaytib kelgan...
      - Farg‘onadagi qarindoshlari bilan hozir ham aloqasi bormi?
      - Amakilari qolgan, to‘y-ma’rakada borib-kelib turi-shadi. Boshqa payti kimam o‘zidan ortib...
      - Ergash aka hozir Farg‘onaga, qarindoshlarinikiga ketgan bo‘lishi mumkinmi?

- Yo‘g‘-e, Farg‘onada pishirib qo‘yibdimi? «Toshkentga boraman», degandi-ku.
- Eringiz ishlaydimi?
- Ha, ishlaydi, – dedi ayol ko‘zlarini katta-katta qilib, – ishlamasa kim boqadi? Baliqchiлик xo‘jaligida smenda turadi – qorovul.
- Nega u kishini «Ergash traktorchi» deyishadi, nima bu, laqabmi?
- Ha, xo‘jayin bir umr traktor haydagan. O‘tgan yili Sodiq birgad he yo‘q, be yo‘q, minib yurgan yap-yangi traktorini olib qo‘ydi...

Sodiq ismini eshitib, tergovchilar bir-biriga ma’noli qarash qildilar. Ayol esa hamon chakagi-chakagiga tegmay javrardi:

– Odamlaram toza noinsof bo‘lib ketgan-da! Bir mahallaning odami bo‘lsa, bu tomoni qo‘schnichilik! Qilgan ishi begonanikidan battar! Mana, Xudo bor ekan-ku! O‘zigayam ko‘rsatib qo‘ydi. Bo‘y yetib turgan bolasi mashinasi bilan yo‘qolib o‘tiribdi! Na o‘ligi, na tirigi bor, tava ba qildim! O‘sha paytlari xo‘jayin bechora yomon ahvolga tushdi. Ikki oylar o‘ziga kelolmay, odamlarga qo‘shilolmay ezilib yurdi! Erkak kishining uyda o‘tirib qolishini aytin! Boshqa kasb qo‘lidan kelmasa... Yaxshiyam, akam yoniga olib, ishli bo‘p qoldi.

– Sodiq brigadir nega traktorni undan olib qo‘ygandi? Biror sabab bo‘lgandir? – Rahimjon gapga qo‘shildi.

– Kasal bo‘lib qolganda bir kun ishga chiqmagan mish. Shuni bahona qilishdi. Shuyam gapmi? Aslida niyati boshqa bo‘lgan. Traktorni qaynisiga olib bermoqchi bo‘lgan. Oxiri nima bo‘ldi, u alkash traktorni daraxtga urib, yo‘q qildi... Xo‘jayin shu texnika o‘lgurga qancha xarajat qilgandi, tig‘ tegizmasdan minib yurardi...

– Keyinchalik Ergash aka Sodiq brigadir bilan yaraшиб olishdimi? – so‘rashda davom etdi Rahimjon.

– Nima, ular urishganmidi? – ayolning qoshlari chimirildi.

– Turmush o‘rtog‘ingiz rosa xafa bo‘lganini aytdingizku!

– To‘g‘ri, ichida bo‘lari-bo‘ldi. Lekin sirtida birovga diydiyo qilganini eshitmaganman. Sodiq akagayam bir og‘iz «nega bunday qilding?» demadi. Erim kambag‘al bo‘lsayam, oriyati baland... Aytmoqchi, o‘rgilay, nega xo‘jayinni bunchalik so‘rab-surishtirib qoldinglar? Yo bioror ish qilib qo‘yibdimi?

– Bilasiz, hammani so‘rab chiqayapmiz. Shu qatori sizlarni ham...

– Ha, unday bo‘lsa, go‘rga! Bir kasofatni boshladimi, deb qo‘rqib ketibman...

Tergovchilar yana ko‘plab savollar bilan guvohdan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotlarni sug‘urib olishga harakat qilishdi. Ergash traktorchining Farg‘onadagi qarindosh-urug‘lari, Toshkent va Chinozdagi borish ehtimoli bo‘lgan yaqinlariga oid ma’lumotlarni yozib olib, Risolatga javob berishdi.

– Voy-voy-voyey, boshimning qatig‘i chiqib ketdiyov! – dedi Rahimjon boshini qashlab, – Ergash traktorchiga shunday bulbuligo‘yo xotin bilan yashab yurgani uchun haykal qo‘ysa arziydi-ya!

– Gapirmang, – dedi Sanjarbek hamkasbini quvvatlab, – nodon odam bilan suhabat qurishdan azobi yo‘q. Bir rivoyat bor, eshitganmisiz?

– Qanaqa rivoyat ekan? Nodonlar haqidami?

– Eshiting, – guruh rahbari jiddiy masalalarga o‘tishdan oldin «lirik chekinish» qilmoqchi bo‘ldi, – qadim hukmdorlardan biri mashhur allomaga qozilik mansabini bermoqchi bo‘libdi. Alloma uning bu taklifini rad etibdi. Hukmdor bundan qahri kelib, allomani zindonband qilishni buyuribdi. Alloma esa hech bir e’tiroz bildirmay, hukm-

dorga ta'zim bajo keltirib, zindonga ketibdi. Bergan jazosi allomaga zarracha ta'sir qilmaganidan g'azablangan sulton tan jazosi berishniyam o'ylab ko'ribdi. Lekin allomaning sabr-u bardoshi, irodasi metinday mustahkamligini bilgani uchun bu jazo chorasi ham besamar bo'lishini o'ylab, fikridan qaytibdi. O'ylab-o'ylab, oxiri nomi chiqqan bir nodonni hibsga oldirib, allomaning yoniga zindonband qilibdi. Oradan o'n kun o'tar-o'tmay, alloma dod-faryod qila boshlabdi. Hukmdor uni yoniga chorlab, qanday hodisa yuz bergenini bilib tursa ham, hech narsadan bexabarday, «Nima arzing bor?» – deb so'rabi. Alloma ko'zlariga yosh olib yalinibdi:

– Hukmdorim, bir qoshiq qonimdan keching, taklifingizni qabul qilishga tayyorman, faqat meni bu nodon suhbatidan qutqarsangiz bas.

Hukmdor o'zining dono tadbiri ish bergenidan quvoniib, allomani qozilik rutbasiga ko'targan ekan.

– Ajoyib rivoyat ekan! Shu opaga o'xshagani bilan o'n kun emas, bir kun birga qolsang, qulog'ingni qoqib, qo'lingga berishi tayin.

– Demak, Ergash Barnoning otasi Sodiq bilan adovatda bo'lgan, – gapni boshqa yoqqa burdi guruh rahbari, – ishdan bo'shatib, traktorini tortib olganidan alamzada bo'lib yurgan. Qulay vaziyatni kutgan...

Eshik ohista taqillab, xonaga og'zi qulog'ida Jo'raboy kirib keldi:

– Uyqu nimaligini bilmas ustozlarga alangali salomlar!

– Ha, Jo'ravoy, ertalabdan kayfiyatları a'lo, lotoreyalariga yutuq chiqdimi deyman! – piching aralash hazil qildi Rahimjon.

– «Kayfiyatning a'loli - donolikning belgisi», degan ekan mashoyixlar. Sizlardek mohir tergovchilar bilan bir

safda bo'lish biz uchun eng katta yutuq-da! Shu kunlarda o'zimni Sherlok Xolmsday his qilayapman...

– Xo'sh, janob Sherlok Xolms, qayerlarda bo'ldingiz, nimalarni ko'rdingiz? – Sanjarbek bu sodda, beg'ubor, ayni paytda, aqliy yigitning shunaqangi hazilomuz gaplari ni yoqtirib qolgandi. – Kayfiyatizingizning chog'ligi faqat donolikka da'vogarlikda emasdir, nimaningdir tagiga yetgan ko'rinasiz, adashmasam.

– Ha, Sanjar aka-yeys, zehningizga qoyil, devorning orqasidagi narsaniyam ko'rasiz-a! – iljaydi ta'labasi. – Men bergan topshirig'ingiz bo'yicha Chinozdagi, Yallamadagi kirakashlar, taksichilar bilan gaplashib chiqdim. Ularni gapga solish uchun «Yallamalik bir kishidan mashinamga arzon narxda ehtiyyot qismlar olgandim, u kishi telefonini bergandi, «yana kerak bo'lsa, qo'ng'iroq qilasan» degandi. Baxtga qarshi telefon raqamini yo'qotib qo'ydim, oti Ergashmidi-yeys, ishqilib, shunga o'xshagan edi», deya «ertak» to'qidim. Chinozlik bitta taksichi bundan bir-bir yarim oy avval Yallamada Ergash traktorchinikidan Sergelidagi mashina ehtiyyot qismlar bozoriga katta-katta qoplar da ancha-buncha narsa ortgandim, deb qoldi...

– U Ergash traktorchini tanirkanmi?

– Ha, tanirkan. Qayerdan tanishini so'rash yodimdan chiqibdi. Lekin traktorchining uyini aniq ko'rsatib berdi.

– O'sha odam hozir qayerda? – dedi guruh rahbari ko'zlar uvonchdan chaqnab.

– Tashqarida turibdi... har ehtimolga qarshi...

– Nimaga qarab turibsiz, tezda chaqiring uni!

Jo'raboy otilib chiqib, o'ttiz besh-qirq yoshlardagi baqaloqqina, ko'rinishidan sodda va beziyon yigitni boshlab keldi:

– Bu kishi Omon aka, – tanishtirdi Jo'raboy, – o'zi baliqchilik xo'jaligidagi ishlaydi. Ishdan bo'sh paytlari tirikchilik deganday... u yoq, bu yoqqal kirakashlik qilarkan...

Guruh rahbari guvohga joy ko'rsatib, hol-ahvol so'ragan bo'ldi. So'ng sabri chidamay, muddaoga ko'chdi:

– Omon aka, Siz Ergash traktorchini qayerdan taniyisiz?

– U kishi bizning ribxozda qorovul bo'lib ishlaydi, – gavdasiga yarashmagan muloyim tovushda javob berdi Omon, – men ham baliqchilik xo'jaligida oddiy ishchiman. Ishdan ertaroq chiqqan kunlarim benzin puli chiqsin deb, shu atrofda kira ham qilib turaman...

– Ergash traktorchinikidan Toshkentga – Sergeli mashina ehtiyyot qismlari bozoriga yuk olib borgan ekansiz, shu haqda batafsilroq gapirib bersangiz.

– Nima, o'g'irlangan mollar ekanmi? – dedi guvoh kapalagi uchib, – manovi bola «telefon raqamini yo'qotib qo'ydim, yana mashinamga ehtiyyot qismlar olmoqchi edim» degani uchun aytgandim... og'zim bo'shlik qilib...

– Omon aka, siz xavotir olmang, – Sanjarbek guvohni cho'chitib yubormaslik uchun muloyimlik bilan gapirdi, – biz bir ishni tergov qilayotgandik, shuning uchun ayrim narsalarga oydinlik kiritmoqchimiz, xolos. Siz ko'rgan narsangizni aystsangiz bo'ldi.

– Nima, Ergash aka biror...

– Hozircha hammasi joyida! Siz o'sha kuni nima bo'lganini aytib bersangiz, bas, – dedi Rahimjon sal ovoz tonini oshirib.

– Bundan taxminan bir oylar oldin... aniq kuni yodimda yo'q... Ergash aka ishxonada meni ko'rib qolib, «Omonjon, ertaga Toshkentga bozorga bir-ikkita ortiqcha narsalarni chiqarmoqchi edim, «Jiguli»ngizning tepasida yuxxonasi bor-a?» deb so'rab qoldi. Men «bizning toychoq qancha yuk desangiz ko'taradi, puliga chidasangiz bo'ldi», deb hazillashdim. U kishi: «Ot bilan, tuya bo'larmidi, el qatori beraman-da», – dedi. Ertasi kuni kelishilgan paytda to'g'ri uyiga bordim.

- Siz Ergashning uyini bilarmidингиз? – aniqlik kiritdi tergovchi.
  - Avvalari ham ikki-uch marta uyiga tashlab qo‘ygan-dim.
  - Xo‘sh, keyin-chi, keyin nima bo‘ldi?
  - U kishi yuklarni o‘rab-chirmab, ketishga hozirlab qo‘ygan ekan. Molni mashinaning yukxonasiга, saloniga, tepasiga joylab, Toshkentga jo‘nadik. Sergelidagi mashina ehtiyyot qismlari bozoriga olib bordim. U kishini tashlab, o‘zim qaytdim...
- Yigit «bor gap shu» deganday mo‘ltirab tergovchilarga qaradi.
- Yuklarni qayerda ortdingizlar? Siz mashinangizni Ergashning hovlisiga kiritdingizmi yoki yuklar tashqarida turgan ekanmi?
  - Yo‘q, hovlisiga kirmadik. Hovlining chap biqinida garajxonasi bor ekan. Mashinani to‘g‘ri garajga haydab, yuklarni o‘sha yerdan ortdik.
  - Sizni Ergashning uyidagilardan birortasi ko‘rdimi?
  - Qayerdan ko‘radi, garajning eshigini shunday ochdi, ichkariga kirdik, yuklarni ortdik, orqamizga qaytdik...
  - Mashinaga ortgan yuklaringiz nimalar edi? – so‘radi tergovchi.
  - Ergash aka «traktorning eski-tuski ehtiyyot qismlari» degandi. Oldin traktorchi bo‘lgan ekan...
  - Qanaqa ehtiyyot qismlar edi? Siz ularni ko‘rdingizmi?
  - Qanaqaligini qaydan bilay? – dedi Omon «qaydan-nam senlarga «ko‘rdim» dedim» deganday. – Temir-ter-saklar xaltalarga solinib, og‘zi boylangandi. Ikkovlashib, bazo‘r ortdik, zilday ekan. Bitta akkumulatorni salonga – oyog‘ining ostiga qo‘ydi. Ikkita shinani tepaga ortdik.
  - Akkumulator traktorniki edimi yoki yengil mashina-niki?
  - «Traktorniki» deb aytdi, dedim-ku!

- Ergash shunday degan. Lekin siz o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rganizingiz, qanaqa akkumulator edi?
- Shunisiga e’tibor qilmabman, ustki qismiga nimadir o‘ralgandi, lekin unaqa katta emasdi.
- Shinalar-chi? Ular nimaniki edi?
- Ular ham qoplarga solingandi. Ko‘rinishidan traktorniki edi-yov! Yana bilmadim. Ergash aka traktorniki deganiga menga shunday tuyuldimi, hozir esimda yo‘q.
- Bozorda sizlarni biror kishi kutib oldimi? – tergovchi boshqa tomondan «hujum»ga o‘tmoqchi bo‘ldi.
- Yo‘q, hech kim kutib olgani yo‘q. Men bozorning oldiga borganda mashinani to‘xtatdim. U kishi aravakash chaqirib, yuklarni ortdi. Men izimga qaytdim.
- Yo‘l-yo‘lakay nimani gaplashib ketdinglar? – so‘radi Rahimjon. Savoli sal g‘aliz chiqqanini fahmlab, qo‘srimcha qildi, – Ergash traktori xususida nimalarni gapirgandi?
- Kecha nima ovqat yeganim esimda yo‘q, nimani gaplashganimiz yodimda qolibdimi? Xo‘jalikda ko‘p yillar traktorchilik qilgan ekan... keyin boshliqlar traktorni undan olib, bir qarindoshiga bergen ekan... shularni gapirgani esimda... Nima gap, aka, u biror ishkalga aralashib qolganmi?

Tergovchilar guvohga javob berib, vaziyatni muhokama qilishga kirishdilar:

- Traktorchi odamga mashinani bo‘laklab tashlash qiyin ish emas, – fikr bildirdi Rahimjon, – menimcha, bu odam Sodiqning qilgan ishidan darg‘azab bo‘lib, payt poylab yurgan. Undan o‘ch olishni diliiga tukkan. O‘scha kuni Barno Chinozdan qaytishda yo‘lda hamqishlog‘ini ko‘rib, mashinasini to‘xtatgan. Shunda Ergash dushmanidan qasos olish uchun bundan qulay fursat bo‘lmasligini anglagan. Ota-onaning eng nozik joyi – farzand. Sodiqning o‘zini o‘ldirsa, osongina qutuladi-ko‘yadi! Ammo

bolasini o'ldirsa, farzand dog'ida adoyi tamom bo'ladi! Shularni reja qilib, Ergash mashinada o'zini hech kimga ko'rsatmaslikka, ko'zga tashlanmaslikka harakat qilgan. Barno ozroq benzin topib kelib, mashinani yurgizgan. Hamqishlog'ining «biznikiga hayda, benzin to'ldirib beraman» degani yosh bolaga moyday yoqib tushgan. Traktorchi odamda bunaqa narsalar hamisha zaxirada bo'lishini hamma yaxshi biladi. Hech narsadan bexabar bola mashinani to'g'ri Ergashnikiga qarab haydagan. Idishdan benzin quyish bahonasida mashinani to'g'ri garajga kiritishgan... Keyin nima bo'lgani hammamizga kundai ravshan!

— Ayrim bo'shliqlarni inobatga olmaganda, taxminlaringiz chakki emas, — «hujum»ga tayyorlandi Sanjarbek. — Birinchidan, guvohlarning ko'rsatmasi bo'yicha, Barnoning mashinasida o'tirgan «sirli» yo'lovchi yoshroq kishi bo'lgan. Uning jussasi ham Ergashnikidan ancha farq qilayapti. Ikkinchidan, traktorchi mashinani qismlarga bo'lib, ehtiyyot qismlarni bozorga chiqarib, sotib yuborgan bo'lishi mumkin. Lekin mashinaning raqamlangan ramasini, motorini garajdan chiqarishning ham, sotishning ham imkoni yo'q. Tezkor tadbirlar davomida boshqalar qatori Ergashning ham garaji ko'zdan kechirilganda, bunaqa narsalar topilmagan.

— Uchinchidan, — gapga aralashdi Jo'raboy, — uchta qotillikni imi-jimida uddalagan shaxsning jinoyat qurolini ko'chadan kirakash chaqirib, uyidan olib chiqishi mantiq-sizlik emasmi? Ortiqcha guvohning unga nima hojati bor edi?

— Javob beraman, — Rahimjon xuddi o'qituvchi oldida javob berayotgan o'quvchiday dona-dona qilib gapirishga tushdi, — birinchi savolga — guvohlar adashgan bo'lishi mumkin. Negaki, guvohlar Ergashning mashinada o'tirganini ko'rishgan, qorong'i bo'lgan. Balki qotil sezdirib qo'ymaslik, guvohlarda noto'g'ri tasavvur uyg'otish

uchun ataylab o'rindiqqa cho'kib, bukchayibroq o'tirgan bo'lishi ham mumkin. Ikkinchı savolga – Ergash texnikaning piri ekanligini unutmaslik kerak. U mashinani bo'laklab, zarur ehtiyot qismlarni bozorga chiqargan. Tashlab yuborishga ko'zi qiymagan. Pul kimga kerak bo'lmaydi? Mashinaning motori, ramasini esa svarka yordamida maydalab, tashqariga chiqarib, biror joyga ko'mib yuborgan yoki metalloломга topshirib yuborgan. To'g'rirog'i, avval ramadan qutulib, keyin ehtiyot qismlarni sotishga o'tgan. Negaki, Omon garajga kirganda mashinaning ramasi u yerda bo'lмаган. Uchinchi savolga – ehtiyot qismlardan tezroq qutulish uchun unga texnika kerak. Omordan iltimos qilishga majbur bo'lган. Negaki, Omon boshqa qishloqdan, g'irt begona ham emas, birga ishslashgan. Asosiysi, uni ehtiyot qismlar traktorniki ekanligiga ishontira olgan.

– Yaxshi, ancha ishonarli gapirdingiz, – guruh rahbari hamkasbini rag'batlantirib qo'ydi. – Xo'sh, Barnoning o'limi motivi tushunarli – o'ch, qasos! Traktorchiga Nuriddinni o'ldirish nimaga kerak bo'lган? Agar har uchala jinoyat bir shaxs tomonidan sodir qilingan deb hisoblaydigan bo'lsak, Mo'minjonni nega o'ldirgan? Shu mushtdaygina bolada nima qasdi bo'lган? Shularga javob topolmay qiynalayapman.

– Sanjar aka, hayotda nimalar bo'lmaydi, – maqtovdan ruhlanib ketgan Rahimjon mantiqiy mulohaza yuritishda davom etdi, – kechagacha xotini aytmaganda Ergashning Sodiq bilan ixtilofi borligini bilmagandik. Hozir odamlar ham juda befarq bo'lib ketgan, desam sal nohaqlik qilgan bo'laman. To'g'rirog'i, ehtiyotkor bo'lib ketgan. Bilgan narsalarini ham aytishdan cho'chib qolgan. Bildim dedim – tutildim, bilmadim dedim – qutuldum, qabilida ish tutishadi. Aslida ularni ham ayblab bo'lmaydi. Qo-

nunlarimizda u bechoralarning na huquqi, na xavfsizligi kafolatlangan!

Yigitlar gap bilan ovora bo'lib, eshikdan izquvarlar boshlig'i kirib kelganini ham sezmay qolishdi.

– Aloviddin Istamovich, Ergash traktorchini tez-roq topmasak bo'lmaydi. Hamma gumonlar unga qarab yo'nalmoqda, – guruh rahbari izquvarni bugungi tergov tafsilotlari bilan batafsil tanishtira turib – sizda nima gaplar? – deya so'radi.

– Ergash borishi mumkin bo'lgan joylarning deyarli hammasi ko'rildi. Hamkasblarimiz orqali Farg'onadagi qarindoshlarining manzillariga ham yigitlar kirib chiqishdi. U yodqa ko'rinnagan. Hozircha chegara postlari orqali mamlakatdan chiqib ketganicha yo'q. Agar nolegal yo'llar bilan Qog'oziston, Qirg'iziston yoki Tojikistonga chiqib ketmagan bo'lsa! Barcha ichki ishlar bo'limlari, shifoxonalar, vaqtincha saqlash muassasalariga so'rovnomalar yuborildi. Traktorchining farzandlari, qarindosh-urug'lari bilan gaplashildi. Ular ham hayron, biror joyda ishi chiqib qolgan bo'lsa kerak-da, erta-indin kelib qolar, deyishmoqda. Telefon qo'ng'iroqlari tarixi, pelengatsiyasi tahlil qilinmoqda. Ergashning katta o'g'li Moskvada ishlarkan. U bilan ham gaplashdik, «Kelmadi», dedi. Ha, darvoqe, Ergash Nuriddin yo'qolgan kuni ham, Mo'minjon yo'qolgan kuni ham uyida bo'lgan, har holda, telefoni uyda bo'lgan. Lekin yaqinlarining aytishi bo'yicha, ko'pincha, qo'l telefonini uyida qoldirib ketadigan odati bor ekan. Barno yo'qolgan kuni uning qayerda bo'lganligini telefon pelen-gatsiyasi bo'yicha aniqlashning imkonini bo'lmedi. Lekin...

– Xo'sh, xo'sh, – Sanjarbek muhim bir yangilik eshitadiganday, hamsuhbatiga umidvor tikildi.

– Anya opaning aytishicha, o'sha atroflarda yakshanba kuni Ergash unikiga borgan, ammo qaysi yakshanba ekanligini aniq eslolmayapti.



- Har holda, yakshanba ekanligini eslabdi-ku, bu qanday yodida qolgan ekan.
  - Chunki har yakshanba qizi uni ko‘rishga kelar ekan. O‘sha kuni qizini kuzatib, dasturxonni yig‘ishtirayotgan payti Ergash borib qolgan ekan.
  - Anyaning qizi nima deyapti?
  - Undan tayinli gap olib bo‘lmadi.
  - Aloviddin Istamovich, Anya opa bilan o‘zim gaplashib ko‘rsam degandim, – SanjARBek «shuniyam eplmapsiz», degan ma’no chiqmasligi uchun muloyimlik bilan gapirdi.
  - Muammo yo‘q, aytaman, hozir olib kelishadi, – izquvar qo‘l telefonidan yigitlariga topshiriq berdi.
  - Yigitlaringizdan birini Toshkentga Sergelidagi mashina bozoriga yuborsangiz, – ko‘rsatma berishda davom etdi guruh rahbari. – Ergashning yuklarini ortgan aravakashni topishsa, u yuklarning kimga topshirilganligini aniqlashga yordam qilgan bo‘lardi. Shu bilan birga, Toshkent shahriga borishdagi «GAI» postlarida Omonning mashinasi videotasvirga tushgan bo‘lishi mumkin. Tasvirlar bizga ko‘p narsaga aniqlik kiritishga yordam berardi...
  - Darvoqe, Rahimjon, – SanjARBekning xayoliga bir narsa keldi, shekilli, sheri giga yuzlandi, – anovi Barno ning mashinasiga fara qo‘yan ustani yaxshilab so‘roq qilib, faraga qanaqa belgi qo‘yanligini aniq bilish kerak. Agar mashina bozorda Ergash topshirigan ehtiyyot qismlar sotilib ketmagan bo‘lsa, ustani tanib olishga taklif qilish lozim.
- Shu payt eshik taqillab, izquvarlardan biri xonaga ellik yoshlar atrofidagi to‘ladan kelgan, tatar ayollarga xos kiyinib olgan opani boshlab kirdi.
- Anya opa, keling o‘tiring, – dedi SanjARBek mulozamat bilan.

Ayol tergovchi ko'rsatgan stulga o'tirib, xonadagilarga birma-bir qarab chiqdi:

– Nima gap, aylanay? Tinchlikmi? – dedi u sof o'zbekchada jindek tatarcha talaffuz bilan.

– Opa, Ergash aka to'g'risida so'ramoqchi edik, – guruh rahbari muloyimlik bilan gap ochdi, – siznikiga teztez kelib turarmidi? Qachon tanishgansizlar?

– Tushunmayman, aylanay, nega hammang uni so'rab qoldinglar? Ergash biron ish...

– Hammasi joyida, shunchaki tekshirayapmiz – tergovchi guvohni tinchlantirishga harakat qildi, – siz gapi-ravering.

– Uch-to'rt yil bo'ldiyov, Toshkentdan kelishda yo'lda tanishib qolgandik. Narsalarimni ko'tarishga yordamlash-gandi... Qizim alohida turadi. Bir o'zim yashayman. Ergash qo'li gul erkak ekan. Uydagi santexnika ishlari bo'ladimi, elektr uskunalari bormi, birpasda joy-joyiga qo'yib tashlaydi. Oyiga bir-ikki marta kelib, holimdan xabar olib turadi... Qizimgayam aytganman...

– O'tgan oyda yakshanba kuni siznikiga borgan kun yodingizdami? O'sha kuni qizingiz ham kelib-ketgan ekan.

– Kecha kimdir so'ragandi, aytgandim-ku! – ayol at-rofga alanglatdi.

– Kecha biz so'ragandik, aniy! – dedi izquvarlar boshlig'i opaning xavotirini bosish uchun, – o'sha gap-larni yana bir boshidan aytib beravering.

– Ayt desanglar, aytaveraman, – ayol tomoq qirib, so'zini davom ettirdi. – Qizim har dam olish kuni meni ko'rishga keladi... Osh qilib qo'ygandim. Ona-bola maza qilib ovqatlandik. Keyin qizim bolasini tish doktoriga olib borishi kerak ekan, shoshib uyiga ketdi. Men dasturxonni yig'ishtirib, idish-tovoqlarni yuvmoqchi bo'lib turgandim, Ergash kirib keldi... Gaplashib o'tirdik... Dazmolim bu-

zilgandi, uni tuzatdi... Televizorning antennasini sozladi... Kechki payt uyiga ketdi.

- Sanasini eslay olasizmi?
- Bizlarda es qoptimi, aylanay! Bozor kuni edi... qaysi bozor, bu yog'i Ergashning yodida qolmagan bo'lsa, bilmadim... Qizimdan ham so'rab ko'rdim, u ham eslolmadim... Oradan shuncha vaqt o'tib ketgan bo'lsa!
- O'sha kuni qizingiz «o'g'limni tish doktoriga olib boraman» deb shoshib ketgan ekan...
- O'g'lining emas, qiz nevaram – Hanifaning tishi og'rigandi, shunga shoshibil...
- Qizingizning ismi nimaydi?
- Abiba, nimaydi? Uniyam chaqirasizlarmi? – dedi ayol ko'zlarini katta-katta ochib.
- Chaqirishimiz shart emas, telefon raqamini bersangiz, gaplashib olardik.

Ayol sumkasidan telefonini chiqarib, kovlay boshladı. Kerakli raqamni topib, telefonini tergovchiga uzatdi:

- Mana, «dochka uy» deb yozilgan.
- Sanjarbek telefon raqamini yozib olib, xizmat telefonidan terishga tushdi:
  - Assalomu alaykum, Abibaxon, yaxshimisiz? Men tergovchi Sanjar Rahmonovman.
  - Salom... tergovchi... tinchlikmi? – narigi tarafdan ayol kishining hadikli ovozi eshitildi.
  - Telefon raqamingizni onangiz – Anya opadan oldik. Bir masalada yordamingiz kerak bo'lib qoldi.

Ayol «yordam» so'zini eshitib, biroz dadillanganday bo'ldi:

- Mayli, yordamim tegsa...
- Siz o'tgan oyda onangiznikiga borgan paytingiz, qizingiz Hanifaning tishi og'rib, doktorga olib borgan ekan siz. Qaysi doktorga olib borgandingiz? Doktorning kvitaniyasi saqlanib qolganmi?

– To‘g‘ri, lekin buning sizlarga nima qizig‘i bor? – Ayolning taajjubi oshdi, – yo doktor... bizning unga hech qanday e’tirozimiz...

– Yo‘q, yo‘q! Bu ishning doktorga umuman aloqasi yo‘q. Biz boshqa masalada... Agar doktor bergen kvitansiya saqlanib qolgan bo‘lsa... bir qarab ko‘rasizmi?

– Hozir... qayergadir qo‘ygandim, – ayol go‘sakni qo‘yib, qog‘ozni axtarishga tushdi. Biroz muddat o‘tib, u yana go‘sakni ko‘tardi, – mana topdim, to‘lov qog‘ozini... nima qilay?

– Abibaxon, to‘lov qog‘ozining berilgan sanasiga qarang-chi, nechanchi sana ekan?

– Hozir, – ayol to‘lov qog‘ozidagi yozuvlarni ovoz chiqarib o‘qiy boshladi, – «Doktor Aybolit»... xususiy stomatologiyasi... 15.04.2010-yil... 243-raqam...

– O‘n beshinchi aprel sanasida berilgan ekan, shundaymi?

– Shunday... shunday... O‘n beshinchi aprel kuni borgandik... esimga tushdi... Bir kun oldin qizim muzday kola ichib, tishi og‘rib qolgandi. Kechasi bilan azob bergandi. Ertalab o‘qishgayam borolmay uxlاب qolgandi. Shuning uchun peshindan so‘ng plomba qo‘ydirishga do‘xtirga olib borgandim...

– Sizga rahmat, katta yordam qildingiz, – shoshildi tergovchi.

– Arzimaydi... lekin bu sizlarga...

– Xavotir olmang, hammasi joyida, rahmat! – Sanjarbek go‘sakni qo‘yib, stol ustidagi kalendarga qaradi, – o‘n beshinchi aprel... yakshanba ekan.

– Hammasi to‘g‘ri kelayapti, – ta’kidladi Rahimjon.

– Anya opa, yaxshilab eslab ko‘ring, Ergash o‘sha kuni soat nechada siznikidan chiqib ketgandi?

– Olti-olti yarimlar... kechi bilan yettilar atrofida chiqib ketdi-yov. Dazmol o‘lgurni tuzataman deb biroz unnab

qoldi. «Kechki payt taksilar yurmay qo‘yadi», deb shoshi-lib chiqib ketdi.

- Uyiga ketdimi? Yoki boshqa joyga bormoqchimidi?
- Kechasi qayerga boradi, aylanay, uyiga ketdi...
- Ergash kecha ertalab siznikiga kirgan ekan, nimalar degandi, kayfiyati qanaqa edi?
- Bunaqa kallai saharlab hech kelmasdi. «Toshkentda ishim bor edi, bir xabar olib o‘tay dedim-da», dedi. Menam nima ish deb so‘ramabman. «Ertaroq chiqsam, qaytishda kiraman», deb ketdi. Lekin kelmadi. «Kechroq chiqqan bo‘lsa, uyiga ketgandir», degan xayolga bordim...
- Kayfiyati qanaqa edi? – savolni takrorladi tergovchi, – qandaydir tashvishli, qandaydir dardi borga o‘xshab ko‘rinmadimi?
- Yo‘q, kayfiyati hamishagidek edi... Bosiq, og‘ir odamning yuz-ko‘zidan ichidagini bilib olish qiyin... Lekin biror dardi bo‘lganda, menga aytgan bo‘lardi. Indamadi-ku...
- Bir yillar oldin uning traktorini boshliqlar tortib olib qo‘ygan ekan, shu haqda aytganmidi? – tergovchi savol berishda davom etdi.
- Aytgandi, aylanay, aytgandi! – dedi Anya qoshlarini chimirib. – O‘sha paytlari bechora rosa siqilib yurdi. Men bir hisobga yaxshi bo‘libdi, qachongacha traktorning tagida moyga botib yurasiz, – dedim, «Anya, menga tractor jalka emas, nega mendan olib, o‘zining qarindoshiga beradi, zamon zo‘rnikimi?» deb zorlangandi. U traktordan ko‘ra, qadri uchun ko‘proq siqilgandi!
- Rahmat, opa, siz ham katta yordam qildingiz. Yigitlar sizni tashlab qo‘yishadi, – guruh rahbari gapni qisqa qilib, ayol bilansov uqqina xayrashdi.
- Hoy, aylanay bolam, Ergash o‘zi tinchmi? Tani-joni sog‘mi?
- Ketdik, aniy, ketdik, – Aloviddin ayolni qo‘ltig‘idan olib, kuzatishga tushdi, – omonmi-yo‘qmi, topsak bilasiz!

— Voy o'lmasam, Ergash yo'qolib qoldimi? — Ayol shartta joyida to'xtab, yig'laguday bo'lib Sanjarbekka tikelid. — Shu gap rostmi, aylanay?

— Opajon, hozircha hech narsa ma'lum emas, — guruh rahbari izquvarga «sizga shu kerakmidi?» deganday norozi qiyofada qarab qo'ydi. So'ng ayolga qarab: «Xavotir olmang, erkak kishi qayga borardi, biror ish bilan yurgandir», dedi.

— Ishqilib tinchlik bo'lsin-da! Tan-joni sog' bo'lsa... — ayol javray-javray xonadan chiqib ketdi.

Bir muddat xonaga sukunat cho'kdi. Hamma o'z xayoli bilan band edi.

— Xo'sh, janob hamkasblar, bunga nima deysizlar? — jimlikni buzdi guruh rahbari, — marhamat, fikrlaringiz.

— Hammasi ipga tizganday to'g'ri kelyapti, — Rahimjon qandaydir ichki qoniqish bilan gap boshladи. — Ergash kech soat taxminan o'n sakkizdan o'ttiz daqiqalar o'tganda Anyanikidan chiqib, to'g'ri «pitak»ka kelgan. Erta bahor payti pitakda kirakashlar kamayib qoladi. Shu sababli Yallamaga ketadigan yo'lga chiqib, «golosovat» qilishga majbur bo'lган. Soat taxminan o'n to'qqizlarga yaqin Barno o'tib qolgan va yo'l chetida qo'l ko'tarib turgan hamqishlog'ini ko'rib, mashinasini to'xtatgan. Mashinaga chiqqach, Ergashning niyati buzilgan. Eski alamlari qo'zg'ab, dilida vaqt ta'sirida o'chib qolayozgan qasos cho'g'i qaytadan olovlanganday bo'lган. Shuncha yillik mehnatini bir pul qilib, el-yurt oldida qadrini yer bilan yakson qilgan dushmanining arzandası yap-yangi mashinani gijinglatib yursa-yu, u sarsoni chiqib, piyoda yursa! Bundan ortiqadolatsizlik bo'lishi mumkinmi? Olmaning tagiga olma tushadi. O'sha tobda Barno Ergashning ko'ziga Sodiq bo'lib ko'rinish ketgan...

Rahimjon xuddi dahshatli monolog o‘qiyotgan akt-yorday tomog‘ini qirib, ovozini sozlab oldi. Hamkasblari uni berilib tinglayotganini ko‘rib, xuddi hay’at majlisida otashin nutq irod qilayotgan notiq kabi qiroat bilan so‘zini davom ettirdi:

– Chinozdan chiqqanlarida mashinaning benzini tugab qolishi, Ergashga imkoniyat eshiklarini ochganday bo‘lgan. U yovuz niyatini amalga oshirish uchun bundan qulay fursat bo‘lmasligini his qilgan. Ko‘zga ko‘rinmasdan mashinaga qamalib o‘tirishining sababi ham shunda. Barno piyoda borib, yoqilg‘i quyish shoxobchasidan yelim idishta ozroq benzin topib kelgan. U qaytib kelguncha Ergash bolani daf qilib, dushmanidan qanday qasos olish rejasini boshida pishirib qo‘yan. Benzin quyib berish bahonasida mashinani to‘g‘ri garajga haydatgan... Bolani o‘ldirish, jinoyat izlarini yashirish, mashinani qismlarga bo‘lib, yo‘q qilish – hamma-hammasini puxta o‘ylab,sovuvqonlik bilan xamirdan qil sug‘urganday, obi-tobida ado etgan. Hech narsani yoddan chiqarmagan...

– Tahsinga loyiq, juda ishonarli chiqdi! – guruh rahbarining gaplari samimiymi, kinoyami, hazilmi – tushunish qiyin edi. – Faqat... shu choqqacha meni bir savol qiy nab kelayotgandi: Ergash shuncha yillar birga ishlagan brigadirini, qolaversa, hamqishlog‘ini, yanayam aniqrog‘i, ikki devor nari qo‘schnisini bitta traktor bahona shunaqa rahmsizlik bilan jazolashi, bir begunoh bolani o‘ldirib, qo‘lini qonga bulg‘ashi mumkinmi? Hozir o‘ylab ko‘rsam, tajribamda bundan battarlari ham bo‘lgan ekan. Xorazmda sodir bo‘lgan bir voqeа yodimga tushdi. Amakilar, ya’ni tug‘ishgan aka-ukaning farzandlari bir-biri bilan qattiq aytishib qolishadi. Ulardan biri uyiga qaytib kelayotganda, boyagi amakining 8 yoshli qizchasi ko‘chada o‘ynab yurganini ko‘rib qoladi va niyati buziladi. Ko‘pchilikning oldida haqoratlab, qadrini yerga urgan amakidan qasos olish

maqsadida qizchani aldab, ovloqroq joyga olib boradi va shafqatsizlarcha o'ldiradi. Murdani suvgaga oqizib yuborib, birozdan keyin boshqa qarindoshlar qatori bolani izlovchilar safiga qo'shiladi, nadomatlar chekib, amakisiga ham-dardlik bildiradi...

– Menimcha, o'ch, intiqom olish biz sharq xalqlari-ning qonida bo'lsa kerak, – gap qo'shdi Aloviddin.

– To'g'ri, bir paytlar «qonga qon, jonga jon», degan qoida bo'lgan. Ammo unda qasos uchun favqulodda sabab bo'lgan. Ota-bobolarimiz or-nomusini, oila, qishloq, yurt sha'nini himoya qilib, qo'liga qurol olgan. Hozirgiday ar-zimas sabab bilan o'zgalarning qonini to'kish musulmon-chilikdan bo'lмаган... Mayli, gapiraman desang, gap ko'p! Endigi qiladigan ishlar haqida gaplashib olsak. Marhamat, kimda qanday taklif bor?

– Menimcha, Ergashning uyini tintuv qilishning mavridi keldi, – fikr bildirdi Rahimjon.

– To'g'ri taklif! – quvvatladi SanjARBek. – Tayyor-garlik ko'rishga bir soat vaqtimiz bor. Marhamat, kerakli mutaxassislar, kriminalistlar, ekspertlarni jalb qilish choralarini ko'ringlar. Bu xonadonda ancha payt qolib ketsak ajabmas... Agar Rahimning farazi to'g'ri chiqsa, jinoyat-dan qandaydir iz qolgan bo'lishi tabiiy. Gap uni topishda! Bu, albatta, siz-u bizning mahoratimizga bog'liq...

Oradan bir soat o'tib, boshdan oyoq «qurollangan» ter-gov-tezkor guruh Ergash traktorchining uyiga kirib borishi-di. Xona bekasini tintuv o'tkazish haqidagi qaror(sanksiya) bilan tanishtirib, xolislар ishtirokida tintuv boshlandi. Xo-dimlar dastlab uyni, hovli sathini, qo'shimcha binolarni tintib chiqishdi. So'ng hovlining chap biqinida ko'chadan alohida kirish va hovli ichidan chiqish eshigiga ega bo'lgan garajni ko'zdan kechirishdi. Devorlari paxsadan qilingan, pastqamgina binoda kirish-chiqish yo'lagini hisobga olma-ganda, oyoq bosishga joy qolmagan, yo'q narsaning o'zi

yo‘q. Devorlar, alohida temir shkaflarda turli-tuman temirtersaklar, uskunalar, buyumlar, bolt, shrup, gayka, kalitlar, duradgorlik asboblari, eski-tuski ro‘zg‘or anjomlari, elektr jihozlari, ish qurollari, katta-kichik idishlar betartib qo‘yilgan.

– Voy-vo‘y, bu temir-tersaklarni qarang, – dedi Rahimjon garajning o‘rtasida turib, – bu odam o‘ttiz yil davomida birorta narsani ko‘chaga chiqarib tashlamagan shekilli.

– Mashina «traktor parkining omborxonasi» desa bo‘ladi, – dedi guruh rahbari mutaxassislarga «boshlayveringlar» ishorasini qilib.

– Qarang, garajga kirib kelgan mashinani uydagilar sezmay qolishi mumkin, – dedi Rahimjon garajga kirish yo‘liga ishora qilib.

– Ha, garajning hovlidan ayri joylashgani, alohida chiqish joyiga egaligi qo‘l kelgan.

Mutaxassislar shoshilmasdan kattagina garajning har bir qarich joyini chig‘iriqdan o‘tkazdilar, barmoq, oyoq va mashina shinralari izlaridan namunalar olindi. Garajdag‘i predmetlardan murda, uning qismlari va yo‘qotish izlari – suyak siniqlari, muskul to‘qimalarining bo‘laklari bor-yo‘qligi, garajning yeri, tomi, devorlari oralig‘idagi tirkish, kovak, yoriqlarida qon izlari yoki sachragan qon dog‘larini qirib olib tashlash, ko‘chirib olish yoki yuvishga urinish belgilari – yangi bo‘yoq qilingan, ohaklangan, shuvalgan joylari bor yoki yo‘qligiga ahamiyat berildi.

– O‘rtoq tergovchi, buyoqqa bir qaraysizmi? – izquvarlardan biri guruh rahbariga murojaat qildi, – manavi eski shinaning ichida qora yelim xaltada nimadir borga o‘xshaydi.

Hamma o‘sha yoqqa to‘plandi..

– Xolislardan e’tibor qilib turinglar, – dedi SanjARBek xona o‘rtasidagi eski taburetkada o‘tirgan ikki qo‘shni

ayolga qarata. So'ng shkaf ustidagi chang bosgan shinaga termilib turgan tezkor xodimga qarab buyruq berdi, – qani, chiqaring-chi, nima ekan?

Izquvar ehtiyotkorlik bilan shinaning ichidagi qora yel'm xaltachani olib, pastga tushdi va eshik oldidagi temir stolga qo'ydi. Xaltacha unchalik changga belanmaganidan uning shina orasiga nisbatan yaqin kunlarda qo'yilganini fahmlash qiyin emasdi. Tergovchining ishorasi bilan izquvar qo'lqopda barmog'inining uchi bilan xaltachadagi narsalarni chiqarib, avaylab stol ustiga yoyib qo'ydi.

– Yosh bolaning kiyimiga o'xshaydi, – dedi mutaxassis topilmaga zimdan tikilib.

Kiyimchaning old tomonidagi «TOMMY» yozuviga ko'zi tushgan Sanjarbekning yuragi dupurlab urib ketdi va hayajonlanganidan «Bu Mo'minjonning ust-boshi-ku!» deganini sezmay qoldi.

Qolganlar ham xuddi bolaning murdasi ustidan chiqib qolganday bir seskanib, qotib qolishdi.

– Voy, yer yutgur Ergash-ey! – dedi xolislardan biri – keksaroq xotin tili arang kalimaga kelib.

– Shoshmay turinglar, balki boshqanikidir, – dedi ikkinchi xolis stol ustidagi kiyimlarga tikilib.

– Afsuski, bu ust-bosh Mo'minjonniki, – dedi Rahimjon nadomat bilan. – «TOMMY» firmasiga tegishli maykani yaqinda dadasi Moskvadan yuborgan ekan. Bu naqasi kam uchraydi...

Uy bekasi – Risolat garajdan topilgan narsalarning qayerdan kelib qolganidan xabari yo'q ekanligini bildirdi. Qo'shnisining yo'qolgan bolasining ust-boshlari ularga qarashli garajdan topilishi – shu paytgacha beparvo yurgan xotinni dovdiratib qo'ydi, ajin bosgan yuzlari oqarib, o'tirgan joyida toshday qotib qoldi.

– Artistlik qilayapti bu jodugar, – dedi Rahimjon unga nafrat bilan tikilib, – uyida shuncha narsa sodir

bo‘ladi-yu, bu yerning ostida ilon qimirlasa sezadigan shum kampir bexabar qoladimi?

Sanjarbek indamadi. Uning kallasida «Ergashga Mo‘minjonning o‘limi nimaga kerak bo‘ldi?» degan o‘y hukmron edi: shu go‘dakni o‘ldirib, u nimaga erishmoqchi bo‘lgan. Ikki oila o‘rtasida qandaydir arziguлик xusumat, ni-foq bo‘lganda buni boshqalar sezgan bo‘lardi. Xo‘p, mayli, Barnoning otasida qasdi bor ekan, Nuriddinning hayoti-ga nega zomin bo‘lgan? Yo bu Ergash deganlari qip-qizil telbamikan? Birovni, ayniqsa, farishtaday begunoh bolalarni besabab o‘ldirish sog‘ odamning ishi emas! Lekin hech kim uni savdoyiga chiqarmayati-ku! Yurish-turishida tentaklik alomatlari bo‘lganda odamlar buni sezmasmidi? Sezishardi. Allaqqachon peshonasiga katta-katta qilib devonalik tamg‘asini osib qo‘ygan, aqldan ozgan, deya ustidan kulgan bo‘lmasmidi? Boshqa tomondan shuncha ishni hech kimga sezdirmasdan, shubha uyg‘otmasdan bir o‘zi qanday epladi ekan? Yo sheriklari bormikan? Yoki birortaning ko‘rsatmasi, buyurtmasi bo‘yicha ish ko‘rdimikan? Murdalarni qayerga gumdon qilganikin? Hamma joyni elakdan o‘tkazdik. Yoki uning birorta hech kim bilmaydi-gan, yerto‘лага o‘xshash yashirin joyi bormikan? Yo murdalarni tashqariga, biror ovloq joyga ko‘mdimikan? Balki suvga oqizib yuborgandir. Yo‘q, unda shu paytgacha suv yuziga qalqib chiqib qolgan, kimdir topib olgan bo‘lardi. Mashinasi ham yo‘q. Og‘ir yukni uzoqqa ko‘tarib borishi mushkul. Yo‘q, bu ichidan pishgan o‘zini xatarga qo‘yib, murdani tashqariga ortib yurmasa kerak. Uyning poydevo-ri ostiga joylab yuborgan desak, keyingi yillarda hovlida yangi qurilish ham bo‘lмаган. Yoki jasadlarni tandirga solib yoqib yubordimikan? Uydagilarga sezdirmasdan bu ishni qilishi qiyin. Balki ularni bozor-o‘charga yuborib, uyda yolg‘iz o‘zi qolgan paytda bu ishni qilgandir. Yo

hojatxonaga tashlab yubordiimikan? Lekin qanday qilib? Boshqa tomondan bir emas, ikki emas, uchta murdani hojatxonaga tashlab yuborib, o‘zi har kuni u yerga kirib yurishga qanday yuragi chidashi mumkin? Nahot vijdoni qiyalmagan, vujudi seskanmagan bo‘lsa! Shuncha odamni o‘ldirgan odam ko‘rinishidagi hayvonda vijdon nima qilsin! Boya ko‘zdan kechirganda hojatxonaning anchagini chuqur ekanligiga e’tibor berilgandi. Tagi ko‘rinmad... Kechasi hamma uxlaganda murdalarni bo‘laklab, tashlab yuborgan bo‘lsa, bola-chaqasi qaydan bilib o‘tiribdi. Hojatxonani kovlash kerak!

– Rahimjon, bu yoqqa qaraysizmi? – guruh rahbari sal narida hovlida kuzatish ishlarini olib borayotgan mutaxassislar bilan gaplashib turgan hamkasbini yoniga chaqirdi. – Rahimjon kerakli texnika hamda tegishli xizmatlardan qo‘srimcha ish kuchi chaqirsangiz, xojatxonani kovlaymiz!

– Men ham shu haqda o‘ylab turgandim, – dedi Rahimjon hojatxona tomonga qarab, – bir najot shu yerdan! Yigitlar hamma joyni g‘alvirdan o‘tkazib chiqishdi. Yaqin atrofda kovlangan, yamalgan, teshilgan joy topilmadi. Molxona, tandirxona, oshxona, o‘choq boshidagi devorlar, binolarning poydevorlari, shifslari, polning osti ham tekshirildi. O‘choq, tandirdan chiqqan kullarni ham elab ko‘rdik. Hech qanday iz topilmadi. Hojatxonani kovlashdan boshqa ilojimiz yo‘q...

Rahimjon qo‘l telefonidan tuman prokuroriga qo‘ng‘iroq qilib, xojatxonani kovlash uchun qo‘srimcha ish kuchi va texnika yuborishni so‘radi.

– Darvoqe, – qo‘srimcha qildi Sanjarbek, – kiyimlarini tanib olish uchun Ma’mura va Doniyorni ham chiqirtiring. Keyin ularni ekspertizaga topshiring.

Sal o‘tmay hojatxonani kovlash uchun maxsus texnika va qo‘srimcha kuchlar yetib keldi. Hovlining orqa devori

buzilib, hojatxonani kovlash ishlari boshlandi. Atrofni chidab bo'lmas darajadagi qo'lansa hid qopladi...

Stol ustida tanib olish uchun ko'rsatilgan kiyimchalarni ko'rib Ma'mura «Mo'minjon... bolajonim! Sen o'lguncha onang o'lsa bo'lmasmidi!» – deya o'zini ularning ustiga otib, faryod chekib, hammani yig'latdi. Shu kungacha bolasining topilib qolishidan umidvor onaning ko'ziga uning kiyimchalari jonsiz yotgan Mo'minjonday bo'lib tuyuldi. Sho'rlik ayol goh hushini yo'qotib, goh o'ziga kelar, hamma u bilan ovora bo'lib qoldi. Doniyor ham shu ko'rgiliklarda o'zini aybdor his qilib, taxta bo'lib qotib qoldi. U ko'zlaridan quyilib kelayotgan yoshni o'ngiri bilan artib, nuqul «Mo'minjon, Mo'minjon... bolam, meni kechir!» – deya pichirlardi. Ayollar Ma'murani qo'ltig'idan suyab, sal chetroqqa olishgach, tergovchilar mavridini topib, rasmiyatçilik uchun stol ustidagi kiyimlarni Doniyorga tanib olish uchun taqdim etdilar. Doniyor kiyimlar o'g'li Mo'minjonniki ekanligini tan olib, ularni bir oycha oldin o'zi Moskvadan yuborganligini bildirdi. Tergovchilar barcha rasmiyatçilikni o'rinlatib, daliliy ashyolarni yelim xaltaga solib, ekspertizaga yuborishdan oldin ishga kinologlarni jalb qilib, buyumlarning qayerdan kelib qolganligini aniqlashga harakat qildilar. Biroq xizmat itlari is olmay, yer chizib turaverishdi...

Hojatxonani qazish ishlari kech tushguncha davom etdi. Dastlab ishchilar maxsus tayoqlar bilan hojatnona tubini titib ko'rishdi. Ammo chuqurda odam tanasi a'zolari borligi sezilmadi. Guruh rahbari «murda qismlarga bo'linib yoki kuydirilib, kukun holatda hojatxonaga tashlangan bo'lishi mumkin» degan o'yda axlatni to'liq tashqariga chiqarib, tekshirib ko'rishga ko'rsatma berdi. O'n-o'n besh yillik axlat yuqoriga chiqarilib, ehtiyyotkorlik bilan titish boshlanganda hamon bir joyda qaqqayib turgan Sanjarbekning

boshi aylanib, o'tirib qoldi. Ro'molchasi bilan burnini mahkam yopib olganligiga qaramay, zaharli hid butun tanasini shol qilib tashlaganday edi. Shu payt qo'shni xonadonlardan birida yashovchi keksa otaxon choynak-piyola ko'tarib, uning oldiga keldi:

– O'g'lim, qachondan beri kuzatib turibman, zaharlandingiz chog'i, mana buni ichib oling!

– Rahmat, otaxon, hozir tomog'imdan suv ham o'tmaydi, – dedi Sanjarbek piyolaga nazar ham solmay.

– Bu suv emas, toza aroq, iching, keyin xursand bo'lasiz, – dedi otaxon to'la piyolani tergovchiga yaqin tutib, – men uzoq yillar obodonlashtirish bo'limida ishlaganman. Axlatdan zaharlanish yomon bo'ladi. Hozir ichib olmasangiz, keyin kasallanib, yotib qolishingiz hech gap emas. Oling!

Sanjarbek bir piyolaga, bir otaxonga qarab, beixtiyor idishni qo'liga oldi. Unga cholning «yotib qolishingiz mumkin» degani qattiq ta'sir qilgandi. Shu paytda kasal bo'lishga haqqi bormi? «Qari bilganini pari bilmaydi», deyishadi. Otaxonning gaplarida jon bor.

– Oling, nafas olmasdan, bir ko'tarishda simirib tashlang!

Sanjarbek ko'zini yumib, limmolim piyolani ko'tarib yubordi. Ichini temir tirnab ketganday bo'ldi.

– E balli, ish bunday bo'libdi-da! – Otaxon qo'ynidan bir dona olma chiqarib uzatdi, – mana bu gazagiga.

– Manavi bechora ishchilar ham ertaga kasal bo'lib qolishmasaydi? – dedi tergovchi olmadan bir tishlab, – ularga ham shu «dori»dan keltirsakmikan?

– Xavotir olmang, – dedi otaxon uyi ortiga qayta turib, – ular o'z ishini yaxshi bilishadi, ularda respirator bor, qolaversa, panaroqda kattasining o'zi «dori»dan ozozdan quyib berib turibdi.

Biroz o‘tgach SanjARBekning ko‘zlari tinib, boshi aylana boshladi. Shunday bo‘lsa-da, u eng og‘ir ishni navbatma-navbat qilayotgan ishchilarning yonidan bir nafas ham jilmay, hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga harakat qildi. Axlat oxirlab qolayotgan bo‘lsa-da, hozirgacha ularni qiziqtiradigan hech narsa chiqmaganidan tashvishlangan tergovchi «bu muttaham murdalarni maydalab tashlagan ko‘rinadi» degan o‘yga borib, ishchilarga, hatto, kichik-ki-chik jismlarni ham alohida ajratishni iliimos qildi. Axlatni titish ishlari yakunlangach, alohida ajratib olingan qattiq jiismlar suv yordamida kuchli bosim ostida yuvilib, tozalab olindi. Ammo tozalangan tosh, suyak, temir bo‘laklari ora-sida odam tanasi a’zolari ko‘rinmad...

Qorong‘i tushganda ishni tugatgan guruh a’zolariga yuvinib, ovqatlanib olishlari uchun ikki soat vaqt berildi. SanjARBek mehmonxonaga kelib obdan cho‘mildi. Sassiq hid badaniga singib ketganday edi. Ust-boshini almash-tirib, sal o‘ziga keldi. So‘ng oshxonaga tushib, ishtahasi bo‘lmasa-da, tamaddi qilgan kishi bo‘ldi. Ichgan arog‘i-ning ta’siri pasayib, xayolida yana boyagi voqealar jonlandi, javobsiz savollar miyasida takrorlanaverdi: «Bu battol murdalarni qayerga gumdon qilgan! Bolalarni o‘ldirgani aniq deb hisoblaydigan bo‘lsak, jasadlarni qayergadir qo‘ygan bo‘lishi kerak-ku! Hovlidan hech narsa topilmadidi. Demak, Ergash biz o‘ylagandan ko‘ra pixini yorgan, ashaddiy jinoyatchi, sovuqqon qotil ko‘rinadi. Bekorga qamoqxonada xizmat o‘tamagan ekan-da! O‘liklarni hech kimning o‘yiga kelmaydigan joyga berkitgan. Qo‘lga tushsa, o‘zi ko‘rsatmasa, bizning u joyni topib olishimiz dargumon! Lekin... Shuncha puxta jinoyatchining muhim dalilni garajida – shinaning ichida saqlashini qanday tu-shunsa bo‘ladi? Bu g‘irt ahmoqchilik emasmi? Balki ki-yim-kechaklarni qandaydir maqsadda o‘zida saqlab tur-gandir? U nimani o‘ylagan bo‘lishi mumkin? Bu yerda

bir sir borga o'xshaydi. Yo'qsa, Ergash o'sha kiyimlarni ham Barno va Nuriddinning ust-boshi qatorida murdalar bilan ko'mib, yo'q qilib yuborgan bo'lardi. Unda qandaydir maqsad bo'lgan. Balki tergovni chalg'itmoqchi bo'lgandir. Bu ashaddiy jinoyatchilarning eng sinalgan usuli. Agar tergov qotillikda kimnidir gumondor qilib, u bilan shug'ullana boshlasa, unikiga daliliy ashyolarni tashlab qo'yish yo'li bilan aybsiz odamning aybdor ekaniga tergovni ishontirish va, o'z navbatida, o'zidan barcha guminlarni soqit qilish. Bir o'q bilan ikki quyonni urish deb shuni aytadilar! Tergovchi noshud bo'lsa, aybsiz odam qulog'ini ushlab, qamalib ketadi, haqiqiy qotil esa jazordan qutulib qoladi, yangi-yangi jinoyatlarga o'zida rag'bat sezadi! Tajribasida bunaqa ishlar qancha. Jizzaxda tergov qilgan jinoyat ishi bo'icha Zubayda o'zini guminidan soqit qilish va aybni bir telbaga to'nkash uchun kalishni unikiga tashlab qo'ygandi... Ergash ham shuni o'ylagandir? Lekin tergovda hali guminidor paydo bo'limgani uchun qulay fursat poylab turgandir. Unda nega juftakni rostlab qoldi? Axir ketishda daliliy ashyoni o'zi bilan olib ketishi yoki boshqa tuzukroq joyga yashirishi mumkin edi-ku! Qochsa, hamma guman unga tushishini, tergovchilar uyiga tintuv o'tkazishga kelishini va daliliy ashyo ularning qo'liga tushishini juda yaxshi bilgan-ku! Shuncha ishni qoyilmaqom qilib qo'ygan jinoyatchining shunaqa qo'pol xatoga yo'l qo'yishi mumkinmi? Yo'q, yo'q, negadir yopishmayapti. Balki... balki... aksi bo'lgandir! Kimdir bu dalillarni Ergashning garajiga tashlab qo'yib, hamma aybni unga to'nkamoqchi bo'layotgandir? Tergovning Ergash bilan shug'ullanayotgani, barcha gumanlar unga qarab yo'nalgaligini bilib, traktorchini qurbon qilishni dili-ga tukkandir. Unda he yo'q, be yo'q Ergash nega qochib qoldi? Tergovda uning jinoyatchi ekanligini isbotlovchi

birorta dalil yo'q edi-ku! Qo'rqqan burun musht ko'tarar qabilida o'zi juftakni rostladi-ku! Balki...

Sanjarbek prokuratura binosiga kirganda guruh a'zolari hovlida o'zaro suhbatlashib turishardi:

– Esiz, shuncha mehnat bekorga ketdi-ya! – dedi Aloviddin kallasini sarak-sarak qilib.

– Shuncha sassiqqa botganimizga yarasha biror natija bo'lgandayam unchalik alam qilmasdi, – Rahimjon izquvarning gapini ma'qulladi.

– Aslida natija chiqmasligining o'zi ham bir natija! – Sanjarbek ustozining «shoh satri»ni takrorlab, suhbatga qo'shildi. – Agar shu hojatxonani kovlatmaganimiza hammaning gumoni o'sha yerga borib qadalardi. Baribir bugun bo'lmasa ertaga qazishga majbur bo'lardik.

– To'g'riku-ya... Sassiig'i juda chatoq ekan-da! – dedi Rahimjon qo'lini burniga olib borib, – sassig'i badanimga o'mashib qoldi-ya! Ammo sizga qoyil qoldim, «epitsentr»dan bir qadam ham nari ketmadingiz...

– Sizlar-ku, mayli, lekin meni «epitsentr»da qoldirib, Jo'ravoyning qochib qolganiga hayronman, – hazilni davom ettirdi Sanjarbek, – bunaqa qo'rkoqlar bilan jangga kirib bo'ladimi?

– E-e-e, Sanjar aka, mening boshim aylanib ketdi-da, ko'nglim aynab, qayt qilib tashladim-a, – dedi talaba soddalik bilan.

Kulgi ko'tarildi. Yigitlar hazil-mutoyiba qilishib, ichkariga kirishdi. Sanjarbek to'rdagi kresloga o'tirib, boyaxayoliga kelgan masalalar yuzasidan hamkasblarining fikrini bilishga qiziqdi:

– Xo'sh, janoblar, bugungi voqealar xususida qanday fikr dasizlar?

– Bugun garchand jasadlarni topolmagan bo'lsak-da, muhim dalilga ega bo'ldik, – ta'kidladi Rahimjon, – bu bilan «Ergashning aybi yuz foiz isbotlandi», desak ham

bo'laveradi. Endi uni qo'lga tushirish qoldi. Ushlasak, qolgan dalillarni o'zi topib berishga majbur bo'ladi.

– Xo'sh, bizda traktorchining aybini tasdiqlaydigan nimalar bor? – guruh rahbari o'rtaga munozarali savol tashladi. – Albatta, bugun topilgan dalil – Mo'minjonning ust-boshidan tashqari.

– Birinchidan, – barmog'i bilan sanashga tushdi Rahimjon, – Barnoning otasi Sodiqda uning qasdi bo'lgan, ikkinchidan Nuriddinning velosipedi uning hovlisi yaqinidan chiqqan, o'zini gumondan xoli qilish maqsadida velikni o'zi topib, militsiyaga xabar qilgan. Uchinchidan, «velikdan iz topilgan» degan yolg'on xabar tarqatishimiz bilan, barmoq izlarini topshirsa qo'lga tushib qolishidan qo'rqib, qochib qoldi. To'rtinchidan...

– Siz keltirgan faktlar dalillardan ko'ra ko'proq farazlarga asoslanganday tuyulmayaptimi? – Sanjarbek «notiq»ning gapini bo'ldi. – Ertaga Ergashni qo'lga ol-sak, «Sening Sodiqda qasding bo'lgan ekan, shu sababli bolasini sen o'ldirgansan» deymizmi? Yoki Nuriddinning velosipedi sening uying yaqinida topilgan, o'zing uni topgansan, demak, qotil sensan!» deymizmi? Yo «qotil bo'lmasang, tuyog'ingni shiqillatib, qochib qolarmiding!» deymizmi? «Nima dalil-isboting bor?» desa, nima deb javob beramiz? «Ichki, botiniy sezgimiz shunday deyapti», deb aytamizmi? To'g'ri, Mo'minjonning qotilligida uni ayblastish uchun dalil topildi. Lekin bir narsani o'ylab qoldim. Nahotki, shuncha ishni qoyilmaqom qilib uddalagan ustomon tergov jarayoni ayni avjiga chiqqan, shundoq ostonasi tagida tergovchilar izg'ib yurgan pallada shunday muhim dalilni qanday qilib namoyishkorona uyida saqlashi mumkin? Bunday qo'pol xatoga yo'l qo'yish uchun odam qanchalik ahmoq bo'lishi lozim! Holbuki, shuncha ishni xamirdan qil sug'urganday ob-u tobida uddalagan

shaxsnинг bunaqa qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yishiga ishonish qiyin! Bu yerda bir sir borga o‘xshamayaptimi?

– Ya’ni, haqiqiy qotil aybni Ergashga to‘nkash uchun bolaning kiyimlarini garajga ataylab tashlab qo‘ygan, demoqchisiz-da? – Jo‘raboy fikr bildirdi. – Negadir shu dalil topilgan payti ko‘nglimga shu narsa kelgandi-ya!

– Kim tashlab qo‘yadi, balki o‘zingiz tashlab qo‘ygandirsiz, Jo‘ravoy! – piching qildi Aloviddin beo‘xshov tirjayib.

– E’tiboringiz uchun Jo‘ravoy mantiqan to‘g‘ri, jo‘yali fikr yuritayapti, – zarda qildi guruh rahbari. – Bu yerda kuladigan narsaning o‘zi yo‘q. Sizlarga kimdir barcha gumonlarni Ergash tarafga burib, o‘zini shubhadan soqit qilishga urinayotganday bo‘lib tuyulmayaptimi? Keyingi paytlarda negadir bu usulni jinoyatchilar keng qo‘llashga harakat qilishayapti. Nima uchun, bilasizlarmi?

Sanjarbek o‘tirganlarga birma-bir ko‘z qirini qadadi. Hech kimdan sado chiqmagach, davom etdi:

– Sababi aniq. Hammasi tergovchilar, qolaversa, izquvarlarning kasbiy mahoratlari pasayib ketayotganligi bilan izohlanadi. Ko‘ngillaringizga olmanglar-u, mening joylarda har xil tergovchilar, tezkor xodimlar bilan ishlashimga to‘g‘ri kelgan. Ming afsuski, ko‘pchilik yengil yo‘lga o‘tib olgan. Tergovni amal-taqal qilib tugatib, ishni yumaloq yostiq qilib, sudga tepsa bo‘lgani! Sud ham nima qilsin? Bu yoqda prokuror janoblari «ishni qaytarsang, hamma ko‘rgan ishingni chipakka chaqirib, kalishingni to‘g‘rilab qo‘yaman», deb tish qayrab turgan bo‘lsa, sudya bechoraning ishni bir amallab, zo‘rma-zo‘raki suddan o‘tkazib yuborishdan o‘zga nima chorasi bor?! Tergovchining bu saviyasizligi jinoyatchilarga qo‘l kelmoqda. Ular yasama dalillar bilan tergovni o‘zlariga qulay yo‘lga solib, jazodan qutulib qolish, shu bilan birga, boshqa bir begunoh kishini qamoqqa tiqishdan tap tortmay qolishgan. Nazarimda ular

mahorat bobida siz-u bizdan ancha oldinlab ketayotganday. Bir paytlar jinoyatchi shoxida yursa, tergovchi, izquvar bargida yurardi. Hozir esa aksi, jinoyatchi bargida, biz shoxida yuradigan ahvolga tushib qolgandaymiz... Bu yerda ham makkor jinoyatchi shundoqqina tumshug‘imizda turib, bizni sarobga yo‘naltirmayotganiga kim kafolat beradi? Qayerdag‘i bir jinoyatchi ustimizdan kulib, shuncha odamni ahmoq qilmoqchi bo‘lib turganda, biz, kimsan nomi chiqqan tergovchilar yolg‘on «xo‘rak»ka ishonib, tumshug‘imizdan ilinib turgan bo‘lsak, uyat bo‘lmaydimi?

— Yo‘g‘-e, j-a-a-a unchalik emasdirov! — e’tiroz bildirdi Rahimjon. — Bir traktorchini jinoyatchiga chiqarish kimga ham kerak bo‘lishi mumkin? Ergash bu dalilni bior rarsani o‘ylab garajda qoldirgan bo‘lishi mumkin. Yo «hech kim topa olmasa kerak», deb xayol qilgandir?

— O‘ylab gapirayapsizmi, Rahimjon! — guruuh rahbarining ovozi sal balandroq chiqdi.— Uchta bolani nobud qilgan qotilning uyiga tintuvga borayotgan butun boshli komanda hamma yoqning titi-pitini chiqarib yuborishini Ergash bilmaydi deb o‘ylaysizmi? Biladi! Bilganda qandaoq! Uning qamoqxonada xizmat o‘taganini unutmasligimiz lozim!

— Sanjar aka, aytganlaringiz to‘g‘ri, hammasi siz aytganday bo‘lishi ham mumkin, — Aloviddin rahbarni jahldan tushirishga harakat qildi. — Ergash topilsin, hammasini o‘z og‘zi bilan gapirib beradi. Hozircha biz uni qamabnetib yotgan joyimiz yo‘q-ku!

— To‘g‘ri, topilsa, so‘rab-surishtiramiz! — SanjARBek biroz pastladi. — Topilmasa-chi? Unda nima bo‘ladi? Unda qotil deyarli o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Hamma gumon Ergashga tushadi. Biz uni qidirish bilan ovora bo‘lamiz! Haqiqiy jinoyatchi esa ustimizdan kulib, yallo qilib ochiqda yuraveradi. Yangi-yangi qotillik rejasini tuzishda davom etadi.

– Demak, Ergashning topilmastigidan manfaatdor kimsalar bor ekan-da! – gap qo’shdi Jo‘raboy. – Balki shuncha ishni qilgan jinoyatchi bir yo‘la uni ham gumdon qilishga ulgurgan bo‘lsa-chi?

– Yo‘g‘-e, sen bola ham rosa vahimachi ekansanda! – Rahimjon mahmadona shogirdiga yovqarash qildi.

– Rahimjon, Jo‘raboy haq gapni aytayapti, – guruh rahbari oraga tushdi. – Bu ham bo‘lishi mumkin! Jino-yatchi ochiqda, hozircha shubhadan xoli. U joni boricha o‘zini fosh qilmasliklariga chiranadi. Soxta dalillarni tashlab qo‘yish, kerak bo‘lsa, odam o‘ldirish unga cho‘t emas! Qo‘lga tushsa, nima bo‘lishini, qanday jazo kutayotganligini yaxshi biladi!

Sanjarbek gapirishdan to‘xtab, bir nuqtaga tikilanga-ha o‘ylanib qoldi. Fikrlarini jamlab, bosiqlik bilan davom etdi:

– To‘g‘ri, bularning hammasi shunchaki muqobil taxmin. Balki voqealar biz o‘ylagandan ham boshqacharoq bo‘lgandir. Balki bularning bari Ergashning ishidir. Balki u begunohdir... Bu gaplarni aytishdan maqsad – biz har narsaga tayyor turishimiz lozim. Faqat Ergash bilan ovora bo‘lib, boshqa yo‘nalishlarda ishni to‘xtatib qo‘ymasligimiz kerak. Albatta, traktorchi topilsa, ishimizda katta burilish yasalgan bo‘lardi. Ko‘p narsa oydinlashardi... Aloviddin Istamovich, tezkor-qidiruv ishlarini jonlantirishingizga to‘g‘ri keladi. Ergashni yerning tagida bo‘lsa qulog‘idan, osmonga chiqqan bo‘lsa, oyog‘idan tortib tushirishimiz zarur. Qidiruv doirasini kengaytiring. Shifoxonalar, o‘likxonalar, jinnixonalar, hushyoxonalar e’tibordan chetda qolmasin. Mabodo ertaga kechga qadar topilmaydigan bo‘lsa, unga nisbatan ayb e’lon qilib, sirtdan qamoqqa olishga sanksiya berishga majbur bo‘lamiz... Shu bilan birga Barnoning mashinasida o‘tirgan kimsaning shaxsini, jabrlanuvchilarning aloqalari doirasini aniqlash,

ishga dahldor shaxslarning telefon so‘zlashuvlarini tahlil qilish ishlarini barcha taxminlar bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini ham jonlantirish lozim. Hamma umidimiz sizlardan. Sizlarda katta kuch bor!

— Tushunarli, — dedi Aloviddin yondaftariga nimalarnidir qayd eta turib.

— Rahimjon, siz Ergashning shaxsi, aloqalari, ish joidagi faoliyati bilan ishlashni davom ettiring. Uning qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilari bilan gaplashib, unikiga keyingi paytlarda kimlar kelib-ketgan, kecha, o‘tgan kuni garaj tomonga kimlar o‘tganligiga ahamiyat berasiz. Balki qo‘shnilardan birontasi garajdan nimanidir olishga kirgandir. Tintuv payti Ergashning garajidan payvandlash yoki metall qirqish asbobi topilmadi. Barnoning mashinasи ramasi mayda bo‘laklarga bo‘linib, tashqariga chiqarib tashlangan deb hisoblaydigan bo‘lsak, bu ishni zarur asboblarsiz qilib bo‘lmaydi-ku. Balki payvandlash, kesish apparatini birortasidan foydalanishga olib turgandir. Buni aniqlaysiz. Keyin kimdir traktorchining xalta, yuk ko‘tarib biror joyga ketayotganini ko‘rgandir. Balki biror kishi uning ovloqroq joyda, pana-pastqamda ivirsib yurganiga ko‘zi tushgandir. Bu bizga traktorchining murdalarni qayoqqa daf qilganligini aniqlashda qo‘l kelardi... Xullas, o‘zingizdan qolar gap yo‘q...

— Tushunarli, — dedi Rahimjon daftardan bosh ko‘tarib.

— Jo‘ravoyjon, sizga ham topshiriq bor, — guruhi rahbari orqaroqda hammadan ko‘ra hushyorroq o‘tirgan talabaga yuzlandi. — Tezkor xodimlardan birini sizning ixtiyoringizga beramiz. Toshkentga borib, Sirg‘ali avtomobil bozorida Ergashning yuklarini ortgan aravakashni topishga yana bir harakat qilasizlar. Izquvarlarimiz uni topisholmagandi. Lekin aqlni ishlatsa, aravakashni topsa bo‘ladi. So‘ng «Farhod», «Yangiobod» bozorlari va boshqa ehtiyyot

qismlar savdo nuqtalariga tushib, Barnoning mashinasi ehtiyyot qismlarini qidirasizlar. Mashina farasidagi xos belgi tanib olishda qo'l kelishi mumkin. Biror narsani aniqlasangizlar, o'zboshimchalik qilmasdan menga xabar qilasizlar. Nima qilish kerakligini kengashib hal qilamiz. Mabodo Toshkentda ijobiy natijaga erisholmasak, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatidagi ehtiyyot qismlar bozorlariga o'tishga to'g'ri keladi. To'g'ri, bu juda murakkab vazifa. Hammasiga qarab chiqishga jismonan ulgurmasliklaringiz aniq. Ammo aqlni ishga solsangiz oyoqlaringizga ancha oson bo'ladi... Har joyning shunaqa eski, ishlatalgan ehtiyyot qismlarni olisbotarlari bo'ladi. So'roqlab shularni topsangiz, ishlaringiz osonroq bitadi.

— Tushundim, — dedi talaba o'zining qisqa muddatda tergov guruhining chinakam a'zosi bo'lib olganidan mammun bo'lib.

— Men o'zim... — Sanjarbek biroz o'ylanib, davom etdi, — Zamir va boshqa ko'rsatmalarida qarama-qarshilik bo'lган guvohlarni, shuningdek, Ergashning xotini va farzandlarini qayta so'roq qilmoqchiman...

Tergov guruhi a'zolari yana ko'plab masalalar xususida kelishib olgach, soat millari yigirma uchga yaqinlashganda tarqalishdi...

\* \* \*

Faxriddin oynalarigacha panjaralar bilan to'silgan «avtozak»ning bir burchagida jimgina ketar ekan mashinaning nisbatan uzoq muddat chayqalib yurishidan «boshqa joyga olib ketayapti shekilli» degan o'yga bordi...

Uch-to'rt kun oldin Rahmatilla «ustoz, sizga yuqoridaq «sanksiya» olinibdi, faqat ularga sizni o'z aybini to'la bo'yniga olgan, deb dolojit qilingan. Endi bular sizdan qanday bo'lmasin iqrorlik xatini olishga harakat qiladi. Meniyam, o'zingizni ham qiynamay, yozib beravering!» deya

shipshitgandi. O'shanda uning gapiga, odatdagi po'pisa-da, deya unchalik ahamiyat bermagandi. Tunda buning isboti ko'rindi... Odam ham shunday vahshiy bo'ladimi? Bechora To'lagan gapirganda unchalik ishonqiramagandi, lof qo'shayapti, deb o'ylagandi... Eslasa, odamning etlari junjikib ketadi... Basharasiga qarasang kishining qayt qil-gisi keladigan bahaybat to'ng'iz oldiga bir varaq qog'oz-qalam qo'yib, «aybimni to'la bo'ynimga olaman» deb yozib ber, deya tiqilinch qildi. Natija chiqmagach, kuch ishlatishga o'tdi... Qo'lidagi dubinka bilan urib, a'zoyi badanini momataloq qilib tashladi. Bog'lab qo'yib, tovoniga, tirmoqlari tagiga bigiz sanchdi, ablah! Keyingi kun yana tergovchining yoniga olib borishdi. U hamma narsadan xabardor shekilli, «ustoz, endi nima deysiz, aybingizni bo'yningizga olasizmi?» deydi huddi o'zini achinganday tutib. Ijobiy natija ololmagach, yana yo'lakka chiqarib, o'tqazib qo'ydi. Kechqurun yana qamoqqa qaytarishdi... Tunda yana o'sha azoblar qaytarildi... Dodingni birov eshitmaydi... Hushingdan ketib qolsang, suv sepib, hushingga keltirishadi... Og'riq azobidan tanang hech narsani sezmay qoladi... Ertasi kuni yana tergovga olib borishadi. «Endi bo'yningizga olarsiz?» – deya zarda qiladi Rahmatilla. Kutilgan javobni eshitmagach, «battaring chiqsin» deganday, kechgacha qoqqan qoziqday yo'lak oxiridagi bir burchakka o'tqazib qo'yadi. Kechki payt qamoqqa olib ketishlaridan avval tergovchi yana «Faxriddin Karimovich, yaxshilab o'ylab ko'ring, ertaga gaplashamiz!» – deb pisanda qilib qo'yadi... Kecha ham o'sha «teatr» takrorlandi... Tunda yana o'sha azoblar davom etdi... Odam shunday paytlarda o'limingga ham rozi bo'larkansan... Tananga sanchilayotgan tig'lar, tayoqlar zahrini his qilmaydigan darajaga kelib qolarkansan... Ular meni jismonan sindirib bo'lmasligini anglashdi, shekilli, boshqa yo'lni tanlashga majbur bo'lishdi.

– Demak, sen tvar, aybingni bo‘yningga olmaysan, – dedi «to‘ng‘iz» yoqamdan tutib, – hayoting, joning senga qiziq emas! Mayli, unda ostavim tebya pokoya. Lekin... xotiningni do‘mboqqina deyishayapti. Sening kasofattinga qolib, narkushalarga aralashib qolmasa bo‘lgani! Unda o‘g‘illaringdan xavotir olma, o‘zim detdomga joylab qo‘yaman! Xa-xa-xa-xa!

Men tok urganday sakrab ketdim:

– Ablah, oilam bilan nima ishing bor! Nima qilsang, meni qil. Ularni tinch qo‘y! – deya unga yopisha ketdim.

U bir qo‘lida yelkamdan ko‘tarib, burchakka otib yubordi. Gapi nishonga tekkanidan xursand o‘shshaydi:

– Nu ladno! Tegma desang, tegmaymiz. Biz ham odam. Faqat sen «bo‘ynimga olaman»deb yozib ber, hammasi tugaydi. Nu chto, po rukam! – tepamga kelib qo‘lini tutdi u.

Men ham beixtiyor qo‘limni cho‘zdim... Bugun tergovga negadir peshindan keyinga chaqirishdi. Xonaga kishim bilan Rahmatilla o‘rnidan turib, har doimgidan iliq kutib oldi. «Demak, hammasidan xabari bor» ko‘nglimdan o‘tkazdim. Hol-ahvolimni so‘ragan kishi bo‘lib, oldimga bir varaq qog‘oz va ruchka qo‘ydi. Ruchkani qo‘limga olib, so‘ng qaytarib joyiga qo‘ydim:

– Rahmatillajon, mayli, yozib beraman, faqat bir shartim bor...

– Faxriddin Karimovich, nimalar deyapsiz! Qanaqa shart? Hammasi...

– Faqat ayolim bilan ko‘rishishga ruxsat berasiz. Uning sog‘-omonligini ko‘zim bilan ko‘rishim kerak.

– Sizga ayolingizning kelganini kim aytdi? – dedi u menga hayrona tikilib.

– Nima, ayolim... Nazira kelganmi? – dedim ko‘zlarim chaqnab.

- Kecha kelgandi, – dedi u istar-istamas.
- Nega bir og‘iz... aytmadingiz?
- Aka, ruxsat berishmasa nima foydasi bor.
- Rahmatillajon, Xudo xayringizni bersin, ayolim bilan besh daqqa ko‘rishishga ruxsat bering. Axir siz mustaqil... tergovchisiz-ku! – dedim yig‘lamoqdan nari-beri.
- Faxriddin aka, meni kechirasiz, shuning uchun aytmagandim. Uchrashuvga ruxsat yo‘q. Marhamat, vaqt ni o‘tkazmasdan, kerakli narsani yozib bering, tamom. Menam, siz ham qutulamiz bu mashmashalardan... Shuncha azob sizga kerakmi?

– Ayolim bilan uchrashuvga ruxsat berilmas ekan, qo‘limga ruchka ushlamayman... Qo‘lidan kelsa, otib tashlasin! Borib aytинг, o‘sha tepadagilaringizga!

Tergovchi shashtimni ko‘rib, biroz o‘ylanib qoldi. So‘ng o‘rnidan turib: «Yaxshi, siz uchun yana bir bor so‘rab ko‘ramiz», – deya xonadan chiqib ketdi. Biroz o‘tmay katta ish bitirgan odamday, og‘zi qulog‘ida qaytib keldi:

– Ruxsat berishdi! Bermasanglar, ishni qo‘limdan olinglar, kim tergov qilsa qilaversin, dedim.

Tergovchining masalani shunaqa ko‘ndalang qo‘yishga matonati ham, irodasi ham yetishmasligini sezib turgan bo‘lsam-da, har holda, ishni bitirganidan xursand bo‘ldim.

– Hozir ayolingizni olib kirishadi, – Rahmatilla stol ustidagi hujjatlarni yig‘ishtirib, temir shkafga joyladi, – faqat besh daqqa... tag‘in yaxshilik qilaman deb, boshim baloga qolib o‘tmasin!

Yuragim ilk uchrashuvga chiqqan yigitnikiday du-kurlab ura boshladи... Eshik taqillab, xonaga ozib-to‘zib ketgan Nazirani olib kirishgani, uning bag‘rimga tashlanib, unsiz yig‘lagani, mening ham ko‘nglim bo‘shashib, o‘zimni tutib turolmaganim, u bilan kechgan besh daqiqalik suhbat, ketar chog‘i o‘zini xotirjam tutishga harakat qilib, menga dalda berish uchun «adasi, bizdan sirayam

xavotir olmang, o'zingizni asrang, Xudo xohlasa tez kunda  
larda hammasi ortda qolib, bolalaringiz bag'riga qaytasiz»  
degani, uning ortiga qaray-qaray pastga tushib ketgani,  
ikkinchi qavat derazasidan qarab, Naziraning ikki yelkasi  
uchib-uchib yig'lab ketayotgani... xuddi bir lahzalik tush-  
day o'tdi-ketdi...

Keyin... iqrorlik xati yozildi. Rahmatilla oldindan  
to'ldirib qo'yilgan bir qancha hujjatlarga qo'l qo'ydirdi:

— Endi qutuldingiz, ular boshqa sizni bezovta qilish-  
maydi, — dedi u mamnun jilmayib, — ishni sudga oshira-  
man.

— «Qutuldingiz» deyapsiz, nima, men ozodmanmi?  
Chiqib ketaveraymi? — dedim ataylab o'zimni go'llikka  
solib.

— Yo'g'-e, qayoqqa borasiz! Men boshqa ma'noda...  
Obbo Faxriddin Karimovich-ey, shu yerda ham hazilni  
qo'ymaysiz-a!..

Avtozak chayqala-chayqala manzilga yetib keldi, she-  
killi, to'xtadi. Temir eshik taraqlab ochilib, daroz serjant-  
ning tushishga chorlovi eshitildi. Pastga tushishim bilan  
yangi joyga kelib qolganimni fahmladim, shundagina ter-  
govchining «qutuldingiz» degani bekorga aytilmaganini,  
«to'ng'izbashara»dan rostdan ham qutulganimni his qil-  
dim...

\* \* \*

Sanjarbek ertalab ishni Zamirni qayta so'roq qilishdan  
boshladi:

— Zamirjon, — dedi muloyimlik bilan guvohning  
ko'zlariga tikilib, — Mo'minjon yo'qolib qolgan kuni  
Ma'mura sizzdan ota-onasiga qo'ng'iroq qilib olish uchun  
telefoningizni so'rigan ekan. Siz telefonim pul to'lan-  
magani uchun o'chib qolibdi, degan bahona bilan unga  
telefoningizni bermagan ekansiz. Holbuki, o'sha paytda

hisobingizda pul bo‘lgan, telefoningiz ishlab turgan. Biz hammasini tekshirib ko‘rdik.

– Yo‘g‘-e, rostdanam hisobimda pul qolmagandi... yakshanba kuni paynetlar ishlagandagi, bo‘masa nima...

– Aldash yaxshi emas, janob guvoh! – e’tiroz qildi tergovchi. – Siz yolg‘on ko’rsatma berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishingiz mumkinligi haqida ogohlantirilgansiz. Bilasiz, biz bir necha epizodli qotillik jinoyatini tergov qilayapmiz. Bitta kichkina yolg‘on ham tergovning sizga nisbatan gumanini oshirishi mumkin. Shu sababli savollarimizga o‘ylab javob berishingizni, haqiqatni gapirishingizni maslahat beraman.

– Albatta, albatta! – dedi Zamirning rangi oqarib. – Telefonimga kam-kamdan pul to‘lab turaman. Tez-tez o‘chib turadi. O‘sha kuni Ma’mura telefonimni so‘raganda, telefon o‘chib qolmasin, degan o‘yda...

– Qo‘sningiz, bir tomonidan sinfdosh o‘rtog‘ingizning boshiga shunaqa tashvish tushib turgan paytda sizning telefonni qizg‘anishingiz... buni qanday tushunsa bo‘ladi? Yoki yolg‘on gapirishingizga biror sabab bormi?

– Yo‘g‘-e, bu nima deganingiz! – o‘ng‘aysizlandi guvoh. – Odam shoshib qolarkan... Nega unday qilganimga o‘zim ham hayronman. Bitta qo‘ng‘iroq uchun arzimagan pul ketadi... o‘zimam keyin pushaymon qildim...

– Siz Barno yo‘qolgan kuni, ya’ni 15-aprelda qayerda edingiz? – tergovchi navbatdagi savolga o‘tdi.

– Oldin ham tergovchilar so‘ragandi, men o‘sha kuni smenda edim. Kimdir ishxonamga ham borib, ma’lumotnoma olgan ekan... Siz nega bularni mendan so‘-rayapsiz? «Qotil topilibdi», deyishayotgandi-ku, kecha...

– Kim sizga shunday dedi?

– Teshik quloq eshitadi-da, kecha hammaning og‘-zida... qo‘shti xotinlar...

– Xo‘sht, xotinlar nima deyishayapti, qotil kim ekan?

- «Ergash traktorchining uyidan yo‘qolgan bolalarning kiyim-kechagi chiqibdi», deyishgandi. Yo noto‘g‘rimi?
- Siz o‘zingiz nima deb o‘ylaysiz, Ergash shunaqa qottillikka qodirmi?
- Bunisini bilmadim, – yelkasini qisdi guvoh, – birovning ichidagini birov bilarmidi. Biz bu odam bilan uch-to‘rt eshik nari hamsoya bo‘lsak-da, hech osh-qatiq bo‘lmaganmiz. Menimcha, unaqa yomon odam emasdi...
- Nega o‘tgan zamonda gapirayapsiz? – tergovchi guvohni tilidan tutishga harakat qildi, – yo u kishini o‘lgan deb hisoblayapsizmi?
- Yo‘g‘-e, Astag‘firulloh! Men shunchaki... h-o-z-i-r-t-o-p-i-l-m-a-yo-t-g-a-n-i u-ch-u-n... h-a-l-i-g-i-d-a-y... – duduqlandi Zamir.
- Kim aytdi sizga uni topilmayapti deb?
- «Uyiga kelmayotganmish», deyishyapti-ku! Hamma yoqdan uni izlashayotganmish...
- Odamlar nima deyishayapti? Ergashning qotilligiga ishonishayaptimi? – savolni takrorladi tergovchi.
- Odamlar nima ham derdi! Uyidan dalil topilgan bo‘lsa... O‘zi qochib ketgan bo‘lsa...
- Demak, siz ham shu fikrdasiz, shundaymi?
- Oldiniga ishonmagandim, – dadillandi guvoh, – «uyidan dalillar topilibdi», deb eshitganimdan so‘ng, hayron qoldim. Odamning olasi ichida bo‘larkan-da!
- Nima deb o‘ylaysiz, Ergashning bunaqa og‘ir jinoyatga qo‘l urishiga nima sabab bo‘lishi mumkin? – tergovchi guvohni sinashda davom etdi.
- Hayronman! Doniyor yoki Ma‘mura bilan oralarida biror gap o‘tganini eshitmaganman. Xo‘p, Barnoning dasasida xusumati bo‘lgan ekan. Bitta traktor uchun odam o‘ldirish... g‘irt jinnilik bo‘lsa kerak... Nuriddinda nima qasdi bo‘lgan? Hamma hayron! Menimcha, Ergash trak-

torchi ruhiy kasal bo'lgan. O'zi gap-so'zlaridan sal telbano nomo ekanligi sezilib turardi...

– Yana o'tgan zamonda gapirdingiz, – luqma tashladi tergovchi ruhiy bosim o'tkazish uchun ataylab.

– Ha-ya, kechirasiz... Anovi bechoralarga achinamanda! Qanday qilib qo'li borgan bo'lsa! Odamlar ham shafqatsiz bo'lib ketayapti-da! Rahm degan narsaning o'zi qolmayapti!

Tergovchi yana bir qator savollar berib, guvohning shaxsini, dunyoqarashini va boshqa jihatlarini bilishga qiziqdi.

– Zamirjon, siz unda tashqarida biroz kutib turasiz, – dedi SanjARBek so'roqni yakunlab, – keyin o'zim chaqirtiraman.

– Ko'p qolib ketmaymanmi? – qisinibgina so'radi Zamir. – Ishga borishim kerak edi-da!

– Prokuraturaga chaqirilganligingiz haqida ma'lumot-noma beramiz, xavotirlanmang!

Zamir xonadan chiqishi bilan izquvarlardan biri xona ga qorni xaltaday osilgan, bit ko'zli yoshi elliklar atrofida gi erkakni boshlab kirdi:

– Bozorboy aka guvoh sifatida chiqirilgan, – mehmonni tanishtirdi u.

SanjARBek guvoh bilan nari-beri so'rashib, o'tirishga joy ko'rsatdi.

– Bozorboy aka, siz Barnoni eng so'nggi ko'rgan guvohlardan birisiz, – vaqtin boy bermaslik uchun muddaoga ko'chdi tergovchi, – sizning ko'rsatmalarining ishimiz uchun juda katta ahamiyatga ega. Shu sababli o'sha kungi voqealarni birma-bir eslab, batafsilroq gapirib bersangiz.

– O'sha kuni yakshanba edi chamamda, ishdan kechroq chiqib kelayotsam, yo'l chetida «Lasetti» turgan ekan. Qarasam, davlat raqami tanishroq – 75-85. Aniq kimni kiligini bilmasam-da, Yallamaning mashinasi ekanligini

bilardim. Qishloqda ko'p ko'rganman... «Biror yordamim tegar», deb o'ylab, to'xtadim. Yoniga borsam, ichida kimdir o'tirgan ekan. Meni ko'rib boyagi odam yuzini teskarri burib oldi. «Nima gap», deb so'rasam, javob bermadi. «Kimnidir kutib turgandir-da», degan xayolda mashinanga o'tirib ketdim...

— Mashinada o'tirgan odam taxminan necha yoshlarda edi? — tergovchi savol yog'dirishni boshladı.

— Qorong'ida uncha aniq ko'rolmadim... Ko'rinishidan yoshroq ediyov... chamamda.

— Yosh deganingiz o'n besh-yigirma yoshli bolami? Yoki...

— Yo'g'-e, ja-a unaqa yosh bola emasdi... o'ttiz, o'ttiz besh yoshlar atrofida bo'lishi mumkin...

— Balki ellik-oitmish yoshlar atrofidadir, — tergovchi ataylab «imtihon» qilishda davom etdi.

— Hazillashayapsizmi? Ja-a unaqa ko'r emasman-ku! Yosh yigit bilan cholning farqiga borsam kerak.

— Uning gavdasi qanaqa edi?

— O'tirishidan uncha beso'naqay ko'rinnadi... ixchamgina... Bizlarga o'xshagan qorinboy emas-da, ishqilib.

— Sochi qanaqa edi?

— Ey-y, ukajon, zimistonda sochiga kim ahamiyat beribdi. O'tayotgan mashinalarning yorug'ida nimkalagina ko'rgan bo'lsmi...

— Demoqchimanki, sochi bormidi? Kal-pal emasmi-di? — savolini aniqlashtirdi tergovchi.

— Yo'q, kal emasdi... Boshi taqir bo'lsa, ahamiyat bergen bo'lardim...

— O'sha odam rulda o'tirganmidi?

— Yo'q, haydovchingin yonida o'tirgandi.

— Haydovchisi qayerda ekan? Uni ko'rmadingizmi?

— Haydovchiga ko'zim tushmadi. O'sha yerda bo'lsa ko'rgan bo'lardim!

- Balki orqa o'rindiqda o'tirgandir? – tergovchi maydalab so'rashdan erinmadi.
- Orqa o'rindiq bo'sh edi... Birov o'tirgan bo'lsa sezardim.
- Balki yotib olgan bo'lsa, ko'rmay qolgandirsiz?
- Ey-y, ukajon, sizam rosa...
- «Ezma ekansiz», demoqchisiz-da? – kului tergovchi. – Hafa bo'lmaysiz, ishimiz shunaqa.
- Ha endi, bir gapni hadeb...
- Mashinada o'tirgan kimsa mana bu odam bo'lishi mumkinmi? – tergovchi tortmasidan rasm chiqarib, guvohga uzatdi.

Bozorboy rasmni qo'liga olib, zimdan tikildi:

- Iya, bu Ergash traktorchi-ku! – dedi u hayrati oshib.
- Siz Ergashni taniysizmi?
- Nega tanimas ekanman. Bir mакtabda o'qiganmiz, bizdan bir sinf oldin bitirgan. Bizning qishlog'imiz sal teparoqda bo'lsayam, Yallamada o'qiganman. Shundan ko'pchilikni taniyman. Nima, Ergash biror ish...
- Mashinada siz ko'rgan odam u emasmidi? – tergovchi savolini takrorladi.
- Yo'g'e, aytdim-ku, u odam ancha yoshroq yigit edi. Keyin jussasiyam maydaroq... Ergash devday odam. U bo'lganda darrov tanigan bo'lardim.
- Yaxshi, unda hozir bir yigitni chaqiraman, bir qarab ko'ring, o'sha mashinadagi yigitga kelbati keladimikan? Faqt bu tomonga o'tib oling, – tergovchi o'ng tomondagi joyni ko'rsatdi.
- Ma'qul! – Bozorboy chaqqonlik bilan ko'rsatilgan joyga o'tib oldi.

Sanjarbek ichki telefonidan kimgadir qo'ng'iroq qilib, Zamirni olib kirishlarini buyurdi. Sal o'tmay xodimlardan biri xonaga guvohni olib kirib, o'zi chiqib ketdi.

– Keling, o‘tiring, – tergovchi chap tomonidagi stulni ko‘rsatdi.

Zamir Bozorboyga bir qarab, stulga o‘tirdi.

– Mana bu ishxonangizga ko‘rsatish uchun ma’lumotnoma, – tergovchi bir parcha qog‘ozni unga uzatdi. – Bezovtalik uchun uzr, har zamonda ayrim narsalarغا aniqlik kiritish uchun chaqirib turamiz. Faqat bu yerda eshitgan, ko‘rganlaringizni hech yerda gapirib yurmang... Mayli, siz boravering!

Zamir qog‘ozni cho‘ntagiga joylab, bir tergovchiga, bir uning yonidagi baqaloqqa javdirab, xayrlashib chiqib ketdi.

– Xo‘sh, nima deysiz? O‘xshaydimi? – so‘radi tergovchi guvohga termilib.

– Yoshi, kelbati o‘xhab ketadi... Lekin yuzi... qora-roqmidi-yey! Qorong‘ida yaxshi ko‘rolmagandim-da!

– Mayli, rahmat! Bizga katta yordam qildingiz. Agar biror narsa yodingizga tushsa, albatta, qo‘ng‘iroq qiling, – tergovchi telefon raqamini yozib berib, guvohni eshikkacha kuzatib qo‘ydi.

Keyin Sanjarbek navbat bilan Chinozdag‘i 21-A YOQSH rahbari Hasan Tohirov va Muhsin ismli operatorni so‘roq qildi. Gap qotillik jinoyati haqida ketayotganini tushungan rahbar darrov haqiqatni tan oldi:

– Bilasiz, aka, idishga benzin quyib berish mumkin emas. Yigitlarimiz shundan cho‘chib, o‘sha kuni yolg‘on aytishgan ekan. Keyin ular bilan gaplashib, hammasining tagiga yetdim. O‘n beshinchchi aprel kuni Muhsin degan operatorimiz navbatchilikda turgandi. Kechki soat yettilardan o‘tib, bir bola kelib, yo‘lda qolib ketgan mashinasi uchun benzin quyib berishni iltimos qilipti. Muhsin rozi bo‘limgan. U bola: «Iltimos, mashinada dadamni kasalxonaga olib ketayotgandim, benzin tugab qoldi!» – deya yalinib turib olibdi. Qo‘snilarnikidan yelim idish ham topib

kelibdi. Shundan keyin yigitimiz amallab 1,5 litrlik idishga benzin quyib berishga majbur bo‘lgan. Biz uni jazoladik...

Muhsin rahbarining ko‘rsatmalarini tasdiqladi. Barno-ning rasmini ko‘rib, darrov tanidi.

– Boshida men unamagandim, – dedi u nadomat bilan, – mashinada kasal otasi qolganligini eshitib, ko‘nglim bo‘lmadi... Qo‘lida idishi ham yo‘q ekan. Yu-  
gurib borib yaqin xonadonlardan biridan yelim idish topib keldi. Quyib berdim, rahmat aytib ketdi...

– Siz uning mashinasini ko‘rdingizmi? – so‘radi ter-govchi.

– Yo‘q, mashinasini ko‘rmadim. Yaqinroqda bo‘lganda mashinani itarib kelgan bo‘lardi.

– O‘scha kuni u qay holatda edi?

– Tushunmadim...

– Unda hayajonlanish, qandaydir qo‘rquv yoki bezov-talik alomatlari sezilmaganmidi?

– Bezovtaday... shoshayotganday ko‘rindi... Balki ka-sal otasini mashinada qoldirib kelgani uchun...

– Sizga hech narsa demadimi?

– Benzin so‘rab, iltimos...

– Undan boshqa... O‘zi, otasi haqida...

– Yo‘q, unaqa ko‘p gaplashishga vaqt ham bo‘lmadi.

– Balki oldingizda birortasi bilan telefonda so‘zlash-gandir?

– Pulini to‘lashga budka yoniga kelganda kim bilandir gaplashdi, – dedi guvoh biroz o‘ylanib turib, – adash-masam, «hozir borib qolaman» deganday javob berdi. Bal-ki otasi qo‘ng‘iroq qilgandir... balki uydagilar...

So‘ng qo‘sni ayol Fotima so‘roq qilindi. U ham Bar-noni rasmidan tanib, avvalgi ko‘rsatmalarini tasdiqladi...

– Turmush o‘rtog‘ingizdan darak bormi? «Bir o‘ynab kelish» muddati tugagandir, – Sanjarbek ish bo‘yicha asosiy va hozircha yagona gumondorning xotinini so‘roq

qilishga kirishar ekan, ataylab muloyimroq bo‘lishga harakat qildi.

– Qaydam, o‘rgilay, kechagi voqealardan so‘ng o‘zim ham qo‘rqib qoldim... Bu chol tushmagur biror narsaga aralashib qoldimi, deb,— Risolatda avvalgi vajohatdan asar ham qolmagandi.

– Opa, kecha ko‘rdingiz, garajlaringizdan Mo‘minjonning kiyimlari topildi,— dedi tergovchi ayolga nigohini qadab, — Eringiz shu ishni qilishi mumkinmi? To‘rt yashar Mo‘minjonni o‘ldirishi...

— Aslo! Bu g‘irt tuhmat! — dedi ayol xunobi chiqib. — Bu kishi odam o‘ldirish u yoqda tursin, chumchuq so‘yibdi, desalar ham ishonmagan bo‘lardim. Mo‘minni nega o‘ldiradi? Jonday qo‘schnining ona suti og‘zidan ketgan bolasini o‘ldirish... o‘ylab gapirayapsizmi?

— Lekin... Daliliy ashyolar — Mo‘minjonning usti-boshi uning garajidan topildi-da! O‘zi ham qochib qoldi!

— Men bilmayman, u narsalar qayerdan kelib qolgan! Garajga xo‘jayinning o‘zidan bo‘lak hech kim kirmaydi... Hayronman!

— Shuning uchun Ergash akaning o‘zi tergovga kelihi, bu savollarga javob berishi kerak edi, — tergovchi «traktorchi xotini bilan qandaydir yo‘llar bilan aloqa qilib turgan bo‘lishi mumkin» degan o‘yda yotig‘i bilan tu-shuntirishga harakat qildi. — Qochib yursa, o‘ziga yomon bo‘ladi. Hali bu yoqda Nuriddinning, Barnoning ham bedarak yo‘qolishi eringizga borib qadalib turibdi... Dalillar, faktlar shunga shama qilmoqda.

— Bu nima deganingiz, o‘rgilay! — dedi Risolat ko‘zlarini xonasidan chiqib ketguday. — Yo‘q, yo‘q, ukajon, adashayapsizlar. Xo‘jaynim... unaqa odam emas... O‘zi shunaqa qahri qattiq, qattiqko‘l ko‘ringani bilan, ko‘ngli bo‘sh... rosa sodda odam...

Tergovchi «o'tgan safar go'rdan go'rta solib, ustiga rosa mag'zava ag'dargandingiz-ku» demoqchi bo'ldi-yu, ayolning chakagi ochilib ketishidan cho'chib, indamay qo'ya qoldi. Ayol esa uning nima demoqchi bo'lganini tushunganday gapirishda davom etdi:

– To'g'ri, xo'jayin ayollarga suyagi yo'qroq... Qizilni ko'rsa ko'zini ololmay qoladi... Bu safar ham birortasiga ilakishib, biror joyga ketib qolganmi deb o'ylagandim... Bu gaplardan keyin... hayron bo'lib qoldim... O'zimizam topolmayapmiz... Izlamagan joyimiz qolmadni... Bir baloga yo'liqqan bo'lmasa go'rgaydi! Qarigan chog'imiz boshimizda shunaqa ko'rgiliklar ham bor ekan-da, o'rgilay...

– Qayerga ketgan bo'lishi mumkin? – SanjARBek ayolni gapdan to'xtatdi, – balki, sizga, boshqa qarindoshlarga qo'ng'iroq qilgandir.

– Yo'q, o'rgilay, qo'ng'iroq qilsa qaniydi! Farg'onadagi qarindoshlar bilan ham gaplashdik, kelmadi, deyishdi. Boshqa unaqa boradigan joyi ham yo'q...

– O'sha kuni Toshkentdag'i harbiyda birga xizmat qilgan Jalil degan o'rtog'inikiga borgan ekan. Ikki-uch soat o'tirib, keyin chiqib ketgan.

– Jalil do'stinikiga nimaga borgan ekan? Yaqindagina to'yiga borib kelgandi-ku, – o'ylanib qoldi Risolat, – lekin menga unikiga borishini aytmagandi.

– Ergash aka o'sha o'rtog'iga «ishlarim yurishma-yapti, Rossiyaga ketsammikan» degan gapni aytgan ekan, – so'radi tergovchi ayoldan ko'zini uzmay. – Sizing bundan xabaringiz bormi?

– Yo astag'furillo! Bu gapni sizdan eshitishim! Bu gap yana qayerdan chiqdi? Qarigan chog'ida Rossiyadagilarining unga ko'zi uchib turiptimikan! Yo qurib ketmagur bu shilqim chol yana birortasiga ilakishib...

– Rossiyaga borsa, kimning oldiga borishi mumkin?

- Katta o‘g‘lim – Sobirjon Moskvada qurilishda ishlaydi. Xotini bolalarini olib, otasinikiga ketib qolgan...
- Balki o‘g‘lini ko‘rish uchun Moskvaga ketgandir! – tergovchi bu haqda to‘la ma’lumotga ega bo‘lsada, ataylab so‘radi.
- Yo‘g‘-e, Sobirjon bilan gaplashib turibmiz, unikida nima qiladi. O‘zi bola bechora zo‘rg‘a kun ko‘rib turgan bo‘lsa! Yana bitta nonxo‘rni boshiga uradimi? Bu odamning qo‘lidan traktorchilik bilan qorovullikdan boshqa ish kelmasa!

Tergovchi yana bir qancha savollar berib, guvohdan ko‘proq ma’lumot olishga harakat qilib ko‘rdi. So‘ng so‘roqni yakunlab, «daragi chiqsa tezda bizga xabar qilasiz», – deya unga javob berdi.

So‘ng Ergashning kichik o‘g‘li Bobur, qizi Zebo so‘roq qilindi. Ular ham onasining ko‘rsatmalarini tasdiqlashdi. Lekin tergovga nafi tegadigan ma’lumot bera olishmadi.

\* \* \*

Jo‘raboy o‘zini xuddi kinolardagi izquvarlarday his qilib, katta umidlar bilan Toshkentga kelgandi. Sherigi – jinoyat-qidiruv bo‘limi tezkor vakili Hakimjon bilan Sergeli avtomashina ehtiyyot qismlari bozorida to peshingacha u yoqdan bu yoqqa sarson bo‘lsalar-da, hech qanday ma’lumotni qo‘lga kirita olmaganidan siqila boshladi. Tasavvurida Ergash traktorchining yuklarini tashigan aravakashni topib, u orqali tezda sotuvchiga chiqishi va osonlik bilan Barnoning mashinasi ehtiyyot qismlarini qo‘lga kiritishi mumkindek tuyulgandi. Biroq vaqt o‘tgan sari umidlar sarobga aylanib borayotganday edi. Osmondan igna tashlasang yerga tushmaydigan darajada gavjum bu bozorda noma’lum aravakashni axtarish, ummon ostidan gavar qidirganday murakkab ish ekanligini bilmagan ekan... Bozor rahbariyatiga ham kirishdi. Masalani eshitib, «uch

oy oldin deysiz, bu yerda kecha kimlar ishlaganini bilish amrimahol-ku», deya yelka qisishdi.

– Bu yerda arava tortuvchilarning ko‘pchiligi mavsumiy ishchi, – tushuntirishga harakat qildi bozor direktori. – Bugun ishga bittasi chiqsa, ertaga boshqasi chiqadi. Ko‘pchiligi viloyatlardan. Ismi, familiyasi ma’lum bo‘lganda, surishtirib, topib berishimiz mumkin edi...

Aravakashni topish umidlari puchga chiqqach, Jo‘raboy avtomashina ehtiyyot qismlari bozorni aylanib, Barnoning «Lasetti»si farasidagi xos belgi orqali jinoyatchilar iziga tushishni ko‘ngliga tugdi va bu masalada sherigining fikrini bilishga qiziqди:

– Guruh rahbari agarda aravakashni topishning imkonni bo‘lmasa, bozorlarni aylanib, «Lasetti»ning farasini izlashga harakat qilinglar deb tayinlagandi, Hakimjon aka, nima deb o‘ylaysiz, bundan bir ish chiqarmikan?

– Uka, Toshkent deganlari katta shahar, – dedi izquvar yuzi tirishib, – bu joydan mashinaning farasini izlab topish, kechasi o‘rmonдан igna axtarganday bir gap. Vaqtimiz bekorga o‘tgani qoladi.

– Balki poytaxtlik hamkasblaringizdan yordam so‘rasiz, – dedi Jo‘raboy tergovchilarga xos bosiqlik bilan, – ularda mashinalarning eski, ishlatilgan ehtiyyot qismlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar haqida ma’lumotlar bazasi bo‘lishi mumkin-ku!

– Ey, Jo‘ravoy uka, bu yer poytaxt bo‘lsa! O‘zlarining ishlari boshlaridan oshib yotibdi-yu, bizga yordam berishga vaqtি bormikan! Burungi paytlarda har shaharda bittaiKKita ehtiyyot qismlar do‘konи bo‘lardi. Hozir hammayoq do‘kon, hammayoq bozor! Men bo‘ladigan ishga chin dildan yopishaman! Ammo befoyda ishga negadir qo‘lim bormaydi...

– Faqat foyda chiqadigan ishga kirishaman demoqchimisiz? – hazil aralash piching qildi talaba.

– Meni noto‘g‘ri tushundingiz, – izquvarning xayolidan «bu tirrancha tergovchiga aytib bormasin» degan o‘y o‘tib, o‘zini oqlashga tushdi. – Men «foyda» deganda manfaat nuqtayi nazaridan emas, umumiyl ishga tegadigan foyda xususida gapi rayapman... Masalan, siz aytgan tadbir tergovga hech qanaqa nafi tegmaydi, demoqchiman...

– Balki foydasi tegar, oldindan xulosa chiqarishga shoshilmaylik. Keyin bu mening injiqligim emas, tergovchining topshirig‘i.

– Uka, tergovchilar bunaqa operativ ishlarga tushunarmidi! – dedi Hakimjon qandaydir bepisandlik bilan. – Ular faqat «qani top», «olib kel», «qidir», «izla», «chaqir» deyishni biladi. Hamma ishni biz izquvarlar qilamiz. Jinoyat fosh etilgandan keyin ularning «biz jinoyatni issig‘ida izidan tushib, qisqa muddatlarda tergov yo‘li bilan ochishga erishdik» deb maqtanishlariga o‘laymi?

– To‘g‘ri, jinoyatni ochishda izquvarlarning hissasi katta bo‘ladi, – Jo‘raboy ham tabiatan tortishib-talashishni, bahslashishni xush ko‘radigan odam emasmi, past ketgisi kelmadi, – biroq tergovchining o‘rnini bo‘lak. U butun jarayonni boshqaradi, jinoyatchini fosh qilish uchun igna bilan quduq qaziganday dalil yig‘adi...

– Ey, Jo‘ravoy uka, hali ancha g‘o‘rsiz-da? Siz hali nonni «nana» deb yurgan bolasiz-da! Tergovni qayerdan tushunardingiz! – izquvar hazil qilayaptimi yoki jiddiy gapi rayaptimi, tushunib bo‘lmadsi. – Mayli, bu gaplarni bir chetga surib turaylik. Gapiring, nima qilishimiz kerak, janob «tergovchi»!

Jo‘raboy shu tobda bahslashishning mavridi emasligini his qilib, sheringining gaplarini hazil sifatida hazm qilib qo‘ya qoldi:

– Bizda ikki yo‘l bor. Birinchisi, tavakkal qilib, Toshkentdag‘i barcha ehtiyyot qismlar sotiladigan bozorlar, do‘konlar va boshqa savdo nuqtalarini aylanib chiqish,

ikkinchisi esa kerakli odamlardan kerakli ma'lumotlarni yig'ib, aniq manzillar bo'yicha harakat qilish.

— Unda yuring, anovi sotuvchilardan so'raymiz, — dedi Hakimjon qator rastalarda ehtiyot qismlar savdosi bilan mashg'ul sotuvchilarni ko'rsatib, — kerakli ma'lumotlarni faqat ularidan olish mumkin. Ular qayerda, nima sotiladi, hammasini biladi.

— Nima deymiz? Ular begona odamga ma'lumot berishga unnarmikan?

— Amallaymiz-da! Ketdik, — izquvar chekkadagi sotuvchilardan birining yoniga bordi. — Aka, bizga sal arzonroq, ishlatalilgan bo'lsayam mayli, ehtiyot qismlar kerak edi-da! Shunaqasini qayerdan topsa bo'ladi?

— Uka, bizda faqat yangisi bor! Olsangiz sal kelishtirib beramiz, — dedi haligi sotuvchi pinagini ham buzmasdan.

Shu taxlit yigitlar bir necha sotuvchining yoniga borib, savolni takrorlashdi. Ammo ularning hech biridan tayinli javob ololmay xunobi chiqib, keyingi rastalar tomon o'tishdi. Avtoshina bozori yonidan o'tishda Jo'raboy nogahon hamqishlog'ini uchratib qoldi. Qishloqdoshlar quchoqlashib ko'rishi, uzoq so'rashdilar.

— Ha, Jo'raboy uka, mashina bozoriga oralab qopsan, o'qishlar tugadimi? — dedi tadbirkor yigitga zimdan razm solib.

— A'zam aka, siz shu yerda savdo qilasizmi? — dedi Jo'raboy rastalarga taxlab tashlangan turfa hajmdagi shinalardan ko'zini uzmay.

— Ey, uka, o'n besh yil bo'ldi, shu yerda nonimizni terib, birovdan keyin, birovdan oldin bo'lib, ishlab yuribmiz! Anovi do'konlar, rastalar hammasi menga qarashli! — dedi A'zam qo'li bilan o'ng tomondagi savdo nuqtalariga ishora qilib. — Boshida kichik bir joyni ijaraga olib boshlagandik. Mana, Xudo beraridan qismasa, davlat o'zi kelarkan... O'zing qalaysan, nechanchi kursga o'tding, Jo'ravoy?

- Oxirgi kursdaman, bu yil nasib qilsa o‘qishni tugataman, – dedi yigit iymanibgina.
  - Unda sizni hozirdan prokuror bobo yoki yaxshisi qozi bobo deyaversak bo‘larkan-da! – «siz»lashga o‘tdi tadbirkor.
  - Yo‘g‘-e, hali o‘qishni bitirib olaylik...
  - Bitirasiz, ishgayam kirasiz, tashvish chekmang, uka! Mana biz katta biznesmen bo‘lib nima qilib shaharda yurib-miz! Kerak bo‘lsa, tanish-bilishlarni ishga qo‘shamiz...
  - Rahmat, A’zam aka, o‘qishlar bitsin...
  - Sen bir oddiy muallimning bolasi, chekka bir qish-loqdan chiqib, Toshkentday azim shaharda huquqshunoslikda o‘qib yuribsan... Hammasiga o‘z kuching, biliming bilan erishayapsan... Ko‘rasan, ishgayam kirib ketasan! Chunki sening palaging toza! Kallali odamlarning avlodisan!
- Jo‘raboy xijolat bo‘lib, sal narida kutib turgan sheri giga qarab qo‘ydi. Uning jahli chiqayotgani yuz-ko‘zidan sezilib turardi. Shu sababli muddaoga o‘tishga majbur bo‘ldi:
- A’zam aka, eskiroq bo‘lsayam minib turishga bir «Lasetti» olgandim, – dedi yigit yolg‘on gapirayotgandan o‘zini noqulay sezib, – sal ta’mirtalab ekan... Shunga arzonroq ehtiyot qismlar izlab yurgandim... Qayerdan izlasam bo‘ladi?
  - E, yashavor o‘g‘lon, – dedi A’zam yigitning yelkasiga qoqib, – bo‘ladigan bola boshdan. Eski bo‘lsayam, mashina olib zap qilibsan! Mashina mashinani topadi, biringi sotib, yangirog‘ini olayverasan. Menam boshida eski «Moskvich»dan boshlaganman...
  - A’zam aka, sheri giga ham bor edi-da, sal shoshayotgandik!
  - Unda, ukam, bunday qilamiz, – tadbirkor qo‘l telefonini chiqarib kovlay boshladi, – mana bu raqamni yozib ol, Mardon degan oshnamniki. «Farhod» bozorining

«shef»laridan... Men qo'ng'iroq qilib, jiyanim oldingga boradi, deb tayinlab qo'yaman... Eski-tuskinining hammasini shundan topasan... Kerak bo'lsa, narxiniyam chiroyli qilib beradi, vallomat yigit! Lekin o'zing biz tomonlarga kelib tur... joylarni ko'rib olding. Bir tog'ning kiyigimiz-a! Boya aytganimday yordam kerak bo'lsa, tortinma! Axir sen hali qishlog'imizning faxri bo'lasan!

Jo'raboy talaba bo'lib, unchalik mensimayotgan sherringining oldida obro'si ko'tarilganidan bir qop shishib, hamqishlog'i bilan iliq xayrlashdi. «Izquvar»lar to'g'ri «Farhod» bozori tomonga yurishdi. Qo'ng'iroq qilib, Mardonni topishdi. Salom-alikdan so'ng yigitlarning dardini eshitgan Mardon mashinaning ishlataligan ehtiyyot qismlari sotiladigan joylarning o'n-o'n beshtasini qalashtirib tashladi.

– O'zimning ham eski mollar sotiladigan to'rtta savdo nuqtam bor, – dedi u ko'cha bo'ylab cho'zilib ketgan qator do'konlarga shama qilib. – Xohlasalaring bir aylanib ko'ringlar. Narxlar rosa talababop-da! A'zamning jiyani ekansan, yordam qilamiz, narxini chiroyli qilib beramiz. Oldin bir aylanib ko'ringlar! O'zi sizlarga qanaqa ehtiyyot qismlar kerak?

– «Lasetti»ning old faralari, bamferi, eshiklari, kapti... old tomoniga tegishli...

– Hammasidan bor, bir aylanib chiqinglar, nima yoqsa, belgilab qo'yinglar, men shu yerda bo'laman. Narxnavosini keyin kelishamiz.

Yigitlar eng yaqin do'konga kirib, ehtiyyot qismlarni ko'zdan kechira boshlashdi.

– Kattagina do'kon ekan-a, – dedi Jo'raboy «shu ishingdan koshki bir narsa chiqsa!» deganday behafsa-la yurgan Hakimjonga yaqinlashib, – odamning jonidan boshqa hamma narsa bora-a!

– Rostdan ham shularning barchasi ishlataligani ehtiyoq qismlarmikan? – dedi izquvar savdo rastasi tomonga qadam tashlab, – yo ichida yangilari ham bormikan?

– Menimcha, yangi mollar bu tomonda, eskilari esa mana bu yodda shekilli, – dedi Jo‘raboy o‘ng tomondagi rastalarga yaqinlashib.

– Shuncha molning ichidan Barnoning mashinasiga tegishli ehtiyoq qismlarni topib bo‘larmikan? – Hakimjon hamon ikkilanishda davom etar va shu bilan bu mahmadoна talabaga bekorga ovora bo‘lishayotganini tushuntirishga harakat qilardi.

– Chiqmagan jondan umid, Hakim aka, – tirjaydi tabala, – balki omadimiz chopib...

– Xuddi kinolardagidek, yo‘q, yo‘q, ertaklardagidek desa to‘g‘tiroq bo‘ladi, qidirayotgan narsamiz oyog‘imiz ostidan chiqib qolsa-ya! – piching qildi izquvar.

– Bo‘lishi mumkin. Men omadli odamman...

– Juda optimist ekansiz-da, qoyilman, – Hakimjoning chehrasi sal yorishganday bo‘ldi. – Men matabda o‘qib yurgan chog‘larim yon qo‘shnimizning Jahongir degan o‘g‘li uylanadigan bo‘ldi. Yoshi mendan 5-6 yosh katta bo‘lsa-da, xuddi o‘rtoqday edik. 1982-yilmi yoki 1983-yilning kech kuzimidi, ishqilib, kunlar ancha sovuq edi. To‘ydan bir kun oldin ZAGS payti havo birdan aynib, chelaklab yomg‘ir yog‘sa bo‘ladimi! Kelin-kuyov, yangalar, kuyovjo‘ralar, biz «tomoshabin»lar ham rosa shalabbo bo‘lib ketdik. Kechki payt kuyov bola bilan hazillashib, so‘rab qo‘yaman: «Jahongir aka, yosholigingizda rosa qirmoch yegan ekansiz-da, ertaga qor yog‘masa bo‘lgani!» «Ey, uka, xavotir olma, hammasi yaxshi bo‘ladi!» – deydi u kayfiyatini sira ham cho‘ktirmasdan. Men – yoshgina bola qo‘shnimizning to‘yi qanday o‘tarkan deb xavotirdaman-u, kuyovbolaning «hammasi yaxshi bo‘ladi!», deb bemalol yurganiga hayron qolaman. Kechasi bilan shuni o‘ylab

chiqdim. Xavotirim bckorga emas ekan. Baxtga qarshi sahar payti shunday turib, derazadan qarasam, butun borliqni qalin qor qoplabdi... U paytlar to'yxonalar, restoranlar yo'q, to'ylar hovlida bo'lardi. Bunday qorda tashqarida besh daqiqa ham o'tirishning iloji yo'q edi. «Endi to'y nima bo'ladi?» deb kuyunaman. «Jahongir aka bechora rosa siqilayotgandir», degan o'yda ularnikiga chiqdim. «Aka, buyog'i qandoq bo'lди?» – deyman unga achinib. «Menga desa, tosh yog'maydimi? Hammasi yaxshi bo'ladi, ukajon, parvo qilma!» – deydi u kuydirilgan kalladay tirjayib. Yo tovba! Inson umrida bir marta bo'ladigan nikoh to'yi buzilay deb turibdi-yu, bu odamning ishshayishi qarang-a! Hammasi yaxshi bo'larmish! Qanaqa qilib? «Bazm qayerda bo'ladi endi?» deyman unga achinish hissi bilan. «Mehmonlarni uylarga bo'lib tashlaymiz, kelin-kuyov, kuyovjo'ra, kelin dugonalar bitta uyda... san'atkorlar almashib... buyog'i badabang... hammasi yaxshi bo'ladi, sen hecham o'ylama!» – deydi kuyov bola kayfiyatini cho'ktirmasdan. Hamma tashvishda, bu odamning to'pig'iga ham kelmayotganiga hayronman! Bu yog'i ham holva ekan... Kechki payt sovuq boshlandi... Tup degan tupik yerga tushmaydi... Mehmonlar qo'shni xonadonlarga bo'lib berildi... To'yxonadagi yopiq ayvonga kelin-kuyov joylashdi... San'atkorlar sozlarini, apparatlarini sozlashga kirishdi... Shu payt daf'atan mahalliy hokimiyatdan vakil kelib, «Leonid Illich Brejnev vafot qildilar, mamlakatda uch kunlik motam e'lon qilindi, to'y, ko'ngilochar tadbirlar bekor qilinadi, siyosat bilan o'ynashmanglar, taqir-tuqurni yig'ishtiringlar, to'y bo'lmaydi!» – deb ketsa bo'ladimi! Yugurib Jahongir akamning oldiga borib, «buyog'i qandoq bo'lди?» – deyman xunobim chiqib... Kuyov bola hozir alamidan yig'lab yuborsa kerak deb o'ylagandim. Qayda deysiz, yelkamga qoqib, «Hakimjon uka, sen aslo

parvo qilma, hammasi yaxshi bo‘ladi!» desa bo‘ladimi? San’atkorlar qaytib ketishdi... Qattiq shamolda chiroqlar ham o‘chdi... Jahongir akaning pinagi buzilmadi... Shunaqa optimist odamni ko‘rmaganman. Jo‘ravoy uka, hafa bo‘lmang-u, siz ham undan qolishmas ekansiz!

Yigitlar kulisha-kulisha ikkinchi do‘konga o‘tishdi. Do‘kon boshdan oyoq ehtiyot qismlar bilan to‘la edi. Ular-ning orasidan texnikani yaxshi tushunmaydigan odamning biror narsani tanlab olishi qiyinligini his qilib, Jo‘raboy sotuvchidan yordam so‘rashga majbur bo‘ldi:

– Aka, sizlarda «Lasetti»ning old chiroqlari jamlanmasi topiladimi?

– Sizga yangisi kerakmi yoki sal-pal ishlatilganni ham bo‘laveradimi? – so‘radi sotuvchi yigit rastalarga terib qo‘ylgan mashina faralarini qo‘li bilan ko‘rsatib.

– Ishlatilgani ham bo‘laveradi... Biz Mardon akaga uchrashgandik. U kishi bir aylanib, tanlanglar, degandi.

– Bo‘ldi, sizlar kerakli mollarni tanlanglar, – sotuvchi xo‘jayininining ismini eshitib, mehribonchilik qilishga o‘tdi, – bu yerdan topilmasa, omborxonaga olib boraman.

Yigitlar har bir chiroqni qo‘liga olib, diqqat bilan razmolar ekan, chinozlik usta qo‘ygan «SH» belgisini izlardi.

– Shular hammasi «Lasetti»ning faralarimi? – Jo‘raboy xatti-harakatlari sotuvchida shubha uyg‘otmasligi uchun ataylab so‘rab qo‘ydi.

– Hammasi «Lasetti»niki. «Neksiya»niki kerak bo‘lsa, mana bu tomonda, – dedi sotuvchi yuqoriroqqa ishora qilib, – ishlatilgan faralar unchalik xodovoy emas. Ko‘pchilik farasi sinib qolsa, yangisini qo‘yishga harakat qilishadi. Bitta-yarimtasi sizlarga o‘xshab... arzonligi uchun olmasa...

– Ha, aka, endi bizlar bir talaba bo‘lsak, stipendiyaga kun kechirsak... Bir so‘m bo‘lsa-da, arzonroq olsak deymizda! – dedi Jo‘raboy o‘zining yolg‘onini xaspo‘splash uchun.

- Hammayam sizlarday talaba bo‘la turib, stipendiya-siga «Lasetti» minsin ekan!
- Qayda deysiz, stipendiyaga mashina olib bo‘larmidi! Otamizning aravasini amallab turibmiz-da!

Yigitlar do‘konni aylanib chiqqach, sotuvchi ularni sal nariroqdag'i kattagina omborxonaga ham olib bordi. Lekin u yerda ham «kerakli» ehtiyyot qismlar topilmadi. Boshqa do‘konlarga o‘tishdi... Shu taxlit kunni kech qilgan izquvarlar charchab-tolib, umidsiz holda Mardon aytgan boshqa savdo nuqtalariga borishdan foyda bo‘larmikan, degan xayolga borib ikkilanib turganlarida bozor hududidan tash-qarida yerga yoygan holda ehtiyyot qismlar bilan savdo qilayotgan kishilarga ko‘zi tushdi.

- Hakimjon aka, yuring, shularni ham bir qaraylik,
- yalindi Jo‘raboy hafsalasi pir bo‘lib, boshqa tomonga yurib ketayotgan sherigining oldini to‘sib.

– Bo‘ldi-ye, oyoqda oyoq qolmadi-ku! Shuncha katta do‘konlarni, omborlarni ko‘rdik... natija bo‘lmadi. Endi kelib-kelib, shu shara-baralar orasidan topilarmidi! Qo‘ying, boshni qotirmang, ketaylik! Ertalabgayam ish qolsin!

- Yo‘lning ustginasida... bosib o‘tib ketmaylik... Ertaga yana qaytib kelib o‘tiramizmi? Iltimos...
- Uf-f-f, sen boladan qutulib bo‘ladimi? – izquvar orqaga qaytdi.

Yigitlar yerga qator yozib qo‘yilgan mollarni ko‘zdan kechira boshlashdi. Boshqa ehtiyyot qismlarni tashlab-tashlab, mashinaning elektr jihozlari, faralari turgan tomoniga bosh tiqishardi.

- Jo‘raboy, Jo‘raboy, buni qarang! – narigi rasta tomonda turfa xil mashina chiroqlarini ko‘zdan kechirib turgan Hakimjon qo‘qqisdan baqirib yubordi, – mana buni qarang... aynan biz izlagan narsa... xuddi o‘zginasi...

Jo‘raboy otilib borib, Hakimjonning qo‘lidagi faraga tikildi:

— Voy, chindan ham «SH» belgisi-ku! Hakimjon aka, tabriklayman, biz uddaladik! Biz topdik! — Jo‘raboy sheringini quchoqlab oldi.

Yaxshiyam sotuvchi boshqa mijozga xizmat ko‘rsatish uchun sal nariga ketgan ekan, bo‘lmasa yigitlarning o‘sha holatini ko‘rib, tilla topib oldimi, deb o‘ylagan bo‘lardi.

— Endi nima qilamiz? — dedi Jo‘raboy faradan ko‘zini uzolmay, go‘yo unga oyoq bitadi-yu, qochib ketadiganday.

— Nima qillardik, daliliy ashyo sifatida bayonnomा tu-zib, farani tergov ixtiyoriga olamiz.

— Sotuvchiga... nima deymiz?

— To‘g‘risini aytamiz, iloj qancha! Pulga sotib olmaymiz-ku!

— Lekin men hozirgina unga «mashinamga fara izlayapman» degandim-da! Yolg‘on gapirganim... noqulay bo‘ldi-da!

— Ey-y, Jo‘ravoy, namuncha dovdiraysiz! — kului izquvar. — Xizmat yuzasidan shunaqa usullar qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Buyog‘ini endi bizga qo‘yib berasiz!

— Ha, yigitlar, ja-a xursandsizlar, izlagan narsalarini topdinglarmi? — dedi ellik besh-o‘ltmis yoshlardagi ozg‘indan kelgan, qoshlari betartib o‘sigan sotuvchi amaki ularning yoniga kelib. — Kechki bozor, kelishtirib beraman.

— Amaki, ismingiz nima edi? — izquvar sotuvchini bilagidan tutib, chetroqqa tortdi.

— G‘ulomboy, nimaydi?

— Mening ismim Hakimjon, jinoyat-qidiruv bo‘limidanman, — izquvar cho‘ntagidan qizil rangli hujjatni chi-qarib ko‘rsatdi. — Bu yigit — Jo‘raboy, prokuraturadan... Biz Chinoz tumanidagi bir qotillik jinoyati bo‘yicha daliliy ashyonи qidirib yurgandik...

— Yaxshi... lekin mendan... nima... — sotuvchi «qotilik» so‘zini eshitib, dovdirab qoldi.

– Tushuntiraman: yo‘qolgan «Lasetti» rusumli ma-shinaning old o‘ng farasida mana bunaqa belgisi bor ekan, – izquvar farani qo‘liga olib, bilinar-bilinmas bel-giga ishora qildi, – ko‘rdingizmi? Adashmasam, bu «Lasetti»ning o‘ng taraf farasi, shundaymi?

– Shunday, shunday... lekin qanday qilib...

– Bu matohnning qanday qilib sizga kelib qolganini endi o‘zingiz aytib berishingizga to‘g‘ri keladi, – dedi izquvar o‘dag‘aylab. – Faqat «o‘yin» qilish kerak emas! To‘g‘risini aytsangiz o‘zingizga yaxshi bo‘ladi!

– Mollarni «Mardon zapchast»dan olamiz... tirikchilikda... ustiga uch-to‘rt so‘m qo‘sib...

– Bozordagi do‘konning xo‘jayini Mardonmi? – so‘radi Jo‘raboy toqatsizlanib.

– Ha, o‘sha... lokin... ungayam kimlardir topshirsa kerak... Do‘koni bor... shunga...

– Mana bu farani qachon olgandingiz?

– Ikki hafta burun shekilli... faralar juda sekin sotiladi... xaridori kam... bozorgir emas...

Tezda daliliy ashyoni ko‘zdan kechirib, olish to‘g‘risida bayonnomas rasmiylashtirildi.

– Endi amaki, siz ham biz bilan yurasiz, – dedi izquvar bir chekkada «bu yog‘i nima bo‘ladi?» deganday javdirab turgan sotuvchiga.

– Mayliku-ya... lekin mana bu mollarni uyga...

– Birortasi bo‘lsa chaqiring, o‘zlar olib ketishadi!

– Balki mollarni yig‘ishtirib olib, uyiga tashlashiga ruxsat berarmiz, – dedi Jo‘raboy sherigini bir chetga torrib.

– Parvo qilmang, kerak bo‘lsa, o‘zlar olib ketishadi, – dedi Hakimjon sovuqqonlik bilan. So‘ng otaxonga yuzlanib, – bo‘ling, qo‘ng‘iroq qiling, – dedi.

Chol kimgadir qo‘ng‘iroq qildi. Sal o‘tmay uning ku-yovi yetib kelib, mollarga egalik qildi.

- Ketdik, endi Mardon zapchastning yoniga boramiz, — dedi Hakimjon bozor tomonga qadam tashlab.
- Yo'l-yo'lakay Jo'raboy tergov guruhi rahbariga qo'ng'iroq qilib, voqeadan voqif qildi.
- Rostdan ham o'sha belgilarmikan? — dedi Sanjarkbek qulqlariga ishonmay, — «Lasetti»ning old o'ng farasi... lotinchada yozilgan «SH» yozuvi... Adashmayapsizmi? O'z ko'zingiz bilan ko'rdingizmi?
- Sanjar aka, menga ishonmayapsizmi? — dedi Jo'raboy soddalik bilan. — Xuddi o'zginasi! Sotuvchi ham biz bilan, birozdan keyin borib qolamiz.
- E qoyil, yashang, Jo'raboy! Men sizga ishongandim.
- Hakimjon aka bo'limganlarida hech narsa qilolma-gan bo'lardim, — talaba sal narida qulog'ini ding qilib ketayotgan izquvar eshitsin degan maqsadda ataylab baland-roq ovozda gapirdi.
- Sotuvchi farani kimdan olgan ekan? — bilishga qiziqli tergovchi.
- «Farhod» bozoridagi ehtiyyot qismlar do'konining xo'jayini Mardon aka ularga ehtiyyot qismlar yetkazib berarkan. Bular ustiga uch-to'rt so'm qo'yib...
- Mardonni topdilaringmi?
- Boya u kishi bilan uchrashgandik. Hozir uning oldiga ketayapmiz, nima qilaylik? — maslahat so'radi Jo'raboy.
- O'zlaring bilan olib kelinglar, shu yerda so'roq qilamiz!
- Jo'raboy rahbarning maqtovidan bir gaz o'sganday bo'ldi...

\* \* \*

Toshkentdan qilingan qo'ng'iroq Sanjarkbekning dili ni yoritganday bo'ldi. Demak, tergov to'g'ri yo'lda! Qotil — Ergash! Mardon deganlari faralarni Ergashdan ol-

ganligini tan olsa, vassalom! Hammasi kunday ravshan bo‘ladi-qo‘yadi! Faqat endi Ergashni topish qoladi...

Oradan biror soat o‘tar-o‘tmay Jo‘raboy va Hakimjon ikki kishi hamrohligida qo‘llarida dalil bilan prokuratura binosiga mardonavor kirib keldilar. Sanjarkbek dalilni ko‘zdan kechirib, «haqiqiy» ekanligiga ishonch hosil qildi. Har ikkala «qahramon» tergov guruhi rahbaridan bir quchoq maqtovlarni qabul qilib olgach, xonaga dastlab G‘ulomboyni taklif qildilar. U oldingi ko‘rsatmalarini takrorlab, boshqa ehtiyyot qismlar qatorida aynan shu ishlataligan farani ham Mardon zapchastdan olganligini tan oldi. Keyin Mardon so‘roq qilindi:

– Men ancha yillardan beri avtomobil ehtiyyot qismlari savdosi bilan shug‘ullanaman, biznesim shunaqa. Yangi mollardan tashqari aholidan eski, ishlatalgan ehtiyyot qismlarni qabul qilib olamiz va ularni do‘konlarimizga, realizatorlarimizga tarqatamiz. Aqchasini tovarni qabul qilgan paytda srazi to‘lab beramiz... bizda shunaqa, cho‘tkiy tartib, oka!

– Tovarlarni kimlardan, qanday tartibda qabul qilib olasizlar?

– Ikkita qabul qilish punktimiz bor, – Mardon bu kabi savol-javoblarga ko‘p bor duchor bo‘lgan shekilli, erkin gapirardi, – bittasi Yangiobod bozorida, ikkinchi si Farhod bozorida. Mollar aholidan ro‘yxat asosida qabul qilinib, omborga topshiriladi. U yerdan ehtiyojga qarab, do‘konlarga, talab qilsa, bir qismi G‘ulom boboga o‘xshagan ko‘chada savdo qiladigan realizatorlarga beriladi... Ulardayam qora qozon bor, oka!

– Demak, ro‘yxatga qarab, kimdan qanaqa mol olin ganligini aniqlasa bo‘ladi, shundaymi? – Sanjarkbek mud-dao tomon yana bir qadam tashladi.

– Xuddi shunday! Oka, biz qonundan qo‘rqamiz! O‘g‘irlilik molni olib qo‘yib, boshimiz baloga qolib o‘tirma-

sin deymiz-da! Bir so‘mlik mol topshirsayam, pasportini ko‘rib, keyin olamiz!

– Siz bilan birga kelgan G‘ulom akani taniysizmi?

– Taniganda qandoq. Oldin birga ishlaganmiz, bozorda kassir edi. Rosa communist chol! Nafaqaga chiqqach, birikki yildan keyin uyida zerikib qolgan shekilli, yonimga ish so‘rab keldi. Realizator qilib qo‘ydim. Shuncha yil bozorda ishlab, bir qarich joy ham olmagan ekan, tashqarida yerda savdo qiladi... Lekin savdosi yomonmas. Ko‘pchilik bozorning ichiga kirishga erinib, kerakli narsasini shundoq yo‘l ustidan olib ketishni xush ko‘rishadi...

– U kishi mollarni qaysi ombordan oladi?

– «Farhod»dagi omborimizdan... uyigayam, ish joyiga ham bir qadam...

– G‘ulom aka sotib turgan joydan yigitlarimiz olgan mana bu farani sizlarga kim, qachon topshirganini aniqlasak bo‘ladimi? – so‘radi tergovchi yelim xaltaga o‘ralgan ashyni ko‘rsatib.

– Nima muammo, oka! Xohlasangiz, hozir ombor mudirini chaqiraman, kitobiga qarab, aniq aytib beradi. Yo ertalab... ma’qulroqmi? – tadbirkor soatiga qarab qo‘ydi.

– Hozir chaqirsangiz yaxshi bo‘lardi, – dedi Sanjarkbek muloyimlik bilan.

Mardon qo‘l telefonidan xodimiga qo‘ng‘iroq qilib, shu yilgi ehtiyot qismlarni qabul qilish va chiqarish dafstarlarini olib, tezda Chinozga – prokuraturaga yetib keli shini tayinladi. Oradan bir yarim soatcha vaqt o‘tib, o‘ttiz yoshlar chamasidagi chaqqongina yigit qo‘lida bir dasta daftар bilan kirib keldi.

– Bu kishi bizning zavskladimiz Biloliddin bo‘ladilar, – Mardon xodimini tanishtirdi, – aholidan barcha mollarni qabul qilish va ularni do‘konlarga, savdo nuqtalariiga taqsimlash uning vazifasiga kiradi.

— Assalomu alaykum, — yigit qo‘lidagi hujjatlarni rahbari o‘tirgan joydagi jurnal stoli ustiga qo‘ydi.

— Biloljon, keling, o‘tiring, — guruh rahbari joy ko‘rsatdi, — mana bu «Lasetti»ga tegishli farani sotish uchun G‘ulom boboga bergen ekansiz, uni kimdan qabul qilib olganingizni ko‘rsatib bera olasizmi?

— Ha, xo‘jayin menga telefonda aytgandi, — ombor mudiri uzalib, olib kelgan daftarlari orasidan ustidagi ikkitasini, varaqlay boshladi, — mana, belgilab qo‘ygandim, G‘ulom aka bizdan mollarni, jumladan, «Lasetti»ning bir juft farasini 13-may kuni qabul qilib olgan ekan... Endi ularning kirimini tekshiramiz... ro‘yxat raqami 625... mana «Lasetti» avtomashinasining oldi faralari, 2 dona... Chinoz tumani Yallama qishlog‘ida yashovchi...

Butun vujudi qulqoqla aylangan Sanjarbekning xayolidan «demak Ergash!» degan o‘y o‘tdi.

— 1961-yilda tug‘ilgan Po‘lat Teshaboyev tomonidan topshirilgan... Mana, marhamat, ko‘rishingiz mumkin.

Sanjarbek daftarni qo‘lga olib, 625 raqamdagagi yozuvlarga ko‘z yugurtirdi, hammasi to‘g‘ri! Po‘lat deganlari kim bo‘ldi? Nahotki, bu ish bilan shuncha paytdan beri shug‘ullanayotgan bo‘lsag-u, bunaqa odamga e’tiborimiz tushmagan bo‘lsa! Qotil qolib, kimlar bilan shug‘ullanib yuribmiz! Yo‘g‘-e, balki u qotil emasdир! Ey, nimalar deyapman, yurib turgan mashinani bo‘laklarga bo‘lib, ehtiyoq qism sifatida xufyonha sotuvga topshirgan odam qotil bo‘lmay, kim bo‘lishi mumkin? Yana Yallamadan!

— Siz o‘scha odamni eslay olasizmi? — tergovchi Billo liddinga yuzlandi.

— Hozir aft-angori esimga kelmay turibdi... bizga bir kunda ko‘p odam mol topshiradi... mol oluvchilar... hammani eslab qolish juda qiyin... Lekin ko‘rsam, balki tanishim mumkin.

- O'sha odam oldin ham sizlarga biror narsa topshir-ganmidi?
  - Yo'q, bu yaqin orada undan mol olmaganmiz... Doimiy mijozlarimizning hammasini taniyman... Ammo ba'zida shunaqalar ham uchrab turadi...
  - U nima degandi, ehtiyyot qismlarni qayerdan olganli-gini aytganmidi?
  - Xotiram pand bermasa, o'g'lim mashinani urib oldi... ta'mirlashga chog'imiz yo'q... urilgan mashinani odamlar ham olmas ekan... degandi, shekilli.
  - Faralardan boshqa u odam sizga yana qanday ehtiyyot qismlarni topshirgandi?
  - Mana, ularni ham belgilab qo'yganman, – Bilolid-din daftarni qo'liga oldi, – asosan elektrojihozlar topshir-gan... old, orqa faralar, elektronikasi, magnitofon... mana qarang 601 dan 631 gacha...
  - Faqat shularmi? – Sanjarbek daftarni qo'liga olib, ko'z tashlar ekan so'radi, – qolgan mollarni balki boshqa payti topshirgandir?
  - Po'lat Teshaboyev nomidan faqat bir marta mol top-shirilgan... men hammasini qarab chiqdim.
  - Siz molni qabul qilishda topshiruvchining pas-portini talab qilasizmi yoki nusxasini taqdim qilsa ham bo'laveradimi?
  - Asosan pasportini so'raymiz... ba'zida..., – Bilolid-din yer ostidan rahbariga qarab oldi. Uning tund bashara-sidan javobi ma'qul emasligini anglab, gapni aylantirishga o'tdi, – ba'zida pasportim uyda qolgan, deb nusxasini ko'rsatishadi... Lekin biz ulardan molni qabul qilmaymiz.
  - Demak, Po'lat ham pasportini taqdim qilgan, shun-daymi?
  - Shunday, shunday..., – ko'zini opqochdi Biloliddin. Yigitning gapi sal ishonchsizroq chiqqanini hamma sezdi.

– Biloljon, siz to‘g‘risini aytavering, – tergovchi o‘rnidan turib, guvohning yoniga keldi, – biz qotillik jinoyatini tergov qilayapmiz. Sizlarning ishlaringiz bizni qizqitirmaydi. Lekin yolg‘on so‘zlasangiz... oqibati yaxshi bo‘lmaydi... Uyalib qolishingiz mumkin...

Biloliddin bir tergovchiga, bir rahbariga qarab, o‘ng‘aysizlandi.

– To‘g‘risini aytaver, sizlar bilan ishimiz yo‘q deyaptiku, namuncha shalviraysan! – gap qo‘shti Mardon.

– Ba’zida odamlarni sarson qilmaslik uchun pasport nusxasi, xarbiy bilet asosida ham mollarni qabul qilishga to‘g‘ri keladi, – dedi yigit qizarib, – shu aka ham nimadir bahona qilib, pasportini ko‘rsatmagandi... Pasporti nusxasini bergandi... Olmayman desam, yalinib turib oldi...

– Hamma mijozlarni shunaqa yodda saqlaysizmi yoki bu odamni esda saqlab qolishingizning biror sababi bor mi? – tergovchi yigit nimadir demoqchi bo‘layotganini fahmlab, yo‘nalish berdi.

– Yodimda qolgan... sal tortishgandik. Pasporti nusxasidagi rasm juda qorayib chiqqan ekan... Yaxshiroq nusxasini chiqarib keling, degandim. U «shu rasmni deb Chinozga borib kelaymi?» – deb yalinib turib oldi...

Tergovchilar yana ko‘plab savollar berib, guvohni obdan so‘roqqa tutishdi, u bergen ma’lumotlarga ravshanlik kiritishdi.

– Sanjar aka, – «mehmon»lar chiqib ketgach, Jo‘raboyni fiqr bildirdi, – Ergash o‘zini fosh qilib qo‘yishdan cho‘chib, mollarni biror tanishining nomidan topshirgan ko‘rinadi.

– To‘g‘ri, – guruh rahbari chuqur o‘yga tolgandi, – bu yerda bir qancha taxminni ilgari surish mumkin. Siz aytgan variantdan tashqari, ehtimolligi kamrog‘idan boshlasak: birinchi taxmin – qotillikka Ergashning alo-

qasi yo‘q, haqiqiy jinoyatchi – Po‘lat. Ikkinchı taxmin, qotil bizga noma‘lum boshqa shaxs, u Po‘latning pasporti nusxasidan foydalangan. Uchinchi taxmin, Po‘lat mashinalar, ehtiyyot qismlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxs va u mollarni Ergashdan sotib olib, Toshkentga topshirgan bo‘lishi mumkin... Xullas, bu yerda taxminlar anchagini bo‘lishi mumkin... Haqiqiy holatni esa Po‘latning o‘zi aytilib bergani ma’qul.

Sanjarkbek xizmat telefoni go‘shagini ko‘tarib, tanish raqamlarni terdi:

– Aloviddin Istamovich, – dedi u bosiqlik bilan, – charchamayapsizmi? Ergashning daragi chiqdimi?

– Hamma imkoniyatlarni ishga solayapmiz... Lekin hech qayerdan daragi chiqmay turibdi...

– Biz hozirgina Barnoning «Lasetti»siga tegishli ehtiyyot qismlar topshirilgan Toshkentdagи «Farhod» bozori hududidagi do‘kon egasini so‘roq qilib, ehtiyyot qismlarni yallamalik 1961-yilda tug‘ilgan Po‘lat Teshaboyev degan kimsa topshirganini aniqladik...

– E, shunaqami? Boya menga Hakimjon mashina farasini topishganini aytgandi... Endi oldingizga otlanib turgandim...

– Yo‘q, yo‘q, kelish shart emas, – dedi Sanjarkbek soatiga bir qarab, – soat o‘ndan oshibdi, protsessual harakatlar o‘tkaza olmaymiz... Hozir siz Po‘latning shaxsini aniqlab, har ehtimolga qarshi uning qochib qolishining oldini olish maqsadida yigitlaringizni... Savdo xodimlariga ishonch yo‘q, sotib qo‘yishi mumkin...

– Tushunarli, hoziroq manzilini aniqlab, yigitlarni yuboraman!

– Ertalab olib kelishsa, ishni shundan boshlardik...

Shu payt eshik taqillab, Rahimjon kirib keldi. Guruh rahbaridan yangilikni eshitib, suyunib ketgan ustoz shogirdiga qarab:

– Tasanno, Jo'ravoyjon, tasanno! Birinchi yutuqlari muborak bo'lsin!

– Rahmat, ustoz! – o'ng'aysizlandi talaba, – Hamkimjon aka bo'limganda...

– Ularda oyoq-qo'l bor, sizda esa kalla!

Kulgi ko'tarildi.

– Sanjar aka, bu Ergash biz o'ylagandan xiyla mu-g'ambirroq ko'rindi, – Rahimjon xayoliga kelgan fikri aytishga shoshildi. – Qarang, o'zi topshirsa, izi qolishini oldindan o'ylab, birovning nomidan topshirgan... Po'lat deganlari yana kim bo'ldi? Ish bo'yicha bunaqa odam...

– Po'latni topsak, hammasi ravshan bo'ladi, – guruh rahbari yana bu haqda mulohaza yuritishni istamadi. – Hozir Aloviddinga uni topish va qochib qolmasligini ta'minlash haqida topshiriq berdim. Ertalab o'zini olib kelishadi. O'zingizda nima gaplar?

– Ha, tintuvga borganimizda Ergashnikida payvandlash yoki kesish apparati topilmagandi. Biz narigi mahallada turuvchi Bahrom degan ustani topdik. Uning aytishicha, taxminan aprel oyining ikkinchi yarmida Ergash undan gaz bilan ishlaydigan payvandlash apparatini so'rab olgan va to'rt-besh kundan so'ng qaytarib bergen ekan. Shu masalada Ergashning xotini, bolalari bilan ham gaplashdik. Risolat erining kimdandir payvandlaydigan apparat olib kelganligidan xabari bor ekan. Ammo uning aytishicha, eri o'sha kunlari apparatda molxonani o'rash uchun panjara yasagan. Buni uning o'g'li ham, qizi ham tasdiqladi. Mutaxassislar yordamida panjaralarni joyiga chiqib ko'rdik, anchagina ish qilingan. Ish bajarilgan joyda – molxonaning yeri, devorlarida payvandlash izlari qolgan... Bu shayton Ergash birov sezib qolmasin uchun ataylab panjarani o'ylab topgan ko'rindi... Kunduzi odamlarning ko'ziga panjara yasagan, kechasi garajga qamalib olib, mashinani bo'laklash bilan mashg'ul bo'lgan...

— Shunaqa deng, — SanjARBek o‘ylanib qoldi, — hamma gumon so‘qmoqlari bizni Ergash tomonga yetaklamoqda. Nahot shu yoshi bir joyga borgan, kayvoni inson... arzigulik sababsiz shunday manfur ishga qo‘l ura olsa! Odamlarga nima bo‘layapti? Sog‘ kishining bunday razilikka qo‘l urishi... Aytganday, Rahimjon, Ergashning ruhiy holati haqida ma’lumot olgandig-a?

— Olganmiz, soppa-sog‘ deb berishgan... bunaqalarni sog‘ jinni deyish mumkin.

— Yaxshi, buguncha yetar, qolganini ertaga davom etiramiz, — guruh rahbari ketishga hozirlandi...

\* \* \*

SanjARBek ertaga bo‘ladigan ishlar ko‘lamini o‘ylab, vaqtliroq uqlashga harakat qildi. Chiroqni o‘chirib, an-chagacha ko‘zini yumib yotdi. Qani endi uyqu qurg‘ur kela qolsa! Ustoz qalay ekanlar? Ayolining aytishiga qaraqanda, hammasini bo‘yniga olganmish. Qilmagan jinoyatni tan olish! Qanday ayanchli narsa! Nahotki ustozning bardoshi yetmagan? Jismoniy qiyonoqlarga chidolmagan! Tergovchi odam... buning oqibatini yaxshi biladi-ku! Endi uzoq muddatga qamab yuborishlari aniq. Tohir G‘ofurovich ham, Bosh prokuror ham hech narsa qilisha olmaydi. Mana, aybini tan olibdi, deyishadi. Eh, ustoz, ustoz, salgina chidasangiz, qilmagan ishni bo‘yningizga olmay tursangiz bo‘lmasmidi?! O‘zingiz «bir boshga bir o‘lim», degan maqolni ko‘p ishlatardingiz-ku! Yo‘q, yo‘q, ustozdan bekorga gumonsirayapman. U kishi hech qachon taslim bo‘lmassi. U ablahlar xotini, bolalariga ziyon-zahmat yetkazish bilan qo‘rigitgan bo‘lsa kerak! Kecha Rama-zon bilan gaplashganimda u ham shunga shama qilganday bo‘ldi... Endi tergovni naridan beri yakunlab, sudga oshirishsa kerak... Qancha jazo berarkan? Sudlar oqlov qilelmasligi aniq. Hech bo‘limganda kamroq jazo berish-

ga jazm qila olarmikan? Yoki anovilar qancha ko'rsatsa, o'shani o'qib berisharmikan? Esiz shunday odam-a...

Sanjarbek ishga kelganida Rahimjon va Jo'raboy uni kutib turishardi:

– Assalomu alaykum!

– Vaalaykum assalom! Nima, sizlar kechasi bilan ishlab chiqdinglarmi? – hazillashdi guruh rahbari.

– Ey-y, odamning ko'ziga uyqu kelarmidi? Dehqon o'g'li Barotning uyqusida oq oltin deganlaridek, bizning uyquda ham shu Ergash traktorchchi-da! – dedi Rahimjon quvnoq ohangda.

– Menam uxlolmadim-ey! – dedi Jo'raboy og'zini to'ldirib. – Nihoyat bugun qotilning ismini eshitamiz, degan o'yda kechasi bilan odam hayajonlanib chiqdi-ya!

– Tasdig'ini desangiz to'g'riroq bo'lardi, – Rahimjon e'tiroz bildirdi, – qotilning ismi ma'lum-ku!

– Kim ekan? – dedi Sanjarbek temir shkafdan hujjalarni ola turib.

– Kim bo'lardi, Ergash-da! – hech ikkilanmay javob berdi Rahimjon.

– Balki Po'latdir? Balki Zamir... balki boshqasidir! – Sanjarbek ataylab olovga yog' sepdi.

– Mana, meni aytdi deysizlar, qotil Ergashdan boshqa it ham emas! Mening tergovchilik ichki hissiyotim shundan so'zlamoqda, – kuldi Rahimjon. – Marhamat, garov o'ynashim mumkin, yutqazsam bitta osh bizdan! Yutsam, osh sizlardan... konyagi... gazagi bilan... hi-hi-hi!

– Kelishdik, – bir ovozdan ma'qullahdi boshqalar.

Shu payt eshikda Aloviddin ko'rindi.

– Barchaga salom! – izquvar hamma bilan qo'l berib ko'rishib chiqdi. – Po'lat Teshaboyev janoblarini olib keldim, kirsinmi?

– Kirsin, – dedi guruh rahbari joyiga mahkamroq o'rashib.

Xonaga chamasi ellik yoshlarni qoralagan, sochlari-ga birda-yarim oq oralagan, modasi sal o'tgan bo'lsa-da, bo'yniga qalin bo'yinbog' taqib olgan, qorachadan kelgan xiyla daroz kishi iymanibgina kirib keldi va bosh irg'ab hamma bilan hol-ahvol so'rashgan bo'lди.

— Po'lat aka, keling, mana bu yerga o'tiring, — guvoh-ga joy ko'rsatdi Sanjarbek, — pasportingizni berasizmi?

— Marhamat, — Po'lat yon cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan pasportni chiqarib, tergovchiga uzatdi.

«Mehmon» sal o'ziga kelib olishi uchun tergovchi undan qisqacha oilasi, bolalari haqida so'radi.

— To'rt qiz, to'rt o'g'il, deng, rosa badavlat inson ekansiz-ku! Shuncha bolani boqish qiyin bo'lmayaptimi? Bizlar ikkitasini qanday katta qilarkanmiz, deb ba'zida o'ylab qolamiz.

— Qora qozon qaynab turibdi-ku, tish bergen Xudoyim rizqini ham berarkan-da! — biroz dadillandi guvoh, — birovdan oldin, birovdan keyin...

— Xizmat qayerda, aka? — Rahimjon gap qo'shdi.

— O'qituvchiman, yigirma besh yildan beri matematikadan dars beraman...

— E-e-e, ustoz odam ekansiz-ku, — Sanjarbek bo'la-jak suhbat oldidan guvohning kayfiyatini ko'tarib olishga harakat qilardi, — biz mакtabda o'qigan kezlari o'qituvchining obro'si qanaqa edi? Bozor iqtisodiyoti deb, ko'п ustozlarni boy berib qo'ydik... Ko'philigi tirikchilik deb bozorga chiqib ketdi, bir qismi boshqa kasblarning etagini tutishga, yana bir qismi chet ellarga chiqib ketishga majbur bo'llishi. Faqat kam sonli fidoyi o'qituvchilar mакtabda qoldi. Shunday fidoyi insonlar orasida ekansizda, qoyil! Mana, mакtabda ishlab ham kattagina oilani tebratsa bo'larkan-ku!

— To'g'ri aytasiz, — Po'latning chehrasi yorishdi, — bir mакtabda eski muallimlardan ikki kishi qoldik.

Qolganlari aytganingizday tarqab ketishdi... Faqat o'z kasbini sevganlar qoldi. Oylik kam bo'lsayam chidadik. Bola-chaqamiz bilan tomorqaga yopishdik. Och qolmadik!

– Sizga rahmat! Hali ko'rasiz, o'qituvchining obro'e'tibori, nufuzi yana oshadi. Axir ajdodlarimiz ustozlarini qanchalik ardoqlagan. Amir Temur Sohibqiron vafot etganda xokini ustozi Mir Said Barakaning poyiga qo'yishlarini vasiyat qilgan ekan. Hali yana shunday zamонлар keladi.

– Aytganingiz kelsin...

– Aka, mashinangiz ham bormi? – hamkasbining gapni aylantirishidan yuragi siqilib ketgan Rahimjon chidab turolmadi.

– Mashina deysizmi, o'qituvchi odamning mashina olishga qurbi yetarmidi? – guvoh hayron bo'lib tergovchiga tikildi.

– Unda «Farhod» bozoridagi do'konga topshirgan «Lasetti» mashinasining ehtiyoj qismlarini qayerdan olgandингиз, – Sanjarbek maqsadga ko'chishga majbur bo'ldi.

– Tushunmadim, qanaqa bozor, qanaqa «Lasetti»... nima haqida gapirayapsizlar? – ajablandi guvoh.

– Mana bu imzo siznikimi? – tergovchi o'rnidan turib, qo'llidagi daftarni guvohga uzatdi, – ana, pasport ma'lumotlaringiz ham ko'rsatilgan.

– Imzo sal-pal o'xshayapti, – dedi Po'lat daftarga zimdan tikilib, – pasport ma'lumotlarim ham to'g'ri... lekin... bu qanaqa hujjat... tushunmadim...

– Imzo sizniki bo'lsa, demak siz topshirgansizda! – xulosa qilishga shoshildi Rahimjon.

– Menikiga o'xshayapti deyapman..., – shivirladi guvoh hamon hujjatdan ko'zini uzmay. – Pasportga shunaqa qo'yganman... Hozir daftar, kundalikka qo'l qo'yaverib, sal ixchamroq qo'yadigan bo'lganman...

– Imzoni qo‘ya turaylik, do‘konga nimalarni tops-hirganingiz yodingizga tushdimi? – guvohning sal «chekingani»dan Rahimjon tashabbusni qo‘lga oldi.

– E-e, uka, hazillashayapsizmi? – Po‘latning qoshlari uyuldi. – Men jinni emasman-ku, kimga nima berganimni bilsam kerak!

– Mana bu hujjat, mana bu sizning imzongiz, – Rahimjon o‘rnidan turib, guvohga yaqin kelib o‘dag‘ayladi, – do‘kondor sizdan olganman deb aytib turgan bo‘lsa, o‘jarlik qilishga balo bormi? Undan ko‘ra, bu mollarni kimdan, nima maqsadda olganingizni ayting!

– E-e ukajon, bu odam qiziq ekan-ku! – guvoh guruh rahbariga najot ko‘zi bilan qaradi. – Meni birov bilan adashtirayapti chog‘i...

– Po‘lat aka, – SanjARBek yotig‘i bilan tushuntirishga harakat qildi, – eshitgan bo‘lsangiz kerak, biz Sodiq akaning o‘g‘li Barnoga tegishli «Lasetti» mashinasini qidiruvga berganmiz. Kecha xuddi o‘sha mashinaning farasi «Farhod» bozoridagi do‘konda sotilayotgani aniqlandi. Hujjatlarni ko‘tarsak, o‘sha ehtiyyot qismlar sizning nomin-gizdan topshirilgan ekan. Sotuvchi ham buni tasdiqlab turibdi. Balki pasportingizni yoki uning nusxasini biror kishiga bergandirsiz?

– Yo‘g‘-e, kimga beraman, pasportim har doim o‘zim bilan... Nima, sotuvchi mollarni mendan olganligini aytayaptimi?

– Hozir u ham keladi, sizlarni yuzlashtiramiz, o‘shanda hammasi ma’lum bo‘ladi, – dedi SanjARBek battol jino-yatchi ularni bu yerda ham chuv tushirib ketganidan haf-salasi pir bo‘lib.

– Pasportim hamisha o‘zim bilan deysiz, unda bozordagilar sizni tush ko‘ribdimi? – Rahimjonning ensasi qotdi. – Yo o‘zingiz borganingizni tan oling, yo pasportingizni kimga berganingizni ayting, nima qilasiz o‘yin qilib!

- E-e-e, ukajon... men to‘g‘isini aytib turibman... Kalomullo ursin-ey, agar yolg‘on so‘zlab turgan bo‘lsam...
- Qasam ichishniyam boplab qo‘yarkansiz... Kap-katta odam! Bizni ahmoq deb o‘ylamang, hammasining tagiga yetamiz! Yaxshisi bor gapni aytинг!
- Pasportingizni oxirgi marta qachon ishlatgandin-giz? – so‘radi guruh rahbari.
- Yaqin orada pasportga zaruriyat bo‘lgani yo‘q, – dedi muallim biroz o‘ylanib turib, – o‘tgan oyda tuman maorif bo‘limidan pasportim nusxasini so‘rashgandi. Chinozga borganimda paynetdan 2 ta nusxasini chiqartirib olgandim. Keyin bir nusxasini xodimlar bo‘limiga olib borib topshirdim. Bir nusxasini uyga – hujjatlar orasiga qo‘ydim... yana kerak bo‘lib qolsa...

Shu payt xodimlardan biri Toshkentdan Biloliddin degan yigit kelganligini xabar qildi. Guruh rahbari uni tezda olib kirishlarini tayinladi. Salom-alikdan so‘ng Sanjarbek toshkentlik mehmonga qarshisidan joy ko‘rsatib, maqsadga ko‘chdi:

- Siz bu odamni taniyapsizmi? – dedi u qarama-qarsi tomonda o‘tirgan Po‘latni ko‘rsatib.
- Yo‘q... tanimay turibman... – duduqlandi Biloliddin.
- Sizga ehtiyyot qismlarni, jumladan, anovi faralarni topshirgan chinozlik Po‘lat Teshaboyev shu kishi bo‘ladi.
- Yo‘g‘-e, bu kishini birinchi ko‘rib turishim, u odam pakanaroq... oppoqroq edi... shaharlik odamga o‘xshab ketardi...

– Nima, shaharlikning shoxi bo‘ladimi? – e’tiroz qildi Rahimjon.

- Yo‘g‘-e, endi... sal boshqacharoq demoqchiydim-da!

Tergovchilar shu taxlit Biloliddinga Ergash traktorchi, Zamir va boshqa bir qancha ishga aloqador shaxslarning rasmlarini tanib olish uchun ko‘rsatdi. Biroq u bu shaxs-

lardan birortasini tanimasligini, ular mollarni topshirgan kimsaga umuman o‘xshamasligini bildirdi.

Shu kunning o‘zida Po‘lat Teshaboyev ishlaydigan maktab direktori, tuman xalq ta’limi bo‘limining xodimlar bo‘yicha mutaxassisasi, Chinozdagi paynet sotuvchi so‘roq qilindi. Ular muallimning pasport nusxasini begona shaxsга bermaganligini, o‘zлari ham undan foydalanmaganligini aytishdi.

Kechki payt tergov guruhi vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilar ekan, Sanjarbek asabini qanchalik jilovlashga harakat qilmasin, chidab turolmadı:

— Hech narsaga tushunmay qolayapman! Bu qotil o‘lgur shaytonmi, jinmi? Hech narsadan tap tortmay yonginamizda bemalol mosayrab yuribdi. Prokuratura, Ichki ishlar, mahalla, shuncha aholi, butun boshli tizim uning ortidan quvib borayapmiz-u, yetdim deganda hamمامизни chuv tushirib, chap berib ketmoqda. «Tutib olish qo‘lingdan keладими?» deganday biz bilan mushuk-sich-qon o‘ynashdan hayiqmayapti. Bu ham yetmaganday, us-timizdan kulib, jinoiy faoliyatini davom ettirmoqda, hech narsadan hayiqmasdan bemalol jinoyat izлarini yashirish, yangi jinoiy rejalar tuzish bilan mashg‘ul! Barnoni o‘ldirib, mashinasini bozorda sotganda hech kim yo‘lini to‘smadi! Keyin Nuriddinning hayotiga zomin bo‘ldi, biror inson mushugini pisht demadi! Va nihoyat Mo‘minjonni... U muttaham hozir ham tinch turgani yo‘q. Hammamizni ahmoq qilishda davom etmoqda. Qanday bo‘lmasin tergovni chalg‘itib, noto‘g‘ri yo‘lga solish, qilmishlarini boshqa begunoh shaxsga ag‘darib, o‘zi jazodan qutulib qolish va jinoiy faoliyatini davom ettirish niyatini amalga oshirmoqda. Qanchalik og‘ir bo‘lsa-da, tan olishimiz kerak, ma’lum ma’noda u battol tuzgan jinoiy rejalarining bajarilishini uddaladi! «Yovuzlikning dasti uzun», deganlari shumikan! Biz-chi? Biz nima qilayapmiz? U bizni changida qoldirib,

besh-olti qadam oldinda ketayapti! U tuzgan shumliklarni xayolimizga ham keltirolmayapmiz. Bu ketishda u bizga yana qanday «surpriz»larni hozirlab qo'ygan, bilmaymiz! Mana, kecha uning iziga tushganday bo'lgandik. Yo'q, adashgan ekanmiz, u hammasini oldindan ko'ra bilib, hammasini o'ylab qo'ygan ekan. Tag'in devor suyatib ketdi... Yana boshi berk ko'chaga kirib qoldik... Qilgan taxminlarimiz birin-ketin sarobga aylanmoqda...

— Sanjar aka, kechirasiz-u... — Rahimjon o'midan turmasdan gap qo'shdi, — siz mahoratli tergovchisiz... Ammo tergovchi sal qattiqqa'lroq bo'lmasa, jinoyatni fosh qilib bo'ladimi? Bunaqa ko'ngil bo'shlik, murosasozlik, yo'li bilan qotillikni ochish amrimahol.

— Nima taklif qilasiz? Ayting! — SanjARBek hamkasbiga yuzlandi. — Agar ishga foydasi bo'lsa, qattiqqa'llik qilishga ham, jo'yali har qanday taklifingizni qo'llashga ham tayyormiz.

— Men sizga o'z fikrimni aytganman. Yana takrorlashga hojat yo'q.

— To'g'ri, aytgansiz, — qizishdi guruh rahbari, — yetarli asos bo'lmasa-da, ko'zga ko'ringan, duch kelgan odamni qamoqqa tiqib, keyin ko'rsatma olishni taklif qilganingiz esimda!

— Men ko'chada yurgan odamni olib kelib qamash kerak demayapman, — Rahimjon ham past ketmadi, — guman ostidagi shaxslarni bir-ikki kunga qamasa, har qanday oliftasiyam mulla mingan eshakday yuvosh bo'lib qoladi... Aybini tan oladi! Shu paytgacha bu usul bilan qanchadan qancha jinoyatlarni ochib kelayapmiz-ku! Bugunga kelib, Amerika ochishning kimga keragi bor!

— Ana ko'rdingizmi, biz tergovchilar shunaqa deb tur-sak, boshqalar nima qilsin! — SanjARBekning jahli chiqqani ko'rinish turardi. — Men jinoyatni qonuniy yo'llar bilan fosh qilish taraf doriman! Bitta jinoyatchini qo'lga olaman

deb, boshqa bir qancha begunoh shaxslarni bir kun bo'lsada qamoqda ushlash... jinoyatning o'zginasi! Ha, ha, jinoyat! Unday holda biz prokurorlarning jinoyatchilardan nima farqimiz qoladi! Jamiyatda qonun ustuvorligini kim ta'minlaydi? Men bu yo'lidan yurmaganman, yurmayman va bundan keyin ham boshimga qilich kelsa-da, zinhor yurmoqchi emasman! Sizga ham maslahatim, uzoqqa boraman desangiz, bu yo'lidan voz keching! Mayli, hozircha bu masalaga nuqta qo'yib turamiz...

Sanjarbek biroz o'ylanib turib, bir chekkada prokurorlarning baxsidan «maza» qilib o'tirgan guruh rahbariga yuzlandi. Aloviddin Istamovich, Ergashni qidiruv ishlari qanday ketayapti, biror yangilik bormi?

– Ergash borishi mumkin bo'lgan barcha joylar tekshirildi, qarindosh-urug'laridan tashqari, do'stlari, xizmatdoshlari, sinfdoshlari so'raldi. Yuborgan so'rovnomalaramizga javoblar olindi. Toshkent viloyati va poytaxtdagi shifoxonalar, o'likxonalar, hushyorxonalar, vaqtinchalik saqlash muassasalarida bunaqa odam ro'yxatga olinmagan. Chegara postlarida ham uning respublikadan chiqib ketganligi aniqlanmadidi. Telefon qo'ng'iroqlari tarixi, pelengatsiyasi tahlili ham hech narsa bermadi. Oxirgi paytlar u bilan mu-loqotga kirishgan shaxslar orasida shubhalisi uchramadi. Oldin aytganimdek, voqeja sodir bo'lgan kuni u bir necha marta quroldosh do'sti Jalil bilan gaplashgan, bir marta ishxonasidagilar qo'ng'iroq qilishgan...

– Ishxonasidan kim bilan so'zlashgan ekan? – so'radi guruh rahbari qog'ozga nimalarnidir qayd eta turib.

– Qorovulxonadagi xizmat telefonidan qo'ng'iroq qilishgan, ikki daqiqa-yu o'ttiz besh soniya gaplashilgan, menimcha, smenadoshlaridan biri bo'lsa kerak...

– Kim, nima maqsadda qo'ng'iroq qilganini aniqlash lozim. Balki hamkasblariga biror narsa degandir.

– Tushunarli!

– Bilasizlarmi, negadir kechadan beri miyamga Ergash navbatdagi qotillik qurbaniga aylanib qolmadimikan, degan fikr charxpalakday aylanib qoldi...

Hamma sergaklanib, guruh rahbariga qaradi.

– Ergashning qo‘qqisdan yo‘qolib qolishi bejiz emasga o‘xshaydi, – davom etdi u. – Makkor qotil avvaliga tergovni Ergashning izidan tushishga majbur qildi. Aynan barmoq izlari olinadigan kuni uni Toshkentga yo‘lladi. Bu bilan traktorchining gumondorlar ro‘yxatida birinchi o‘ringa ko‘tarilishini ta’minladi. Keyin esa bizning unikiga tintuvga borishimizni oldindan bilib, garajga dalliliy ashyolarni tashlab qo‘ydi. Hammaning qotil aynan Ergash ekanligiga ishonchini hosil qilgach, endi navbatdagi reja – gumondorni yo‘q qilishning payiga tushgan. Nadomatlar bo‘lsinki, u bu ishni ham xamirdan qil sug‘urgandek uddalagan ko‘rinadi... Traktorchini yer-u ko‘kdan topolmayotganimiz sababi ham shunda... Bu odam ko‘rinishidagi hayvon yana bir kishini hayotidan judo qilganda ham, hech narsani yo‘qotmasligini yaxshi biladi, qo‘lga tushgan taqdirdayam uchta qotillik uchun javobgar bo‘lding nima, to‘rttasi uchun javob berding nima! Lekin Ergashni oradan olib tashlash unga katta imkoniyatlar eshigini ochishini ham yaxshi tushunadi. Birinchidan, u sodir etgan uchta qotillik Ergashning bo‘yniga qoladi. Marhumilar gapirmaydi, hech kimni hech kimga sotmaydi! Jinoyat ishi ayblanuvchining vafoti munosabati bilan harakatdan tugatiladi. U battol esa suvdan quruq chiqadi, muqarrar jazodan qutulib qolgani yetmaganday, yangi-yangi jinoiy rejalar tuzishga o‘zini shaylaydi...

– Sanjar aka, nima, Ergashni o‘ldiga chiqarayapsizmi? – Rahimjonning yuzi tirishdi.

– Afsuski, shunaqaga o‘xshayapti. Yo sizda boshqa-cha fikr bormi?

– Ergash – qotil, jazodan qutulib qolish uchun qochib yuribdi! Uni o‘ldiga chiqaradigan bo‘lsak, bu yog‘i nima bo‘ladi? Ishni yopishga to‘g‘ri keladimi? Yo‘q odamning gardaniga uchta qotillikni osib, hammasini bosti-bosti qilamizmi? Yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolib ketaveradimi? Shuni xohlayapsizmi?

– Aksincha, men Ergash bilan ovora bo‘lib, haqiqiy qotilni esdan chiqarib qo‘ymaslikni, uni topib, sudning qora kursisiga o‘tqazishni taklif qilayapman.

– Ergashning qotil ekanligi kunday ravshan bo‘lib turgan bir paytda, siz yana qanaqa qotil haqida gapirayapsiz, tushunmay qoldim!

– Menam Sanjar akaning gapiga qo‘shilaman, – dedi boyadan biri o‘z fikrini aytishga iymanib o‘tirgan Jo‘raboy Rahimjonning gaplaridan ko‘ngli to‘lmay, – Ergash qotilga o‘xshamayapti. Haqiqiy qotil uni allaqachon o‘ldirgan ko‘rinadi. Menimcha...

– Ey, sen bola, aqli bo‘lib qoldingmi? Nima qila-san kattalarning ishiga aralashib, jim tursang bo‘lmaydimi? – jerkib soldi Rahimjon.

Jo‘raboy bir guruh rahbariga, bir ustoziga qarab, gipidan to‘xtab qoldi.

– Rahimjon, bechora bolani o‘zimiz guruhga qo‘shdik, u ham hamma qatori tinim bilmay ishlayapti, qo‘ying, og‘ziga urmang, gapirsin, – dedi SanjARBek hamkasbiga qarab. So‘ng qizarib-bo‘zarib turgan talabaga qarab dalda berdi:

– Jo‘ravoyjon, marhamat, davom eting.

– Qotilning ish uslubidan kelib chiqadigan bo‘lsak, Ergashning o‘ligi ham topilmasligi mumkin. Bu bizga hamma aybni unga ag‘darib, jinoyat ishini tugatishga asos bo‘lmasligi lozim. Ayni paytda, biz traktorchi bilan ishlarni jonlantirgan holda noma‘lum qotilni ham qidirishdan chekinmasligimiz shart.

— Tushungan odamning sadaqasi ketsang arziydi, — Sanjarbek muzokaraga yakun yasashga shoshildi. — Biz asosiy urg‘uni traktorchiga berishimiz to‘g‘ri bo‘lmaydi. Qotilni qidirishimiz va topishimiz kerak. Ergash tirik bo‘lsa, baxtimiz, hammasini o‘zi aytib beradi. Mabodo o‘lgan bo‘lsa, hech narsani aytib bera olmaydi, uchta qotillik uning gardaniga tushadi. Ammo bunga yo‘l qo‘ymasligimiz, aybsiz odamning ruhini chirqiratmasligimiz lozim...

— Mayli, sizlar qanday o‘ylasanglar o‘ylaveringlar, man, baribir, o‘z fikrimda qolaman, — Rahimjon hamon yon bergisi kelmasdi.

— Mayli, har kimning mustaqil fikri bo‘lgani yaxshi! — jilmaydi Sanjarbek hamkasbining ko‘nglini olish uchun. — Faqat bu umumiy ishga salbiy ta’sir qilmasa bo‘lgani!

\* \* \*

Mana uch-to‘rt kundirkni, Faxriddin Karimovichni hech kim bezovta qilmadi. Olgan jarohatlari bitib, miriqib uqlashga, kitob mutolaa qilishga, hatto, Qur’oni karimdan bir qancha suralar yod olishga imkonni bo‘ldi. Bema’ni his-tuyg‘ularni miyasidan quvishga, tushkunlik batqog‘idan tamomila chiqib ketishga, umid shamchirog‘ini o‘chirmaslikka harakat qildi. Kun bo‘yi bir necha marta jismoniy tarbiya mashqlarini bajarib, o‘zini bardam va tetik tutishga, salomatligini asrashga urindi. Buni qarangki, «aybi»ni bo‘yniga olgach, hamxonadan ham yolchib qoldi. «Odam taftini odam oladi», deb bekorga aytishmasakan. Sherigi ellik besh yoshlardagi novchadan kelgan, chehrasidan nur yog‘ilib turadigan dilkash odam chiqib qoldi. U ham o‘zi qatori yemagan somsasi uchun pul to‘layotganlardan ekan. Fan doktori, institut rektori bo‘lib ishlagan bu inson o‘z boshidan kechganlarini gapi-

rib berganda, shunday olim insonning shu ko'yga tushib o'tirganidan yuragi achishdi, o'z ahli ilmlarini jaholat qilichi ostiga tashlab qo'ygan jamiyatdan ko'ngli sovib ketganday bo'ldi...

— Ey, Faxriddinjon uka, — deya gap boshlagandi o'shanda Olimjon aka, — bu ham siz-u bizga berilgan bir sinov. Bir kuni hammasi ortda qoladi. Taslim bo'lmasligimiz, ertaga yaxshi kunlar kelishiga ishonib yashashimiz, g'oliblik da'vosidan kechmasligimiz kerak. Konfutsiy aytganidek, hech qachon yiqilmagan buyuk emas, yiqilib, turib ketolgan buyukdir. Hali siz-u biz o'mganimizni ko'taribgina qolmay, katta ishlar qilamiz, mana ko'rasiz.

Bu gaplar Faxriddinning zimiston qalbini ancha yoritib, yuragiga taskin bo'ldi. Uzoq davom etgan qizg'in suhbatlardan ma'lum bo'ldiki, Olimjon aka universitetni tamomlab, Kiyevda fan nomzodi darajasiga erishgan, oradan uch yil o'tib, o'ttiz yoshida fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'lgan. Yosh olim katta orzu-umidlar qanotida O'zbekistonga qaytib kelgan. Tez orada o'z mehnati, biliimi, salohiyati tufayli kafedra mudiri, fakultet dekani va institut rektori maqomiga erishgan. Ilmda o'z maktabini yaratgan.

— Vatanimga qaytib, ilm qilaman, xorijda olgan tajribamni fanni rivojlantirishga sarflayman, deb o'ylagandim, — deya davom etgandi olim kuyunchaklik bilan. — Afsuski, keyingi yillarda jamiyatda ilmga, ilm ahliga e'tibor susayib ketdi. Qora qozon g'amida o'qituvchilar maktabni tashlab bozorga chopdilar. Muallimlarning bir qismi kollejlarga quvildi. Maktabda o'qituvchi yetishmay turgan bir paytda, katta-katta kollejlarni chalasavod domlalar egalladi. O'qish tizimi izdan chiqdi. Oliy o'quv yurtini bitirganlar ish izlab yurganda, kollejlarni nomiga bitirgan, hech qanday mutaxassislikni uddalay olmaydigan bitiruvchilar ishsizlar armiyasiga kelib qo'shilaverdi.

Natijada ishsizlik haddan tashqari oshib ketib, mehnatga layoqatli aholining katta qismi chet ellarga ish izlab ketishga majbur bo‘ldi... Oliygohlarga qabul tizimi bir to‘da poraxo‘rlar qo‘liga o‘tib ketdi. Bu tizimga qarshi turmoqchi bo‘lganlar, mana, biz kabi yo‘ldan sidirib tashlandi... Buni qarang, o‘quvchilar ichidan eng ilmlilarni saralab olish uchun joriy qilingan test tizimi «ot o‘yin»ga aylantirib yuborildi. Bir tarafdan pastda domlalar xizmatdagilar bilan kelishib, o‘rniga birovni kiritish, alohida xufyona guruh tuzish, ichkariga bilimli bolalarmi kiritib, savollarni yechib berish va boshqa yuzlab yo‘llar bilan bilimsiz, chalasavod bolalarming o‘qishga kirishlariga erishgan bo‘lsalar, tepe-da Test markazidagilar undan ham tepadagilar oliygohlar rahbarlari bilan kelishgan holda «qo‘srimcha qabul» de-gan baloyi azimni ixtiro qilishdi. Har bir oliy o‘quv yurtiga ming-minglab iqtidorsiz bolalar qo‘srimcha o‘rinlarga «tanka»lari yordamida qabul qilindi. Har bir qo‘srimcha o‘rin mutaxassislikning nufuziga qarab sotib, pullandi. Shu tariqa oliygohlar chalasavodlar hisobiga to‘ldirildi. Menga o‘xshab bu o‘yinlarda qatnashishdan bosh tortgandalar uzoqqa bormadi, ishdan olindi yoki qamalib ketdi... To‘g‘ri ishlasa, qanday qamaladi, deysizmi? Tushuntiramani: viloyatdagi katta-kichik rahbarlarning farzandlari, qarindoshlari bor. U erkatoylar o‘z bilimi bilan o‘qishga kirolmasligi aniq. Rahbar seni xonasiga chaqirib, «Dom-la, bizning erkatoylar sizga topshirgan ekan. Bir qarab qo‘ying, imtihonlardan o‘tolmay, odamni sharmanda qilib o‘tirmasin», deb qo‘lingga ro‘yxat tutqazadi. Yo‘q, qo‘limdan kelmaydi, desang, ishonishmaydi. «Hamma rektorlar amallayapti-ku, siz ham yo‘lini qiling» deyishadi. Men testlarga aralasha olmasam, qanday qilib yordam qilishim mumkin! «Jiyan»lar hammasi imtihonlardan yiqiladi. Rahbar darg‘azab bo‘lib telefon qiladi, «oyog‘ingiz yerdan uzilibdi, cpolmasangiz, arizangizni yozib ishdan

keting», deb po'pisa qiladi. Bu tomondan xavfsizlik xizmati, prokuraturadagilar ham sizdan ko'ngli qolib, qo'lini yuvib, qo'litiqqa urishadi... Bir-ikki kun o'tar-o'tmay papkasini qo'litiqlab, tekshiruvchilar kirib kelishadi va biron xato-kamchilik topmagunicha ketmaydi. Kerak bo'lsa olti oy lab taftish qilishadi. «To'g'ri ishlaganman, qonuni buzmaganman», deya xomtama bo'lmas! Baribir biror narsani bo'yningga qo'ymasdan chiqib ketishmaydi. Tekshiruvchilarda ham bola-chaqa bor! Kamchilik topmasa, o'zlarining boshi baloga qoladi. Hech bo'lmasa, institut bo'yicha besh yilda kuygan chiroqlami hisoblab, «falon million o'zlashtiribsiz» deya bo'yningga kamomad qo'yadi...

— Yo'g'-e, juda unaqa emasdirov, — deydi Faxriddin ishonqiramay.

— Birov aytsa menam ishonmagan bo'lardim, — deydi professor kyunib, — shu malomat o'zimning boshimga tushgani uchun aytayapman. Ha, ishonavering, meni — katta institutning rektorini ana shunaqa mayda-chuydalar uchun qamab o'tiribdi. Men bir olim odam — na testiga, na qabuliga aralashmagan bo'lsam, davlat mulkiga xiyonat qilishni xayolimning bir chekkasiga ham keltirmagan bo'lsam, poraxo'rlik qilmagan bo'lsam-da, ashaddiy jinoyatichiga aylanib o'tirsam... Odamga alam qilar ekan!

— Biz jinoyatchilarning ortidan quvaverib, bunaqa ishlarga aralashmagan ekanmiz, — deydi Faxriddin hamsuhbatiga qanday qilib dalda berish yo'lini topolmay.

— Bolalaringiz hali o'qishga kiradigan yoshda bo'lmasa kerak-da! — kuladi domla. — O'ylaymanki, ular bilimli va zukko bolalar, o'z kuchlari bilan o'qishlarga kirib ketishadi, ularga «tanka»ning keragi bo'lmaydi...

— Rahmat, domla! — Faxriddin bolalari yodiga tushib, chuqur xo'rsindi.

— Ey, ukajon, nimasini aytay, — domlaning dardi qo'zib ketdi, — ilm-fan rivojlanmagan joyda taraqqiyot

bo‘ladimi? Fanlar akademiyasi faoliyatini deyarli to‘xtatdi. Ilmiy tadqiqot institutlari yopilib ketdi, moddiy-texnika bazasi talon-toroj qilindi. Xodimlari ko‘chaga itqitildi. Ilm-u urfon ustunlari -- akademiklar haydaldi, quvg‘in qilindi. Buni qarang, biologiya bo‘yicha respublikamizda ko‘zga ko‘ringan olim, akademik Bakir ustozimiz ayni ilmda kuch-qudratga to‘lgan payti siyosiy motiv (qaysidir ishdan ketgan rahbar bilan birga ishlaganligi uchun) bilan ko‘chaga haydaldi. Uning uchun barcha o‘quv dargohlari eshigi yopildi. Hatto, maktabga oddiy o‘qituvchilikka ham ishga olishmadi. Xayriyat, rossiyalik hamkasblari uni ishga taklif qilishdi. Domla dunyoning eng nufuzli oliygochlardan biri AQSHdagi Garvard universitetida talabalarga dars berib yurishga majbur bo‘ldi. Katta olimning salohiyatidan biz emas, o‘zgalar foydalandi... O‘sanda – hech qayerga ishga joylasholmay qiynalib yurgan kezlarda ustoz nima deganini bilasizmi? Haligacha eslasam qonim qaynab ketadi. Ustoz ham menga o‘xshab xorijda – Leningradda doktorlik ishini himoya qilgan. Yosh olim ustozlarining Rossiyada ishga qolish haqidagi taklifini rad etib, Vataniga shoshilgan. Vatanparvarlik tuyg‘usi har narsadan ustun kelgan. O‘sha paytda isroillik hamkasblar ham uni Tel-Avivga ishga taklif etishgan. Kattagina mansab, xizmat mashinasi, uy-joy, tegishli shart-sharoitlarni muhayyo qilishni va’da berishgan. Tabiiyki, ustoz hech ikkilanmasdan bu taklifni ham rad etgan... Ish topolmay, qiynalib yurgan kezлari domla o‘sha davrlarni ko‘zida yosh bilan eslab, «O‘sanda ularning taklifiga rozi bo‘lmaganimdan afsusdaman!» degandilar...

Hikoyani diqqat bilan eshitar ekan, Faxriddinning etlari junjikib ketdi. Domlaning keyingi so‘zлari uning qulog‘iga kirmasdi. Miyasida olimlarini xor-zorlikka mahkum qilgan jamiyat tanazzulga yuz tutmaydimi degan hayqiriq quyundai aylanardi...

Baliqchilik xo'jaligiga yetib kelgan Rahimjon avval xo'jalik rahbari, xodimlar bo'limi boshlig'i bilan gaplashib, Ergash haqida surishtirdi. So'ng qorovullar bilan gapplashdi.

— Smenani ertalab soat sakkizlarda qabul qilib oldim, — dedi Ergash Toshkentga ketgan kuni navbatchilikda turgan Darveshali ismli otaxon. — Keyingi kun ertalab Ergash mendan postni qabul qilishi kerak edi. Biroq u o'sha kuni ishga chiqmadi. Yana o'zim ishda qolishga majbur bo'ldim...

— Ergash nima sababdan ishga chiqmagani bilan qiziqdingizmi? — so'radi tergovchi.

— Biror ishi chiqib qolgandir-da, deb o'yladim. Lekin ishga kelmaydigan yoki kechikadigan bo'lса, oldindan ogohlantirardi... Keyin anovi gaplar chiqib ketdi... hayron bo'p qoldik... Odamning ishongisi kelmaydi.

— Qaysi gaplarni aytayapsiz, otaxon? — tergovchi go'yoki hech narsaga tushunmaganday talmovsiradi.

— Tergovchiman deyapsiz, bilsangiz kerak, — dedi chol xijolat chekib, — hammayoqda «Ergash odam o'l-dirib, qochib ketganmish» degan mish-mish yuribdi, tavba qildim! Odamning olasi ichida bo'larkan-da! Tappa-tuzuk odam deb yursam...

— O'sha yakshanba kuni siz navbatchilikda turgan kuni peshinga qadar qorovulxonangizga kimlar kirganini eslay olasizmi? — tergovchi maqsadga ko'cha qoldi.

— Ey, bolam... bizlarda xotira qolibdimi? Ertalab yegan narsamiz yodimizda turmaydi-ku, siz...

— Yaxshilab eslab ko'ring, yakshanba kuni ko'pchilik ishga chiqmaydi...

— Ey, bolam, bu qorovulxona deganlari bir kaptarxonaning o'zginasi. Birov kirib, birov chiqadi. Ishi boram, ishi yo'g'am, kutganam, adashganam, suv so'raganam,

qog‘oz-qalam izlaganam, telefoni o‘chib qolganam hammasi shu yerda... barini eslab bo‘ladimi?

— Shu kuni soat o‘n birdan sakkiz daqiqa o‘tganda qorovulxonadagi telefonidan Ergashning qo‘l telefoniga qo‘ng‘iroq qilingan, ikki-uch daqiqa gaplashilgan. Yaxshilab eslang-chi, o‘shanda kim qo‘ng‘iroq qilgandi?

— Soat o‘n birlarda deng... kim qilgan bo‘lsa...

— Balki o‘zingiz qilgandirsiz? Biror narsani so‘rash maqsadida...

— Yo‘q, men yakshanba kuni Ergashga qo‘ng‘iroq qilganim yo‘q... Dushanba kuni ertalab ishga kelavermagach, ishga kelish-kelmasligini bilish uchun ikki-uch marta qo‘ng‘iroq qildim... Lekin telefoni o‘chirilgan ekan.

— To‘g‘ri, dushanba kuni Ergashning telefoni ishlamadi, — ta’kidladi Rahimjon, — demak siz yakshanba kuni unga biror marta qo‘ng‘iroq qilmagansiz, shundaymi?

— Yo‘q, qilmaganman... Nima, menga ishonmayapsizmi, bolam? — dedi chol xo‘mrayib. — Qilsam qildim deyman-da! Yolg‘on gapirib nima qilaman!

— Otaxon, xafa bo‘lmang, siz qilmagan bo‘lsangiz, kimdir qo‘ng‘iroq qilgani aniq. Boshni bir joyga qo‘yib, eslang-chi, soat o‘n birlar atrofida yoningizga kimlar kрганди.

— O‘n birlarda... — qorovul bir nuqtaga tikilgancha, xayolga cho‘mib, fikrlarini jamlashga harakat qildi, — o‘n birlar atrofida... ishqilib peshingacha... G‘aybullha kassir kim bilandir gaplashgandi... keyin to‘rtinchchi brigadada ishlaydigan Nomoz polvon... yana Bosim cho‘tir... e-e-e kechirasiz, Bosim shofyor... esimda qolganlari shular.

— Balki chekkadan kimdir kelgandir? Eslang, eslang, — qistalang qildi tergovchi.

— Qanaqa chekkadan? — hayron bo‘ldi chol.

— Xo‘jalikda ishlamaydiganlardan demoqchiman.

- Ha-a-a, aytganday... qo'shni Hoji akaning o'g'li chiqqandi, otiyam Asrormi, Asqarmi-yey... yana... qishloqdan qudamizning qo'shnisi Zamir degan bola... baliq olishga kelgan ekan...
- Zamir, qaysi Zamirni aytayapsiz? – Rahimjon bir qalqib tushdi.
- Zamir... Toshkentda tekstilda ishlab yuradigan bola bor-ku... bizning qudamiz bilan qo'shni... Manovi Ergashning mahallasidan...
- Shunaqa deng! Zamir soat nechchilarda kelgandi? – dadillandi tergovchi.
- Anig'i yodimda yo'q-da, bolam. Peshingacha kelgani aniq... Nega deganda... men peshindan keyin kenjam Sayidalini o'rnimga qoldirib, o'zim Chinozga jiyanimizning to'yiga ketgandim. Kech tushganda yana ishga qaytiq kelgandim.
- Zamir nima maqsadda kelgan ekan?
- U bola uchinchi brigadadagi Mansur degan do'stimi, qarindoshimi bor, ishqilib, o'sha yigitning oldiga har zamonda kelib turadi... Baliq olib ketadi.
- O'sha kuni ham u Mansur bilan uchrashdimi? Baliq olib ketdimi?
- Uchrashgan bo'lsa kerak, kutib o'tirgandi... e'tibor qilmapman...
- Zamirning qancha vaqt gaplashgani, nima deb gapirganiga ahamiyat bermaganmidingiz?
- Ey-y, bolam-a, shunchasini eslaganimni ayt... Halidayam bozor kuni edi... Boshqa kunlari kim kirib, kim chiqqanini o'zimiz ham bilmay qolamiz...
- Zamir telefonda bir marta gaplashdimi yoki bir necha martami?
- Bir marta shekilli... Aniq yodimda yo'q-da, bolam... Biri u, biri bu deb chalg'itishadi... kim nima qilganiga e'tibor qilolmay qolarkansan kishi...

Rahimjon yana bir qancha savollar berib, guvohning ko'rsatmalarini qog'ozga muhrladi va o'sha joyning o'zidan guruh rahbariga qo'ng'iroq qildi.

— Tag'in Zamirmi? — dedi Sanjarbek hamkasbining axborotini eshitib. — Bu yigit oyog'imiz tagida ko'p o'ralashayotir, yana so'roq qilishga to'g'ri keladi, shckilli.

— Menam o'ylanib qoldim... Boshqalarni nima qilamiz?

— Qorovul aytgan barcha shaxslarni guvoh sifatida so'rashga to'g'ri keladi, guvohlarning barchasini xo'jalikning o'ziga yiqqaneningiz ma'qul. Ha, darvoqe, Ergash to'g'risida qanday ma'lumotlar to'pladingiz?

— Ijobiy tavsiflashdi, hech kim bilan urushmagan, janjallashmagan... ishiga ham e'tiroz yo'q.

— Yaxshi, — gapni qisqa qildi guruh rahbari, — qaytganingizdan so'ng Zamirni birgalikda so'roq qilamiz. Faqat Mansurni prokuraturaga chaqirish lozim. Zamir bilan yuzlashtirishga to'g'ri kelib qolishi mumkin! Omad!

Rahimjon Darveshali bobo aytgan barcha guvohlarni so'roq qildi. Ammo ular o'tgan yakshanba kuni Ergash traktorchiga qo'ng'iroq qilmaganini, telefon qilishga sabab ham, asos ham bo'limgaganini, ayrimlari esa uning telefon raqamini bilmasliklarini aytishdi. Guvohlardan faqat ikkitasi o'sha kuni qorovulxonada oldida Zamirga ko'zi tushganligini bildirishdi. Shuncha ter to'kib, tergov uchun nafi tegadigan tuzukroq fakt aniqlolmaganidan tarvizi qo'llitig'idan tushgan tergovchi kech tushganda prokuratura ga qaytdi.

— Ha, Rahimjon, qovog'ingizdan qor yog'ayapti, — guruh rahbari hamkasbining kayfiyati yo'qligini sezib, ko'nglini ko'tarish maqsadida hazillashdi, — natijasiz qaytdingiz, shundaymi?

— Uf-f... kun bo'yи kezib, hech narsaga erisholmay natijasiz qaytsang, alam qilarkan kishiga!

– Hech qanday natija chiqmaganining o‘zi ham – natija! – Sanjarbek ustozining yaxshi ko‘rgan iborasini yana bir bor takrorladi. – Negaki, biz, baribir, shu holatlarni tekshirib ko‘rishga majbur edik. Natija ma’lum bo‘ldi, demak endi bu tarafdan alag‘da bo‘lmasdan boshqa yo‘nalishda ishlashga o‘tishimiz mumkin.

– To‘g‘riku-ya! – Rahimjonning biroz chehrasi ochildi.

Eshik taqillab, xodimlardan biri baliqchilik xo‘jaligidan Mansur degan yigit kelganligini xabar qildi.

– Marhamat, Rahimjon, o‘zingiz so‘roq qiling, men rossiyalik hamkasblardan kelgan xat bilan tanishayotgandim, – dedi guruh rahbari qo‘lidagi qog‘ozga shama qilib.

Xonaga o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlardagi, qotmadan kelgan, baquvvat yigit kirib keldi. Tergovchi guvohning shaxsiga oid ma’lumotlarga oydinlik kiritgach, maqsadga o‘tdi:

- Zamir sizga kim bo‘ladi?
- Qaysi Zamir... o‘zimizning Zamirmi?
- Zamir degan tanishlaringiz ko‘pmi?
- Yo‘g‘-e, yallamalik Zamirmi demoqchiydim, – dedi yigit qizarib.
- Ha, o‘sha Zamirni aytayapman, sizga kim bo‘ladi?
- Do‘stim, birga o‘qiganmiz... Nimaydi?
- U bilan tez-tez uchrashib turasizlarmi?
- Ba’zi-ba’zida, og‘aynilar bilan oshxonada to‘planishganda... to‘y-ma’rakada...
- Ishxonangizga ham borib turadimi? – chuqurlasha bordi tergovchi.
- Har zamonda... ishi bo‘lsa...
- Sizda nima ishi bo‘lishi mumkin?
- Baliq olishga kelardi.
- Oxirgi marta u qachon sizning oldingizga borgan-di? – navbatdagi savolni berdi tergovchi.
- O‘tgan yakshanba kuni kelgandi... Baliq buyurtma qilgandi, o‘sha kuni olib ketdi.

- U soat nechchilarda sizning oldingizga borgandi?
- Adashmasam, tushlikka yaqin qo‘ng‘iroq qildi, men chiqib, buyurtmasini berib yubordim...
- U qaysi raqamdan sizga qo‘ng‘iroq qilgandi?
- Qo‘l telefonidan bo‘lsa kerak... hozir anig‘i yodimda yo‘q...
- Uning qo‘ng‘irog‘i telefoningiz xotirasida saqlanib qolganmikan?

Mansur cho‘ntagidan telefonini chiqarib, kovlashga tushdi.

- Ha, mana menga o‘n ikkidan sakkiz daqiqa o‘tganda qo‘ng‘iroq qilgan ekan... qorovulxonadagi telefondan foydalangan ekan...
- Qo‘l telefoni bo‘laturib, nega u qorovulxonadagi telefondan qo‘ng‘iroq qilgan?
- Bilmadim... hisobida pul kam bo‘lgan bo‘lsa kerakda.
- Demak, sizga o‘n ikkidan sakkiz daqiqa o‘tganda qo‘ng‘iroq qilgan, siz qancha vaqtda uning oldiga chiqdin-giz?
- Darrov chiqdim... besh daqiqa o‘tar-o‘tmas...
- Keyin nima bo‘ldi?
- Ko‘chada biroz gaplashib turdik, keyin u uyiga ketdi, men ishga qaytib keldim.
- Zamir qayoqqa ketishini sizga aytganmidi?
- Aytishga... aytmadi... qayoqqa ketardi, uyiga ketgandir-da! Dam olish kuni bo‘lsa...
- U sizga «Toshkentga boraman» demaganmidi?
- Yo‘g‘-e... unaqa gap bo‘limgandi.
- Sizlar nimalar haqida gaplashdingizlar?
- U yoq, bu yoqdan... men «uyylanib, ko‘rinmay qol ding, kelin ruxsat bermayaptimi?» deb hazillashdim. Uning achchig‘i chiqdi...
- Nega jahli chiqadi? – hayron bo‘ldi tergovchi.

– U hammamizdan kech uylandi. Bo'ydoq payti kim ko'rsa «Qachon uylanasan?» deb so'rayverganidan bezor bo'lib ketgandi. Nafsoniyatiga tekkanday bo'lardi, urushib ketishdan ham toymasdi...

– Yigirma besh yoshdan keyin uylanmay yurgan yigitdan «qachon uylanasan?» deb so'rashlari tabiiy, nega jahli chiqadi? – Sanjarbek gapga qo'shildi.

– Menam shuni aytardim. So'rasa so'rayversin, «nasis qilgan kuni uylanamiz-da» deb qo'yavermaysanmi, desam, «ular so'ramayapti, ustimdan kulayapti, erkakmisan demoqchi bo'layapti», deya xunobi chiqardi negadir... Uylanishdan gap ochgan odamni jinidan yomon ko'rardi...

– Nima uchun unda shuncha payt uylanmay yurgan? – qiziqdi guruh rahbari.

– Imkoniyati bo'lmasa, nima qilsin, bechora... Boshida otasi bo'lmasa... O'zi ishlab, pul topib yig'inguncha vaqt o'tib ketdi-da!

– To'y ko'pchilikniki emasmi? Qarindosh-urug'lar yig'ilishib, uylantirib qo'yishsa...

– Ey, aka, qon boshqa bo'lgandan keyin, qarindosh-urug'dan nima foyda... bir qorindan talashib tushganlar bir-biriga yordam qilolmayapti-yu...

– Bu nima deganingiz, nima, Zamirning qoni boshqa demoqchimisiz? – SanjARBek guvohga yaqin keldi.

– Yana o'ziga aytib yurmanglar, – pichirladi guvoh, – Mayram opa uni va singlisi Luizani yoshligida asrab olgan, tutingan otasi bir yildan keyin vafot etgan. Opa bechora ikki bolani bir o'zi qiyinchilik bilan katta qilgan... Aka, o'zi nimaga so'rayapsizlar? Zamir biror ishkalga aralashib qolganmi?

– Yo'q, hammasi joyida, sizga javob! – guruh rahbari gapni qisqa qildi.

Keyin Zamir so'roq qilindi. U sinfdoshining ko'rsatmalarini to'la tasdiqladi.

– O'sha kuni Ergash akaga qo'ng'iroq qilgan ekan-siz-a? – Sanjarbek sinash maqsadida ataylab savol berdi. – Nima xususida gaplashgandinglar?

– Menmi? – e'tiroz qildi Zamir qoshlari chimiri-lib, – qo'ng'iroq qilganim yo'q... Adashmayapsizmi?

– Yakshanba kuni Ergash traktorchiga baliqchilik xo'jaligi qorovulxonasidan qo'ng'iroq bo'lgan ekan. Biz o'sha kuni qorovulxonaga kirgan barcha bilan gaplashdik. Hech kim qo'ng'iroq qilmagan. Darveshali bobo sizning qorovulxona telefonidan kim bilandir gaplashganingizni aytdi. Har holda, qo'shningiz... nima haqda gaplashgan-dinglar?

– To'g'ri, men qorovulxonadan Mansurga qo'ng'iroq qildim...

– Qo'l telefoningiz bo'laturib, nega boshqa telefondan foydalandingiz?

– Hisobimda pul kamroq edi... Telefon o'chib qolma-sin degan maqsadda.

Rahimjon piyolaga choy quyib, guvohga uzatdi. Zamir qaltiroq qo'llari bilan piyolani olib, ichmasdan stol ustiga qo'ydi.

– Siz xo'jalikka qachon borgandingiz?

– Soat o'n ikkilarda...

– Mansur bilan xayrlashgandan so'ng uyingizga qayt-dingizmi?

– Ha, yakshanba kuni boshqa qayerga ham borar-dim. Uydagilarga baliq va'da qilgandim, tushlikka qovurib yedik...

Guvohga javob bergach, tergovchilar taassurotlarini o'rtoqlashishga kirishdilar:

– Buni qarang, shuncha vaqtidan buyon shug'ullanib, Zamirning shaxsi to'g'risida hech narsa bilmas ekan-miz-a! – dedi Sanjarbek derazadan ko'z uzmay.

– Men ham hayron qoldim, hech kim aytmaganini qarang! Lekin buning ishga nima aloqasi bo‘lishi mumkin? – yelkasini qisdi Rahimjon.

– Aloqasi bo‘lganda qandoq! Zamir Ergash traktor-chidan keyingi asosiy gumondorlardan biri. Uning ruhiy holatini bilish biz uchun juda muhim... Uylanish xususida gap ochilsa, g‘azabini jilovlay olmay qoladi, dedi. Nega shunaqa? Sababi aniq: yigit bir umr yetimligidan, ota-onam deb yurgan insonlar aslida unga yetti yot begona ekanligidan ezilib yashagan, boshqalar qatori uylana olmasligining sababini ham shunda deb bilgan. Shu sababli kimki uylanishdan gap ochsa, ko‘ziga baloday ko‘ringan, izzat-naf-siga tekkanday, g‘ururini oyoq osti qilganday, o‘zini ha-qoratlanganday his qilgan. Bundaylar tashqi ko‘rinishidan yuvoshga o‘xshasa-da, aslida anchagina jizzaki, darg‘azab bo‘lishadi. Eng yomoni, ruhiy tushkunlik o‘sha shaxsda odamlarga, butun jamiyatga nafrat tuyg‘usini keltirib chiqarishi mumkin. Mana nima uchun ayrim qotilliklarda motiv bo‘lmaydi...

– Gaplaringizga tushunganday bo‘layapman, – tan berdi Rahimjon.

– Yana bir narsa, – Sanjarbek stol ustidagi kalendar ni qo‘liga oldi, – shu paytgacha e’tibor qilmagan ekanman, qarang, Barno ham, Nuriddin ham yakshanba kuni yo‘qolgan. Ergashning yo‘qolishi ham aynan yakshanba kuniga to‘g‘ri kelayapti... Bu yerda biror bog‘liqlik borga o‘xshamayaptimi?

– Rostdan ham... – yelkasini qisdi Rahimjon, – balki shunchaki tasodifdir.

– Bo‘lishi mumkin, – dedi guruh rahbari ovoziga rasmiy tus berib, – Rahimjon, shu yigit bilan shaxsan o‘zingiz shug‘ullanasiz. Zamirning shaxsini, ruhiy holatini chuqurroq o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Yakshanba kuni baliqchilik xo‘jaligidan qaytgach, uning qayerga borganligini,

nima bilan shug‘illanganligini daqiqama-daqiqa aniqlash lozim. Orqasidan kuzatuv qo‘yish, telefon so‘zlashuvlarini eshitishni tashkil etish zarur.

– Tushunarli! – Rahimjon topshiriqni qayd daftariga yozib olgach, so‘radi: – Sanjar aka, nima, siz qotillikni Zamir qilganligiga ishonchingiz komilmi? Qo‘limizda unga nisbatan hech narsa...

– U ham gumondorlardan biri, lekin u anchagina puxta, sirtiga suv yuqtirmaydiganlar xilidan. Murakkab shaxs. Unga alohida e’tibor qaratayotganimning sababi ham shunda... Boshqa tarafdan qaraganda Ergash yo‘q, Zamir dan boshqa pichoqqa ilinadigan gumondorning o‘zi mavjud emas-ku!

– «Rossiyadan javob kelgan», degandingiz, nima deyishibdi? – gapni boshqa yoqqa burdi Rahimjon.

– Ha, Ergashga ijobiy tavsifnoma berishibdi, – guruh rahbari stol ustidagi hujjatni hamkasbiga uzatdi. – Xizmat davomida bir necha bor taqdirlangan, intizomiylor choraga tortilmagan. Darvoqe, Zamir harbiy xizmatda bo‘lganmi?

– Yo‘q, xizmatda bo‘limgan, oilada yagona o‘g‘il farzand bo‘lganligi bois chaqirilmagan shekilli.

Eshik taqillab, xonaga izquvarlar boshlig‘i kirib keldi:

– Assalomu alaykum!

– Vaalaykum assalom, Aloviddin Istamovich, biror yangilik aytarsiz, – Sanjarbek najot ko‘zini tikdi.

– Yo‘q-da, na o‘ligi, na tirigi bor! Juftakni rostlagani chinga o‘xshaydi. Menimcha, xufyona yo‘llar bilan Qozog‘istonga chiqib ketdiyov.

– Cho‘ntagida puli yo‘q, qayerga ham borardi, – dedi Rahimjon sovuqqonlik bilan.

– Nega puli bo‘lmasakan, – e’tiroz qildi izquvar, – Barnoning mashinasini sotgan-ku... o‘sha pulni beliga tugib olgan. Keyin bunaqa odamlar cho‘ntagida bir miri

bo‘lmasa-da, amallab kunini ko‘rib ketaverishadi... qo‘lida hunari bo‘lsa...

– Lekin... oradan shuncha kun o‘tgan bo‘lsa-da, hech kim bilan aloqaga chiqmaganiga hayronman, – mushohada qilishga kirishdi Sanjarbek. – Boshqa telefondan bo‘lsa-da, xotini yoki bolalariga qo‘ng‘iroq qilishi kerak emasmidi?

– Qo‘ng‘iroq qilgan bo‘lsayam, ular bizga aytarmidi? – luqma tashladi Rahimjon.

– Barcha yaqinlarining telefon so‘zlashuvlari nazoratda, boshqa raqamdan chiqsa ham farqi yo‘q, hammasini eshitib turibmiz, – izoh berdi Aloviddin.

– Hozir texnika rivojlanib ketgan, kerak bo‘lsa, qo‘shnisiga qo‘ng‘iroq qilib, telefonni xotini yoki bolasiga olib borib berishni iltimos qiladi va xohlagancha gaplashib oladi, – dedi Rahimjon past kelgisi kelmay, – qo‘shnilarning telefon so‘zlashuvlarini nazoratga olmaganmiz-ku! Shundaymi?

– To‘g‘ri, lekin xotin, bola-chaqasi bizga qo‘shilib, izillab chopib yurishibdi-da, – dedi izquvar Rahimjonga javoban, – qo‘ng‘iroq qilgan bo‘lganda bunchalik xavotir olishmagan bo‘lardi.

– Ergash tayinlab qo‘ygan bo‘lsa-chi, – tergovchi izquvarga «o‘chakishdi», – shaxs bedarak yo‘qolganda ko‘p hollarda aybdor hammadan ko‘ra ko‘proq vahima ko‘tarib, dod-voy solayotgan qarindosh bo‘lib chiqadi. U o‘zini shubhadan xoli qilish hamda tergovning borishini kuzatib borish uchun odatda qidirish tadbirlarining boshi-da turadi...

– Rahimjonning gapida jon bor, – hamkasbini qo‘lladi guruh rahbari, – shu sababli Aloviddin Istamovich, Ergashning oila a‘zolarining har bir harakatini diqqat bilan kuzatib borish lozim. Traktorchi tirik bo‘lsa, unga chiqib borishning yo‘lini o‘zları ko‘rsatishadi. Mabodo Ergash bu

dunyonи тарк этиб, наубатдаги қурбонга айланган бо'лса, ишимиз анча чигаллашади. Маккор қотил о'з услубида бу yerда ham мурдана топиб бо'лмас даражада ю'қотишга ерішган бо'лса, ахволимиз undan-da og'irlashади...

Tergov-qidiruv исхларининг барча ю'налишлари бо'yicha qizg'in munozaralardan so'ng guruh a'zolari joy-joyiga tarqalishib, berilgan topshiriqlarni ado etishга киришдilar...

\* \* \*

Sanjarbek xonasiga kirishi билан телефони жиринглади. Екранда Bosh прокурор о'rнинбосарининг рақамини ко'rib, ichidan zil ketdi.

— Tohir G'ofurovich, assalomu alaykum, — quyuq salom berar ekan tergovchi hozir beriladigan savollarga nima deb javob berishni o'ylardi.

— Sanjarbek, yaxshimisiz? Nima gaplar? Ishingizda siljish bormi?

— Keyingi besh-ohti kun davomidagi уринишларимиз ham natijasiz bo'ldi, — og'riniб axborot berishni boshladi tergovchi, — Ergashning daragi chiqmadi. Uning xotini, bolalari va boshqa yaqinlarini kuzatish, telefon so'zlashuvlarini eshitish ham foyda bermadi. Qotilga mashina ehtiyyot qismлари orqali chiqib borish «g'oya»si ham boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Jabrlanuvchilar va yaqinlarining aloqalari to'liq o'рганиб chiqildi, bizga ma'lumlaridan tashqari, ularning boshqa biror shaxs bilan nifoqlashmagani, ixtilofga bormagani aniqlandi. Barnoning mashinasidagi yo'lovchining shaxsini aniqlash borasidagi уринишлар ham zoye ketdi. O'tkazilgan ekspertizalar, yuzlab so'rovnomalarga olingan javoblarning tergov uchun nafti bo'lmadi. Yo'qolgan bolalarning murdasini yoki kiyim-boshini topish uchun qishloq atrofidagi chakalakzorlar, to'qaylar, daralar, tepaliklar va boshqa ovloq joylarda

o'tkazilgan izlash-qazish ishlari, xonadonlarda o'tkazilgan ko'zdan kechirish ishlari ham besamar ketdi. Izquvarlar-ning tezkor surishtiruvlari, aholi orasidagi, jazoni ijro etish joylaridagi «agent» (manba)lardan olingan ma'lumotlar ham naf bermadi.

– Yaxshi, yaxshi! Tushkunlikka tushmang! – dedi rahbar o'zgacha bir mehribonlik bilan, – shiorlaringiz bor edi-ku... «natija chiqmasligining o'zi ham bir natija» de-gan... Faqat Ergashga yopishib qolib, boshqa yo'nalishlarda ishlar qolib ketmasin...

– Albatta, boshqa yo'nalishlarda ishni to'xtatganimiz yo'q.

– Sanjarbek, shuncha ishni o'sha traktorchi qilganiga o'zingiz ishonasizmi? Ichki hissiyotingiz nima deyapti?

– Hamma faktlar unga qarshi... ustiga ustak, qochib qolgani...

– Intuitsiyangiz nima deyapti? – savolini takrorladi rahbar.

– Lekin shaxsan men, uning qotilligiga ishonqiramay turibiman...

– Unda anovi qo'shni yigit... oti kim edi?

– Zamirni aytayapsizmi?

– Ha, u to'g'risida qanday fikrdasiz?

– Zamir ancha murakkab shaxs... ammo unda qotillik qilish uchun motivni ko'tmayapman...

– Balki ruhiy holatida nuqsoni bordir? Bilasiz, bun-daylar uchun sabab shart bo'lmaydi... Kallasiga kelgan noma'qulchilikni qilishadi.

– Yo'q, yo'q, Zamirning ruhiyatida muammo aniqlan-madi.

– Ota-onasi, oilaviy holati qanaqa? – Tohir G'ofurovichning tergovga qandaydir yordam qilishga harakat qila-yotgani sezilib turardi.

– Zamir juda qiyinchilikda o'sgan, – tergovchi guruh ishlayotganligini anglatish uchun ataylab batafsilroq axborot berdi. – Uni dastlab otasi, sal o'tmay onasi tashlab ketgan. Bola yetti yoshga qadar xolasi va pochchasingning qo'lida tarbiyalangan. Bir yilga bormay xolasi uni bolalar uyiga topshirgan. Keyin Zamir va singlisi Luizani Mayramgul opa va Nig'mat aka asrab olgan. Ko'p o'tmay Nig'mat aka ham olamdan o'tgan, Mayramgul opa qiynalib bo'lsa-da yolg'iz o'zi ikki asrandisini voyaga yetkazgan... Kech uylanishining sababi ham shunda. Ayni paytda u onasi, singlisi va yaqinda uylangan xotini bilan birga yashaydi. Qo'ni-qo'shnilar, mahalla ahli bilan munosabati yomon emas, ish joyidan yaxshi tavsiflangan...

- Boshqa yana qanaqa taxminlaringiz bor?
- Bir qancha-a taxminla-a-ar ustida ishlayapmiz... – nima deb javob berishga qiynalib, duduqlandi tergovchi.
- Mayli, Sanjarkbek, sizga o'rgatmoqchi emasman, nima qilish lozimligini o'zingiz yaxshi bilasiz. Yamoqchiga qanday yamashni o'rgatish aqlsizlik. Qalb amri bilan ish tuting! Bilasiz, ish shaxsan Bosh prokuror nazoratida. Qolaversa, jamoatchilik bizga ko'z tikib turibdi. Qanday bo'lmasin, jinoyatni ochishimiz kerak... Hozircha «guruuning ishlaridan rahbariyatning ko'ngli to'layapti», deb aytolmayman... Otni qamchilamasangiz bo'lmaydi...
- Rahmat, Tohir aka, ishimizdan o'zimizning ham ko'nglimiz to'lmayapti... Lekin Xudo xohlasa, tez kunlarda jinoyatni ochishga erishamiz... Yuzingizni yerga qaratmaymiz!

- Rahmat sizga! Omad! – rahbar muloqotni yakunlashga shaylandi.
- Tohir aka... – Sanjarkbekning ovozi halqumiga tiqildi.
- Eshitaman, Sanjarkbek... biron gapingiz bormi?

- Faxriddin Karimovichning ishi... sudga...
- Xabarim bor... xabarim bor! – rahbar ovoziga qandaydir rasmiy tus berdi, – ish nazoratda... hammasi qonun doirasida bo‘ladi!
- Rahmat! – dedi Sanjarbek ichidan zil ketib. Rabarning gapni qisqa qilishi unga «kallavaram, shu telefonda so‘zlashadigan gapmi?» deganday tuyuldi...

Hafta oxiriga borib tergov guruhi ish yuzasidan to‘plangan mayjud hujjatlar, tezkor ma’lumotlar va o‘z ichki hissiyotlariga tayanib, ko‘p sonli taxminlar orasidan uchtasini qoldirib, qolganlarini chetga surib turishga kelishdilar. Birinchi taxmin: qotillik Ergash tomonidan qasos olish va tergov uchun hali ma’lum bo‘lmagan boshqa sabablar tufayli sodir etilgan. Ikkinci taxmin: qotilliklar noma’lum shaxs yoki shaxslar yoxud bir-biridan alohida boshqa noma’lum shaxslar tomonidan noma’lum sabab bois sodir etilgan. Uchinchi taxmin: qotilliklar qurbanlarga yaqin (qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar va h.k) shaxslar tomonidan hozircha tergovga noma’lum bo‘lgan motiv bilan amalga oshirgan.

Shunga ko‘ra tergov guruhi kuchlarni mos ravishda taqsimlagan holda uchta kichik guruhgaga bo‘linib, shijoat bilan ish boshladilar. Har bir holatni qaytadan o‘rganish, har bir voqeanning ildizigacha chuqur kirib borishga, jabrlanuvchilar, guvohlarni qaytadan batafsilroq so‘roq qilib, ish tafsilotlarini oydinlashtirishga kirishdilar.

Ertalabdan Ergashni oxirgi ko‘rgan shaxs – Jalilni so‘roq qilar ekan, Sanjarbek o‘sha kun voqealarini uning xotirasida jonlantirishga harakat qilardi:

– Jalil aka, yaxshilab eslab ko‘ring, o‘sha kuni siznikida payti do‘stingiz bir necha kishi bilan telefonda gaplashgan. Uning kim bilan, nima haqida gaplashgani yodingizda qolgandir? Yoki u-bu kimning ismini ishlatsandir?

– Bir-ikki marta gaplashgani yodimda, – biroz o‘ylanib turib javob berdi guvoh, – lekin kim bilan, nima haqida gaplashayotganiga e’tibor qilmaganman, rosti. Endi... birovning suhbatiga qulq solish... odobdan emas... deganlariday...

– «Qulog‘ingizga chalingan bo‘lishi mumkin», degan ma’noda so‘rayapman, – aniqlik kiritdi tergovchi, – telefonda gaplashganda, u joyida o‘tirib gaplashdimi yoki chetroqqa chiqib...

– Ergashning telefonda juda baqirib-chaqirib gaplashigan odati bor... shu sababli menga xalal bermaslik uchun yo‘lakka chiqib gaplashgandi...

– Qaysi ma’noda... siz biror yumush bilan mashg‘ulmidingiz?

– Yo‘g‘-e, – kului Jalil, – o‘sha kuni «Sport» kanalida «Shaxmat durdonalari» ko‘rsatuvida bizning klubni ko‘rsatishi kerak edi. Ko‘rsatuvni telefonaga yozib olmoqchi edim... Zapisga xalaqit qilmaslik uchun...

– Ko‘rsatuvni yozib ololdingizmi? – tergovchi o‘rnidan turib ketdi.

– Ha, yozishga yozdim, faqat telefonimning xotirasi to‘lib qolib, oxiri – men gapirib turgan joyi sig‘may qoldi.

– Hozir telefoningiz yoningizdam?

– Ha, cho‘ntagimda, kirishda postdagilar o‘chirib qo‘ying deyishgandi.

– O‘sha kungi yozuv saqlanib qolganmi?

– Albatta... Lekin sizlarga nimaga keragi...

– O‘sha yozuvni bir ko‘rsam bo‘ladimi?

– Marhamat, – guvoh telefonini kovlashga tushdi va kerakli joyini topib, telefonni tergovchiga uzatdi, – mana, o‘n daqiqalik video ekan.

Sanjarbek telefonni sim yordamida kompyuterga ulab, tasvirni ko‘rishni boshladi.

— Ana shu bizning shaxmat klubimiz, — Jalil ekran-dan ko‘zini uzmasdan sharhlashga tushdi. — Hozir bizda ikki yuzga yaqin yoshlar shug‘ullanishadi... Ergash bilan shu xonada gaplashib o‘tirgandik...

SanjARBekning ko‘zi ekrandagi tasvirlarda bo‘lsa-da, butun vujudi qulooqqa aylanib, begona tovushni tutishga shay turardi. Shu payt telefonning jiringlagan ovozi eshitildi va go‘sakni ko‘targan shaxsning «alo, alo, eshitayapman... ha, menman... hozir sal chetga chiqib olay» degan gaplari yaqqol eshitildi. Televizorning ovozi birmuncha baland bo‘lganligi bois, ekran oldidan uzoqlashib borayotgan kishining ovozi pasayib bordi. Endi televizorning ovozi birmuncha tiniq eshitila boshladi. Lekin diqqat bilan qulop solinganda sal narida telefonda gaplashayotgan erkak kishining dag‘al ovozi ham elas-elas eshitilib turardi. Tergovchi telefondagi videotasvirni bir necha marta orqa-oldinga aylantirib, Ergashning gaplarini ilg‘ashga harakat qildi. Televizorning ovozi uning tovushini bosib ketayotganligi bois gap nima haqida ketayotganligini anglash qiyin edi. Lekin «nima qilay?», «qachon?», «nima bo‘ladi?», «menga qara, uka» degan iboralar tiniq eshitildi. So‘zlashuv nihoyasida Ergashning «bo‘pti kutaman... ...mirjon» degan gapi boshqa tovushlar soyasida juda sust eshitildi. Tergovchi yozuvning shu joyini takror-takror eshitsa-da, iborada ishlatalgan ismni anglab olishning imkoniyati bo‘lmadi... Boyagi ism birinchi eshitishda Amir, ikkinchisida Samir, uchinchisida Zamir... Ma’mir bo‘lib eshitilayotganday tuyulardi. Shunday bo‘lsa-da, SanjARBek o‘sha kuni Ergashning aynan Zamir bilan gaplashganiga shubhasi qolmagandi...

Zudlik bilan audioyozuv bo‘yicha ovoz egasining shaxsini aniqlash va matnning so‘zma-so‘z mazmuni hamda xususiyatlarini aniqlash maqsadida sud-fonoskopiya ekspertizasi tayinlandi.

Hali ekspertiza xulosasi olinmagan bo'lsa-da, Sanjarkbek qotil Zamir ekanligi haqidagi farazni birinchi o'ringa ko'tardi. Zamirning ustidan o'rnatilgan kuzatuv tadbirlari kuchaytirildi. Ammo obyekt odatiy hayot tarzini davom ettirardi. Uning xatti-harakatlarida shubhali holatlar kuza-tilmayotgandi...

Zamirning aybdorligi masalasida tergov guruhi a'zolarida ham yakdillik yo'q edi. Sanjarkbek ichki hissiyotiga tayanib, Zamirning qotillikka ehtimoli yaqinligini ta'kidlayotgan bo'lsa-da, ammo qo'lida uning aybdorligini isbotlovchi deyarli hech vaqo yo'q edi. Rahimjon esa hamon bu taxminni befoyda deb hisoblardi.

– Xo'p, ertaga ekspertiza Ergashning Zamir bilan gaplashganligini isbotladi ham deylik, nima o'zgaradi? – derdi Rahimjon o'z nuqtayi nazarini himoya qilib, – Zamir Ergash aka bilan gaplashgandim, undan «nega barmoq izlari topshirishga kelmadingiz, tergovchilar sizni qidirishdi» deb aytgandim, deyishi tayin. «Nega unda yolg'on gapirib, tergovni chalg'itmoqchi bo'lding?» deb so'rasangiz, «to'g'risini aytsam, sizlar meni ham Ergash bilan sherik deb hisoblaysizlar, deb qo'rqedim», deydi. Xo'sh, keyin nima qilamiz? Qo'limizda birorta dalil bo'lmasa! Zamir ham anoyi emas. Mabodo jinoyatni qilgan bo'lsa ham, «dalilingni ko'rsat», deb shaqshayib turaveradi. U birgina yolg'ondan shokka tushib, bor dardini to'kib soladi, deb xomtama bo'l manglar! Dalilsiz bu «krepkiy oreshek»dan biror narsa sug'urib olish qiyin.

– Jinoyatni kim qilganligiga amin bo'lsak, – tu-shuntirishga harakat qiladi Sanjarkbek, – dalil topish qiyin bo'lmas! Tekshirish doirasi qisqarsa, ishlashimiz oson bo'lardi.

– Xo'p, oxir-oqibatda Zamirning bu ishga umuman aloqasi bo'lmay chiqsa-chi? – Rahimjonning past ketgisi kelmasdi, – unda nima bo'ladi?

– Sanjar aka, barmoq izlarini olishda qo‘li qaltiragani uchun Zamirga yopishib qoldingizmi? – tomdan tarasha tushganday gapga qo‘schildi Jo‘raboy. – Men ham boshida shu bolaga shubha bilan qaragandim. Keyin yaxshiroq o‘ylab ko‘rsam, unda uchta bolani o‘ldirishga umuman sabab yo‘q-ku! Mo‘minjonning otasi bilan sinfdosh, boshqa jabrlanuvchilar bilan ham biror marta san-manga bormagan. To‘g‘ri, u ko‘p joyda oyoq tagidan chiqib qolayapti, keraksiz paytda, keraksiz joyda paydo bo‘lib qolayapti. Bunday olib qarasa, u jabrlanuvchilarga qo‘shni, voqealar markazida bo‘lishi tabiiy...

– «Suvni ko‘rmasdan etik yechmaydilar», deganlari-dek, hozircha qat’iy xulosalar chiqarishga shoshmaganimiz ma’qul, – deydi Aloviddin bosiqlik bilan. – Ekspertiza xulosasi olinsin, keyin Zamir bilan lozim darajada ishlab ko‘raylik. Balki, bardoshi chidamay, hammasini bo‘yniga olar... Agar haqiqatan ham qotillikni qilgan bo‘lsa, unda dailini o‘zi bizga topib beradi... Qotillikka aloqasi bo‘lmasa...

– Muhtaram hamkasblar, – SanjARBek qo‘lini-qo‘liga ishqalab, muhokamaga yakun yasashga tayyorlandi, – mayli, hammaning o‘z fikri bo‘lgani yaxshi. Ammo har qanday qarash, g‘oya mantiqqa asoslangan bo‘lsagina yashovchan bo‘ladi. Bizning ustozimiz tergovchi, izquvar o‘z ichki tuyg‘usi – intuitsiyasiga tayangan holda mantiqqa asoslanmog‘i lozim derdi. Kelinglar, barchamiz o‘z fikrimizda qolgan holda qalbimizga yana bir bor quloq tutaylik. To‘g‘ri, biz jinoyatni tergov qilishda rahbariyat fikri bilan kelishishga, barcha taxminlar ustida bosh qotirishga majburiniz. Lekin shunda ham o‘z ichki tuyg‘umiz bizga yo‘lchi yulduz vazifasini o‘tamog‘i darkor...

\* \* \*

Sud-fonoskopiyasi ekspertizasi audioyoziuv fonidagi so‘zlashuvda Ergash Zamirni ismini tilga olganligini tasdiqladi. Ekspertlar eshitishga yaroqli iboralar matni tax-

miniy mazmunini tiklashga erishdilar. Unga ko'ra Zamir Ergashni nimadandir ogoh qilgan. Ergash esa «nima qilay?», «buyog'i nima bo'ladi?» degan ma'noda hamsuhbatidan maslahat so'ragan. Zamir tegishli maslahat bergen va yana nimadir va'da qilgan... So'zlashuv nihoyasida Ergash «bo'pti, kutaman... Zamirjon» degan. Bu ularning uchrashmoqchi bo'lGANI yoki yana qo'ng'iroqlashmoqchi bo'lGANligini anglatadi.

Ekspertiza xulosasini qayta-qayta o'qib chiqqach, Sanjarbek ekspert bilan gaplashishni lozim ko'rdi.

– Rustam Roziqovich, siz tadqiq etgan suhbatda gap o'zi nima haqida ketmoqda, – Sanjarbek xuddi hech narsa tushunmaganday ekspertga yuzlandi.

– Xulosada ko'rsatganimdek, – jiddiy ohangda gap boshladi mutaxassis, – ovoz juda past, ko'pchilik qismi eshitish uchun yaroqsiz. Gap avzoyidan suhbatdoshlar qandaydir noxushlik haqida gapirishgan. Oti nimaydi, Zamirmidi... o'sha odam Ergashni qandaydir falokatmi, ishqilib, xunuk voqeadan xabardor qilgan. Ergash undan maslahat so'ragan. Zamir uni ovutmoqchi bo'lGAN. Ergash bundan qanoat qilmay, tezroq yetib kelishini so'ragan. Oxir-oqibatda Zamir yetib borishga va'da bergen... Ergash kutadigan bo'lGAN...

– «Kutaman» deganda Ergash balki telefon qo'nng'iroq'ini kutishni nazarda tutgandir, – dedi tergovchi qo'lidagi qalamni o'yнатиб.

– Yo'q, bu yerda gap muallifi uchrashishni nazarda tutmoqda, – dedi ekspert ko'zoynagini dastro'molchasi bilan arta turib. – E'tibor qilgan bo'lsangiz «kutaman» iborasi qandaydir iltimos, tezroq yordamga kelish, intizorlik ma'nosida ishlataligan. Bu fikrni so'zlovchining oldingi so'zlaridan kelib chiqqan holda aytayapman. Albatta, bu mening mutaxassis sifatidagi shaxsiy mulohazam. Xulosa chiqarish sizlardan.

Sanjar ekspertga javob berib, bir muddat o‘ylanib qoldi: intuitsiyam bu gal ham meni aldamagan ko‘rinadi... Demak, qotil – Zamir! Bu o‘lgur odammi, hayvonmi, shaytonmi? Maqsadi nima? Nimaga erishmoqchi? Uch begunoh bolani o‘ldirish unga nimaga kerak? Yoki u ruhiy xastami? O‘z xatti-harakatining oqibatini tushunmaydimi? Unday desa, soppa-sog‘, odamlar orasida ishlab, yashab yuribdi-ku! Hech kim undan shikoyat qilgani yo‘q-ku! Yoki u odamxo‘r – manyakmi? Faqat shu toifa kimsalargina besabab qo‘lini qonga belashadi. Birovlarni o‘ldirib, xuzurlanishadi. Uni na boshqalarning aziyat chekishi, na qo‘lga tushsa umrining qolgan qismini qamoqda o‘tkazishi qiziqtiradi. Odam o‘ldirish ular uchun chumchuq so‘yishday gap. Yo‘q, yo‘q, yuragida jindekkina bo‘lsa-da mehr-shafqat bor inson hatto chumchuqni o‘ldirishga qo‘li bormaydi, ichi achiydi... Nahotki, ular ana shunday manyakka duch kelishgan bo‘lsa! Odatda manyaklar jinoyat izlarini yashirish va tergovdan qochib yurishni mahorat bilan uddalashadi. Shu sababli turkum qotilliklar sodir etgan manyaklarni uzoq yillar davomida fosh etishning imkonи bo‘lmaydi. Bundan tashqari, butun jahon tergov-sud amaliyotidan ma’lumki, manyaklar oilaviy hayotda omadsiz, jamiyat ko‘z o‘ngida kamsuqum, beziyon va yuvosh ko‘rinadi... Nega qotillikni faqat yashanba kuni sodir qilgan? Nima, bu u ablahning «firma belgisi»mi? Yoki shunchaki tasodifmi? Balki... uning Ergash bilan tili birdir. Barchasini birga sodir qilgandir... Ergashda Barnoni o‘ldirish uchun motiv ham bor. U o‘ziga sherik qilib Zamirni tanlagan. Birinchi qotillik xamirdan qil sug‘urilganday uddalangan. Bolalarni «bedarak yo‘qolgan» deb hisoblagani, qotilni qidirish hech kimning kallasiiga kelmagani ularda yangi qotillikka rag‘bat uyg‘otgan... Shu tariqa Nuriddin yo‘q qilingan. U sho‘rlik ham bedarak yo‘qolganlar ro‘yxatidan joy olgan. Albatta, bunday

hollarda jinoyatchi emas, yo'qolgan shaxs qidiriladi... Jinoyatchilar qurbon bo'lgan shaxsning murdasi topilmasa, jinoyat ishi qo'zg'atilmasligiga, jinoyatchini axtarish bilan hech kim shug'ullanmasligiga amin bo'lgach, xuddi o'sha usulda Mo'minjonni o'ldirishgan... Yo'q, yo'q, unchalik yopishmayapti... Zamirni manyakka chiqardik. Lekin Ergash manyak emas-ku. Manyak bo'lмаган одамнинг бунақа разилликка о'l urishi aslo mumkin emas... Unda bu ikkalasining o'rtasida qanday sir bor? Ularni birlashtirib turgan narsa nima? Ergash qotilmi yoki qurbonmi? Nega qochib qoldi? U nimadan cho'chiyapti? Balki...

SanjARBek xayollar ichida eshik taqillab, xonaga Rahimjon bilan Jo'raboy kirib kelganini ham sezmay qoldi. Salom-alikdan so'ng talaba qiziqishini yashirolmadi:

- Ekspertiza xulosasi kelgan ekan, nima deyishibdi?
- Ha, ekspertiza xulosasini oldik, – SanjARBek hujjatlar orasidan ikki varaq xulosani olib, Rahimjonga uzatdi, – ekspertni ham so'roq qildim. Xullas, Ergash o'sha kuni Zamir bilan gaplashgani aniq. Ular Toshkentda uchrashishga kelishishgan...
- Voy ablah muloyim xunug-ey, bizni aldagani ekan-da! – to'ng'illadi Jo'raboy. – Bundan chiqdi, Ergashni ham u gumdon qilganmi deyman-da!
- Shoshilinch xulosaga kelish yaramaydi, – tanbeh berdi guruh rahbari, – endi nima qilamiz, shundan gapiringlar.
- Zamirni zudlik bilan qamoqqa olish lozim, – dedi Rahimjon qo'lidagi hujjatdan boshini ko'tarmay.
- Siz qanday fikrdasiz? – SanjARBek Jo'raboyga o'girildi.
- Menimcha, to'g'ri taklif...
- Unga nima ayb qo'yamiz? – dedi guruh rahbari hamkasblarini bahsga chorlaganday. – Qamash uchun qo'limizda qanday dalil-isbotimiz bor?

– Kechagina o'zingiz hammasini Zamirdan ko'rib turgandingiz, bugun uni qamoqqa olishga qarshimisiz? – dedi Rahimjon norozi ohangda, – tushunmay qoldim!

– Men kechayam, bugunam Zamirni asosiy gumondor deb bilaman, ammo quruq guman bilan hech kimni qamoqqa olib bo'lmasligini bilasizlar-ku! Qamoqqa olish uchun atigi bitta bo'lsa-da, dalil kerak. Xo'sh, bizda shunday dalil-isbot bormi? Afsuski, yo'q.

– Qamoqqa olsak dalilni o'zi...

– Rahimjon bir narsani to'tiday necha marta takrorlash mumkin, – guruh rahbari hamkasbining gapini bo'ldi, – men unaqa yo'l tutolmayman. Hatto, Zamirning aybdorligiga yuz foiz amin bo'lsam ham, dalillarsiz uni qamoqqa ololmayman...

– Mana, bezrayib yolg'on gapirib turibdi-ku! «Ergash bilan gaplashmadim», degandi – gaplashgan, «Toshkentga bormaganman», degandi – borgan. Bu isbot emasmi? Mana bu ekspertiza xulosasi dalil emasmi?

– Eh, Rahimjon-ey... o'z aytganingizdan qolmaysiz-a! – Sanjarbek hamkasbiga yaqinlashib, yelkasiga qoqib qo'ydi. – Ekspertiza xulosasi Zamirning Ergash bilan gaplashgani va uning yoniga borganini isbotlayapti... qotillik qilganini emas... Men aminman, hozir Zamirni chaqirib so'rasak, «to'g'ri, gaplashganman, uning oldiga Toshkentga ham borganman... Ergash aka mendan maslahat so'ragandi... «Gaplashganimizni hech kimga aytma», deb iltimos qilgandi... shuning uchun sizlarga aytmagandim» desa, nima qilamiz? Uning aybdorligini qanday bo'yniga qo'yamiz? Bu yigit anoyilardan emas. «O'laman, Sattor, men hech qanday jinoyat qilmaganman», deb turib oladi. Faqat rad etib bo'lmas dalillargina uni tilga kiritishi mumkin.

– Qayerdan topamiz o'sha dalil o'lgurni! – dedi Rahimjon qoshini chimirib.



– Ha yashang, janob tergovchi, – dedi SanjARBek kUllimsirab, – ana shu haqda gaplashsak, bahslashsak arziydi. – Hozircha Zamirga tegmay turganimiz, so‘roqqa ham chaqirmaganimiz ma’qul. Ortidan kuzatuvni davom ettiramiz, har bir qadami, har bir xatti-harakatini o‘rganib boraveramiz. Boshqa tomondan uning hayoti, faoliyatining noma‘lum qirralarini o‘rganishni boshlaymiz. Rahimjon, siz Jo‘raboy bilan Toshkentga jo‘naysizlar. Ishxonasida bo‘lib, rahbarlari, hamkasblari bilan suhbatlashib chiqasizlar. Unga daxldor barcha ma‘lumotlarni to‘playsizlar. O‘rtoqlari kim, kim bilan ko‘proq muloqot qiladi, sirdoshi bormi – hamma-hammasini aniqlaysiz. So‘ng u o‘qigan Yengil sanoat texnikumiga borib, o‘qish davri hayoti bilan qiziqib ko‘rasiz. O‘qituvchilari, kursdoshlari bilan gaplashish lozim. O‘qish davrida Zamir qayerda turgan, kimlar bilan yashagan, kimlar bilan aloqani saqlab qolgan... xuldas, uning Toshkentdagisi o‘qish va ish davri hayotini to‘liq o‘rganib chiqasizlar...

– Sanjar aka, shular bizga biror narsa beradi deb o‘ylaysizmi? – Rahimjon injiqlandi.

– Nega foydasi bo‘limas ekan? Axir biz Zamirning Toshkentdagisi faoliyati haqida hech narsa bilmaymiz-ku! Bunday olib qaraydigan bo‘lsak, uning umrining katta qismi poytaxtda o‘tgan, oldin o‘qigan, keyin ishlayapti... Agar u chindan ham qotil bo‘lib chiqadigan bo‘lsa, ko‘rasizlar, hali kalavaning chuvalgan bir uchi Toshkentga borib qadallishi ham mumkin...

– Tushunarli, biz unda yo‘lga chiqdik, ketar odamga yo‘l yaxshi, – Rahimjon o‘rnidan qo‘zg‘aldi va Jo‘raboyga yuzlandi, – qani, o‘rtoq professor, ketdikmi?

– Ketdik! – Jo‘raboy tirjaygancha ustoziga ergashdi.

– Sizlarga omad!

Yigitlar chiqib ketgach, SanjARBek Aloviddin Istamovichni chaqirib, Ergashni izlash ishlarining borishi bilan qiziqdi.

– Jalilnikidan chiqqandan so‘ng Ergashning izi qumga singganday yo‘qolgan. Shundan keyin uni hech kim ko‘rmagan. O‘sha atrofdagi videokameralar obyektiviga tushmagan. Hech kimga qo‘ng‘iroq qilmagan. Barcha urinishlarimiz zoye ketmoqda... Zamirning u bilan uchrashgani aniq bo‘lsa, uni ko‘rgan oxirgi odam bo‘ladi. Balki u biror-bir yangilik aytar...

– Yo‘q, hozircha Zamirga tegmay turamiz, cho‘chitib qo‘ymasligimiz lozim. Lekin kuzatuvni kuchaytirishga to‘g‘ri keladi... Yana Ergashga o‘xshab uni ham topolmay qolmaylik. Hech bir qadami e’tibordan chetda qolmasin. Kim bilan gaplashayapti, kim bilan uchrashayapti, kim bilan qo‘ng‘iroqlashayapti...

Izquvarlar boshlig‘iga tegishli topshiriqlarni bergach, Sanjarbek Zamirning o‘tmishini o‘rganish maqsadida uning haqiqiy ota-onasi, amakisi yashaydigan manzilga otlandi...

\* \* \*

Zamirning ishxonasiga yetib kelgan tergovchilar avval korxona rahbarlari bilan gaplashdilar. Ulardan «yurish-turishi namunali, berilgan topshiriqniga bajaradi, birov bilan ishi yo‘q, hamkasblari bilan munosabati yaxshi» degan yuzaki va rasmiy javobni olgach, xodimlar bilan muloqot qildilar.

– Juda g‘aroyib, antiqa bola, – deya gap boshladi yoshi ulug‘roq xodimlardan biri Shog‘ulom ota, – o‘zi qo‘yning og‘zidan cho‘p olmaganday yuvosh ko‘ringani bilan jahli chiqsa otasini ham ayamaydi. Hech kim indamasa, ishini bilib-bilib qilib yuraveradi, birovga ziyoni tegmaydi...

– Nimadan jahllanadi? Yoki hamkasblari uning achchig‘ini chiqarish uchun tegishadigan biror-bir nozik nuq-

tasini bilishadimi? – Rahimjon otaxonni gapga solishga urindi.

– Bolalar ham yomon-da! Gapni aylantirib, «qachon uylanasan»ga olib borishadi! Zamirning uylanmay yurganini askiya qilishni yaxshi ko'rishardi-da! U sho'rlik shu gapni eshitdi deguncha, tepa sochi tikka bo'lib, jig'ibiyroni chiqib qolardi. Beshim chatoq deganimiz bor. Bir kuni deng, «Zamir, qachon uylanasan... anavi taraflar joyidami?» – deb hazillashgandi, qo'yday yuvosh bola sherga aylanib, Beshimga tashlanib qolsa bo'ladimi? Uch-to'rt kishi zo'rg'a ajratib oldik. Bo'lmasa, anovi hazilkashning dab-dalasini chiqargan bo'lardi. Lekin o'zi unaqa yomon bola emas...

– O'ttizga qadar uylanmay yurgandan keyin, odamlar har qanday odam to'g'risida shunaqa shubha-gumonlarga borishadi-da, – ataylab so'raydi tergovchi.

– To'g'riku-ya, lekin u bechora ham bekorga shunaqa so'ppayib yurmagandir... Uylanishga chog'i yo'qdir... Sharoiti bo'lmasa, to'yni katta xolasining puliga qiladimi? Uniyam to'g'ri tushunish kerak-da... Bilasiz, bizning yigitlar puli bo'lsa, birinchi navbatda xotin qiladi, uy soladi, mashina oladi. Davlati yanada ortsa, oldi-ortiga qaramay xotinni ikkita qiladi... Menga qarang, uka, tinchlikmi, nega buncha bu bola bilan qiziqib qoldilaring?

– Otaxon, mana, siz, Zamirni yaxshi bilarkansiz, shu bola qotillik qilishi mumkinmi?

– E-e-e... nafasingizni yel uchirsin-cy... Farishtalar yaxshi gapgayam, yomon gapgayam omin qilarkan... Bu bolaning odam o'ldirish u yodqa tursin, chumchuq so'yishiga ham ishonmayman...

– O'zingiz aytingiz-ku, «odamlar ajratmaganida anovi hazilkash bolaning dabdalasini chiqarardi», deb. Balki kimdir shunaqa hazillashgan bo'lsa...

– Endi... yigit kishiga «nega uylanmayapsan?» deya iddao qilish, «crkakmisan yoki hezalakmi?» deyish bilan barobar. Or-nomusli kishiga bundan og‘ir haqorat yo‘q... Ammo odam o‘ldirish boshqa narsa... gunohi azim! Alloh bergen jonni olishga, faqat Yaratganning o‘zagina haqli! Shu arzimas sabab bilan odam o‘ldirish sog‘ odamning ishi emas... Menga qarang, o‘g‘lim, Zamir rostanam birortasini...

– Yo‘q, yo‘q, hammasi joyida... shunchaki so‘radimda! – Rahimjon otaxon bilan xayr-xo‘splashib yo‘lida davom etar ekan, orqada cholning «sizlar bekorga hech narsani so‘ramaysizlar, bu yerda bir gap bor?» – deya to‘ng‘illagani qulog‘iga chalindi.

Zamirning ishxonasidan ish uchun ahamiyatli tuzukroq ma’lumot ololmagan tergovchi u o‘qigan texnikumga bорди. Axtara-axtara o‘sha vaqtarda guruh rahbari bo‘lib ishlagan keksa pedagog Amina Nazirovnani topishga muvafقاq bo‘ldi. Tergovchining tashrifi maqsadini eshitib, opa darrov Zamirni va uning guruhini esga oldi:

– Men ularning guruhiga uch yil rahbar bo‘lganman, – deya kamsuqumlik bilan gapni uzoqdan boshladi ustoz. – Guruhda o‘ttiz uch talaba o‘qishgandi. Hammasi o‘z farzandlarimday qadrdon bo‘lib qolgandi. Zamir yaxshi o‘qirdi. Lekin ko‘p dars qoldirardi. Sababini surishtirsam, oilaviy ahvoli ancha nochor ekan. Qishloqda ekin-tikinlarni ekib, parvarishlab, bozorga sotib bo‘lgandan keyingina – asosan, qish payti darslarga to‘liq qatnashardi. Qolgan paytlari bir kun darsga kelsa, ikki kun tomorqasida ishlardi, bola bechora. Lekin juda tirishqoq edi, qoldirgan darslarni ham keyinchalik o‘zlashtirib olardi...

– Kursdoshlari bilan munosabati qanaqa edi?

– Menimcha, yomon emasdì. Har qalay, uch yil davomida birortasi bilan urishib, janjallahib yurganini ko‘rmaganman. Bolalarga ko‘pam qo‘shilmashdi...

- Nega, biror sababi bormi?
- Cho'ntagida bir miri bo'lmagandan keyin birovga qo'shiloladimi? Chinozga qatnashning o'zi bo'ladimi? Yo'lkira haqining o'zi chaqib tashlaydi... Shuning uchun ko'pincha bolalar tushlikka chiqqanda uning sinfda uyidan olib kelgan yegulikni ermak qilib o'tirganini ko'rardim.
- Nima, u shuncha yo'ldan qatnab o'qirmidi? – tergovchi qanday qilib ayolning «jag'ini ochish»ni o'yildi.
- Nima qilsin? Bahor, yoz, kuzda qatnashga majbur edi. Dala ishlari tugagandan so'ng, faqat qish payti – uchto'rt oy Toshkentda qolardi...
- Ijrada turarmidi?
- Shunga o'xshash, faqat tekinga, lekin beminnat... – kului ayol, – gapimga tushunmadingiz-a?
- Rosti, tushunmadim, – yelkasini qisdi Rahimjon.
- Xudo rahmat qilsin, Karim degan tarixchi ustozimiz bo'lardi. Bir kuni gapdan gap chiqib, devormiyon qo'shnisi Rossiyaga bolalarining oldiga ko'chib ketayotgani, hovlisiga, daraxtlariga qarab turadigan qo'l-oyog'i chaqqon bolalardan bo'lsa, tekinga ijara ga qo'ymoqchi ekanligini aytib qoldi. Xayolimga Zamir keldi. Muhtojlikdan qiynalib yuribdi... qishloq bolasi daraxtlarning tilini tushunadi, mehnatdan ham qochmaydi... Xullas, Karim aka Zamirni qo'shnisi (Tanyami, Galyami – ismi hozir yodimda yo'q) bilan tanishtirdi. Bola o'ris momoga ma'qul keldi. Zamir o'qishni bitirguncha Do'mbirobodda o'sha hovlida turdi...
- O'sha hovlining manzili yodingizda bormi?
- Yo'q, men u yerga bormaganman. Lekin topsa bo'ladi. Karim akaning shogirdlaridan uning hovlisining manzilini topsak bo'ldi, – opa sumkasidan telefonini chiqarib, kimgadir qo'ng'iroq qildi va qog'ozga manzilni yozib oldi. – Mana, marhamat, Karim akaning uyidagilardan so'rasangiz, o'sha hovlini ko'rsatishadi.

- Sizga rahmat! – tergovchi o‘rnidan qo‘zg‘aldi.
- Bolam tinchlikmi? Bulami nimaga so‘rayapsiz?

Yoki Zamir biror...

- Hozircha hammasi joyida! – odatiy savolga odatiy javob bergen tergovchi yangi manzil tomon shoshildi.

Do‘mbiroboddagi manzilni topish qiyin bo‘lmadi. Ikki qavatli naqshinkor ikki tavaqali darvoza qo‘ng‘irog‘ini bosgan tergovchi o‘ris opaning hovlisi qay biri ekan degan o‘yda qo‘shti hovlilarga alangladi: o‘ng tarafdag‘i hovli unga tegishli emasligi aniq, juda mahobatli, chap tomondagi bir qavatli eski uslubda qurilgan, darvozasining bo‘yoqlari eskirgan kichkinagina hovli opaniki bo‘lishi mumkin.

Eshikni o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlardagi yigit ochdi va mehmonning kimligini surishtirib o‘tirmasdan ichkariga taklif qildi.

– Bezovalta qilganim uchun uzr, men rahmatli ustoz Karim akaning xonadonini izlab...

– Adashmadingiz, men o‘g‘illari bo‘laman, – dedi mezbon ziyolilarga xos tavoze bilan, – Shavkat Karimovich.

– Men prokuraturadan tergovchi Rahimjon Mo‘minovman, – tergovchi cho‘ntagidan qizil muqovali guvohnomasini chiqarib, ochiq holda mezbonga ko‘rsatdi.

– Juda yaxshi, tanishganimdan xursandman, yuring uya kiraylik, – dedi Shavkat guvohnomaga ko‘z qirini tashlab.

– Yo‘q, rahmat, shoshib turgandim. Bir masalada yordamingiz kerak bo‘lib qoldi...

– Marhamat, agar qo‘limdan kelsa, jonim bilan...

– Devorma-devor qo‘snilaringizdan biri Rossiyaga ko‘chib ketgan ekan... Hovlisida hozir kimdir turadimi? Yoki hovli allaqachon sotilib ketganmi?

— Tatyana Yegorovnani aytayapsiz, — mezbon chap tomondagi uyga ishora qildi, — haliyam bo'sh turibdi-da! Ikti-uch yil oldin kampir Moskvada olamdan o'tib ketdi. O'g'li FSBda ishlaydi. Uning bu yerlarga kelib, merosni rasmiylashtirishga vaqt yo'q shekilli, hali biror marta kelganiyam, xabar olganiyam yo'q... Bir-ikkitasi «hovlini sotib olamiz», deb bog'lanib ko'rishdi. «Yozda boraman, kuzda boraman» deb haligacha kelolgani yo'q. Uy shunday turibdi...

- Uyga birortasi qarab turadimi? Kaliti kimda?
- Nima, siz uyni sotib olmoqchimisiz?
- Yo'q, yo'q, biz bir narsaga oydinlik kiritayotgandik... shunchaki...

— Kalit chinozlik bir bolada turadi...

Rahimjonning «yo'g'-e, rostdanmi?» deb qichqirib yuborishiga bir bahya qoldi.

- Ismi nimaydi-ya... hozir tilimning uchida turibdi...
- Nima, uning o'ris opaga biror qarindoshchiligi bormi?

— Yo'q, hech qanaqa qarindosh emas. U yigit talabalik payti shu uyda ijara turgan. Kampir undan ijara haqi ham olmagan, «hovli-joyga qarab tursang bo'ldi», degan... Tanya opa vafot etguncha har yozda kelib, o'n besh-yigirma kun turib ketardi...

— Yigitning ismi Zamir emasmi? — mezbonning og'-zidan eshitishni xohlayotgan ismni o'zi tilga olishga majbur bo'ldi.

— Ha, ha... Zamir! Yodimga tushdi... Qishloq bolasi emasmi, hovlini qo'g'irchoqday chiroyli qilib qo'ydi, daraxtlarni egasining o'zidanam yaxshi parvarishladi, hamma yoqqa gullar ekib tashladi. Tanya opa har kelganda xursand bo'lib ketardi... Zamir o'qishni bitirib ketgandan keyin, hovli anchagacha qarovsiz qoldi... Opayam olamdan o'tib ketdi... shunaqa gaplar.

- Zamir hozir ham kelib turadimi?
- Keyingi paytda kamnamo bo‘lib qoldi. Hovligayam oldingiday mehr bilan qaramay qo‘ydi. Qarang, daraxtlarning ham ko‘pi qurib qolgan, – dedi mezbon devordan uchi ko‘rinib turgan daraxtlarga ishora qilib.
- Opa o‘lgandan keyin, o‘g‘li kalitni undan olib qo‘ymadimi?
- Tanya opa uni yaxshi ko‘rardi, faqat shu bolaga ishonardi. Opa vafotidan keyin bolasi u bilan gaplashib, to uyni sotguncha qarab turishni iltimos qilgan shekilli. Chunki xaridorlar kelganda uyni Zamirning o‘zi kelib, ko‘rsatib ketgandi.
- Oxirgi marta Zamirni qachon ko‘rgandingiz?
- Ko‘rmaganimga ancha bo‘ldi... Xotiram adashmasa, uch oylar oldin bir xaridorni uyni ko‘rsatishga olib kelganda ko‘rgandim. Undan keyin ko‘zim tushmadi. Lekin men, ko‘pincha, ishda bo‘lamani... Kelgan bo‘lsa-da, uchratmagan bo‘lishim mumkin...
- Qanaqa xaridor bilan kelgandi o‘sanda? – navbatdagi savolni berdi tergovchi.
- To‘g‘risi, yodimda yo‘q. Ishga shoshib turgandim, salomlashib o‘tib ketdim.
- Zamirning hamrohi xaridor ekanligini qanday bilingiz? Yoki uning o‘zi sizga aytdimi?
- Yo‘g‘-e, undan so‘rab o‘tirganim yo‘q... O‘zim shunaqa deb o‘yladim-da. Xaridordan boshqa kimniyam bu yerga boshlab kelishi mumkin.
- Zamir bu yerdagi qo‘snilardan kimlar bilan yaqinroq?
- Tushunmadim... qaysi ma’noda?
- Kimlar bilan muloqot qilib turardi, gaplashardi, demoqchi edim, – izoh berdi Rahimjon.
- To‘g‘risi, uning birorta qo‘shti bilan apoq-chapoq yurganini, berilib gaplashib turganini ko‘rmaganman.

Rahimjon suhbatni yakunlab, guruh rahbariga axborot berdi.

– Mana, buni natija desa bo‘ladi, yashang Rahimjon! – tilla topgan odamday suyunib ketdi SanjARBek. – Siz qolgan qo‘ni-qo‘shnilarni so‘roq qilib turing. Men tintuvga sanksiya hozirlab, tezda yetib boraman...

– Sanjar aka, nima, bu uyda biror narsa bor deb o‘ylayapsizmi? – Rahimjon hamon o‘z «topilmasi»ning ahamiyatini to‘laligicha anglolmay turardi.

– Har holda, menga shunaqa tuyulmoqda – intuitsiya! Baribir tekshirib qo‘ysak, ziyon qilmaymiz, – kamtarlik qildi guruh rahbari. – Siz ishni bo‘sashtirmay turing, men biror soatda o‘sha yerda bo‘laman.

Rahbarning olqishidan ruhlanib ketgan Rahimjon qo‘l shimarib ishga kirishdi. Dastavval mahalla oqsoqoli bilan suhbatlashdi. So‘ng qo‘ni-qo‘shnilarni so‘roq qilishga o‘tdi. Ular ham Shavkatning gaplarini tasdiqlashdi.

– Bir hafta desammikan, o‘n kun desammikan, o‘ris momonikiga ikki kishi kirib ketayotganini ko‘rgan-dim, – dedi qarama-qarshi uyda yashovchi Zulayho ismli kelinchak, – shu payti men deraza oynasini artib turgandim...

– Ularning tashqi ko‘rinishi, yoshi qanaqa edi? – so‘radi Rahimjon xuddi jinoyatchilarning ustidan chiqib qolganday hayajoni oshib.

– Biri o‘ta bo‘yli, yoshroq, ikkinchisi – keksaroq... gavdali edi... Ota-bolami deb o‘ylagandim...

– Siz o‘ris opaning uyiga qarab turadigan Zamirni taimridingiz?

– Yo‘q, kelin bo‘lib tushganimga endi bir yil bo‘ladi... Unaqa odamni tanimayman.

– Ularni oldin ko‘rganmidingiz?

– Qayerdan ko‘raman, birinchi ko‘rishim...

- Balki oldin ham kelgan bo'lsa, ko'zingiz tushmaganmidi, demoqchiydim.
  - Yo'q, ularning oldin bu yerga kelganini ko'rma-ganman...
  - Ularni ko'rgan kuningizning aniq sanasi, soatini eslay olasizmi?
  - Peshindan keyin... soat uch-to'rtlar bo'lsa kerak... Lekin sanasi hozir yodimda yo'q... bo'lsa o'n kunlar bo'lgandir-da...
  - Iltimos, singlim, eslashga harakat qilib ko'ring, bu juda muhim... Balki o'sha kuni uylaringizga mehmon kelgandir... – tergovchi yo'nalish berdi.
- Kelinchak biroz o'ylanib, so'ng qo'shimcha qildi:
- Ha-a... shu kuni adashmasam, adajon bilan oyijon Bo'kaga qarindoshlarinikiga to'yga ketishgandi... demak, shanba yoki yakshanba bo'lgan...
  - To'yning taklifnomasi saqlanib qolmaganmi?
  - Adajonda bo'lsa kerak... ular hozir ishda edilar...
  - Balki uyda bo'lsa...
  - Hozir qarab chiqaman, – Zulayho uyga kirib ketdi va sal o'tmay bir necha taklifnomalar olib chiqdi. – Mana o'sha taklifnomalar...
- Rahimjon taklifnomani qo'liga olib, sanasiga tikildi: xuddi o'sha sana... yakshanba kuni... Voy ablah-ey... o'sha kuni qorovulxonadan qo'ng'iroq qilib, Ergashning yoniga yetib kelgan ekan-da! «Uyda baliq qovurdim» deb, hammamizning qulog'imizga lag'mon osib yurgan ekan-da! Ergash bilan nima maqsadda uchrashgan... Nimaga uni bu uyga boshlab kelgan? Har holda, Ergash uyga xaridor chiqmagandir! Nahotki, Sanjar akaning xavotiri to'g'ri chiqsa! Yuragi sezgan ekan-da! Undan chiqdi, Ergash shu yerda gumdon qilingan bo'lsa-ya!

O'z xayollaridan o'zi cho'chib ketgan tergovchi bir muddat joyida qotib qoldi. Tashqaridan mashina ovozi

va odamlarning g‘ala-g‘ovurini eshitib, hamkasblari tomon shoshildi. Tashqarida uni butun boshli tergov-tezkor guruhi kutib turardi. Rahimjon guruhi rahbarini bir chekkaga tortib, hozirgina qo‘shti kelinchakdan olingan «xushxabar»dan «suyunchi» oldi.

— Ey, buyog‘i zo‘r bo‘libdi-ku, — yosh bolalarday quvonib ketdi Sanjarbek, — ofarin, qoyil, Rahimjon, qoyil! Kalavaning uchini topibsiz... Qarang, hammasi to‘g‘ri kelayapti. Barchasi o‘ylaganimizdek chiqayapti! Endi murdani topish qoldi, qani ketdik.

— Kimning murdasi? — Rahimjonning ovozi titrab ketdi.

— Kimni bo‘lardi, Ergashniki-da! Balki yana bittayarimtaniki chiqib qolsa ajabmas!

Tergov-tezkor guruhi barcha protsessual rasmiyatchiliklarni o‘rinlatib, mahalla oqsoqoli, uchastka noziri, xolislar ishtirokida uyning qulfini buzib, ichkariga kirishdi. Tez orada mutaxassis va ekspertlar qorovsiz qolgan uyni, o‘rgimchaklar in qurib tashlagan yordamchi xonalarni ko‘zdan kechirishdi, yaroqli barmoq izlari olindi. Xonalardagi pollarning osti, devorlar, uylarning poydevoysi, tomi, hovli sathi texnika yordamida sinchkovlik bilan chig‘iriqdan o‘tkazildi. Navbat hojatxonaga kelganda, mutaxassislardan biri qo‘lidagi lupa bilan devorga zimdan tikilar ekan, yoniga guruhi rahbarini taklif qildi:

— Sanjar aka, buni qarang, mana bu yerda bilinar-bilinmas qon izi saqlanib qolgan ekan... Oddiy ko‘z bilan qaraganda ko‘rinmasligi mumkin, ammo lupada bemalol ko‘rsa bo‘ladi.

— Balki bu qon izi emasdir, — dedi guruhi rahbari luponadan ko‘z uzmay.

— Qon izi ekanani aniq... ammo hayvonning qoni ham bo‘lishi mumkin.

— Qiziqmisiz, hojatxonaga hayvonning qoni qayerdan kelishi mumkin.

– Shoshilmang, laboratoriya tahlili hammasiga aniqlik kiritadi, – dedi mutaxassis orqasiga o‘girilib.

Boshqa bir mutaxassis hojatxonaning oyoq ostiga qoqilgan taxtalarini sinchiklab kuzatar ekan, guruh rahbariga murojaat qildi:

– O‘rtoq boshliq, mana bunga bir qarang.

Tergovchilar birin-ketin mutaxassisning yoniga borishdi.

– Mana bu mix yangi, mana bulari esa eski... demak, yaqin vaqlarda hojatxona taxtalar olinib, so‘ng boshqatdan joyiga qoqib qo‘yilgan.

– Hojatxonani buzishga, axlatini chiqarishga to‘g‘ri keladi, – dedi Sanjarbek tuynukdan pastga mo‘ralab, – chururligi qancha ekan?

Mutaxassis qo‘liga kichikroq tosh olib tuynukdan tashladi va toshning tushish tezligiga qarab, chamaladi:

– Kamida to‘qqiz-o‘n metrcha borga o‘xshaydi.

– O‘ho‘ ancha chuqur ekan-ku!

Guruh rahbari sal chetga chiqib, Aloviddin Istamovichga qo‘ng‘iroq qildi va hech ikkilanmay Zamirni zudlik bilan qo‘lga olishni buyurdi. Tezda tegishli tashkilotlardan ish kuchi va maxsus texnika chaqirtirilib, hojatxonani buzishga kirishildi.

Sanjarbek shofyorlar orqali do‘kondan ikki shisha aroq olib keltirib, tadbir ishtirokchilariga bir piyoladan quyib berdi, o‘zi ham piyoladagi «shaytonning suvi»ni oxiriga cha simirib, hojatxona tomon yurdi...

Kech soat yigirma ikkiga qadar davom etgan tekshiruv besamar ketmadi. Yuziga maxsus niqob taqib olgan mutaxassislar dastlab uzun tayoqda hojatxona tubini titkilab ko‘rishdi. Quduqda odam tana a’zolari borligiga amin bo‘lgach, axlatni tepaga chiqarishga kirishdilar. Bir-necha kishi suv yordamida chiqindilar orasidan odam tanasi a’zolarini ajratib ola boshlaganda, chidab bo‘lmash dara-

jadagi qo'lansa hiddan ko'ngillari aynib turgan tekshiruv ishtirokchilarining ichak-chovog'i halqumiga qadalganday bo'ldi. Kimdir qorong'i tarafga o'tib, o'qchib-o'qchib qayt qilishga tushdi. Yana kimdir og'zi-burnini ro'molchasi bilan berkitgancha, sal nariroq ketishga majbur bo'ldi. Mutaxassislar axlat ichidan ajratib olingen tana a'zolarini yuvib, tozalab maxsus qoplarga joylashtirishdi.

— Tana a'zolari bir kishiga tegishli shekilli, — so'radi guruuh rahbari qoplar og'zini bekitayotgan mutaxassisdan.

— Bitta kalla chiqdi-ku, bir kishi bo'lsa kerak-da! — to'ng'illadi mutaxassis.

— Ikkinci murdaning kallasini boshqa yoqqa ko'mgan bo'lishi mumkin-ku, — mutaxassisning javobidan ko'ngli to'lman Jo'raboy gapga aralashdi.

— Yigitcha, shoshmasangiz, ertaga hammasini xulosa-da ko'rsatamiz!

Sanjarbek kech bo'lib qolganligiga qaramay, avval Tohir G'ofurovichga, so'ng viloyat prokuroriga qo'ng'iroq qilib, tekshiruv natijalari haqida axborot berdi...

\* \* \*

Ish kunini odatdagidan ertaroq boshlagan tergovchilar Zamirni so'roq qilishga puxta tayyorgarlik ko'rdilar. Ular bor dalillar, faktlarni munchoqday terib, gumondor-ga qochishga, tergovga chap berishga zarra imkon qoldir-maslikni o'ylardilar. Tushga yaqin sud-tibbiyot eksperti-zasi xulosasi olindi. Unga ko'ra, axlat orasidan topilgan jasad qoldiqlari Ergashga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Sanjarbek Rahimjon, Jo'raboylar bilan bamaslahat gumondorni so'roq qilish taktikasini ishlab chiqdi. Tish-tirnog'i bilan «qurollangan» tergovchilar «jang»ga shay bo'lishdi...

Tushdan so'ng militsiya xodimlari xonaga uyqusizlikdan ko'zlar kirtaygan, qovoqlari osilgan, chivinmi, kana-mi talagan shekilli, yuzlari qizarib kerkib ketgan gumondorni olib kirishdi. Zamir hamma unga nafrat, ijirg'anish ko'zi bilan qarab turganini fahmlab, boshini xam qilgan-chi xona o'rtasidagi stulga o'tirdi.

Guruh rabbari oldindagi uzundan uzoq muloqotni o'ylagan holda, qalbining to'rigacha singib ketgan nafratni bir chetga surib, yumshoqroq bo'lishga harakat qildi:

– Zamirjon, yaxshi dam oldingizmi?

Yigit tergovchilardan bunaqa muomalani kutmagan shekilli, yalt etib SanjARBekka qaradi, so'ng ikki tarafda unga jirkanch narsaga qaraganday ijirg'anish bilan tikilib turgan ikki yigitga nigohi tushib, ko'zlarini olib qochdi va eshitilar-eshitilmas: «Rahmat, bo'ladi», deb qo'ydi.

– Sizni nima uchun ushlaganimizni bilasizmi?

– Yo'q, bilmayman...

– Kecha biz Ergash traktorchining jasadini topdik, – SanjARBek o'midan turib, gap gumondorga qanday ta'sir qilishini bilish maqsadida unga yaqin keldi.

– Q-q-a-a-nday q-q-i-i-lib? – Zamir noto'g'ri gapirib qo'yanini fahmlab, so'zini to'g'irlagan bo'ldi. – E-r-g-a-a-sh aka o'libdimi? Nimaga?

– Buni sizdan so'ramoqchi edik! – Rahimjon chidab turolmadi.

– Nega men? Men qaydan bilaman?

– E'tiboringiz uchun Ergashning bo'laklangan jasadi Toshkentdan, aniqrog'i, Do'mbiroboddagi siz ijarada turgan va hozir ham borib turadigan Tanya opaning hojatxonasidan topildi, – SanjARBek kartani to'liq ochishga qaror qildi. – Mana bu rasmlarga qarang, hammasi sizga tanish manzaralar... Mana bu esa ekspertiza xulosasi...

Zamir bir rasmlarga, bir tergovchiga anqayib, tarashaday qotdi-qoldi. Ko'zlarini yumgan holda qo'llari bi-

lan yuzini changalladi. Yuzidan qoni qochib, bir oqardi, bir ko'kardi. Bo'rtib chiqqan tomirlari taranglashib, boshi toshbaqaniki kabi yelkalari orasiga singib ketganday g'ujanak bo'lib oldi. U shu lahzalarda tergovchilarning savollariga nima deb javob qaytarish, o'zini qanday oqlashni yoki ko'nglida pushaymonlik hissi jo'sh urib, yuragiga qadelayotgan armon tig'ini, yelkasida osilib turgan aybdorlik yukini olib tashlab, hammasini ro'yrost oshkor qilishni, yuragini bo'shatishni o'ylayaptimi, bilib bo'lmasdi...

– Ergashni men o'ldirganim yo'q! – nihoyat tilga kir-di gumondor.

– Unda katta xolang o'ldirdimi? – Rahimjon sariqli-giga bordi.

– Men qaydan bilay? – dedi Zamir bez bo'lib.

– Qarshilik qilishdan foyda yo'q, – dedi guruuh rahbari muloyimlik bilan, – sizning o'sha yakshanba kuni Ergash bilan qo'ng'iroqlashganingiz, uchrashganingiz, Tanyaning hovlisiga borganingiz... Bizga hammasi ma'lum...

– To'g'ri, Ergash aka bilan gaplashdik, – biroz dadil-landi Zamir, – Toshkentda uchrashganimiz ham rost... U uyiga borsa qo'lga tushib qolishini aytib, mendan vaqtincha yashab turishga joy topib berishni iltimos qildi... Mend-a Tanya opaning uyining kaliti bor edi. «Yo'q» deyish noqulay... o'sha yoqqa olib bordim. Uni uyda qoldirib, o'zim Yallamaga qaytib keldim... Tavba, uni kim o'ldirgan bo'lishi mumkin?

– Bunaqa ertagingni enangga aytasan, tushunding-mi? – Rahimjon tutaqib ketdi.– Nima, bizlarni ahmoq deb o'ylayapsanmi?

Zamir «nima desang – deyaver, gapim shu, boshqa hech narsani bilmayman» deganday mum tishlab turaverdi.

– Siz Ergashni uyda qoldirib, o'zingiz soat nechada qaytib ketdingiz?

- Kech soat olti yarim-yettilarda Tanya opanikiga borgan bo'lsak, men yigirma daqiqalardan so'ng chiqib ketdim.
  - Ergashning o'lganini qayerdan eshitdingiz? – tergovchi qarmoq tashladi.
  - O'lganini siz aytингиз-ку... – chap berdi gumondor.
  - Ergashdan xabar olishga бordingizmi?
  - Ikki kundan so'ng ishdan chiqib, hovliga bordanim. Qarasam, uy qulflangan, Ergash aka yo'q ekan... Ishonchliroq joy topgan bo'lsa, chiqib ketgandir-da, deb o'yladim.
  - Eshikni qulflab ketgan bo'lsa, uyga qanday kirdingiz? – so'radi Jo'raboy.
  - Darvozaning kalitini Ergash akaga qoldirgandim... O'zimda ikkinchi kalit bor edi...
  - Nima deb o'ylaysiz, Ergashni o'ldirish kimga kerak bo'lgan? – SanjARBek «imtihon» qilishda davom etdi.
  - Bilmadim... Hayronman...
  - Bilmaysan-a, bilmaysan! – Rahimjon hamon «sovimagandi». – Nima qilasan artistlik qilib, qanday o'ldirganiningni ayt-da, qo'y!
- Zamir Rahimonga olaqarash qildi, javob qaytarishga og'iz juftladi-yu, nimanidir o'ylab tilini tiydi.
- Ergash sizga nima degandi? Nima uchun qochib yurganini aytganmidi? – sovuqqonlik bilan so'roq qilishda davom etdi SanjARBek.
  - Nima derdi, «qochishim kerak, ungacha yashirinib turishga joy zarur» degandi...
  - Nimaga qochadi? To'g'ri, biz uni qidirayotgandik, lekin qamamoqchi emasdik-ku! – guruh rahbari gumondorni ataylab gapga soldi.
  - Men tintuvda uning uyidan Mo'minning kiyimlari topilganini, hamma uni axtarayotganini aytgandim.

- Nima, uchta qotillikniyam u sodir qilganmikan?
  - Bu yog‘i menga qorong‘i... bekorga qochib yurmagandir...
  - Qanday qilib o‘ldirgan ekan, aytib bergenmidi?
- Maqsadi nima ekan?
- Bilmadim, so‘rab o‘tirmadim...
  - Bilaman, siz bizning o‘sha uyni topib borishimizga ishonmagansiz, – Sanjarbek boshqa tarafdan hujumga o‘tdi, – uydagi aroq shishasi va idishlarda sizning barmoq izlaringiz topildi.
  - Bo‘lishi mumkin, chunki men har borganda idishlar dan foydalanganman, – Zamir «himoya chizig‘i»da mahkam turardi, – o‘sha kuni ham do‘kondan aroq, kafedan yegulik olgandik...

Tergovchilar yana ko‘plab savollar berib, Zamirni taslim qilishga, haqiqatni tan oldirishga urinib ko‘rdilar. Biroq gumondor «o‘ldirsang o‘ldir – qornimga tepma» deganday shaqshayib, bir gapni to‘tiday sayrab turaverdi. Rahimjonning «qotil sendan boshqasi emas, erkak bo‘lsang, aybingni bo‘yningga ol-da, muttaham!» degan bosimlari ham kor qilmadi. Qaytanga shartalik qilib, «dallillaring bormi, nimaga aybsiz odamga tuhmat qilayapsizlar?!» deya qarshi hujumga o‘tishdan ham toymadi.

- Yaxshi, u holda bunday qilamiz, – guruh rahbari gumondordan osonlik bilan gap olib bo‘lmasligiga ishonch hosil qilgach, qaror qildi, – hozir sizning uyingizga tintuvga boramiz.
- Oldin tintuv o‘tkazgansizlar-ku, – Zamirning yuziga tashvish oralaganday bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zini sipo tutib, turgan joyida qaltirayotgan qo‘lini yashirishga urindi.

- U paytda uy ko‘zdan kechirilgan, tintuv o‘tkazilmagan...

Sal o'tmay ko'plab ekspert, mutaxassis va yordamchi ishchilarni o'z ichiga olgan tezkor-tergov guruhi Zamirning uyi oldida paydo bo'ldi. Guruh rahbarining ko'rsatmasi bo'yicha mutaxassislar hovli, molxona, somonxona, oshxonaning har bir qarichini elakdan o'tkazishdi. So'ng hovli chetidagi unchalik chuqur bo'limgan hojatxonani jiddiy ko'zdan kechirishga kirishishdi. Qo'li miliitsiya xodimlari dan birining qo'liga kishan (naruchnik) orqali bog'langan Zamir bo'layotgan voqealarni sovuqqonlik bilan kuzatib turardi. Kishanli qo'li bilinar-bilinmas qaltirab turganligini inobatga olmaganda, unda ortiqcha bezovtalik, chuqur hajajon alomatlari zohir emasdi.

– Nahotki murdalarni boshqa joyga ko'mgan bo'lسا? – Zamirni zimdan kuzatib turgan Jo'raboy tashvishlana boshladи.

– Yigitning «topib bo'psan» deganday bamaylixotir o'tirishidan men ham ikkilanib qoldim, – dedi Sanjarbek bir nuqtadan ko'z olmay.

– Topilmasa nima qilamiz? – shivirladi Jo'raboy.

– Bu uyda uchta qotillik sodir bo'lган, jinoyatdan albatta iz qoladi, gap uni topishda!

Kun qaytganda mutaxassislar ishlarini yakunlashdi. Tekshiruv kutilgan natijani bermadi. Na uy ichidan, na hovli, na yordamchi xonalardan tergov uchun ahamiyatli biron-bir ashyo, dalil topilmadi...

Shu payt ko'chada ikkita suv tashiydigan mashina ko'rindi.

– Sanjar aka, suv nimaga kerak? – dedi Jo'raboy mashinalarga ishora qilib.

– Bu muttaham murdalarni ekinlar orasiga o'ra qazib, yashirgan bo'lishi mumkin, – izoh berdi guruhi rahbari, – ekinlarni sug'orishga to'g'ri keladi...

– Bundan nima naf? – anqaydi talaba.

– Hozir ko'rasiz.

Guruh rahbarining ko'rsatmasi bo'yicha yigitlar mashinalarni ichkariga kiritib, suvni hovli ichidagi hosili yig'ib olinib, ikkinchi ekinga taxt qilib qo'yilgan ekinzorga to'kishdi. Birpasda ikki agat suv bilan limmo-lim bo'ldi.

SanjARBek hamkasblari bilan suhbatlashib turgan bo'lsa-da, nigohi bilan Zamirni ta'qib qilishda davom etardi. Mashinalar hovliga kirib, ko'pchilikning ekinzor atrofida o'ralashishi uning bezovtaligini oshirganday, o'sha tomonga qaramaslikka harakat qilayotgan bo'lsa-da, ko'zi beixtiyor o'sha tarafga qarayotganday edi...

Shu orada ekin maydoniga taralgan suv sathi pasa-yib, tuproq qatlami ko'rinish qoldi. SanjARBek ekinzorga yaqin kelib, suvning soz tuproqqa shamilishini kuzatar ekan, agatning o'rtasida hosil bo'layotgan o'ra izini pay-qadi. Yana bir muddat o'tib, suv tuproqqa batamom singib bo'lgach, boyagi o'ra joyi yanada pasayib, yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Hamma gap nimadaligi tushundi...

– Shu yerga ko'mgan ekan-da! – dedi Jo'raboy tajjubini yashirolmay, – buni qarang odamning kallasiga kelmaydi-ya!

– Zamirjon, manovi o'ralarga sabzi ko'mganmisiz deyman, – SanjARBek taqdiriga tan bergancha rangi oqarib, bo'zrayib o'tirgan yigitga yuzlandi...

Zamir indamadi. Nima ham desin, «qochoq buzoq» o'zining samonxonaga yetib kelganini anglab turardi...

Qazish ishlarini yer tobga kelgandan so'ng boshlashga kelishildi. Tergovchilar prokuraturaga qaytib, Zamirni so'roq qilishda davom etdilar. Rad etib bo'lmas dalillar oldida taslim bo'lishdan boshqa yo'li yo'qligini fahmlab turgan yigitning aybiga iqror bo'shdan boshqa yo'li qolmaganligini bilib turgan tergovchilar savol berishdan bir muddat tiyilib, o'ylab olishiga imkon qoldirdilar.

– Tomorqaga suv qo'yishni boshlaganlaringda... hammasi tamom bo'lganini angladim, – dedi Zamir nihoyat tilga kirib, – aks holda, hovlini ostin-ustun qilganlaringda ham, murdalarni topolmasdinglar. Qoyil qoldim...

– Ishimiz shunaqa! Xo'sh, nima qildik, gapiramizmi endi? – dedi guruh rahbari gumondordan ko'z uzmay.

– Tanya opaning... uyini qanday topdinglar? – dedi Zamir nihoyat tilga kirib.

– Buning ahamiyati yo'q, – dedi guruh rahbari sovuqqonlik bilan, – Zamir, siz jinoyat ishi bo'yicha gumondor sifatida ishga jalb qilindingiz, mana qaror, tanishib chiqib imzolashingiz mumkin. Ha, aytgancha, himoya huquqin-gizdan foydalanasizmi?

– Tushunmadim...

– Advokat olishingiz mumkin... Biror...

– Menga advokatning keragi yo'q! – yigit taqdirga tan berdi, shekilli, dadil javob berishga o'tdi.

– Unda marhamat, boshlang, sizni eshitamiz, – Sanjarbek o'rindiqqa mahkamroq o'tirib olgan holda gumondorga tikildi.

– Mayli, aytaman. Faqat sizlar menga Tanya opaning uyini qanday topganingizni aytishingiz lozim.

– Nima, sen bizga shart qo'yyapsanmi? – Rahimjonning g'azabi qo'zib ketdi.

– Faqat shuginami? – dedi Sanjarbek kulimsirab.

– Shu! Men ham qayerda xatoga yo'l qo'yganimni bilishim kerak-ku! – dedi Zamir bir Rahimjonga, bir Sanjarbekka qarab.

– Bilganingda nima?! Endi senda ularni tuzatishga imkon bo'larmidi? – zarda qildi Rahimjon.

Guruh rahbari hamkasbiga «og'iroq bo'ling» degan-day istehzoli qarash qilib, Zamirga yuzlandi:

– Birinchi xatoingiz Ergashga qorovulxonadan qo'n-g'iroq qilganingiz, – guruh rahbari murosa ko'chasini tan-

lagandi, – to‘g‘ri, bu o‘z qo‘l telefoningizdan qo‘ng‘iroq qilgandan xavfsizroq. Bir qarashda siz hammasini to‘g‘ri o‘ylab, to‘g‘ri bajargansiz. Sal oldinroq Ergash bilan gaplashib, keyin o‘zingizni shubhadan xoli qilish uchun sinfdoshingiz bilan gaplashgansiz. Qorovul o‘sha kuni qorovulxona telefonidan gaplashganlarni eslaganda ham siz tergovchilarga «o‘rtog‘im bilan gaplashgandim» deb, suvdan quruq chiqib ketardingiz. Lekin o‘sha ro‘yxatda bo‘lishingiz tergovni siz bilan jiddiyroq shug‘ullanishga undashini bilmagansiz... Siz qo‘ng‘iroq qilgan paytda Ergash xizmatdosh do‘stnikida mehmonda bo‘lgan. Shu sababli Jalil akani batafsilroq so‘roq qilishga majbur bo‘ldik. Ikkinchisi xatoingiz, qo‘ng‘iroq qilgan paytingizda Ergashning oldida birortasi bo‘lishini, gaplaringizni eshitib qolishi mumkinligini inobatga olmaganligingiz! Baxtimizga Ergash telefonda siz bilan so‘zlashgan paytda Jalil televizordan bir ko‘rsatuvni telefonida yozib olayotgan ekan. Natijada Ergash xonadan chiqib, yo‘lakda gaplashgan bo‘lsa-da, uning ayrim so‘zлari Jalilning telefonini xotirasiga muhrlanib qolgan. Ekspertiza Ergashning so‘zlashuvidan «Zamir... qachon yetib kelasan, kutaman» degan mazmun-dagi gaplarini ajratib berdi. Bu esa bizning shubhamiz to‘g‘ri ekanligini yana bir bor isbotlandi. Shu sababli sizing Toshkentda borishingiz mumkin bo‘lgan manzillarni qidirishga tushdik. Ishxonangiz, o‘qigan texnikumingizdagilar bilan suhbatlashishga to‘g‘ri keldi. Guruh rahbaringizni topdik...

– Tushunarli, – dedi Zamir bir nuqtadan ko‘zini uzmasdan, – Tanya opaning uyini menga Amina Nazarovna topib bergandilar... Talabalik – oltin davrim... Juda unaqa oltin deb bo‘lmasa-da, ajoyib davrlar edi-da!

Yigitning so‘zlaridan Rahimjonning g‘ashi kelib, bir gap aytishga og‘iz juftlagandi, Sanjarbek ko‘rsatkich bar-

mog‘ini labiga qo‘yib, «kerak emas» deganday boshini chayqab qo‘ydi.

– Buni qarang, xato qilmaslik uchun harakat qilib, kattaroq xatoga yo‘l qo‘ygan ekanmiz-da! Men hammasini to‘g‘ri o‘ylab, bexato bajardim deb o‘ylagandim... Afsus! Har narsaning boshi bo‘lganidek, adog‘i ham bo‘larkanda!

Tergovchilar boyagina qaltirab, shumshayib o‘tirgan yigitning birpasda o‘zini o‘nglab, dadillanib qolganidan, o‘zicha mahmadonalik qilayotganidan lol qolish bilan birga, uning inson zoti uchun xos bo‘lмаган qilmishlaridan nafratlanib, tishlarini tishlariga qo‘ygancha kuzatib turishardi.

– Qay biridan boshlay? – bir muddat o‘tib tilga kirdi Zamir.

– Ergashdan boshlay qoling, – yo‘nalish berdi Sanjarbek.

– Ergash aka bilan munosabatlarimiz yaxshi edi, – gapni uzoqdan boshladi gumondor, – biror marta senmenga bormaganmiz, hech qachon «qachon uylanasan, nega uylanmayapsan?» deb jahlimni chiqarmagan, asabimga tegmagan. Boshqalar gapirganda ham, «qo‘y, nima ishlaring bor, vaqtি-soati kelsa uylanar», deb jonimga oro kirgan... Uning yo‘q joydan bu ishlarga aralashib qolganidan afsusdaman... Doniyorning o‘g‘lidan keyin sizlar qattiq tekshirish boshladilgalar. Men qo‘lga tushishimdan qo‘rqib ketdim. Qo‘l qovushtirib qarab o‘tirsam, tezda fosh bo‘lib qolishim tayin edi... Ko‘p detektiv kitob o‘qigan, kinolar ko‘rgan emasmanmi, qilmishlarimni boshqa bir shaxsga ag‘darib, jazodan qutulib qolish yo‘llarini axtara boshladim. Har kimga ham bunday bo‘htonni yopishtirib bo‘lmastigini yaxshi bilardim. Bu shaxs gumondorlar ichida yoki, har holda, voqeaga yaqinroq bo‘lishi lozim. Xayolimda Ergash aka shu ishga munosib nomzodday

tuyuldi. Nuriddinning velosipedi uning hovlisiga yaqin joydan, aynan uning o'zi tomonidan topilgani tanlovimga asos bo'ldi. Bir bahona topib, oldiga bormoqchi bo'ldim. Bunday qilish xatarli ekanligini anglab, fikrimdan qaytdim. U bilan ko'cha-ko'yda bexosdan uchrashib qolganimiz ma'qul edi. Yo'lini poylab, bir kuni oldidan chiqdim. U yoq-bu yoqdan gapga soldim. Ko'ngliga qo'l solish maqsadida ataylab gapni bolalarning yo'qolishi bo'yicha olib borilayotgan tergov harakatlariga burdim. «Juda qat-tiq shug'ullanishayapti, bu ketishda tez kunda jinoyatchilarni topib olishadi, shekilli» dedim. «Topishsa, tezroq topishsin-ey, toza jonga tegib ketdi, hali unisi so'raydi, hali bunisi», – dedi u. «Aybdorni topishsa topishdi, topisholmasa, bitta-yarimtani juvonmarg qilishadi-qo'yadi» dedim men uni vahimaga solish uchun. «Qanday qilib?» dedi u anqayib. «Tepadan jinoyatchini top deya qistalang qilib turgan bo'lsa, tergovchilaram nima qilsin, haqiqiy aybdorni topisholmasa, siz bilan bizga o'xshagan kam-bag'alni krayni qip yuborishadi, tamom! Dodingni hech kim eshitmaydi!» dedim, o'zimni xavotirli ko'rsatib. Ergashning kapalagi uchib, «sen bilan biz prichyom?» – deb so'radi. «Mana masalan, siz, birinchidan yon qo'shnisiz, ikkinchidan, Nuriddinning veligi aynan sizning hovlingiz atrofidan topilgan, uchinchidan, uni aynan siz topgansiz» dedim uni battar qo'rquvga solish maqsadida. Traktorchning rangi o'chib ketdi. Biroz o'ylanib turgach, «Zamir, suvda barmoq izlari saqlanib qoladimi?» dedi. «Nega, nimaga so'rayapsiz?» dedim men. Buni qarangki, Nuriddinning velosipedi uning hovlisining to'g'risiga kelib, nimagadir ilinib, to'xtab qolgan ekan. Ergash buni sahar payti ko'rib qolib, qo'rqib ketgan. Ertaga biror tuhmatga aralashib qolmay degan o'nda velikni oqizib yubormoqchi bo'lgan. Oldin suvga tushib, qo'li bilan turtib ko'rgan. Joyidan qo'zg'almagach, bir xoda topib, velikni o'midan

qo'zg'atgan. Ammo anhor chetida chiqindilar ko'p bo'l-ganligi bois, velosiped suvda salgina oqib, yana nimagadir ilinib qolgan. Tong yorishib, odamlar g'imirlab qolgani-dan cho'chib, uyiga kirib ketgan. O'shanda velikning suv ichidagi egariga qo'lining uchi tekkan ekan. Ergash aka-ning hadigi shundan ekan... O'zim anig'ini bilmasam-da, «qo'lingiz tekkan bo'lsa, barmoq izi suvda ham o'chib ketmay saqlanib qoladi» dedim uning yuragida battar va-hima qo'zg'ab...

Sanjarbek stol ustidagi choynakdan choy quyib, dahani qurib, tili tanglayiga yopishib qolayotgan Zamirga uzatdi:

– Mana buni ichib oling, qand kasalingiz bormi?

– Yo'q, hayajonlangan paytimda qo'lim qaltirab, tomog'im qurib qolaveradi, rahmat, – Zamir choyni oxi-ri gacha simirib, so'zida davom etdi. – Uyga kelib, kecha-si bilan o'ylanib chiqdim. Oxiri barcha shubha-gumonlarni Ergash tarafga burib yuborib, uni qurban qilish – o'zimni asrab qolishning yagona yo'li degan xulosaga keldim... Kechasi uydagilarga sezdirmay Mo'minning kiyimla-rini ko'mib qo'ygan joyimdan qazib olib, Ergashning uyiga bordim. Uning o'sha kuni ishda – smenada ekan-ligini bilardim. Devordan oshib o'tib, garajga kirdim va qo'limdag'i yelim xaltani eski balonlar orasiga yashirib, ortimga qaytdim... Oradan ikki kun o'tib, xuddi kelishil-ganday, sizlar qishloqdag'i barcha odamlarning barmoq izlari olinishini e'lon qildingiz. Ergash qo'rqib ketib, kechasi mening oldimga yugurib keldi. «Sen men aytgan gaplarni birovga aytmaganmiding?» – dedi xunobi chiqib. Men Xudoni o'rtaqa qo'yib, qasam ichdim. «Nega unda bu tergovchilar yo'q joydan daf'atan hammaning barmoq izini olishga tushib qolishdi», – dedi u rangi oqarib. «U bechoralar ham nima qilsin, shu paytgacha aybdorni topisholmadi. Endi amallab, bir sho'ring qurg'urni qamoqqa tiqib, bosti-bosti qilishmoqchi shekilli» dedim xuddi ko'p narsadan xabardorday. «Ertaga barmoq izim chiqib tursa

nima bo'ladi?» – dedi u battar hovliqib. «Menimcha, ular barmoq izini topishgan, endi uning kimga tegishli ekanligini aniqlash uchun hammani chaqirishyapti» dedim olovga kerosin sepish maqsadida. «Endi nima bo'ladi?» – dedi u qaltirab. «Endi rostini aytsangiz ham, ishonishmaydi, qamashga qamashadi... yigirma-yigirma besh yil berissa kerak», dedim pinagimni ham buzmay. «Ey, sen bola, aqlingni yeb qo'yanmisan? Men hech kimni o'ldirmagan bo'lsam... nega qamasharkan? Dunyo beso'rovmi?» – dedi u yig'lamoqdan beri bo'lib. Xullas, men Ergash akaga qamalmay qolishning yagona yo'li, ertaga barmoq izlari topshirmay, bir bahonada Toshkentga ketib, uch-to'rt kun chekkaroqda bo'lib turish ekanligini uqtirdim. U ertalab hech narsani eshitmaganday Toshkentga ish bilan keta-digan, men esa qishloqdagagi vaziyatni bilib, kechga yaqin uning ortidan boradigan va o'sha yerda maslahatlashib, bir qarorga keladigan bo'ldik...

Zamir piyoladagi choydan ho'plab, biroz nafasini roslab oldi. So'ng gaplarini diqqat bilan tinglab o'tirgan tergovchilarga bir-bir nazar tashlab, so'zini davom ettirdi:

– Ergash aka sahar payti Toshkentga jo'nab ketdi. Men hammadan oldin mahalla idorasiga kelib, barmoq izlarimni topshirdim. Nima bo'llishini biliш maqsadida shu atrofda unisi-bunisi bilan gaplashib turdim. Ergashni surishtira boshlaganlaringni eshitib, ko'nglim joyiga tushdi. O'yлан rejам ish berayotganidan xursand bo'ldim... Iz qoldirmaslik maqsadida Ergash akaga «menga qo'ng'iroq qilmang, men o'zim sizga boshqa raqamdan chiqaman» degandim. O'ylab-o'ylab, Ergashning ishxonasidagi qorovulxonadan qo'ng'iroq qilmoqchi bo'ldim. Sizlar ishxonasidan kimdir qilgan-da, deb o'ylaysizlar, maydalab tekshirib o'tirmaysizlar deb o'ylagandim... Shu yerda xato qilganimni endi tushundim. Meni hech kim tanimaydi-gan joydan qo'ng'iroq qilsam bo'larkan... Lekin har ehtimolga qarshi, qorovulxonaga borish uchun bahona ham

topib qo‘ygandim. Qorovul meni tanishini ham bilar-dim. Shu sababli soat o‘n ikkidan o‘tkazib, sinfdoshimga qo‘ng‘iroq qilgandim. Ertaga kimdir tekshirganda ham o‘rtog‘imga qo‘ng‘iroq qilganimni isbotlab berolaman deb o‘ylagandim... O‘rtog‘imdan olib ketgan baliqni o‘zim qovurdim. Keyin hech kimga sezdirmasdan uy kiyimida Toshkentga jo‘nab ketdim. Ergash aka bilan kelishilgan joyda uchrashdik... To‘g‘risi, bu odamni o‘ldirish niyatim yo‘q edi... yaxshi inson edi... hurmat qilardim...

— Gapni qarang, hurmat qilarmish! — Rahimjonning mushti tugildi. — Ham hurmat qilarmish, ham o‘ldirarmish, ajoyib-a!

— Ey-y-y, aka, umr bo‘yi qamoq jazosi tahdid qilib turganda, ko‘zingga hech kim ko‘rinmas ekan... Nima qilay, hamma ayb o‘zida... Rossiyaga — o‘g‘lining oldiga chiqib ketishga ko‘ndirishga rosa harakat qildim. O‘jarlik qilib turib oldi... «Militsiya sizni izlayapti, ushlab olishsa, qamab qo‘yishadi, hozir vaqt bor, Qozog‘iston orqali Ros-siyaga ketsangiz hech kim sezmadni, bir-ikki yildan keyin, hammasi bosti-bosti bo‘lgandan so‘ng qaytib kelasiz», deb tushuntirishga urindim. «Yo‘q, qarigan chog‘imda mu-sofir yurtlarda tentirab yurganimdan qamalib ketganim ma‘qul, qo‘lidan kelsa, otib tashlasin!» — deb qat’iy turib oldi. Boshqa ilojim qolmadi... «Hech bo‘lmasa, ikki-uch kun ko‘rinmay turing, ungacha, balki aybdorlar topilib, sizning yuzingiz yorug‘ bo‘lar, yo‘qsa hozir sizni qamab qo‘yishsa, jinoyatchini hech kim qidirib o‘tirmaydi, sizni u yoqdan chiqarishning imkonni bo‘lmay qoladi», deya po‘pisa qildim... U ko‘nganday bo‘ldi... Sizlar aniqlagan o‘scha Tanya opaning hovlisining kaliti menda edi. Opa o‘lgandan keyin o‘g‘li menga hovliga qarab turishimni tayinlagandi. Har zamonda borib, xabar olib turardim... Buni hech kim bilmasdi. Shu sababli Ergash akani o‘scha yerga olib borib, bir yoqli qilsam hech kim bilmaydi, yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolib ketadi, degan o‘yga bordim...

Sizlarning texnikumga borib surishtirishlaring xayolimga kelmabdi... Shomga yaqin Ergash aka bilan o'sha hovliga kirib bordik. Yo'ldan kabob, dadillik uchun bir shisha aroq olgandik. O'tirib ovqatlandik, aroqni bo'shatdik. Ergash aka kun bo'yi charchaganidan aroq ta'sir qilib, o'tirgan joyida mudray boshladi. Omborxonaga yugurib bordim, qo'limga kattagina bolta ilindi. Qaytib kelsam, xurrak otib uxlayapti. Bolta bilan boshiga bir necha marta qattiq urdim, qon otilib ketdi... O'lganiga amin bo'lgach, murdani ko'madigan joy axtardim. Hovli ichiga ko'misam, uy sotilib, bir kuni kimdir qurilish boshlasa, jasadni yoki uning suyaklarini topib olishini o'ylab, hojatxonaga tashlashni ma'qul topdim. Chunki xojatxona anchagini chuqur bo'lib, buzilganda ham uni ko'mib tashlashlari aniq edi... Qolgani sizlarga ma'lum...

- Boltani qayga qo'ydingiz? – so'radi Sanjarbek.
- Bolta va pichoqlarni, qon sachragan joylarini spirit bilan artib, Chilonzordagi chiqindi yashigiga tashlab yubordim.

Tergovchilar bir qancha savollar berib, jinoyat tafsilotlariga oydinlik kiritgach, guruh rahbari asosiy masalaga o'tishga jazm qildi:

- Endi marhamat qilib, Barno masalasida... bir boshidan gapirib bersangiz.

– Barnoning aybi yo'q... umuman olganda uchala bolaning otalari sabab... Sodiq aka meni qachon ko'rsa «Zamirboy, qachon uylanasan, qarib ketayapsan-ku, nafaqaga chiqsang senga kim tegadi?» deb nafsoniyatimga tekkani tekkan edi. Karim aka ham har ko'rganda gapni «qachon uylanasan»dan boshlardi. Bu ham yetmaganday, uch-to'rt marta ko'pchilikning oldida: «Bu bola uylanmay o'tib ketadi», deb askiya qilgandi. Doniyor sinfdoshim – do'stim bo'lsayam, menga nisbatan ko'zi to'g'ri emasdi. Har gal uylanishdan gap ochilsa, menga qarab «jo'ra, do'xtir topib beraymi, o'zingni bir ko'rsatib olasanmi?» degani de-

gan edi. Shular sabab ishxonamda ham, qishloqda ham «Zamir – hezalak, xunasa, uylanolmaydi» degan mishmishlar tarqab ketdi... Ko‘cha-ko‘yga chiqolmay qoldim...

– Shu arzimagan sabab bilan uch begunoh bolani o‘ldirish shartmidi? Odam tugul hayvon ham bunaqa vahshiylikka qodir emas-ku! – Rahimjon o‘rnidan turib ketdi.

– Bilasizmi, men nima uchun dushmanlarimning o‘zlaridan emas, bolalaridan qasos oldim? – dedi Zamir bosiqlik bilan.

– Aytaymi nimaga? – dedi Rahimjon qarshisidagi odamni urguday bo‘lib, – chunki sen jinnisan... fashistsan!

– Rahimjon, iltimos, sal og‘irroq bo‘ling, eshitaylik! – guruh rahbari hamkasbiga tanbeh berishga majbur bo‘ldi. – Joyingizga o‘tirib oling!

– Yo‘q, men savdoyi ham, telba ham emasman, – dedi gumondor qandaydir bir qat’iyat bilan, – men aqli odaman...

– Aqli odammish... kim o‘zini maqtaydi? – piching qildi Rahimjon.

– Agarda men bu odamlarning o‘zlarini o‘ldirganimda hech narsani bilmay osongina olamdan o‘tardi-ketardi. Men ularning jigarbandlari – jordan aziz bolalarini o‘ldirdim, endi ular har kuni yuz bora o‘ladi... Bolalarining o‘limiga o‘zlari sababchi ekanliklarini bilgandan keyin esa, yana har kuni ming bora o‘ladi... O‘lgandan battar bo‘ladi... Qani endi birortasi meni xunasa deb ko‘rsin-chi!... Aynan bolalarni nishonga olishumning yana bir sababi bor, – Zamir «gapiraveraymi?» deganday tergovchiga tikildi.

– Gapiring, gapiring, qulog‘imiz sizda! – izn berdi SanjARBek.

– Menda bolalik bo‘lman... Alamlisi, meni dunyoga keltirgan insonlarning o‘zları uni mendan tortib olishgan, o‘g‘irlashgan... Ha, ha, bolaligimni o‘g‘irlashgan! Boshqalar uchun yoqimli va beg‘ubor bolalik – podsholik deyishadimi... ishqilib, o‘sha davr xotiralari menda qo‘rqinchli

tushga o'xshaydi. Yodga olsam, yuragim ortiga tortib ketadi... Esimni tanibmanki, janjal, g'avg'o, to'polonning ichida bo'ldim... Ota-onam birga yashagan davrlardan to'ng'izday aroq ichadigan piyonista padarimning onamni, qo'rquvdan uning etagiga yopishib oladigan meni koptokday tepib urishlari, uydan quvib solishlari, bizning panoh izlab, sovuqdan zir qaqshab, sang'ib yurishlarimidan boshqa hech narsa xotiramda qolmagan. Ular ajrashib ketgandan keyingi davni eslasam, onamning yegulik keltirish g'amida ko'chaga chiqib, mushtday bolani uyda yolg'iz, issiq-sovuqsiz qoldirib ketishlari, mening kechallari och-nahor, qo'rqinchdan dir-dir titrab chiqqanlarim ko'z o'ngimga keladi... Sizlar besh-olti yashar bolaning kechasi bilan uyda yolg'iz qolib ketishishini tasavvur qila olasizlarmi? Birortangiz farzandingizga shunaqa taqdirmi ravo ko'rishlaringiz mumkinmi? Yo'q! Menimcha, dunyoda hech bir ota-onan farzandini bunday ayanchli ahvolga tashlab qo'ymasa kerak... Ko'p o'ylayman... Kimningdir otasi johil bo'lsa, onasi mehribon bo'ladi. Onasi ham ota, ham ona o'mnida farzandini gulday parvarish qilib, voyaga yetkazganlar qancha? Mening onam esa... erga tegish uchun farzandidan voz kechgan, keyinchalik ham uni bioror marta ko'rishni, holidan xabar olishni istamagan dunyodagi eng razil ayol ekaniga achinaman... Xolamnikida ona mehriga zor bo'lib yurgan kunlarimda sodir bo'lgan bir voqeа yodimdan chiqmaydi. Ayvonga qaldirg'och in qurgandi. Bir kuni qo'shnimizning mushugi hovlimizga kirib, qaldirg'ochning iniga yaqin kelib qoldi. Ota-onan qaldirg'ochlar polaponlarini tajovuzdan himoya qilish uchun chirqirab, jon holatda mushukka yopishib ketdilar. Boshqa payti bo'lsa, mushukning soyasidan ham qo'rqedigan mitti qushchalar bolasi uchun o'z jonlarini xatarga qo'yib, beayov jangga kirishdan top tortmaganini qarang! Men umr bo'yi onamning bir qushchalik bo'lolmaganidan nadomat chekib yashadim. Bolasini tirik yetim qilib, o'z oromiga

ketdi-bordi... Bu dunyoda faqat mengina o‘z tuqqan onam, pushti kamaridan yaratgan otam uchun keraksiz farzand, ortiqcha dahmaza bo‘lganman... Xullas, onam meni xolamga tashlab, erga tegib ketdi... O‘z ota-onasidan mehr ko‘rmagan bola... xoladan, pochchadan mehr ko‘rarmidi? Uylarida iti o‘lib qolsa ham, mushugi yo‘qolib qolsa ham, moli qisir qolsa ham mendan ko‘rishardi... «Shumqadam» degan nom oldim... Xolamning hovlisidagi qulvachchaga aylandim... Bilmadim, qadim zamonalarda qullarga ham bunday muomala qilishmagandir... Kimlardir aralashib, meni Bolalar uyiga o‘tkazishdi... Davlatga rahmat, bos-himga oftob tekkanday bo‘ldi... Ko‘p o‘tmay, meni hozirgi onam asrab oldi. Otam ham bor edi. Tappa-tuzik yurgan odam bir yil o‘tmay eski «Moskvich»ida avtohalokatga uchrab, bandalikni bajo keltirdi... Onam sho‘rlik bir uyum temir-tersakka aylangan mashinani sotib, ota-mizning ma‘rakalarini o‘tkazdi... O‘zim ham endi haqiqiy shumqadamligimga ishona boshladim... Qiynalib yashadik... qo‘l uchida kun ko‘rdik... Lekin shu begona ayol beva boshiga menga onam, xolam bermagan mehrni berdi, oyoqqa turg‘izdi... Shular sababmi, ota-onasi bag‘rida erkalanib, huzur-halevatda yashayotgan bolalarni ko‘rsam negadir hasad qilaman... Ko‘rishga ko‘zim, otishga o‘qim bo‘lmaydi... Qurbanlik uchun aynan bolalarni tanlaganimning yana bir sababi balki shudir...

To‘planganlar bu odam ko‘rinishidagi hayvonning gaplarini tinglab, hayratdan yoqa ushlab, dong qotdilar... mushtlar tugildi... yuraklari cheksiz qahr-g‘azabga to‘ldi... Kimningdir xayolidan «kessakda ham dard bor ekan-da», degan o‘y o‘tdi... Oraga muzday jimlik cho‘kdi.

— Mayli, bu haqda sal keyinroq gaplashsak, — guruh rahbari ishning ketishini o‘ylab, vaziyatni mo‘tadillashtirishga, avval voqeа tafsilotlarini oydinlashtirib olishga harakat qildi, — Barno xususida gapi rayotgandingiz...

— O'sha kuni ertalab ishga ketishda qo'shni qishloqda yashaydigan Zoir degan bola bilan avtobusda joy talashib, aytishib qoldik. Avval u, keyin men «onangni...» deb so'kindik. U esa: «Onamni hech narsa qilolmaysan, chunki sen xunasasan», — dedi. Hamma kulib yubordi... Yer bilan bitta bo'ldim! U ablahni bo'g'ib tashlagim keldi... Lekin kuchim yetmasligini bilib, o'zimni tiydim. Bir kuni qo'lga tusharsan-ku, deb ko'nglimga tugib qo'ydim. Kun bo'y়i kayfiyatim bo'lmadi, qo'lim ishga bormay qoldi. Shu kuni smenada kechasi bilan ishda qolishim kerak edi. Birga ishlaydigan bolalardan birini iltimos qilib, o'rnimda qoldirib, uyga qaytdim. Chinozda bekatda «golosovat» qilib turgandim, Barno otasining «Lasetti»sida yo'ldan o'tib qoldi. Meni ko'rib mashinasini to'xtatdi. Bir o'zi xolasinikidan uyga qaytayotgan ekan. Yoniga o'tirib oldim, gaplashib ketdik. Chinozdan chiqqanimizdan keyin sal yurmay mashina bir-ikki «hiqillab» o'chib qoldi. Yoqilg'isi tuga-gan ekan. Barno yo'lovchi mashinalarni to'xtatib, yoqilg'i olishga harakat qildi. Bir-ikki yo'lovchi mashina to'xtadi, lekin ulardan yoqilg'i olishning imkonи bo'lmadi. Keyin u benzin topib kelish uchun biror chaqirim naridagi Yonilg'i quyish shoxobchasiga ketdi, men mashinaga qarab turish uchun qoldim... Ertalabki haqoratdan hamon o'zimga kelolmagandim, ko'nglim g'ash edi... Miyamga meni yomonotliqqa chiqargan Sodiq brigaddan qasos olish fikri keldi. Bunday qulay fursat boshqa bo'lmasligi mumkin... Bir-pasda reja tuzdim... Shu payt yo'lovchi mashinalardan biri to'xtab, haydovchisi mashinaning yoniga keldi. Men tanib qolmasin degan hadikda yuzimni teskari burib, o'zimni uxlaganga solib o'tiraverdim... Boyagi haydovchi ketgan-dan so'ng mashinadan tushib, sal chetroqda kutib turdim. Taxminan bir soatlar o'tib, Barno yelim idishda kamroq yoqilg'i olib keldi. Yo'lga tushdik. Qishloqqa yetay degan-da men tuzgan rejam bo'yicha Barnoga «biznikiga hayda, yo'lkira haqiga to'ldirib yoqilg'i quyib beraman», dedim.

Kutganimday, bola suyunib ketdi. Havo xiylagina sovuq bo‘lganligi bois, ko‘chada zog‘ ko‘rinmasdi. Mashinani to‘g‘ri garajga kiritdik... «Shu atrofda shlang bo‘lishi kerak, izlab ko‘r», deb mashinaning old tarafini ko‘rsatdim. O‘zim chelak olish bahonasida mashinaning orqasiga o‘tib, eshik yonidagi lomni qo‘limga oldim va mayda-chuydalar orasidan shlang axtarayotgan bolaning kallasiga lom bilan urdim. U shilq etib yerga yiqildi. Har ehtimolga qarshi chalajon yotgan bolani sim bilan mahkam bo‘g‘ib turdim. Bola oyoqlarini bir necha marta tipirchilatdi, burnidan qon keldi... Bo‘ynidagi tomirini ushlab ko‘rsam, urmayapti. Murdani bir chetga surib, uyga kirdim. Ovqatlanib, biroz dam oldim... Uydagilar uxlagandan keyin, sekin hovliga chiqib, karam ekilgan tomorqaning etagidan chuqur kovladim va jasadni kiyimlari bilan ko‘mib tashladim... Qon izlarini yuvib, garajni tartibga keltirdim. Mashinani garajda qoldirish xavfli ekanligini bilardim. Rejamga ko‘ra mashinani vaqtincha Tanya opanikiga olib borib qo‘yishim kerak edi. Lekin yo‘ldagi «GAI» postlarida kameraga tushib qolishdan cho‘chib, boshim qotdi. Baxtimga shu kuni yomg‘ir sepalab turgandi... Toshkentga katta yo‘ldan emas, balki Yangiyo‘l va Sergeli oralab, kichik postlar orqali bexatar kirib olishni o‘yladim. Ehtiyyot shart, mashinaning davlat raqamiga loy chaplab olib, yo‘lga tushdim. Yomg‘ir urib turgani sababli Sergeliga kirishdagi postda hech kim yo‘q ekan. Eson-omon manzilga yetib oldim. Mashinani hovliga kiritib qo‘yib, taksida orqaga qaytdim... Ertasi kuni yerga ishlov bergen kishi bo‘lib, murda ko‘milgan joyni tekislab, ustiga kartoshka ekib tashladim... Bir-ikki kundan keyin ishdan chiqib, mashinadan xabar oldim. Uni yo‘q qilishni o‘ylay boshladim. Keyingi kun asbob-uskunalarini olib borib, mashinani qismlarga bo‘lib, mayda-mayda qilib tashladim. Farhod bozoriga borib, ishlatilgan ehtiyyot qismlarni sotib oladigan do‘kon borligini aniqladim. Lekin ular pasport talab qilarkan. O‘zimning pasportimni ishlatib

bo‘lmasdi... Kimningdir pasportini yoki uning nusxasini topishim kerak edi. Bir kuni Chinozdagi paynetga kirmsam qishlog‘imizda yashaydigan Po‘lat muallim pasportidan nusxa oldirayotgan ekan. Mullimning chiqib ketishini poylab turdim. Birozdan so‘ng ichkariga kirib, sotuvchiga «dadam – Po‘lat Teshaboyev hozirgina pasportidan nusxa oldirgan ekan, shundan yana bir nusxa bering», dedim. U pulini olib, yana bir nusxa chiqarib berdi. Shu pasport nusxasi yordamida Farhod bozoridagi do‘konga kichik hajmdagi ehtiyot qismlarni topshirdim. Katta hajmdagi ehtiyot qismlarni va mashinanining ramasini Sergeli ehtiyot qismlar bozorida ishlaydigan Ortiq ismli bolaga sotdim... Qo‘snilar ko‘rib qolmasligi uchun Tanya opanikiga, asosan, tunda borardim...

- Mashinanining ehtiyot qismlarini qanchaga pullading? – sovuqqonlik bilan so‘radi Rahimjon.
- Ishlatilgan narsani suvtekkinga olisharkan... arzimagan pul bo‘ldi... to‘y xarajatlariga ketdi...
- Yaxshi! Endi marhamat qilib, ikkinchi holat – Nuriddinning o‘limi bo‘yicha bilganlaringizni aytsangiz, – dedi Sanjarbek rasmiy ohangda, – ko‘rsatmalarining videotas-virga olinayotgani sababli batafsiltroq gapirishga harakat qiling.
- Nuriddin rahmatlida ham ayb yo‘q, – Zamir huddi muxbirga intervyu berayotganday kameraga qarab gapira boshladi. – Ayb otasi Karimda... G‘iybatchi xotinlarday orqamdan gap tarqatmaganda, bolasi bilan nima ishim bor edi! O‘sha kuni uyda hech kim yo‘q edi. Ishga ketmoqchi bo‘lib, ko‘chaga chiqsam, darvozamiz oldida Nuriddin turibdi. Yangi velosiped olgan ekan... Ko‘chada hech kim ko‘rinmadi... Karimdan qasos olish fursati kelgandi... Biroz alqashlardan so‘ng, «Nuriddin, orqa g‘ildiragingning dami kam-ku, bu turishda teshib qo‘ysan, yur, dam urib bera-man» dedim. Hech narsadan bexabar bola veligini yetaklab, hovliga kirdi. Uni garajga boshlab bordim. Nuriddin

veligini devorga suyab, shinaning dam uradigan jo'mragi og'zini ochish uchun o'tirgan payt qo'limga tushgan bel-kurak bilan uning boshiga qattiq zarba berdim. Bola shilq etib yuztuban yerga yiqlidi. O'lganligiga ishonch hosil qiliш uchun sim bilan uch-to'rt daqiqa bo'ynidan bo'g'ib turdim... Bo'ynidagi tomirini ushlab ko'rsam, yuragi ur-mayapti... Garajdan chiqib, darvozani tambaladim, ust-boshimni almashtirdim, har ehtimolga qarshi kiyimlarimni kirga tashladim. Ishxonaga qo'ng'iroq qilib, biroz kechi-kiб borishimni tayinladim. Keyin tomorqada ishlagan kishi bo'lib, Barno ko'milgan joydan o'n-o'n besh qadam nari-dan bir metrcha chuqur qazidim va jasadni somon qopga solib, kovlangan joygacha sudrab bordim va kiyim-piyimi bilan chuqurga tashladim. Ustdan tuproq tortdim. O'mini yaxshilab tekislab, jo'yak tortdim va karam ko'chatlaridan besh-oltitasini ko'chirib, ekib tashladim. Velosipedni qan-day qilib yo'qotishga hayron bo'lib, boshim qotdi. Uni ho-zir biror joyga olib chiqish xatarli edi. Shu sababli vaqtincha tomorqamiz to'ridagi makkajo'xori poyalari orasiga yashirib qo'ydim... Belkurak va simni yaxshilab yuvib, yashirib qo'ydim. Izlarni yashirish uchun garaj va hovli-ni shlangda suv bilan tozalab chiqdim. So'ng hech narsa ko'rmaganday ishga ketdim. Keyingi kun ishdan kelsam hamma yoq milisa... izla-izla... Gumondan xoli bo'lish uchun men ham Karimdan ko'ngil so'ragan kishi bo'lib, bolani qidirish ishlarida ishtirot etdim... Velosipedni qan-day yo'q qilish xususida hali ham bir qarorga kelmagan-dim. Kechasi biror joyga tashlab kelishni o'ylagandim. Le-kin kimdir ko'rib qolishidan qo'rqib, fikrimdan qaytdim... Ko'pchilik Nuriddinni anhorga tushib, oqib ketgan degan taxmin qilishayotgandi... Bu gapning isboti uchun velik anhordan topilgani ma'qul edi. Shuni o'ylab, voqeadan ikki kun o'tib, tunda velosipedni makkalar orasidan olib, anhorga tashlab yubordim. Uzoqlarga oqib ketsa kerak deb o'ylagandim. Sahar payti tomorqa oralab anhor tomonga

qarasam, velik qo'shnimiz Ergash akaning hovlisi yaqinida nimagadir ilinib to'xtab qoiganini ko'rdim... Yuragim g'ash bo'ldi. Ammo endi unga yaqinlashib bo'lmasdi...

Zamir «bor gap shu» deganday tergovchiga tikildi.

– Davom etavering, uchinchi holat, Mo'minjonning o'limi bo'yicha tergovga nimalarni ma'lum qilasiz? – dedi Sanjarbek piyoladagi choydan ho'plab.

– Har ikkala holat bo'yicha boshida uch-to'rt kun to'polon qilishib, bolalarni qidirishdi, so'rab-surishtirishdi. Shaxsan meniyam qo'shni sifatida ikki-uch bora chaqirib, so'roq qilishdi. Keyin hammasi tinchib qoldi. Odamlarning aytishi bo'yicha bolalar «bedarak yo'qolgan» deb e'lon qilinipti. Men ikki bolani o'ldirib, bemalol yurganimidan, dushmanlarim farzand dog'ida kuyib kul bo'layotganidan, odamning izzat-nafsiga tegish, ustidan kulish qanday bo'lishini ko'ziga ko'rsatib qo'yganimidan xursand edim. Tasavvurimda bu ish hech qachon ochilmaydiganday, Sodiq bilan Karim bolasining sovuq basharasiniyam ko'rmay armon bilan o'lib ketadiganday edi... Doniyor xotinidan ajrashib, Rossiyaga ketib qolgandan keyin undan o'ch olish fikridan qaytgandim. Ming qilsayam, sinfdosh do'stim... xotini ham bama'ni ayol... Qolaversa, men uylanib, qishloqdag'i barcha tili bilan yuradigan shallaqilarga xunasa ham, hezalak ham emasligimni isbotlab qo'ygandim... O'sha kuni baxtga qarshi xotinim ham, onam ham, singlim ham uyda yo'q edi. Tushdan so'ng soat taxminan to'rtlarda tomorqada ishlab tursam, hovliga pildirab Mo'minjon kirib kelib qolsa bo'ladimi! «Zamiy aka, nima qilayapsiz, kenoyi bormi?» – dedi yonimga kelib. Bola tushmagur to'y kunlari onasi bilan kelin salomga bir-ikki marta chiqib, kelinoyisini ko'rishga qiziqib qolgan ekan... Iblis qitiqlab, birpasda niyatim buzildi-da! Yelkamdag'i shayton «ikki bolani o'ldirding, hech kim sezmadni, uchinchisini o'ldirsang nima bo'pti! Doniyorning ustingdan kulganlari, do'stman deb, dushmanning ishini qilganlari,

nomingni xunasaga chiqarganlari yodingdan chiqdimi?» deya qulog‘imga shivirlaganday bo‘ldi. «Mo‘minjon, kel senga bir narsa ko‘rsataman», deya aldab, bolani molxona toimonga yetaklab bordim... Molxona ichida uni oldimga o‘tkazib, orqadan kutilmaganda qo‘limdagi ketmon bilan boshiga tushirdim. Bola yerga yiqilib, tipirchilay boshlandi, og‘zi-burnidan qon otlib, xirillashga tushdi. Ovozini chiqarmaslik uchun dahanini qo‘llarim bilan bekitib, mahkam qisib turdim. Shu payt tashqaridan bolaning onasining «Mo‘minjon, Mo‘minjon», deb chaqirgan tovushi eshitildi. Qo‘rqib ketdim. Bolani qimirlashiga imkon bermaydigan darajada devorga qisib, nafas chiqarmay turdim... Ma’mura boshqa qo‘schnilar toimonga o‘tib ketdi, shekilli, ovozi chiqmay qoldi. «Ayol yana qaytib kelib qolmasin», degan xavotirda murdani molxona to‘ridagi somon uymumi orasiga yashirib qo‘ydim. Ketmonni, molxonani suv bilan yuvib, qon dog‘larini yo‘qotdim... Birozdan keyin Ma’mura yana qaytib keldi, mendan: «Qo‘schni, chaqirmsam hech kim javob bermadi, Mo‘minjonnini ko‘rmadingizmi?» deb so‘radi. Ko‘zlarimni uqalab, «Kennoyi uzr, uxbab qolgan ekanman, eshitmapman, Mo‘minjonga ko‘zim tushmadi, bolalar bilan o‘ynab yurgandir-da, qayerga borardi», deb tinchlantirishga harakat qildim. Birozdan so‘ng men ham Ma’muranikiga chiqib, qidirish ishlariga qo‘schildim... Qolgan gaplarni sizlarga oldin aytib bergandim... Kechga ya-qin uyga qaytib kelib, jasadni yo‘q qilish haqida bosh qotira boshladim. Qo‘snninikida, ko‘chada odam to‘planishib turganligi sababli inurdani tomorqa ichiga ko‘mishning imkonini yo‘q, ko‘rib qotishlari mumkin edi. Shu sababli molxona-ning to‘ridagi somonlarni sal chetroqqa surib, o‘ra kovladim va jasadni ko‘mib tashladim. Ustidan preslangan somonlarни taxlab qo‘ydim... Bu gal ham surishtirish ishlari avvalgi ikki holatdagiday osongina o‘tib ketar deb o‘ylagandim. Lekin sizlar bu gal qattiq kirishdingizlar...

- Mo‘minning kiyimlarini nima maqsadda yechib ol-gandingiz? – so‘radi guruh rahbari.
  - Surishtiruv ishlari kuchayishi aniq edi. O‘zimni himoya qilish, jinoyatlarni kimgadir ag‘darib, jazodan qutulib qolish rejam ham yo‘q emasdi. Shu sababli kerak bo‘lar degan fikrda Mo‘minning ust-boshini yelim xaltachaga solib, makkajo‘xori maydonining bir chetiga ko‘mib qo‘ydim...
  - Har to‘rtala qotillik yakshanba kuni sodir etilgan. Nima, bunda biror ma’no yoki sir bormi? – so‘radi Sanjarbek.
  - Ey-y, shunaqami, e’tibor qilmagan ekanman, – ishshaydi qotil, – unda yakshanba bizning xos belgimiz – timsolimiz bo‘la qolsin.
- Bu gap barchani g‘azabini qo‘zg‘agan bo‘lsa-da, hech kim gap qotishni o‘ziga ep ko‘rmadi. To‘g‘rirog‘i, bu vahshiy odamxo‘r ahmoq bilan tillashgilari kelmad... «nega unday?», «nega bunday?» mazmunidagi savollar ham berilmadi...
- Tergovchilar jinoyatchining ko‘rsatmalarini tegishlicha rasmiylashtirib, videotasmalarga muhrladilar va shu kunning o‘zida voqeа joylariga chiqib, uning ko‘rsatmalarini to‘g‘riligiga amin bo‘ldilar, nadomat chekdilar, achindilar, o‘rtandilar, kuyundilar... Jigarbandlarining tirikligidan hamon umidlarini uzmagan, qandaydir mo‘jiza ro‘y berib, ularning topilishiga ko‘z tikib turgan ota-onalarning far-yodlaridan yurak-bag‘irlari qonga to‘ldi...
- Tongga yaqin prokuratura binosidan chiqqan Sanjarbek mehmonxonagacha piyoda ketishni ko‘ngliga tugdi. Jo‘raboy unga ergashdi.
- Sanjar aka, odamning ustidan tog‘ ag‘darilganday bo‘ldi-ya! – talaba taassurotlari bilan o‘rtoqlashgisi keldi.
  - Bir tog‘ ag‘dariladi, ikkinchi tog‘ ustidan bosishni boshlaydi... keyin uchinchisi... tergovchining hayoti shunaqa o‘tadi. Haliyam tergovchi bo‘lish orzusidan kechma-dingizmi?

– Yo‘g‘-e, qaytanga bu qiyinchiliklarni ko‘rib, qat’iyatim oshganday bo‘ldi. Xudo xohlasa, sizga o‘xshab mohir tergovchi bo‘laman!

– Bu yaxshi! – SanjARBek yigitning yelkasiga qoqib qo‘ydi. – Siz ko‘rgan qiyinchiliklar ish bo‘yicha – chidasaga bo‘ladi. Biroq shunday subyektiv faktorlar borki, to‘g‘ri ishлаshingga yo‘l bermaydi, qalbingni qirq joyidan egovlab, kasb-koringdan bezitib yuboradi...

– Tushunmadim... qanaqa subyektiv faktorlar? – Jo‘-raboy anqaydi.

– Mayli, hozircha bilmay turganingiz yaxshi... Vaqt-i kelib boshingizga tushsa, ko‘raverasiz... Balki ungacha yaxshi zamonlar keilar... hammasi joyiga tushib ketar...

Shu payt tergovchining telefoni jiringladi.

– Assalomu alaykum, Ramazonjon, yaxshimisiz?

– Assalomu alaykum! – narigi tarafdan hamkasbining tashvishli ovozi eshitildi, – Sanjar aka, boshqa raqamdan chiqayapiman. Boya bir necha marta qo‘ng‘iroq qilgandim, ko‘tarmadingiz... Bugun Faxriddin akaning sudi tugagandi...

– Xukm o‘qildimi? – SanjARBekning ovozi titrab ketdi.

– Ha, o‘n bir yil berishdi...

– O‘n bir yil! Sudya juda insofli, adolatpesha yigit, sud protsessini ham risoladagiday olib borayapti, degandingiz-ku! Nima bo‘ldi?

– Sudya bechora adolatni tiklashga rosa harakat qildi... Sudda hammasini ochib tashladi... Oqlovga tayyor qilib qo‘ygandi...

– Nima, biror kutilmagan vaziyat...

– Kecha «qo‘shnilar» chaqirishib, o‘n bir yil berasan, deb turib olibdi. Ish juda «shatkiy», aybi isbotlanmagan, desa, so‘kib berishibdi. «Nima, pora oldingmi?» deb humumga o‘tishibdi. «Agar hukm o‘qimaydigan bo‘lsang, seni almashtiramiz, boshqa qozi ko‘radi, lekin sen ham uning yoniga borasan», debdi. Hech bo‘lmasa o‘n yil be-

raylik, desayam ko'nishmabdi. Sud tugagandan so'ng, qozi Faxriddin akaning ayolini xonasiga chaqirib, kechirim so'rabdi. «Men hukmni o'qib berdim xolos, sudya bo'lganimga ham afsuslandim, hammasiga ming la'nat», debdi. «Lekin ishni oqlovga tayyor qilib qo'ydim... Xudo xohlasa, yaxshi zamonlar kelsa... bemalol oqlanib ketadi» deganmish taassuf bilan... Endi nima qilamiz? Apellatsiya... kassatsiya...

Ramazonning keyingi gaplari Sanjarbekning qulog'iga kirmadi... Qachon kelarkan o'sha omon-omon zamonlar? Kelarmikan? Ungacha ustozning holi nima kechadi... O'n bir yil-a! Bu bir yigit umri emasmi? Aytishga oson, og'izning bir burchagidan chiqib ketadi... Lekin bandilikda bir yil, bir oy, bir kunning o'tishini ayting! Odam o'ldirganga ham ba'zida bunaqa jazo berishmaydi-ku! Qanaqa kunlarga qoldig-a! Bu adolatsizlik, bu zulmga qarshi kurashmoqqa ustozning sabr-u bardoshi yetarmikan? Hozir qay ahvolda ekan! Ey Xudo, halollikning, odillikning mukofoti shumi? Agar buni Allohning bir imtihoni desak, sinov ham shunchalik qattiq bo'ladimi? Tavba qildim, tavba qildim! Rahmdil Alloh bu olivjanob inson, go'zal xulq egasini o'n bir yil xor-zorlikka tashlab qo'ymas. Inshoaloh, omon-omon zamonlar yaqindir...

Yigitlar mehmonxonaga yaqinlashganda Sanjarbekning xayollarini tasdiqlaganday olamga zarrin nurlarini taratib, tog' ortidan bobo quyosh ko'tarila boshladi...

2020-yil mart-may

*Adabiy-badiiy nashr*

*Komil Sindarov*

## O'G'IRLANGAN BOLALIK

*Detektiv qissa*

Muharrir	<i>S. Salohutdinova</i>
Rassom-dizayner	<i>B. Zufarov</i>
Texnik muharrirlar	<i>L. Xijova</i>
Kichik muharrir	<i>M. Salimova</i>
Musahih	<i>M. Mirsoatova</i>
Kompyuterda sahifaloychi	<i>F. Botirova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 18-mayda ruxsat etildi. Bichimi 84×108'/<sub>32'</sub>.  
Offset qog'ozsi. «Times New Roman» garniturasida offset usulida bosildi

Shartli bosma tabog'i 15,54. Nashr tabog'i 15,28.

Adadi 10 000, nusxa. Buyurtma № 21-128.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)



# KOMIL SÎNDAROV

— Aslida siz emas, men ariza yozib ketishim kerak. Shuncha yil ishladim, nafaqaga chiqib ketsak ham birov uyat qilmaydi. Sizning yo‘rig‘ingiz boshqa, hali yoshsiz, ko‘p ishлаshingiz kerak... Vaziyat hamisha shunday bo‘lib qolmas. Bu kunlar ham o‘tib ketar. Bularga ham boqqan balo bordir! Salgina qiyinchilikdan qo‘rqib, sevgan kasbing, orzu-umidingdan voz kechish mard yigitning ishi emas. Bu gapni boshqa og‘zingizga olmang, uyat bo‘ladi... Qolaversa, Faxriddingga yordam qo‘lini cho‘zish uchun ham mansabda turishga majburmiz... Bilaman, Bahrom Sadirovich sizni tinch qo‘ymaydi. Har qadamda ortingizdan pichoq sanchishi mumkin... Shularni o‘ylab, sizning xizmat safarida bo‘lib turishingizni ma’qul topdim. Sal ko‘zdan nari bo‘lib turasiz...